O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNVERSITETI
“UMUMTEXNIKA FANLARI VA TEXNOLOGIYA” KAFEDRASI

Ro‘yxatga olindi:
№ БД 5111000-3.05.
«___»_____2018-yil

«Tasdiqlayman»
TerDU o‘quv ishlari prorektori:
_____ O’.Axmedov
«___»_____ 2018- yil

M.X.Shomirzaev

KASBIY TA’LIM METODIKASI
FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 100000 - Ta'lim.
Ta'lim sohasi: 110000 - Pedagogika
Bakalavriat yo`nalishi: 5111000 – Kasb ta’limi: (5410500-Qishloq xo’jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi)

Umumiy o’quv soati: -128 soat
Shu jumladan:
Ma'ruza mashgulot: - 38 soat
Amaliy mashgulot: - 36 soat
Seminar mashgulot: - 12 soat
Mustaqil ta’lim soati : - 42 soat

Termiz – 2018

Fanning o’quv – uslubiy majmuasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi 2015 yil “27” 08 dagi БД 5111000-3.05. 4-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Kasbiy ta`lim metodikasi» fani dasturi asosida ishlab chiqilgan.

M.X.Shomirzaev, Kasbiy ta’lim metodikasi.O’quv-uslubiy majmua-
Termiz, TerDU, 2018 y.,316 b.

Taqrizchilar:

TerDU, " Umumtexnika fanlari va texnologiya " kafedrasi mudiri,
dotsent S.X.Xolyarov,

TerDUDF, “Umumtexnika fanlari va texnologiya” kafedrasi dotsenti.,
t.f.n. U.Ch.Eshqorayev,

TerDU, " Umumiy pedagogika" kafedrasi mudiri,
dotsent M. Bozarova

Ushbu o’quv-uslubiy majmua kafedraning 2018-yil _____ “__” – sonli majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Mazkur o’quv-uslubiy majmua «Kasbiy ta`lim metodikasi» fanidan tayorlangan bo‘lib, ushbu nomdagi o‘quv fani dasturi asosida yozilgan. O’quv-uslubiy majmuada «Kasbiy ta`lim» yo’nalishi ta`lim sohalari bo’yicha ta`lim olayotgan bakalavrlarda kasb-hunar kollejlari o’quvchilarining ta`limi va tarbiyasi jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yecha olishida hamda ularning umumtexnika, maxsus va ishlab chiqarish ta`limi darslarini olib borishiga yordam beradigan metodik bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish masalalari yoritib berilgan.

O’quv-uslubiy majmua “5111000 – Kasb ta’limi: (5410500-Qishloq xo’jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi)” yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan.

Ushbu o’quv-uslubiy majmua TerDU ilmiy Kengash tomonidan ko’rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan. “___” _____ 2018-yil №-“__” bayonnoma.

© “ TerDU “ O’quv-uslubiy majmua, 2018 y.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
“UMUMTEXNIKA FANLARI VA TEXNOLOGIYA” KAFEDRASI

«KASBIY TA’LIM METODIKASI»
fani bo’yicha
MUNDARIJA

Termiz- 2018

Mundarija

№	Bo`limlar	Betlar
1.	Kirish …….**.....**	5
2.	Ma'ruzalar mavzusi ……..	7
3.	Kasbiy ta`lim metodikasi fanining metodologik asoslari…….	7
4.	Kasb-hunar ta`limining o'quv me`yoriy hujjatlari……...	12
5.	Kasbiy ta`lim tamoyillari……	22
6.	Kasb-hunar kollejlari o`quv xonalari, labaratoriyalari hamda o`quv ustaxonalariga qo`yiladigan talablar va ularni jihozlash……	27
7.	Kasb -hunar ta`limining tashkiliy shakllari……..	34
8.	Kasbiy ta`lim metodlari……	37
9.	Nazariy ta`lim va uni loyihalash……..	43
10.	Kasbiy fanlarni o'qitishda o'quv materiallarini bayon etish metodlari	46
11.	Kasbiy fanlarni o'qitishda o'quv materiallarini bayon etish metodlari	50
12.	Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar tizimi……...	64
13.	O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash……	70
14.	Nazariy ta`lim tahlili ……	91
15.	Kasb-hunar kollejlarida kasb ta`limi o'qituvchisi va o'quv ustasi. Kasbiy fanlar o'qituvchisining uslubiy ishlari…….**.....**	96
16.	Kasb-hunar ta`limida ishlab-chiqarish amaliyoti …….**.....**	101
17.	Kasb-hunar ta`limida ishlab-chiqarish amaliyoti ……	105
18.	Ishlab chiqarish ta`limini tashkil etish va uni o'tkazish…….**.....**	110
19.	Kasbiy fanlardan kurs va diplom ishlari……**...**	118
20.	Amaliy mashg`ulotlar mazmuni ……..	124
21.	Seminar mashg`ulotlar mazmuni……..	164
22.	Mustaqil ta'lim mashgulotlari……..	181
23.	Glossariy……...	189
24.	Ilovalar……..	204
25.	Fan dasturi……	205
26.	Ishchi fan dasturi……..	215
27.	Tarqatma materiallar……	238
28.	Fan bo`yicha nazorat savollari (Oraliq nazorati, joriy nazorati savollari, yozma ish varintlari va testlar)…….**.**	278
29.	Ishchi fan dasturiga muofiq baholash mezonlari…….	309
30.	Fanni o'ziga xosligiga qarab o'rganish bo'yicha materiallar……..	314

Kirish

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siysatda mamlakat hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishga, ayniqsa kelajak avlodni milliy mustaqillik mafkura ruxida tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda ta'lim olayotgan yoshlar Respublikamizning kelajagidir. Ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tayyorlash ta'lim-tarbiya muasasalarining asosiy vazifalaridir. Ular uchun yo`qsak malakali o`qitiuvchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish esa kadrlar tayyorlash sohasidagi ustivor vazifalardan sanaladi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o`zining «Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati» nomli risolisida shunday deb ta'kidlagan edilar: «Tarbiyachi-ustoz bo`lish uchun boshqalarning aql idrokini o`stirish ma'rifat ziyosidan baxramand qilish, xaqiqiy vatanparvar, xaqiqiy fuqaro etib etishtirish uchun, eng avvalo tarbiyachining o`zi ana shunday yo`qsak talablarga javob berishi, ana shunday fazilatlarga ega bo`lishini taqozo etadi». Shuning uchun ham o`qituvchi oldiga qo`yiladigan vazifalar o`ta murakkab, ma'suliyatli va ayni paytda sharaflidir. Rivojlangan davlatlar qatoridan o`rin olishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan. O`zbekistonimizda xalq xo`jaligining barcha tarmoqlari kabi ta'lim sohasida ham ilg`or texnologiyalarni joriy etishga va shu orqali ta'lim mazmunini jaxon andozalari darajasiga olib chiqish barasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Biz nazariy va amaliy mashg`ulotlarni tashkil etish va o`tkazishda **o`quvchi shaxsiga yo`naltirilgan ta'lim amalga oshiriladigan ayrim yangi pedagogik texnologiyalardan foydalandik. Ularning mazmuni quyidagicha:**

Sho`ng`ish darsi — ma'lum bilimlarni egallash uchun eng qulay muhitda bo`lish yoki shunday muhit yaratish orqali mavzuni faol o`rganish mashqlaridan iborat.

Musobaqa darsi — o`quvchilarning o`zaro musobaqalashuvini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqlari.

Ijod darsi — o`quvchilarning mustaqil ijod etishlarini tashkil qilish darsi.

Sinov darsi — o`quvchilarning o`zlashtirishini turli shakllarda sinash tashkil qilinadigan dars.

Shubqa bildirish darsi — dars mavzusi bo`yicha qoidalar, xulosalarni agar noto`g`ri deb hisoblansa, nimalar bo`lishi mumkinligi haqida qiziqarli bahs va tahlillar o`tkazish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Ijodiy xisobotlar darsi — o`quvchilarning ayrim mavzular bo`yicha mustaqil o`rgangan bilimlari va xulosalari taqdimoti.

Umumlashtirish darsi — ilgari o`tilgan mavzular bo`yicha olingan bilimlarni umumlashtirish mashqlarini o`tkazish darsi.

Ilmiy-fantastika darsi — o`quvchilarning o`rgangan bilimlari asosida ijodiy hayol, taxminlar o`ylab topishlari mashqini o`tkazish orqali mustaqil fikrlashlarini kengaytirish darsi.

Haqiqatni izlash darsi — dars mavzusiga doir ayrim masalalar yuzasidan o`quvchilarning mustaqil fikrlar bildirishini tashkil etish orqali haqiqatni aniqlash va mavzuni o`zlashtirishlarini ta'minlash darsi.

«Paradokslar» darsi — o`quvchilarning faolliklari va qiziqishlarini oshirish maqsadida o`rganilayotgan mavzuni har turli «paradokslarga» bog`lab bayon qilish hamda tegishli tahlillar o`tkazish asosida to`g`ri xulosalarni aniqlash darsi.

Seminar darsi — yangi dars mavzusiga doir savollar bo`yicha o`quvchilarga oldindan berilgan topshiriqlarni bajarish natijalari to`g`risida ma'lumotlarni tinglash orqali sinfdagi barcha o`quvchilar darsni o`zlashtirishlarini va bilimlarini mustahkamlashni ta'minlash darsi.

Ekskursiya darsi — o`quvchilarni turli ob'ektlar: muzey, ziyoratgox, korxona, ustaxona, tabiat, ilmiy muassasa, kollej, litsey va boshqalar bilan tanishtirish orqali ularning bilimlarini hayot bilan bog`lash va kasbga yo`naltirish ishlarini amalga oshirib borish ta'minlanadi.

Biz o`quv metodik majmuamizni quyidagi pedagogik texnologiya mezonlari asosida tayyorladik:

a). Shaxsiy faoliyatli yondashuv.

b). Tanqidiy-ijodiy fikrlash.

v). Muammolarni hal etish.

g). Qaror qabul qilish.

d). Jamoada hamkorlikni qaror toptirish

Mazkur o`quv-metodik majmuasi (UMM) - “5111000-Kasb ta'limi: qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va ularni qayta ishlash texnologiyasi” yo‘nalishida ta’lim olayotgan 4-kurs talabalariga «Kasbiy ta`lim metodikasi» fanini o`qitish uchun DTS talablari asosida tuzilgan. Tavsiya etilayotgan o`quv-metodik majmuaning maqsadi kasb-hunar kollejlarining bo`lajak kasb ta'limi o`qituvchilari va ishlab chiqarish ta'limi ustalarini tayorlashdir.O`quv-metodik majmuada fanning maqsad va vazifalari, talaba egallashi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalar aniq yoritib berilgan. Shuningdek, o`quv-metodik majmuada fan bo`yicha ma'ruzalar, amaliy,seminar va mustaqil ish mashg`ulotlari mavzulariga oid rejalar,glossariy, tayanch so`z va iboralar, fan bo`yicha nazorat savollari (yozma, og`zaki va test), reyting ishlanmasi va baholash mezonlari, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati, axborotlar saytlari va qo`shimcha ma'lumotlar keng yoritib berilgan.

Ma'ruzalar mavzusi

1-mavzu: Kasbiy ta`lim metodikasi fanining metodologik asoslari

O'quv moduli birliklari

1. Kasbiy ta`lim metodikasi fanining maqsad va vazifalari.
2. Kasbiy ta`limining asosiy tushunchalari
3. Kasbiy ta`lim metodikasi fanining metodologik asoslari.
4. Kasbiy ta`lim metodikasi fanining tadqiqot metodlari.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba mavzuni o'zlashtirgandan so'ng:

- *fanning maqsadi va vazifalarini biladi;*
- *kasbiy metodik ta`lim berishning asosiy muammolarini o'rganadi;*
- *kasbiy ta`limining asosiy tushunchalarini ta`riflay oladi.*
- *Kasbiy ta`lim metodikasi fanining tadqiqot metodlarini ta`riflay oladi.*

Mavzuni o'qitishda suhbat, klaster metodlaridan foydalaniladi.

Tayanch so'z va iboralar

Fanning maqsadi, fanning vazifalari, ta`lim, kasbiy pedagogika, didaktika, metodika, o'qitish metodikasi, bilim, ko'nikma, malaka, kasb, tadqiqot metodlari, nazariy kuzatish,suxbat, pedogogik so'rash, statistik taxlil qilish.

**Kasbiy ta`lim metodikasi fanini o'rganishdan maqsad**-5111000-«Kasbiy ta`lim» yo'nalishi ta`lim sohalari bo'yicha ta`lim olayotgan bakalavrlarda kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining ta`limi va tarbiyasi jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yecha olishida hamda ularning umumtexnika, maxsus va ishlab chiqarish ta`limi darslarini olib borishiga yordam beradigan metodik bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Fanning vazifalari:

- talabalarda kasbiy ta`lim metodikasining terminalogik tushunish apparatini shakllantirish;
- ta`limni tashkil qilish shakllari, maqsadi va vazifalarini loyihalash bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- ta`lim jarayonining tashkil etilganligini taxlil qilish va uni samarali baholay bilish;
- kasbiy ta`lim yunalishi bitiruvchilarining metodik ishlari tizimi bo'yicha tushunchalarni hosil qilish jarayonida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va uni boshqarishni loyihalay olish bo'yicha malakalarni shakllantirishdan iborat.

Kasb-hunar ta`limi-talabalarning kasb hunarga moyilligini layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradi.

Bilimlar deganda, o'quvchilarning turmushdagi narsa va hodisalar to'g'risidagi, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlari haqidagi tasavvur hamda tushunchalari tushuniladi. Bular ma`lum maqsadga qaratilgan pedagogik jarayon, mustaqil bilim olish va hayotiy tajriba natijasida hosil bo'ladi.

Ko'nikma - o'quvchining mehnat harakatini (yoki mehnat harakatlari majmuini) ayni sharoitda ma`qul harakat usullarini tanlab va qo'llab bajarishga va buning oqibatida mehnatda ijobiy natijalarga erishishga tayyor ekanligi.

Malaka — o'quvchining harakat komponentlarini maksimal aniqlik, tezlik va maqsadga muvofilikda avtomatlashtirilgan usulda bajarishga qobilligi. Bu qobiliyat o'quvchining mashqlar o'tkazishi natijasida hosil bo'ladi.

Kasb-hunar kollejlarida o'qitish jarayoni nisbatan mustaqil ikki qismni: nazariy ta`lim va ishlab chiqarish ta`limini o'z ichiga oladi.

Nazariy ta`lim, avvalo, o'quvchilarni kasbni ongli ravishda, puxta, chuqur egallash va ishlab chiqarish malakasini yanada oshirish uchun zarur o'ajmdagi bilimlar tizimi bilan qurollantirishi lozim.

*Ishlab chiqarish ta`limidan* ko'zda tutilgan maqsad o'quvchilarni muayyan mehnat jarayonlarini bevosita bajarishga tayyorlash, ya`ni olgan bilimlarini amalda tatbiq etishga o'rgatishdan, kas iy uquv va malakalar hosil qilishdan iborat.

Nazariy ta`lim bilan ishlab chiqarish ta`limi vazifalarining bunday bo'linishi ma`lum darajada shartli xarakterdadir, chunki ular o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, bir-biriga ta`sir etadi.

**Ta`lim-** bilim berish malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni kishini xayotga, mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta`lim jarayonida bilim o'zlashtiriladi va tarbiya amalga oshiriladi.

Kasbiy pedagogika- umumiy pedagogikaning bir sohasi bo'lib, u tarbiya, ta`lim, o'qitish haqida kator nazariy va amaliy ma`lumotlar beradi. Kasbiy pedagogika sanoat, ishlab chiqarish va mehnat pedagogikasining masalalari bilan shug'ullanadi.

Didaktika-grekcha «didaskiuen» so'zidan olingan bo'lib, o'qitaman, o'qishni o'rgataman ma`nolarini anglatadi. Didaktika o'qitish jarayonini shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maqsadlarini ishlab chiqadi.

Metod-iborasi (yunoncha-metodos-tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya ta`limot ma`nosini anglatib) voqeylikni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish usullari majmuasidir. Metod-pedagogik jarayon elementi sifatida mazmun, maqsadlarga maksimal mos kelishi kerak, ana shunda-tarbiya, ta`lim rivojlanish amalga oshadi.

Metodika-pedagogikaning o'qitish qonuniyatlari, qoidalari, tashkil etish shakllari, amalga oshirishi va natijalarini nazorat qilib, baholash metod hamda vositalari o'zida mujassamlashtiruvchi fan tarmog'idir.

O'qitish metodikasi- bu turli usullar tizimi bo'lib, o'quv-didaktik materiallaridan foydalanish orqali belgilangan maqsadga erishish uchun nazariy va amaliy mashg'ulotlar paytida qo'llaniladigan usullar majmuasidir.

Mahorat –o'zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy ish xarakatlarni (shu jumladan, dars berishni) kam kuch va kam vaqt sarflab bajarishdir.

Kasb-muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyati turidir. Kasb –hunar sirlarini egallashga umumiy hamda maxsus ma`lumot, amaliy ish-xarakat usullarini o'zlashtirish orqali erishiladi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti va kasb-hunar ta`limi. Mamlakatimiz oldida turgan xilma-xil iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarning muvaffaqiyatli hal qilinishi mehnat unumdorligini jadal sur`atlar bilan o'stirishga, butun ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini keskin ravishda oshirish va ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtirishga 6og'liq.

Bu sharoitlarda iqtisodiy yuksalishning so’zsiz sharti qo’l mehnati ulushini keskin qisqartirish, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishdan iborat.

Ishlab chiqarishni takomillashtirishning to’xtovsiz amalga oshayotgan jarayonlari, yangi texnika va ilg’or texnologiyaning joriy qilinishi ishchilar mehnati xarakteri hamda mazmunidagi o’zgarishlarni ko’p jihatdan belgilab beradi, ularning madaniy-texnikaviy saviyalarini yanada o’stirishga nisbatan qo’yiladigan talablarni oshiradi.

Hozirgi zamon ishlab chiqarishi ishchi oldiga qo’yadigan kasbiy malaka talablari ancha tez o’smoqda. Hozirgi vaqtda ishchi ishlab chiqarish operatsiyalarini bajara bilishining, chuqur kasbiy malakaga ega bo’lishining qzi yetarli emas, u ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasini mukammal bilishi, bir qancha ilmiy fanlarning asoslari to’grisida tasanvurga ega bo’lishi, mehnatning ilg’or metodlarini hamisha egallab borishi ham zarur.

Hozirgi vaqtda biror detalning qanday qilib tayyorlanishini bilish kifoya emas. Ishchi detalning nima uchun bunday ishlanishini, belgilangan texnikaviy shartlardan chetga chiqish nimalarga olib kelishini tushunishi kerak. Agar ilgari ishchi tayyorlash unda biror ishlab chiqarish operatsiyalarini bajarish uchun muayyan malakalar hosil qilishdan iborat bo’lgan bo’lsa, endilikda bu vazifa maxsus texnika va umumta`lim fanlari o’qitishni, muhandislik-texnik tayyorgarlikni ham o’z ichiga oladi.

Masalan, yangi ilg’or payvandlash usullari (qalin metallarni elektr-shlak usulida payvandlash, flyus ostida avtomatik payvandlash, ikki yoy yordamida payvandlash, metallni plazma bilan qirqish usullari) keng ko’lamda joriy etilishi munosabati bilan malakali elektr payvandchi takrorlanmaydigan ko’pdan-ko’p operatsiyalarni o’z ichiga oluvchi murakkab texnika va texnologiyani bilishi kerak. U elektrotexnika, fizika, ximiya, metallurgiya asoslarini elektr payvandlash qurilmalari, avtomat va mashinalarning tuzilishini, ularni sozlash hamda rostlashni; elektrik va kinematik sxemalarni; elektr-o’lchash asboblarining tuzilishi va ishlash printsipini; payvandlash rejimini rostlash texnologiyasi hamda usullarini; payvand choklarni nazorat qilish usullarini, payvandlash rejimlarini; payvandlangan buyumlarda ichki kuchlanishlar va deformatsiyalar paydo bo’lish sabablari hamda ularning oldini olish choralarini, shuningdek, ko’pgina boshqa narsalarni bilishi shart.

Mexanika-yig’uv ishlab chiqarishida mehnat unumdorligini va chiqariladigan mahsulot sifatini oshirishga yordam beradigan yangi ilg’or texnologik jarayonlar joriy qilindi. Bu ishlab chiqarish ishchilari uchun elektrotexnika, texnikaviy mexanika, gidravlika va. pnevmatika, teplotexnika, matematika, mashinasozlik chizmachiligi, metallar va metallmas materiallar texnologiyasi, ishlab chiqarishning tashkil etilishi hamda ekonomikasi sohasidagi bilimlarni bilish majburiy bo’lib qolmoqda.

Masalan, murakkab uzel yoki mashina yig’ish brigadasiga rahbarlik qiluvchi va murakkab chizma hamda sxemalar, aniq nazorat-o’lchash asboblari bilan ish ko’ruvchi hozirgi zamon yuqori malakali ishchining mehnati asosan aqliy mehnatdir.

Shunday qilib, ishchi tayyorlashda kasbiy mohirlik bilan bir qatorda fanlar asosini bilish, texnikani, texnologiyani rivojlantirishning va ishlab chiqarishni tashkil etishning ilmiy printsiplarini tushunish katta ahamiyatga ega. Bu narsa ishlab chiqarish zarurati bo'lib qolmoqda. Ilmiy-texnika taraqqiyoti ishchilarning tor ixtisoslashuvini yengishga yordam beradi va keng ixtisosli ishchi tayyorlashni birinchi o'ringa o'tishi, ishchilarni o'z bilimlari darajasini doimo oshirib borishga, malakasini oshirishga undaydi. Inson biror kasbni egallab, o'zini «bilag'on» va kishga muhtoj emasman, deb hisoblaydigan vaqtlar o'tib ketdi.

Malakali ishchilar tayyorlash mazmuni**.** Kasb-hunar ta`limi tizimi mamlakatimiz xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun har tomonlama kamolga yetgan, texnikaviy ma`lumotli, g'oyaviy turg'un, o'z kasbini puxta egallagan, yangi texnikani o'zlashtira va takomillashtira oladigan, ishchilarning va mehnat an`analarini boyita biladigan yosh ishchilar tayyorlashi lozim.

Ta`lim berish jarayonida o'quvchilarda bilim, uquv hamda malakalarning muayyan tizimi hosil bo'ladi, ularning aqliy hamda jismoniy qobiliyatlari rivojlanadi, e`tiqodlar hosil bladi.

Kasb-hunar ta`limi tizimi butun xalk ta`limi tizimining uzviy qismidir. Shu sababli, maktabda beriladigan ta`lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan asosiy umumiy talablar kasb-hunar kollejlariga ham butunlay va to'la taalluqlidir. Ammo kasb-hunar ta`limi tizimining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, malakali ishchilar tayyorlash mazmunini belgilashda buni hisobga olish zarur.

*Ta`lim berish mazmuni* deganda, shunday bilim, uquv va malakalar majmui tushuniladiki, bularni egallash muayyan kasb va malakaga ega bo'lgan ishchi tayyorlashni hamda uni faol va ongli qilib tarbiyalashni ta`minlaydi.

Kasb-hunar kollejlarida malakali ishchilar tayyorlash mazmuni quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak.

Tayyorgarlikning keng profilda bo'lishi**.** **H**ozirgi zamon ishlab chiqarishi texnika hamda texnologiya sohasida tez va muttasil sodir bo'layotgan chuqur sifat o'zgarishlari bilan xarakterlanadi. Shu sababli hozirgi zamon ishchisi tayyorlash mazmunining o'ziga xos xususiyatlaridan biri unda o'zgarib turadigan ishlab chiqarish sharoitlariga tez kirishib ketishga imkon beruvchi fazilatlar hosil qilishdan iborat. Bunga tayyorgarlik profilini kengaytirish yo'li bilan erishiladi.

Tayyorlashning keng profili to'g'risida gap borar ekan, "keng ixtisosli ishchi" va "keng ixtisosli kasb" tushunchalarini bir-biridan farq qilish kerak. Keng ixtisosli ishchi uchun muayyan professional talablar chegarasida xilma-xil ishlar bajarish xosdir. Bunday ishchidan kasb usullarini puxta egallab olishgina emas, balki umumtexnikaviy va maxsus bilimlarni chuqur, har tomonlama bilish ham talab etiladi. Keng ixtisosli kasb xarakter jihatidan yondosh ish turlarini o'zida mujassam qiladiki, ularni ishlab chiqarish sharoitida tor ixtisosli ishchilargina bajara oladi. Ishchining keng ixtisosli kasbni egallashi unga ish vaqtidan yaxshiroq foydalanishga, asbob-uskunaning bekor turib qolishiga barham berishga, mehnat unumdorligini oshirishga imkon beradi. Masalan, umummontaj ishlari va umumiy ishlarga mo'ljallangan asbob-uskunalar slesar -montajchisi, traktorchi-mashinist, kimyoviy ishlab chiqarishlar apparatchisi, mexanika-yig'uv ishlari chilangari,

chilangar-tamirchi, elektr asbob-uskunalarga xizmat ko’rsatuvchi va ularni tamirlovchi elektromontyor va shu kabilar keng ixtisosli kasblarga kiradi.

Keng ixtisosli kasblar bir necha tor ixtisosliklarni shunchaki birlashtirish yo’li bilan hosil qilinmaydi. Bu kasblar ishlab chiqarishning ob`ektiv talablari asosida ilmiy-texnika taraqqiyotining natijasi sifatida paydo bo’ladi.

Shunday qilib, tayyorlov profili ko’lamini sifat jihatidan ham, miqdor jihatidan ham olib qarash kerak. Uning sifat jihati ishlarning murakkabligi bilan xarakterlanadi, miqdor jihati esa ma`lum malakali ishchi bajaradigan ishlarnint xilma-xilligi bilan ifodalanadi.

Mavzu bo’yicha talabalar bilimini sinash uchun namunaviy test savollari.

1. O’zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta`limi tizimiga qaysi yildan o’tilgan?

A) 1998 yil 24 fevral;
V) 1997 yil 10 mart;
S) 1996 yil 21 iyun;
D) 1995 yil 3 dekab.r

2. Nazariy bilimdan ko’zda tutilgan asosiy maqsad:

A) o’quvchilarni zarur hajmdagi nazariy bilimlar bilan qurollantirish;
V) o’quvchilarni o’z kasbiga sadoqatini oshirish;
S) kasbiy uquvlarni hosil qilish;
D) kasbiy malakalarni hosil qilish.

3. Kasb-hunar kollejlarini bitiruvchilarga qanday malakaviy daraja beriladi?

A) to’liqsiz ma`lumotli ishchilar;
V) o’rta ma`lumotli ishchilar;
S) o’rta-maxsus ma`lumotli kichik mutaxassislar;
D) yuqoridagilarning barchasi to’g’ri.

4. Ishlab chiqarish ta`limidan ko’zda tutilgan asosiy maqsad:

A) o’quvchilarni zarur hajmdagi nazariy bilimlar bilan qurollantirish;
V) o’quvchilarni o’z kasbiga sadoqatini oshirish;
S) kasbiy uquvlarni hosil qilish;
D) kasbiy malakalarni hosil qilish.

5. Kasb-hunar ta`limi tizimini bitirgan kichik mutaxassislarga qanday talablar qo’yiladi?

A) texnikaviy, ma`lumotli va o’z kasbini puxta egallagan;
V) har tomonlama kamolga yetgan va g’oyaviy turg’un;
S) yangi texnikani o’zlashtira va takomillashtira oladigan;
D) yuqoridagilarning barchasi to’g’ri.

6. O’quvchining mehnat komponentlarini maksimal aniqlik, tezlik va maqsadga muvofiqlikda avtomatlashtirilgan usulda bajarishga qobilligi, bu:

A) bilimlar;
V) uquv;
S) kasb;
D) malaka.

7. Hodisalar to’g’risidagi, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlari haqidagi tasavvur hamda tushunchalari, bu:

A) uquv;

V) bilimlar;

S) malaka;

D) kasb.

8. Tegishli kasb va malaka darajasidagi ishchi bilishi kerak bo’lgan kasbiy uquv va malakalar, ixtisosiga tegishli ishlarni ongli ravishda hamda sifatli qilib bajarishi uchun zarur bo’lgan bilimlar ko’rsatiladigan ma`lumot, bu:

A) kasb tavsifnomasi;

V) malakaviy daraja;

S) namunaviy o’quv reja;

D) ishchi o’quv reja.

9. O’quvchining mehnat harakatini ayni sharoitda ma`qul harakat usullarini tanlab va qo’llab bajarishga va buning oqibatida mehnatda ijobiy natijalarga erishishga tayyor ekanligi, bu:

A) malaka;

V) kasb;

S) uquv;

D) bilimlar.

10. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to’g’risida”gi qonun kachon kabul kilingan.

A) 1992 yil 2-iyul;

V) 1994 yil 5-noyabr;

S) 1997 yil 29-avgust;

D) 1999 yil 5-may.

2-mavzu: Kasb-hunar ta`limining o’quv me`yoriy hujjatlari

O’quv moduli birliklari

1. *O’rta maxsus kasb-xunar ta`limi mazmuni*
2. *Davlat ta`lim standartlari*
3. *Malaka tavsifnomasi.*
4. *O’quv rejasi va uning tuzilishi.*
5. *O’quv dasturlari va uning tuzilishi.*

Aniqlashtirilgan o’quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba mavzuni o’zlashtirgandan so’ng:

- *O’rta maxsus kasb-xunar ta`limi mazmunini biladi;*
- *malaka tavsifnomasini ta`riflay oladi;*
- *o’quv rejasi va uning tuzilishini tushunadi;*
- *o’quv dasturlari va uning tuzilishini tushunadi;*

Mavzuni o’qitishda aqliy hujum, suhbat, klaster metodlaridan foydalaniladi.

Tayanch so'z va iboralar

Davlat ta`lim standarti, Malaka tavsifnomasi, namunaviy o'quv reja, ishchi o'quv reja, o'quv dasturi, ishchi o'quv dasturi.

O'quv rejalari va dasturlari xalq xo'jaligi ishchilarning kasbiy tayyorgarligiga nisbatan qo'yadigan asosiy talablarni aks ettiruvchi kasb tavsifnomalar asosida ishlab chiqiladi.

Kasb tavsifnomasida tegishli kasb va malaka darajasidagi ishchi bilishi kerak bo'lgan kasbiy uquv hamda malakalar, ixtisosiga tegishli ishlarni ongli ravishda va sifatli qilib bajarishi uchun zarur bilimlar ko'rsatiladi.

Kollejlarda kasb tavsifnomalardan davlat attestatsiya hay`atlari bitirish ishlari himoyasi o'tkazishda qo'llanma hujjat sifatida foydalanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat mustakilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yulini tanlashi kadrlar tayyorlash to'zilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur kilib kuydi. «Ta`lim to'g'risida» gi qonunning joriy etilishi yangi O'quv rejalari, dasturlari, darsliklarni xamda zamonaviy didaktik ta`minotni ishlab chikishni va tadbik etishni takozo kildi.

Shu nuqtai nazardan kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta`lim jarayoni, mazmunini islox qilish asosan, me`yoriy xujjatlar majmuasi (davlat ta`lim standarti, O'quv rejalari va dasturlari) asosida, kadrlarga ta`lim va tarbiya berish milliy istiklol goyalariga muvofik amalga oshirilishi aloxida takidlab utilgan.

Kasb-hunar ta`limi yunalishlari tasniflagichi o'rta maxsus va kasb-hunar ta`limi muassasalarida kichik mutaxassislar tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari kasblarining va mutaxassisiliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir.

Davlat ta`lim standartlari (DTS) - umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb - hunar va oliy ta lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. DTSlarni bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta lim muassasalari uchun majburiydir.

Kasb -hunar ta lim tarmoq standarti - yo'nalishlari bo'yicha kichik mutaxassislarni tayyorlashning zarur va yetarli mazmuni hamda pirovard maqsadlarni aniqlaydi, ta lim oluvchilarning O'quv yuklamalari xajmi va standart sifatlari nazoratini belgilab beradi.

Ta lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtiruvchi, asosiy xujjat O'quv rejalari hisoblanadi. O'quv rejasi kasb- hunar ta lim muassasalarida ta lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni, O'quv fanlarini alohida o'rganish sur`atini ta minlovchi xujjatdir.

O'quv rejasi-xar bir yo'nalish uchun alohida tuzilib, vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Unda quyidagilar o'z ifodasini topadi:

1. Tayyorlov yo'nalshi (ixtisoslik) 4 kodi va uning nomlanishi

O'qish muddati

O'qishni tugatgandan so'ng olinadigan akademik darajasi

2. Ta lim shakli
3. O'quv davrining taqsimoti (jadvali)
4. O'quv jarayonining rejasi

6.1.O'rganiladigan O'quv predmetlari

6.2.Xar bir O'quv predmetini o'rganish uchun ajratilgan umumiy vakt miqdori

6.3.O’rganish uchun ajratilgan vaqtni- ma ruza, amaliy ma`shg’ulot, laboratoriya ishlari, seminarlar, kurs loyihalari va mustaqil ta limga qanday miqdorda taqsimlanganligi.
6.4.O’quv predmetini qaysi bosqich, semestrlarda, xaftasiga qancha soatdan o’rganish tartibi.
7. Davlat attestatsiyasi.
8.Tanlov fanlarinig ro’yxati
9. Izoxlar

O’quv rejalari mazmuni va tuzilishiga mos xolda quyidagi omillarga e tiborni qaratmok lozim:
- ta lim va tarbiyaning maqsadi yo’naltirilganligiga;
-mehnat va ishlab chiqarish jarayonining tuzilishiga;
- ta lim - tarbiya jarayonining qonuniyatlariga.

O’quv rejalarini ishlab chiqishda bulgusi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o’rganilayotgan O’quv fanlari miqdoriga va o’rganish davriga aniq mos tushishini e tiborda tutmok lozim. Bulgusi mutaxasislarning bilim va ko’nikmalarining shakllanishini, xar bir fanni bosqichma – bosqich chuqur o’rganishlari, qulay va muximligini ham nazarda tutishi kerak buladi.

O’quv rejalari kollejning vazifalari, o’quvchilar tarkibiy va o’qitish muddatlari to’g’risidagi davlat direktivalari asosida tuziladi. O’quv rejalarida o’quv fanlari ro’yxati keltiriladi, ularni o’rganish tartibi hamda vaqti, o’quv yili tuzilishi, mashg’ulotlar rejimi ko’rsatiladi.

Ko’p yillik tajribani umumlashtirib, kasb hunar kollejlarida malakali ishchilar tayyorlash uchun o’quv rejalari tuzishga oid tavsiyalarni ta`riflash mumkin.

O’quv rejasini ishlab chiqishdagi eng muhim masalalardan biri o’rganilishi lozim bo’lgan fanlarni aniqlashdan iborat. Kasb hunar kollejlarida o’qitish mazmunini aniqlashning aniq ilmiy printsiplari hali ishlab chiqilgan emas, shuning uchun bu masala, odatda, amaliy tajriba asosida hal qilinadi.

O’qitish mazmunini aniqlashda, asosan, kasb-hunar ta`limi tizimi oldida turgan asosiy vazifaga - doimo o’sib borayotgan ishlab chiqarish sharoitida mehnat qilishga qobil malakali ishchilar tayyorlash vazifasiga asoslaniladi. Bu vazifani bajarish uchun o’quvchilar o’z kasblariga xos ishlarni bajarish uquv hamda malakalarini mukammal egallab olishlari (kasb tavsifnoma chegarasida) kerak. O’quvchilarning mehnat faoliyatiga tayyorligi ma`lum maqsadga qaratilgan va rejali ravishda olib boriladigan ishlab chiqarish ta`limi natijasida hosil bo’ladi. Ishlab chiqarish ta`limi esa o’quv rejasiga mustaqil fan tarzida kiritiladi.

O’quv rejalarini ishlab chiqishda ishlab chiqarish ta`limi uchun beriladigan vaqtni, shuningdek, ishlab chiqarish ta`limi bilan nazariy ta`lim orasidagi maqbul nisbatlarni aniqlash katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz va xorijiy adabiyotlarida yozilishicha, yangi texnikadan, ilg’or texnologiyadan foydalanish va ishlab chiqarishni ancha zamonaviy tashkil etish natijasida ishchining faoliyatida aqliy ishlar soni ko’payib, jismoniy mehnat ulushi kamayib bormoqda. Bu hol, ayniqsa, ilmiy-texnika taraqqiyoti natijasida

paydo bo’layotgan yangi kasblar uchun xosdir. Tadqiqotlardan olingan ma`lumotlarga qaraganda, faoliyatning aqliy komponentlari ayrim kasblar uchun 80-90% ni tashkil etadi.

Tabiiyki, buni ishlab chiqarish ta`limi bilan nazariy ta`lim orasidagi nisbatlarni aniqlashga to’la asos qilib olib bo’lmaydi, ammo ishchining mehnatida texnikani kuzatish va uni boshqarish kabi operatsiyalar salmog’ining ortishi malakali ishchilar tayyorlash mazmunida nazariy bilimlar hajmini oshirish zaruratini tug’diradi. Kollejlarning o’quv rejalarida ishlab chiqarish ta`limiga barcha o’quv vaqtining 55-65% qismi ajratiladi. Tajriba va ilmiy tadqiqotlar natijalari bunday nisbat eng ijobiy natijalar berishini ko’rsatdi.

Kasb-hunar kollejlarining o’quv rejalariga umumta`lim fanlari qo’shilishi munosabati bilan nazariy ta`lim va ishlab chiqarish ta`limi orasidagi nisbat o’zgardi: nazariy ta`limga 60% gacha vaqt ajratiladi.

Malakali ishchi mehnat jarayonlarini bajara bilish bilan bir qatorda kasbiy bilimlarning muayyan darajasi bilan ham xarakterlanadi. U ongli va unumli mehnat qilishi uchun kelajakda o’zi ishlaydign yoki ta`mir qiladigan asbob-uskunalarning ishlash printsipi va tuzilishini, bunda ishlatiladigan asbob, moslama, nazorat-o’lchash asboblari va apparatlarni, ishlarni bajarish texnologik jarayonini kasb tavsifnoma talablariga muvofiq ravishda bilishi kerak. O’quvchi bu bilimlarni olish uchun maxsus texnologiyani (asbob-uskunalarni, asboblarni, texnologik jarayonlarni, ba`zan esa materiallarni ham o’z ichiga oladigan sintetik fanni) yoki bir necha maxsus fanlarni o’rganishi zarur.

O’quvchilarning texnikaviy saviyasini kengaytirish, asbob-uskunalarning tuzilishi va ishlashini, texnologik jarayonlar tuzilishining nazariy asoslarini bilib olishlari, shuningdek, o’qitishning ko’p tarmoqli yo’nalishda bo’lishini ta`minlash uchun o’quv rejalariga umumtexnika fanlari kiritilgan bo’lib, ular o’xshash kasblarning muayyan guruhlari uchun o’z mazmuni va hajmi jihatidan umumiy fanlar hisoblanadi.

Maxsus va umumtexnika fanlarini o’rganish uchun o’quv vaqtining 18-20% ulushi ajratiladi. Ilmiy-texnika taraqqiyotining ishchilar tayyorlashga bo’lgan talablari borgan sari o’sib borishi munosabati bilan bu fanlarga ajratiladigan o’quv soatlarini ko’paytirish tendentsiyasi ko’zatilmokda.

O’quv rejalariga maxsus va umutexnika fanlaridan tashqari, mazmuni va hajmi jihatidan barcha kasblar uchun umumiy bo’lgan umumta`lim fanlari va jismoniy tarbiya kiritilgan. Kollej uchun umumta`lim fanlari jumlasiga ijtimoiy fanlar (huquqshunoslik, estetik tarbiya, iqtisodiyot asoslari), boshlang’ich harbiy tayyorgarlik kiradi.

O’rganiladigan fanlarning maqbul sonini aniqlash muhimdir. Kasbiy va umumiy ta`lim tajribasi shundan guvohlik beradiki, bir vaqtda o’rganiladigan fanlar sonining oshirilishi o’qitishni tashkil qilishni va o’qitish jarayonini qiyinlashtiradi.

O’quv rejalari, odatda, tayyorlov mazmuni jihatidan bir-biriga yaqin kasblar guruhlari uchun ishlab chiqiladi. Kasblarni guruhlarga birlashtirishning asosiy mezoni umumtexnikaviy tayyorlov mazmuni, ya`ni umumtexnika fanlaridir.

O’quv rejasiga nazariy ta`lim va ishlab chiqarish ta`limi shunday tarzda kiritiladiki, ular butun o’qitish davrida o’zviy ravishda qo’shib olib boriladigan bo’ladi. Bu esa ularning o’zaro chambarchas bog’lanishi uchun sharoit yaratadi.

O’quv rejaga qo’yiladigan talablardan biri fanlararo bog’lanishlarni ta`minlashdan iborat. Bu bog’lanish ko’p jihatdan fanlarni o’rganish usullari bilan belgilanadi. Fanlarni o’rganish usullari esa, o’z navbatida, o’qitish muddatiga, har qaysi fanni o’rganish uchun ajratilgan vaqtga va ularning o’zaro bog’lanishiga bog’liq.

O’quv rejalarini tuzishda fanlarni o’rganishning quyidagi uch usuli hisobga olinadi:

parallel o’rganish - barcha fanlar bir vaqtda o’rganiladi; bu usul pedagogika jihatidan hamma vaqt ham to’g’ri bo’lavermaydi, chunki fanlararo mazmunli bog’lanishlar o’rgatish imkoniyatini cheklab qo’yadi; asosan, 1 yillik o’quv rejalari tuzishda qo’llaniladi;

ketma-ket o’rganish - o’zaro bog’langan fanlar ketma-ket o’rganiladi; bu usul fanlararo bog’lanishga uchun eng yaxshi sharoit yaratadi; o’qitish muddati o’zoq (3-4 yil) bo’lganda o’quv fanlari soni cheklangan o’quv rejalarida qo’llaniladi;

aralash o’rganish - fanlar o’quv rejasiga ham parallel, ham ketma-ket kiritiladi; bu usul o’qish muddati 2-3 yil bo’lgan o’quv rejalari tuzishda eng ko’p tarqalgan.

Fanlararo bog’lanishlarni ta`minlash uchun umumtexnika va asosiy umumta`lim fanlari, odatda, o’qitishning birinchi bosqichida o’rganiladi, bu davrda ishlab chiqarish ta`limiga va maxsus fanlarni o’rganishga ajratiladigan vaqt bir oz qisqartiriladi.

Shu maqsadda o’quv rejalari tuzishda o’rganiladigan fanlar va ishlab chiqarish ta`limining mavzuma-mavzu bog’lanishiga oid grafiklar ishlab chiqiladi.

O’quv rejalarida ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiyaga, odatda, nazariy ta`limning boshidan oxirigacha haftasiga 2 soat ajratilgan. Bu hol o’quvchilarni g’oyaviy-siyosiy tarbiyalash va jismoniy rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

18 yoshga to’lmagan o’quvchilar uchun haftalik o’quv yuklamasi 36 soat, 18 va undan katta yoshdagilar uchun esa 41 soat bo’lishi zarur. O’quv rejalarida ta`tillarning qancha davom etishi hamda vaqti (qishki ta`til - 2 hafta va yozgi ta`til -6 hafta), yakuniy baholashga kiritiladigan fanlar, ularning o’tkazilish vaqti, konsul tatsiya va yakuniy baholashlar uchun ajratilgan soatlar soni ko’rsatiladi.

Dastur o’quv predmetining mazmuni, uni taxsil oluvchilar tomonidan o’zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibiy, axborot manbalarini o’zida mujassamlashtiruvchi me`yoriy xujjatdir.

O’quv dasturi -shu nomlangan O’quv predmetiga tegishli bo’ladi. O’quv pridmeti -ta`lim muassasasida o’rganish uchun fan, texnika, sanoat, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasida tanlab olingan bilim, ko’nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar tizimidir.

Ta`lim standartlarida belgilab berilganidek, umumiy va maxsus talablar, bilim va ko’nikmalar, O’quv rejalaridagi umum kasbiy va maxsus fanlarda o’zaro

o’zviyligini ta`minlash, fan dasturlarini zamon talablariga mos ravishda oddiydan murakkabga qarab tuzib chiqish, xar bir fan dasturlarining mavzulariga mos ravishda qo’shimcha ko’rgazmali qurollar yaratish o’qituvchilarga murakkab vazifalarni qo’yadi, talabalarning esa nazariy bilimlarini shakllantirib boradi.

Kichik mutaxassislar tayyorlashga qo’yilgan talablarning xujjatli asosini tasvirlaydigan O’quv dasturlarida pedagogik maqsadlarning to’liq va aniq belgilanishini talab qilinadi. To’liqlik deganda mazmunning barcha zaruriy va qo’yilgan maqsadga erishish uchun yetarli elementlari kiritish tushuniladi. Aniqlik deganda esa real O’quv jarayonida berilgan mazmunda joriy qilish yo’lini ko’rsatadigan elementlar va belgilar tasavvur etiladi.

O’quv-dasturiy xujjatlar tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqish o’qitish jarayonini takomillashtirish mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

O’quv dasturlarida o’quvchilar o’quv rejasiga kiritilgan har qaysi fandan nimani va qanday izchillikda o’rganish kerakligi, shuningdek, o’quvchilar bilib olishi lozim bo’lgan bilim, uquv va malakalar hajmi belgilab beriladi. Dasturlar ikki qismdan: mavzular rejasidan va dasturning o’zidan iborat.

O’quv dasturlarining mazmuni kasb tavsifnomalarning talablari asosida aniqlanadi. Dasturlarni ishlab chiqishda didaktik printsiplarga va malakali ishchilar tayyorlash mazmuniga qo’yiladigan talablarga amal qilinadi. Ishlab chiqarish ta`limi dasturlari o’quvchilarni kollejlarining o’quv ustaxonalarida, tajriba xonalarida, o’quv poligonlarida, o’quv xo’jaliklarida, shuningdek, korxona, fermer va boshqa tashkilotlardagi ish o’rinlarida o’qitish mazmunini ochib beradi. O’quvchilarga kollej sharoitida ishlab chiqarish ta`limi berish uchun ajratilgan vaqt bilan korxonalarda ishlab chiqarish ta`limi berish uchun ajratilgan vaqt orasidagi nisbat kasbning o’ziga xos xususiyatiga, shuningdek, kollejda o’quv ustaxonasi, poligon, o’quv tajriba xonasi va shu kabilar tashkil etish imkoniyatlari hamda zaruratiga bog’liq bo’lib, tajriba yo’li bilan aniqlanadi.

Ishlab chiqarish ta`limi dasturlarida o’quvchilarga operatsiyalarni bajarishning qanday yo’llari va usullarini, ishlarning qanday turlarini, qanday funktsiyalarni o’rgatish kerakligi ko’rsatiladi. Ayrim hollarda o’quvchilarning malakalariga nisbatan qo’yiladigan talablar texnikaviy ko’rsatkichlar bilan xarakterlanadi. O’quvchilar bu ko’rsatkichlarga (masalan, buyumlar geometrik shaklining aniqligi, yuzalarning sifati, birikmalarning aniqligi yoki mustahkamligi, ma`lum standart, normativ va ko’rsatkichlrga mosligi, asbob-uskunalarning talab etilgan ish rejimlariga erishish, miqdoriy ko’rsatkichlar va hokazo) o’rganilayotgan mavzuga oid muayyan ishlarni bajarish natijasida erishishlari lozim.

O’quv materialini tanlashda mavzuni o’rganishga ajratilgan vaqt va o’quvchilarning materialni o’zlashtira olish-olmasligi hisobga olinadi.

Dasturlarda o’quvchilarni tegishli kasbga xos bo’lgan va yuqori unumli hozirgi zamon texnikasi hamda texnologiyasidan foydalanib bajariladigan ish usuli hamda metodlariga o’rgatishning pedagogika jihatidan ma`qul va texnika jihatidan asoslangan tartibi, ishlab chiqarish ilg’orlari hamda novatorlari qo’lga kiritgan yutuqlarni amalda o’rganish, mehnatni ilmiy tashkil etish usullarini bilib olish ko’zda tutiladi.

Maxsus va umumtexnika fanlari dasturlarida shunday o’quv materiali bo’ladiki, o’quvchilar bu materialni o’rganib, ishlab chiqarishning hozirgi zamon texnikasi va texnologiyasi asoslarini o’rganilayotgan kasbni ongli ravishda, puxta va chuqur egallash hamda ishlab chiqarish malakasini yanada oshirish uchun zarur bo’lgan hajmda o’zlashtiradilar.

Maxsus va umumtexnika fanlari dasturlarida o’quv materiali mazmunini aniqlashda avvalo ilmiylik printsipiga asoslaniladi. Bu printsipga muvofiq, o’rganish uchun ilmiy tadqiqotlar bilan asoslab berilgan va tajribada tekshirib ko’rilgan jarayon, hodisa va faktlar, fan hamda texnikada qabul kilingan termin, qoida va belgilar tanlab olinadi. Ilmiylik printsipi materialni mantiqiy izchillik bilan bayon etishni, har bir yangi hodisa yoki narsani har tomonlama o’rganishni, mazkur ob`ektning o’ziga o’xshash boshqa ob`ektlar bilan ham, o’zidan farq qiladigan ob`ektlar bilan ham bog’lanishidagi xilma-xillikni aniqlashni talab etadi.

Umumtexnika fanlari dasturlarida o’quv materialining mazmunini va uni o’rganish ketma-ketligini aniqlashda, asosi ochib berilayotgan fanning mazmuni, mantiqiga asoslaniladi. Masalan, elektrotexnika, chizmachilik, metallar texnolotiyasi, radiotexnika fanlarining dasturlari mazmuni jihatidan eng barqaror dasturlardir.

Dasturlardagi o’quv materialiniig mazmunini aniqlash mezonlaridan biri uniig o’quvchilarga tushunarli bo’lishidir. O’quv materialining tushunarli bo’lishi deganda, uni soddalashtirish yoki yengillashtirish tushunilmasligi kerak. O’quv materialining tushunarliligi deganda, uning o’quvchilar uncha qiynalmay o’zlashtira oladigan darajada ochib berilishi tushuniladi. Shunday qilinganda o’quvchilarning tafakkuri, xotirasi, irodasi rivojlanadi. O’quv materialini tushunadigan qilib tanlashda bilimlar hajmini va o’quv materialinint ochib berilish chuqurligini anilash ko’zda tutiladi.

Dasturning har bir mavzusi bo’yicha bilimlar hajmini belgilashda zarur bo’ladigan asosiy materialga, shuningdek, illyustrativ va ma`lumotnoma materialga asoslaniladi hamda uning hajmi bilan o’quvchilarning fikrlash va xotirada saqlab qolish imkoniyatlariga taqqoslab ko’riladi. Bunda o’qitish davri, temaga ajratilgan vaqt, uquv materialining muhimligi, o’quvchilarning tayyorgarlik darajasi, fanlararo bog’lanishlar hisobga olinadi.

Ochib berilish chuqurlngi jihatidan olganda o’quv materialini shartli ravishda uch guruhga: oson, o’rtacha va qiyin o’zlashtiriladigan materiallarga bo’lish mumkin. Ma`lumki, faktlar eng oson material; faktlar tizimi - o’zlashtirilishi qiyin material; o’rganiladigan mashina, apparat, mexanizm, materiallar sifati, ish texnologiyasining muhim alomatlarini aniqlash yanada qiyin. Tushunish va o’zlashtirish eng qiyin material - sabab-natijali bog’lanishlarni topish, chunki ular tarkibida ancha murakkab o’quv materiali bo’ladi. Sabab-natijali bog’lanishlarni aniqlash zarurati, ko’pincha, mashinalarni sozlovchilarda, apparatchilarda, yig’uvchi-chilangarlarda, haydovchilarda, montajchilarda va ko’pgina boshqa kasb ishchilarida paydo bo’ladi. Bunda sabab ma`lum bo’lsa, natijani topish, aksincha - natijani bilaturib, sababni topishga qaraganda oson bo’ladi. Holbuki, yuqorida ko’rsatib o’tilgan kasb ishchilari bo’zilish, ishdan chiqish, ishlamay qo’yish, avariya va shu kabilar sabablarini topa bilishlari kerak.

O’quvchilarni sababni qidirib topishga o’rgatish ularda texnologik tafakkurning rivojlantirilishini talab qiladigan juda qiyin jarayondir. Bu muhim talab dasturlar tuzishda hisobga olinadi.

Yuqorida ta`kidlab o’tilganidek, o’quv materialining qiyinlik darajasi o’rganiladigan tushunchaning ichki bog’lanishlariga bog’liq. Bog’lanishlar qanchalik kam bo’lsa, tushunchani o’zlashtirish shunchalik oson, bog’lanishlar qanchalik ko’p bo’lsa, tushunchani o’zlashtirish shunchalik murakkab bo’ladi. Bu ham dasturlardagi o’quv materialining ochib berilish chuqurligini aniqlashda e`tiborga olinadi.

Dasturlardagi o’quv materialining ochib berilishi chuqurligi ko’p jihatdan o’quvchilarning umumiy ta`limdan olgan tayyorgarlik darajasiga bog’liq. Masalan, kollejlar uchun dasturlar tuzishda o’quvchilarning umumta`lim fanlarini o’rganishi ularning har tomonlama rivojlanishiga yordam berishiga, o’quv materialini chuqurroq o’rganish imkoniyatiga ijobiy ta`sir etishiga asoslaniladi. Dasturlarda mashina va mexanizmlarning tuzilishi hamda ishlashiga oid nazariy printsiplarni chuqur asoslab berish, tipaviy texnologiya, jarayonlarning ilmiy asoslarini anglab olish ko’zda tutiladi. Yig’ish va tamirlash-rostlash ishlarining puxtalign, aniqligi va sifatini oshirish masalalariga, ularni ob`ektiv diagnostika alomatlariga ko’ra asboblar vositasida tekshirishga alohida e`tibor beriladi. Fanni o’rganish uchun o’quvchilardan turli tip, marka va modifikatsiyadagi juda ko’p mashinaning tuzilishini bilish talab qilingan hollarda dasturlarda shunga o’xshash mashinalarning tuzilishiga, ishlashiga oid printsipial sxemalarni, tipaviy texnologik jarayonlarni o’rganish hamda shu asosda eng zamonaviy va xarakterli konkret konstruktsiyalarning xususiyatlarini o’rgaiish ko’zda tutiladi.

Dasturlar tuzishda o’quv materialiga nisbatan qo’yiladigan talablar uning amaliyligiga va zamonaviyligiga qo’yiladigan talablar hisobga olinadi. Bunda o’quvchilarnin kollejda oladigan bilimlari ishlab chiqarishda va ijtimoiy tajribada tatbiq etilgan taqdirdagina katta ahamiyatga ega blishiga asoslaniladi. Shuning uchun o’quv materialini tanlashda dasturlarga ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasining hozirgi darajasiga javob beradigan, ishchilarning kasbiy mehnatga, tarbiyasi, ijtimoiy faoliyati bilan bevosita bog’langan materiallar kiritiladi. Shu nuqtai nazardan maxsus fanlarning o’quv dasturlari mazmuni vaqt-vaqti bilan qayta ko’rib chiqiladi va yangilanadi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, dasturlar mazmunining 20-30% qismi har 5-10 yilda operativ tarzda qayta ko’rib chiqilishi zarur, qolgan 70-80% qismi esa dastur mazmunining turg’un qismi bo’lib, o’zoq muddat o’zgarmay qolishi mumkin.

Shu narsa an`anaga aylanib qoldiki, o’quv dasturlari faqat o’qitish mazmunini, ya`ni o’quvchilarga nimani o’qitish kerakligani ochib beradi. O’qitish metodakasini, ya`ni qanday o’qitish kerakligini esa, odatda, o’qituvchining o’zi hal qiladi. Kollejlar uchun kasb hunar bloki dasturlarini tuzishda dasturlarda o’qitish metodikasining ba`zi masalalarini ochib berishga harakat qilindi. Chunonchi, texnikaviy chizmachilik va elektrotexnika dasturlarining har bir mavzusida o’qituvchi uchun qisqacha metodik tavsiyalar beriladi.

Kollejlar kasb hunari bloki fanlarining dasturlari uchun shu narsa xoski, o’quvchilar bilimlarni ancha ongli va puxta o’zlashtirishi, ularning bilish

faoliyatini aktivlashtirish hamda texnikaviy tafakko'rini rivojlantarish maqsadida bu dasturlarda anchagina hisoblash ishlari, texnologik jarayonlarni mustaqil ishlab chiqarish mashqlari, tajriba-amaliy ishlar, mustaqil ishlar, ma`lumotnoma adabiyotidan foydalanib mustaqil bajariladigan ishlar, shuningdek, o'quv ishining olingan bilimlarning hammasini tatbiq qila bilishni talab etadigan boshqa shakllari ko'zda tutilgan. Tajriba-amaliy ishlar, o'isoblash ishlari va mashqlar ruknini aniqlashda quyidagi masalalarni hal qilish nazarda tutiladi: mashina, mexanizm, agregat va qurilmalarining konstruktsiyasani o'rganish; texnologik jarayonlardagi fizikaviy va kimyoviy o'odisalar mohiyatini hamda ularning qonuniyatlarni o'rganish; nuqsonlarni diagnostika qilish, mashina, mexanizm va agregatlarni asboblar vositasida tekshirish hamda rostlash usullarini o'rganish; ish rejimlarini hisoblash, ishlov berish, yig'ish, tamirlash, sozlashga doir texnologik jarayonlarni mustaqil ishlab chiqish uquvlari hosil qilish.

Kollejlar o'quv rejalariga umumta`lim fanlari kiritilishi sababli ayrim umumtexnika va maxsus fanlarning mazmuni anchagina o'zgartirildi. Masalan, «Elektrotexnika va sanoat elektronikasi asoslari» fani dasturida elektr asoslariga doir materiallar ancha qisqartirildi. Shu bilan birga, o'zgaruvchan tok, elektr mashinalar, transformatorlar, nazorat qilish va boshqarish apparatlari to'g'risidagi material ancha chuqur berildi. «Texnikaviy chizmachilik» fani dasturida proektsion chizmachilik to'g'risidagi ma`lumotlar minimumga keltirildi, ayni paytda, mashinasozlik chizmachiligi va maxsus chizmachilik to'g'risidagi material ancha kengaytirildi. Bir necha kasb, asosan, noenergetik ixtisosdagi kasblar: tokarlar, frezalovchilar, chilangarlar, mashinistlar va shu kabilarda «Elektrotexnika va sanoat elektronikasi asoslari» fani o'rganilmaydi, elektr asbob-uskunalar to'g'risidagi ma`lumotlar esa maxsus fanlar dasturlarida ko'zda tutilgan. O'quvchilar mashina va mexanizmlarning elektr yuritmasini, boshqarish apparatlarini, elektron qurilmalarini, avtomatika va rostlash vositalarini o'rganadilar. Bu masalalar dasturga shunday hisob bilan kiritlganki, o'quvchilar ularni fizika kursining elektr haqidagi bilimlarini o'rganganlaridan keyin o'zlashtiradilar.

Mavzu bo'yicha talabalar bilimini tekshirish uchun namunaviy test savollari.

1. Kasb-hunar kollejlari o'quv rejalari qanday fan bloklaridan iborat?

A) umumta`lim, qo'shimcha va maxsus fanlar;

V) umumta`lim, umumkasbiy va xorijiy fanlar;

S) umumta`lim, umumkasbiy va qo'shimcha fanlar;

D) umumta`lim, umumkasbiy va maxsus fanlar.

2. 18 va undan katta yoshdagi o'quvchilar uchun haftalik o'quv yuklamasi necha soat bo'lishi kerak?

A) 36 soat; V) 41 soat;

S) 46 soat; D) 51 soat.

3. Kasb-hunar kollejlarida nazariy ta`limga qancha foiz ajratilgan?

A) 40 foizgacha; V) 50 foizgacha;

S) 60 foizgacha; D) 70 foizgacha.

4. O’quv rejasiga kiritilgan har qaysi fandan nimani va qanday izchillikda o’rganish kerakligi, shuningdek, o’quvchilar bilib olishi lozim bo’lgan bilim, uquv hamda malakalar hajmi belgilab beriladigan o’quv hujjat, bu:

A) o’quv dasturi; V) o’quv reja;

S) kasb tavsifnomasi; D) mavzular rejasi.

5. Kasb-hunar kollejlarida malakali ishchilar tayyorlash mazmuni qanday asosiy talablarga javob berishi kerak?

A) o’qitish mazmuni milliy istiqlol g’oyasining maqsad va vazifasiga mos bo’lishi hamda ishchi kadrlar tayyorlashning istiqbolli bo’lishi;

V) o’qitish mazmunining ko’p tarmoqli va umumta`lim maktablarida o’qitish bilan izchillikda bo’lishi;

S) tayyorgarlikning keng profilli va nazariya bilan amaliyotning o’zaro bog’langan bo’lishi;

D) yuqoridagilarning barchasi to’g’ri.

6. O’quv rejasida qanday ma`lumotlar keltirilmaydi?

A) o’quv fanlari ro’yxati va ularni o’rganish tartibi;

V) o’quv fanlarni o’rganish vaqti;

S) o’quvchilar soni;

D) o’quv yili tuzilishi va mashg’ulotlar rejimi.

7. qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalashtirish yo’nalishidagi kasb-hunar kollejlari maxsus fanlar blokiga ko’rsatilgan qaysi fanlar kiradi?

A) dehqonchilik va chorvachilik, traktor va avtomobillar;

V) metallar texnologiyasi, yonilg’i moylash materiallari;

S) transportda yuk tashish; dasturlar asoslari;

D) iqtisod va tadbirkorlik, ekologiya.

8. O’quv dasturlarining mazmuni qanday talablar asosida aniqlanadi?

A) o’quv yuklama; V) kasb tavsifnomasi;

S) fanlarning soniga; D) yuqoridagilarning barchasi.

9. Kollejning vazifalari, o’quvchilar tarkibi va o’qitish muddatlari to’g’risidagi davlat direktivlari asosida tuziladigan o’quv hujjat, bu:

A) kasb tavsifnomasi; V) o’quv reja;

S) o’quv dasturi; D) o’quv yuklama.

10. O’quv rejalarini tuzishda fanlarni o’rganishni qanday usullari hisobga olinadi?

A) parallel, ketma-ket va aralash o’rganish;

V) faqat parallel;

S) faqat ketma-ket;

D) faqat aralash.

Mavzuni takrorlash uchun nazorat savollari:

1.Malaka tavsifnomasi nima.

2.Davlat ta`lim standartlari va uning mazmunini tushuntiring.

3.Kasb-hunar ta`limi standartlari va uning mazmunini tushantiring.

4.O’quv rejasi va uning tuzilishinini tushuntiring
5.O’quv dasturi va uning tuzilishini tushuntiring.
6. Mavzular rejasi va uning tuzilishinini tushuntiring.

3-mavzu: Kasbiy ta`lim tamoyillari

O’quv moduli birliklari.

1. Faollik tamoyili
2. O’qitishda nazariya bilan va amaliyotni bog’liqligi.
3. Ko’rgazmalilik tamoyili
4. Ilmiylik tamoyili
5. O’qitishda tizimlilik va izchillilik
6. O’qitishda talabalarning onglilik va faolligi
7. O’qitishning tarbiyalovchi xarakteri

Aniqlashtirilgan o’quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba mavzuni o’zlashtirgandan so’ng:

– *Kasb ta`limi tamoyillarini ta`riflay oladi;*
– *Kasb ta`limi tamoyillarini ta`lim jarayonidagi axamiyatini tushunadi.*

Mavzuni o’qitishda aqliy hujum, klaster metodlaridan foydalaniladi.

Tayanch so’z va iboralar

Faollik tamoyili, o’qitishda nazariya bilan va amaliyotni bog’liqligi, ko’rgazmalilik tamoyili,ilmiylik tamoyili,o’qitishda tizimlilik va izchillilik,o’qitishda talabalarning onglilik va faolligi, o’qitishning tarbiyalovchi xarakteri.

O'qitish tamoyillari-o'qitish nazariyasining boshlang'ich qoidalari bo'lib, unga pedagogik jarayonning barcha tashkil etuvchilari amal qilishi kerak.

M.N. Skatkin ta'lim tamoyillarini quyidagicha belgilaydi: ilmiylik, har tomonlamalik, hayot bilan aloqadorlik, tabaqalashtirish, tizimli-lik, o'quv fanlari orasidagi o'zaro aloqadorlik, joriylilik .

M.G. Ogorodnikov esa o'z tadqiqotlarida ilmiylilik, g'oyaviylik, tarixiyik, tizimlilik, nazariya va amaliyotning birligi, ta'limning hayot bilan aloqasi kabilarni tamoyillar sifatida ajratib ko'rsatgan.

S.Ya. Batishev-kasb ta'limi mazmunini ishlab chiqarish va rnehnat jarayoni rivojlanishi bilan uzviy bog'langan holda tasawur etish kerak deb hisoblaydi va ta'limning quyidagi tamoyillarini qayd etgan: ilmiylik, tizimlilik va joriylilik, nazariy ta'lim bilan ishlab chiqarish mehnatining birligi.

V.A, Skakun - kasb ta'limi tamoyillarini ilmiylik va g'oyaviylik; ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning birligi; ilmiy-texnika taraqqiyotiga ta'limning bog'liqligi, politexnizm: malakali ishchilarni tayyorlash barcha tomonlarining bir-biriga aloqasi; ta'limning tabaqalashtirish deb biladi.

A.P. Belyayeva ta'limda xalqchillilik, ilmiylik, politexnikaviylik, tizimlilik, muqobillik, politexnik va kasbiy ta'limning birligi hamda o'zaro aloqasi; fanlararo va majmuaviy o'zaro aloqadorlik, kasbiy safarbarlik, ta'limning moslashuvchanligi va turg'unligi, mujassam-langan hamda tabaqalashganligini asosiy tamoyil sifatida talqin etadi.

O'qitish tamoyillarining majmuasi mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:
- faollik tamoyili;
- o'qitishda nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi tamoyili;
- ko'rsatmalilik tamoyili;
- o'qitishning tarbiyalovchi xarakteri tamoyili;
- ilmiylik tamoyili;
- o'qitishda sistemalilik va izchillik tamoyili;
- o'qitishning tushunarli bo'lishi tamoyili;
- namunalardan foydalanish tamoyili;
- talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili;
- bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning puxta bo'lishi tamoyili;
- didaktik reduksiya tamoyili.



1-rasm.O’qitish tamoyillari

Faollik tamoyili - talaba o'zi harakat qilgan paytda yaxshi o'rganadi va o'zlashtiradi. Shuning uchun o'quv jarayoni shunday tashkil qilinishi kerakki, talaba ilm olishga ongli munosabatda bo'lsin.

Talabalar har bir darsga faol qatnashishi kerak. Chunki talaba qandaydir ish bajarishda u ishni ongli ravishda o'zlashtiradi va bu bilim xotirasida chuqurroq o'rnashib qoladi. Natijada talabalar darslarni yaxshiroq va chuqurroq o'zlashtirgani uchun mukammal bilimga ega bo'lish bilan birga, ularning bu sohada qiziqishi ortadi. Mustaqillik va individual ravishda o'rganish kabilarga faqat shu tarzda erishish mumkin, xolos. Buning uchun, o'qituvchi juda yaxshi uslubiy qobiliyatlarga va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

O'qitishda nazariya bilan amaliyotining bog'liqligi. Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo'lib, ana shu

faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog'langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o'zlashtirish va amalda qo'llay bilish ham kerak.

Talabalarm amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallash jarayonidan boshlanadi. Keyinchalik u tajriba va amaliy mashg'ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg'ulotlarda talabalar o'qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olmgan bilimlarini tekshiradilar, mustahkamlaydilar va chuqurlashtiradilar. Ularni amalda qo'llanish ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladilar.

[shlab chiqarish ta'limi talabalar amaliy faoliyatining muhim bosqichidir. Ular egallagan nazariy bilimlari asosida tanlagan kasblariga doir mehnat ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladilar. Shu bilan birga, nazariy bilim ham to'ldirilib, aniqlashtirilib boriladi.

O'qitishning ko'rsatmaliligi. O'qitishning ko'rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar talabalarda o'rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog'liq muayyan hissiy — amaliy tajriba bo'lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli ravishda o'zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasawur va tushunchalar hosil qilish mumkin. Bu tamoyil o'qitish jarayonida turli sezgilardan: ko'rish, eshitish, badan bilan sezish va boshqalardan foydalanishni talab etadi. Buyum qanchalik har tomonlama idrok qilinsa, talabalarning shu buyum haqidagi bilimi ham shunchalik to'la va chuqur bo'ladi.

Ko'rsatmalilik tamoyili o'qitish maqsadlariga mos bo'lib, materialning mazmuni bilan belgilanadi. Bu materialni o'rganish esa talabalarni chinakam ilmiy va hayotiy bilimlar bilan qurollantirishi kerak. Ko'rsatmalilik bu bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirib olishga hamda uiarning hayot bilan, mehnat amaliyoti bilan bog'lanishiga yordam beradi. Mashg'ulotlarda turli xil ko'rsatmali qurollarni qo'llash talabalarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi, ularning diqqatini aynan o'tilayotgan mavzuga jalb etadi. Shuning uchun ko'rsatmalilik vositalari o'qitishning hamma bosqichlarida talabalarning yangi mavzuni tushunishlarida, bilimlarini mustahkamlashda, tekshirish hamda amaliy faoliyatida va ishda qo'll.ashlarida, mehnat ko'nikmalari va malakalarini hosil qilishda tatbiq etiladi. Bilimlarni iloji boricha ko'rgazmali va real hayotga yaqin qilib tatbiq etish bir tornondan tilning tushunarligini va o'qitish jarayonida audio-vizual vositalardan foydalanishni talab qilsa, ikkinchidan, u bevosita ish jarayonida va real holatda o'qitishni talab etadi.

O'qitishning tusbunarli bo'lishi tamoyili o'rganilayotgan material maznuini, hajmi va o'qitish usullariga ko'ra talabalarning yoshiga, tayyorgarlik darajasiga, jismoniy kuchi va bilish imkoniyatlariga mos bo'lishini talab etadi.

O'qitishning tushunarli bo'lishi deganda uni oson o'zlashtiriladigan bo'lishi tushunilmaydi. Haddan tashqan oson materialni talabalar ortiqcha kuch-g'ayrat sarflamay, o'zlashtirib oladilar. Bunday o'qitish talabalarning aqliy bilish imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam bermaydi. O'qitishni tushunarliligi talaba imkoniyatlarining eng yuqori chegarasi va uni asta-sekin oshirib bonsh bilan belgilanadi. Ta'lim jarayonining borishida talabalar oldiga qo'yiladigan o'quv va mehnat topshiriqlarini izchillik bilan murakkablashtirib borish ularning aqliy imkoniyatlari va jismoniy kuchlarini rivojlantiradi. O'quv materialining mazmuni

shunday tanlangan va tuzilgan bo'lishi kerakki, talabalar uni o'zlarining avval olgan bilimlari bilan bog'lay olishlari va uni tushunishda qiynalmasligi lozim.

Namunalardan foydalanish tamoyiliga ko'ra o'qituvchi o'quv materialining mazmunini tushuntinsh uchun har doim yaxshi namunalar tanlashga harakat qilishi kerak. Yaxshi model, amaliyotdan tipik misollar, yaxshi yoki yomon mahsulotlar ham kutilgan darajadagi natijaning sifati qanday bo'lishi yoki bo'lmasligini aniq ko'rsatadi.

Didaktik reduksiya tamoyilida talabaning bilimlarni yuqori darajada o'zlashtirishi uchun bu o'quv material! kerakli miqdorgacha qisqartirilishi lozim. Agar o'quv materialining hajmi juda katta bo'lsa, undan kerakli qismlar tanlab olinishi kerak. Majmuaviy va murakkab topshiriqlar osonlashtirilishi lozim, lekin ma'nosi o'zgarmasligi shart. Shuning uchun, agar faqat boshlang'ich bilimlar berish kerak bo'lsa. o'quv materialini iloji boricha oddiyroq tushuntirishga va nihoyatda ko'p va keng o'quv materiali bilan talabani qiynamaslikka harakat qilish kerak. Tajribali o'qituvchi murakkab jarayonlarni oson so'zlar bilan tushuntira oladi.

Ilmiylik tamoyili talabalarga o'rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak.

Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida talabalarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo'lishi va talabada nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishi hamda uning ijodiy qobiliyatini shakllantirishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi o'z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib bonshi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim. Talaba o'rganayotgan bilimlar, albatta, nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo'lishi kerak.

O'qitishning tarbiyalovchi xarakteri - o'qitish va tarbiyalash jarayonlari bir-biriga uzviy bog'liq bo'ladi. O'qitish bilim berish vazifalarini hal qilish bilan birga talabalarga juda katta tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. U talabalarning bilish imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning o'quv va mehnat faoliyatidagi faolligi va mustaqilligini, bilimga qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Biroq o'qitish jarayonidagi tarbiya stixiyali ravishda amalga oshirilmaydi. Uning maqsadi, mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va talabalarga ta'sir etish samaradorligi bir qator shartlarga bog'liq bo'lib, ulardan asosiylari: o'rganilayotgan fanning mazmuni, o'quv mashg'ulotlarining tashkil etilishi va metodikasi hamda bu mashg'ulotlarni o'tkazayotgan pedagogning shaxsiy fazilatidir.

O'quv mashg'ulotlarining to'g'ri tashkil etilishi va ularni o4kazish metodikasi talabalarga juda kattk tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulotlarda talabalarning bilim, ko'rtikma va malakalarni egallashga doir individual ishlari ham, bu ishlarning guruhli ko'rinishlari ham qo'llaniladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida tarbiyaviy yo'nalishmng ustuvorligini ta'minlash asosiy mezon hisoblanadi.

Tarbiya orqaligina inson o'z shaxsini anglaydi. O'z-o'zini anglagan kishigina o'z qobiliyatlari va imkoniyatini bilgan holda ehtiyojini shakllantirish zaruratini vujudga keltiradi.

O'qitishda sistemalilik va izchillik- sistemalilik va izchillik tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni talab etadiki, bunda o'quv fanlarini o'qitish qat'iy mantiqiy tartibda olib boriladi. Talabalar bilim, ko'nikma hamda malakalarni izchillik bilan egallab boradilar va ayni zamonda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganadilar. Sistemalilik va izchillik tamoyili pedagogik jarayonning hamma bo'g'mlarida amalga oshiriladi. Uning talablari darsliklar va dasturlarni tuzishda o'z aksini topadi. Ulardagi material bir qator didaktik talablar bo'yicha joylashtiriladi. O'quv dasturida nazariy va amaliy mashg'ulotlar bir-biriga uzviy bog'lanishi saqlanishi kerak. Har bir darsda o'quv maqsadini aniq belgilash va belgilangan maqsadga muvofiq keluvchi mazmunm tarkib toptirish kerak. Har bir kasbiy fan uchun o'quv dasturi talabiga mos holda dastawal tayanch tushunchalarni aniq belgilab olib, ularning darajasi va me'yorini aniqlash kerak. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan usullarni aniq belgilab, yuqori samara beruvchi usullardan foydalanish, mashg'ulotlar davomida berilayotgan bilim va ko'nikmalarning talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini belgilovchi nazorat va tekshirishning turli usullari hamda testlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning ma'lumot darajasi oshib borishiga va rivojlanishiga qarab predmetni bayon qilishning didaktik sistemasi fan sistemasiga tobora yaqinlashib boradi. Mashg'ulotlarni o'tkazishda dasturga aniq rioya qilish va talabalarning darslik bilan ishlashi ularning bilimlarni muayyan sistemada o'zlashtirib olishga yordam beradi.

O'qitishda talabalarning ongliligi va faolligi - bu tamoyil o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadigan bo'lsin.

O'qitishdagi onglilik tamoyili talabalardagi ta'lim jarayonining aniq maqsadlarini tushunish, o'rganilayotgan dalil, hodisa, jarayonlar va ular o'rtasidagi bog'lanishni tushungan holda o'zlashtirib olish, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilish kabi me'yorlarni anglatad.i

Talabalarning faolligi ularning nazariy materialni egallab olishida va sinfda, laboratoriyada, ustaxona hamda ishlab chiqarish sharoitlarida o'quv-mehnat topshiriqlarini bajarishida namoyon bo'ladi. Faollik talabalarning o'quv va mehnat faoliyatidagi mustaqilligini rivojlantirish bilan mustahkam bog'liq.

Talabalarning yoshi va individual imkoniyatlarini hisobga olish -har bir talaba o'zining individual (jismoniy, psixik va b.) xususiyatlariga egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir etadi. Pedagogning bu xususiyatlarni o'rganishi va hisobga olishi ta'lim-tarbiya sifatini oshirish va har bir talabaning ijobiy qobiliyatlarmi rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Talabaning bunday xususiyatlarini o'rganish uzoq vaqt mobaynida olib boriladi. Pedagog talabalarning mashg'ulotlardagi va ishlab chiqarish ta'limi vaqtida ustaxonalardagi ishini, uy vazifalarini bajarishini kuzatadi, ularning bilimi,

yozma ishlari va tayyorlagan buyumlarini tekshiradi, darsdan tashqari vaqtlarda ular bilan suhbatlashadi. Talabaning kuchli va ojiz tomonini bilib olishga, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganishga, uning xarakteri va iroda sifatlarini yaxshi bilib olishga harakat qiladi, hayotiy va mehnat tajribalarini, ularning o'qishga kelishdan oldingi faoliyati xususiyatlarini o'rganadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkamligi. Nazariy va ishlab chiqarish ta'limi jarayonida talabalar o'zlarining bo'lajak kasbiy faoliyatlari uchun kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallab boradilar. Bundan tashqari, awalgi mashg'ulotlarda hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalar ancha murakkabroq materialni o'zlashtirib olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy bilimlarni egallash talabalarning xotirasi, mantiqiy tafakkuri, xilma-xil faoliyat turlaridagi ijodiy faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi. Lekin hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarning kelgusida ilmiy bilimlar tizimini o'zlashtirishda asos bo'lishi uchun ular puxta o'zlashtirilgan bo'lishi va talabalarning xotirasida saqlanishi kerak. Mustahkamlik tamoyilining talablari shulardan iborat bo'lib, bularga rioya qilmaslik talabalarning sust o'zlashtirishiga, o'qishda ulgurmasligiga sabab bo'Iadi.

4-mavzu: Kasb-hunar kollejlari o`quv xonalari, labaratoriyalari hamda o`quv ustaxonalariga qo`yiladigan talablar va ularni jihozlash

O`quv moduli birliklari.

1. Kasb-hunar kollejlari o'quv xonalari, labalatoriyalari hamda o'quv ustaxonalarini tashkil qilish bo'yicha umumiy nizomlar.
2. Kasb-hunar ta'limi o'quv ustaxonalaridagi ta'lim va tarbiyanina vazifalari hamda ularning jihozlanishiga qo'yiladigan talablar.
3. Kasb-hunar ta'limi o'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarni tashkil etish va ularni o'tkazishga qo'yiladigan talablar va ularni jihozlash.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba mavzuni o'zlashtirgandan so'ng:

Kasb-hunar kollejlarida o'quv ustaxonalari o'quvchilarga aniq bir ixtisoslik asosida sifatli kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning shu kasb bo'yicha mahoratlarini oshirish maqsadida tuziladi. Mehnat usullari, harakatlari, ish bajarish qobiliyati, o'z mutaxassisligi bo'yicha malakali kadr bo'lib yetishishga qadar, ya'ni oddiy operatsiyalarni bajarishdan boshlab kasbga doir murakkab-jarayonlarni bajara oladigan mutaxassislar tayyorlanadi. O'quv amaliyoti kasb-hunar kollej o'quv ustaxonalarida turli kasblar uchun turlicha bo'lishi, o'qishning davomiyligi, mehnatning turli mutaxassisliklar bo'yicha mazmuni va ishlab chiqarish ishlarining xarakteriga bog'liqdir. Mutaxassisligi bo'yicha mehnat mazmunining xususiyatidan qat'iy nazar o'quv ustaxonasida amaliy kasbiy ta'lim to'g'ridan-to'g'ri mahsulot ishlab chiqarish jarayonida o'tkaziladi. Shuning uchun o'quv ustaxonalari DTS asosida o'quv va ishlab chiqarish talablariga moslanishi zarur.

O'quvchilarning ish o'rinlarini rejalashtirish, qurish va jihozlash, o'quv ustaxonalari faoliyatini tashkil etish xususiyatlari turli mutaxassisliklar uchun

turlichadir. Biroq, turli mehnat xarakteridagi o'quv ustaxonalari uchun umumiy talablarni ajratib ko'rsatish mumkin.

O'quv ustaxonalari quyidagi talablarga javob berishi kerak: - jihozlar talab darajasida ishlashi uchun bir me'yorda o'rnatish shartlariga rioya qilib, belgilangan talablar asosida o'rnatilgan bo'lishi lozim (maydon, qavatlar, binoning balandligi, texnologik jarayon hisobga olingan holda rejalashtirish);

- mehnat xavfsizligi talablari, sanitariya va gigiyena qoidalari (yong'in va portlash xavfi bor bo'limlarni, chang va gaz chiqadigan bo'limlarni ajratish, ko'tarma transport tizimlarining mavjudligi, yong'in holatida chiqish yo'llari, o't o'chirish vositalari, yorug'lik bilan yetarli ta'minlash, shamollatish qurilmalarining mavjudligi, ish sharoitiga mos ob-havo va hokazo)ga amal qilish;

- ishlab chiqarish estetikasi talablariga rioya qilish;

— jihozlangan o'quv ustaxonasini shartli ravishda uch qismga bo'lish mumkin: o'quvchilarning ish joylari; hamma foydalanadigan joy — asbob-uskuna, anjomlar, xomashyo saqlanadigan xona; amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisining o'rni.

O'quvchining ish joyi o'quv dasturi talablariga o'quv ishlab chiqarish ta'limi uchun zarur asbob-uskunalar, nazorat o'lchov asboblari va moslamalar bilan jihozlanadi.

Bajarilayotgan ishning xarakteriga, o'quv ishlab chiqarish mehnatini tashkil qilinishiga qarab o'quvchilarning ish joylari yakka-yakka yoki brigada bo'yicha bo'lishi mumkin.

O'quvchilar ish jojlariga qo'yiladigan umumiy talablardan quyidagilarni:

— asbob-uskunalarning texnik sozligi, to'siqlar, tokning yerga ulanishi, elektrni o'z-o'zidan o'chirilishi, himoya qurilmalari, ko'tarish qurilmalari va mehnat xavfsizligini ta'minlaydigan vositalar mavjudligi;

— ish davrida asbob-uskunalar, moslamalar, asosiy va yordamchi materiallar, tayyor mahsulotlar, o'quv va texnika hujjatlarini ishonchli hamda qulay saqlash uchun maxsus joylar jihozlanishi;

- ish joyining yaxshi yoritilishi, o'quvchining ish joyida qulay o'rnashishi, behuda harakat qilmasligi, charchamasligi, o'tirib ishlashga to'g'ri kelsa, sharoit yaratilishi;

- favqulotda holat sodir bo'lgan taqdirda amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisi bilan tez bog'lana olish;

— asbob-uskunalarga xizmat qilish, tozalash, yig'ishtirish uchun qulaylik yaratilishini alohida ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarning ish joylarini jihozlashning asosi — har bir o'quvchi uchun qulay va alohida o'rin bo'lishidir. Chunki bu yerda o'quvchi tanlagan ixtisosligi, ya'ni o'ziga xos bo'lgan kasb-hunar bo'yicha o'quv ishlab chiqarish ishlarini bajaradi. Ish joylarini qulay jihozlashga bo'lgan o'quv-texnika talablari: mutaxassislikka xos bo'lishi; zamonaviy konstruksiya asosida, ko'p tomonlarni qamrab olgan holda universal bo'lishi; boshqarishda nisbatan sodda, hajm jihatidan ixcham, foydalanish va xizmat qilishda qulay, ish davrida xavfsiz bo'lishi lozim.

Umumiy chilangarlik ustaxonalari uchun yondosh iskanja (tisk)lar bo'lgan bir o'rinlik chilangarlik dastgohlari; quruvchi-pardozlovchilar uchun suvoq, bo'yoq, plitalar o'rnatish va boshqa ishlarni bajarish uchun xonalar;

payvandchilar uchun maxsus payvandlash joylari; chilangar-ta'mirlovchilar va yig'uvchilar uchun iskanjalar bilan ko'p o'rinli dastgohlar mavjud bo'lishi kerak.
O'quvchilarning ish joylari ham yakka (individual) asbob-uskunalar bilan ta'minlanadi. Asbob-uskuna ajratishda uning universalligi, qo'llanish darajasining doimiyligi, quwati hisobga olinadi. O'quvchilarning ish joylariga tez-tez va har doim ishlatiladigan asbob-uskunalar beriladi.

O'quvchilar ish jarayonida kerak bo'ladigan boshqa asbob-uskunalarni amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisidan yoki asbobxonadan oladilar.
Eng ko'p tarqalgan o'quv ustaxonasi umumchilangarlik ustaxonasi hisoblangani uchun o'quvchi-chilangarning ish joyida foydalanishda zarur bo'lgan asbob-uskunalar haqida to'xtalib o'tamiz:

Kalit dastasi - iskanjaning bo'yiga qarab balandligini sozlash uchun -1; metaldan yasalgan o'lchov chizg'ichi — 1; metall qalam (chertilka) — 1; belgilaydigan sirkul — 1; buyumlarga belgi uradigan asbob(kerner) -1; lekallo chizg'ich — 1; chilangarlik burchak chizg'ichi — 1; shtangensirkul ShS-1 — 1; chilangarlik zubilosi-1; chilangar kreysmeyseli — 1; massasi 400 — 500 g bo'lgan chilangarlik po'lat bolg'asi -- 1; har xil egovlar №1,2 — 4 — 5; qirindi shyotka —

1.Ishchi o'rinlarini jihozlash va tartibli qilishda, ish vaqtida zarur bo'ladigan nazorat o'lchov asbob-uskunalariga va hujjatlarga alohida e'tibor berish kerak. Eng muhimi barcha asboblar o'z o'rnida, qo'l uzatib oladigan joyda bo'lishi kerak. O'quv amaliyoti jarayoni uchun kerakli vositalar (dastgohlar yoniga qo'yilgan javonchalar (tumbochkalar), ishchi chizmalar va o'quv-texnika hujjatlari qo'yiladigan qisqichlar, tokcha, planshet, gotovalnik, nazorat o'lchov asbob-uskunalari solinadigan g'iloflar, asbob-uskuna va boshqa asboblar solinadigan ko'chma yashiklar va hokazolar) maxsus saqlanadigan joylarga o'rnatilgan qoidalarga rioya qilgan holda qo'yilishi lozim. Bularning hammasi nafaqat ishchi o'rniga to'g'ri yondashishni, shu bilan birga yoshlarda jamoat mulkiga ko'z qarochig'iday qarash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

O'quv ustaxonasida o'quvchining ish joyi ustaxonaning yoritilganlik darajasi, qanday mahsulot ishlab chiqarilishi, ustaxonaning umumiy holati, hajmi, xonalarning o'lchamlari va shakli, deraza va eshiklarning joylashishi va boshqa parametrlardan kelib chiqqan holda rejalashtiriladi va belgilab olinadi. O'quvchi ishchi o'rnining katta-kichikligi, asbob-uskunalar o'rnatilishi har xil ixtisosliklar uchun turlichadir. Ular tegishli vazirliklar, ma'muriyat tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlar asosida barpo qilinadi. Ko'p hollarda umumiy bo'lgan o'rta me'yor usuli qo'llaniladi:

– devor va ustundan dastgohning yon yoki orqa tomonigacha bo'lgan oraliq — 0,5 m dan kam bo'lmasin;

— o'rnatilgan asbob-uskunalar orasi 1,5 m. dan kam bo'lmasin;
- dastgoh, agregatlar yon oralig'i 0,8 m. dan kam bo'lmasin;

— markaziy o'tish yo'li 2 m. dan kam emas;

— derazalar ishlovchi o'quvchiga nisbatan chap yoki old tomonda bo'ladi.

O'quvchilarning ish o'rinlarida mavjud bo'lgan individual asbob-uskunalardan tashqari, o'quv ustaxonasida hamma foydalanadigan chilangarlik dastgohi va qurilmalari o'matilgan alohida joylar mavjud bo'ladi. Sunday joylarning barpo qilinishi kasbning xususiyati, o'quv ustaxonasi ishlab chiqaradigan mahsulot, ta'lim muassasasi tayyorlaydigan mutaxassisliklar, kasb-hunar kollejida qo'shimcha xizmatlarning mayjudligi va boshqalarga bog'liqdir. O'quv ustaxonasida bunday asbob-uskunalarning qo'llanilishidan maqsad o'quv ishlab chiqarish ta'limi dasturini to'la va sifatli bajarishdan iboratdir.

Umumchilangar o'quv ustaxonasida dastgoh, qurilma va jihozlar ro'yxatini misol sifatida keltirish maqsadga muvofiqdir:

— iskanjali parmalash dastgohi — 3 dona;
— vintli qo'l pressi (yoki gidravlilik) — 1 dona;
— iskanjali ko'ndalang randalash dastgohi — 1 dona;
— ikki tomonli charxlash dastgohi — 1 yoki 2 dona;
— richagli, g'ildirak og'irligi bilan ishlaydigan qaychi — 1 dona;
— belgili plitali stol — 1 dona;
— metallni to'g'rilash uchun plita — 1 dona;
— truba bilan qisadigan stol (verstak) — 1 dona;
— qirindilar uchun yashik — 1 dona.

O'quv ustaxonalarida hamma foydalanadigan asbob-uskunalar shunday joylashtirilishi kerakki, ular yonida bo'sh maydon bo'lsin, bir necha o'quvchilar baravariga ishlayotganlarida bir-birlariga xalaqit bermasin. Odatda ular bo'sh devor yoniga, deraza qarshisiga yoki ustaxonaning ichki orqa tomoniga joylashtiriladi. Charxlash dastgohlarini bo'lingan alohida joyga o'rnatish va alohida changyutgich bilan jihozlash zarur. Shuningdek, qalaylash(payaniya) va oqartirib yaltiroq qilish(lujeniya)ni o'rganish uchun ham alohida ishchi o'rinlarini tashkil qilish kerak. Shu narsaga alohida e'tibor berish kerakki, materiallar olib kirish va olib chiqishda ustaxona ifloslanmasligi uchun eritma, koler, shpaklyovka va hokazolar tayyorlash ishlarini maxsus ajratilgan joyda amalga oshirish lozim.

O'quv ustaxonasida o'quv ishlab chiqarish ta'limi samaradorligini ta'minlash uchun amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisining ish o'rni katta ahamiyatga egadir. O'quv ustaxonasining sohasidan qat'iy nazar o'qituvchining ish o'rni quyidagi umumiy talablarga javob berishi lozim:

— namunali o'quv texnika asbob-uskunalari bilan ta'minlangan, estetik rasmiylashtirilgan, dars mavzusi va mazmuni asosida jihozlangan; bu esa o'quvchilarga katta tarbiyaviy ta'sir qiladi va ular uchun ma'naviy omil hisoblanadi;

— o'quv ishlab chiqarish ishlarini bajarishda mehnat ko'nikmalari va usullari samaradorligi uchun kerakli sharoit yaratilishi, maxsus qurilmalar, ularning o'rnatilishi, manzara ko'rinishi talab darajasida bo'lishi;

— barcha o'quvchilarni mukammal ko'zdan kechirib turish uchun sharoitlar yaratishni ta'minlash;

— asbob-uskunalarni, o'quv texnika hujjatlarini va ta'limning zamonaviy texnik vositalarini qulayjoylashtirish hamda saqlash kerakki, foydalanish

uchun hamma narsa qo'l ostida bo'lsin, qolaversa ularni ishlatishda qidirib vaqt ketkazmaslik zarur;

— amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisining ish joyini talab darajasida jihozlashda, o'quv texnikasi va o'quv metodik qo'llanmalarni doimiy ravishda texnika va texnologiyalarni takomillashuviga, pedagogik tajribaning ilmiy tavsiyalari va ilg'or yutuqlariga mos holda to'ldirib borish va yangilab turish lozim.

Amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisi ish joyining tuzilishi va jihozlanishi, tegishli mutaxassislik xususiyatiga, kasb-hunar kolleji imkoniyatiga, o'qituvchi tajribasiga va kollejning o'quv moddiy texnika bazasiga bog'liq. O'qituvchining ish joyini jihozlashni shartli ikkiga bo'lish mumkin — majburiy va qo'shimcha. Majburiyjihozlashga qo'yidagilarni kiritish mumkin:

— asbob-uskunalar o'rnatiladigan amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisining ish joyi balandroq bo'lishi;

— ishchi stol, stul, sinf doskasi;

— barcha o'rganilayotgan mavzular va o'quv ishlab chiqarish ishlari bo'yicha didaktik vositalar va o'quv texnika hujjatlari;

— mehnat harakatlari va o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarish usullarini namoyish qilish uchun qurilmalar (namoyish stoli (verstak), dastgoh, panel, elektr to'plami o'rnatiladigan taxta (shit), o'quv xonasi, payvandlash posti va hokazo);

— asbob-uskunalar, anjomlar, materialar, huijatlar, o'qitishning texnik va didaktik vositalari saqlanadigan moslamalar (shkaflar, yashiklar, kassetalar, taxta tokcha va boshqalar);

— o'qitishning texnik va didaktik vositalarini namoyish etish uchun mo'ljallangan moslamalar (namoyish etiladigan shitlar, plakatlar g'ilofi, ekran va boshqalar).

— elektr toki, siqilgan havo, gaz va boshqalarni o'quvchilar ish joyiga uzatib beradigan hamda o'chirib-yondiradigan maxsus shit.

Amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisining ish joyini qo'shimcha jihozlash uning tajribasiga, maqsadga intilishiga, ijodiy yondashuviga, idrokli bo'lishi, shuningdek, tegishli asbob-uskunalar topishi va tayyorlashiga bog'liq. Ilg'or tajribani hisobga olgan holda eng yaxshi o'qituvchining ish joyini qo'shimcha jihozlashning ba'zi elementlarini aytib o'tish mumkin:

— o'qitishning zamonaviy texnika vositalarini saqlash, bir tizimga keltirish va qo'llashda foydalaniladigan shkaf;

— yo'riqlar o'tkazish uchun o'quvchilarning jamoa bo'lib o'tiradigan joyi;

— mahsulotlar, asbob-uskunalar tayyorlaydigan xona (preparatxona);

— masofadan boshqarib o'qitishning texnik vositasi (OTV) pulti, o'quvchilarga umumiy topshiriq beradigan signalizasiya vositasi, o'quvchilar bilan operativ bog'lanish vositalari va hokazolar;

— komputer multimedia dasturlari, elektron darsliklar, vedeo va diafilm va boshqalarni namoyish qilish uchun doska-ekran;

— elektromagnit doskasi;

— o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi qurilma, elektrlashtirilgan shitlar, sxemalar, integratorlar va hokazolar;

— o'quv amaliyoti mashg'uloti davrida o'quvchilar tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotlarni qabul qilib olish uchun maxsus stol va hokazolar.

Amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisi ish joyini jihozlashda kerakli asbob-uskunalarni asosiy va qo'shimchalarga ajratish shartlidir. Ish joyini doimo tartibli tuzash va moslash yo'li bilan jihozlash kerak, bu o'qituvchining faoliyatiga kiradi va faoliyat samaradorligini oshiradi. Shuning bilan birga o'qituvchi ish joyini haddan tashqari bezab jihozlashi shart emas, bu maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Agar ta'lim muassasasining telestudiyasi bo'lsa, videomagnitafonga mehnat faoliyati, usullarini yozish va namoyish qilish imkoniyati bo'lsa, ish joyiga televizor va kinoproyektorlar o'rnatish mumkin.

Amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisi ish o'rnini didaktik vositalar bilan jihozlash muhim ahamiyatga ega. Ish o'mini jihozlash kompleks yondashish asosida bo'lishi, ya'ni o'quvchi o'quv dasturining har bir mavzusini to'la va sifatli o'rganishi uchun zarur va yetarli didaktik vositalar bilan ta'minlanishi lozim.

Kompleks yondashishni namoyish qilish maqsadida, chilangarlik o'quv ustaxonalarida o'qituvchilarning ish joylarini jihozlashda zarur bo'lgan didaktik va texnik vositalar majmuasini keltiramiz:

— barcha chilangarlik ishlari bo'yicha yo'riq xaritalari — 26 komplekt, har bir o'quvchi uchun — 1 komplektdan, kirish yo'rig'i o'tkazish uchun — 1 komplekt (karton asosida hajmi 80x100 sm);

— maxsus o'quv ishlab chiqarish ishlarining yo'rig'-texnologik va texnologik xaritalari — 26 komplekt, har bir o'quvchi uchun — 1 komplektdan, kirish yo'rig'i o'tkazish uchun — 1 komplekt;

— maxsus o'quv ishlab chiqarish ishlari uchun ishchi chizmalari — 30 komplekt;

— dasturning barcha mavzulari bo'yicha turli chilangarlik ishlarini bajarish uchun andoza shitlari — 1 komplekt;

— maxsus o'quv ishlab chiqarish ishlarining etalon namunasi keltirilgan shitlar — 1 komplekt;

— mavzular bo'yicha o'quvchilar ish jarayonida yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolar va ularni bartaraf qilish usullari keltirilgan jadvallar — 1 komplekt;

— mavzular bo'yicha asbob-uskuna namunalari keltirilgan shitlar — 1 komplekt;

— barcha chilangarlik va kompleks o'quv ishlab chiqarish ishlari bo'yicha «Baholash mezonlari» keltirilgan jadvallar — 1 komplekt;

— «Chilangarlik ishlari» plakatlari — 1 komplekt;

— mavzular bo'yicha uy vazifalari shakllari (to'ldirish uchun) — 30 komplekt;

— maxsus chilangarlik buyum(detal)lari tayyorlashning texnologik jarayonlarini ishlab chiqish shakllari (to'ldirish uchun) — 7—10 komplekt;

— chilangarlik ishi bo'yicha diafilmlar, videofilmlar, multemediya kompyuter dasturlari, elektron darsliklar — 1 komplekt.

O'quv texnika hujjatlarini saqlash va ulardan oqilona foydalanish shartlarini ta'minlashga alohida e'tibor berish zarur. O'quv ishlab chiqarish ishlari chizmalari, yig'ish chizmalari, texnologik xaritalari va boshqalar hamma vaqt aniq joyda hamda ozoda saqlanishi kerak.

Ularni kartonlar va sellofanlarga o'rab qo'yish maqsadga muvofiqdir. Ish jarayonida chizmalar dastgoh ustida bo'lishiga yoki o'quvchilar ularni iflos qo'llari bilan ushlashiga yo'l qo'ymaslik kerak. Yo'riqnoma va texnologik xaritalarga munosabat haqida ham xuddi shunday fikrni aytish mumkin. Ulardan foydalanishni shunday tashkil etish kerakki, ular ish joyida har bir o'quvchi qo'lida bo'lsin. Shundagina bu hujjatlar tegishlicha manfaat keltiradi.

Tajribali amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchilari o'zlarining ish o'rinlarini tashkil qilar ekanlar, maxsus universal moslamalarga, shablon, asbob-uskunalar va shaxsan foydalanadigan asbob-anjomlar bilan jihozlashga diqqatni jalb qiladilar. Yana shu narsa muhimki, bularning hammasi texnik jihatdan soz va saqlanishi namunali holatda bo'lishi kerak. O'quvchilar o'qituvchidan o'rnak olib, saronjomlikka, ozodalikka, buyumlarning qadriga yetishga o'rgansin. O'qituvchining ish joyida tegishli kasb va ixtisoslik bo'yicha zarur jadvallar, mahsulot standartlari, ma'lumot beradigan adabiyotlar, barcha darslik va o'quv qo'llanmalari bo'lishi kerak. Bularning barchasi uning ishini tartibga soladi, vaqt tejash imkoniyatini beradi va obro'yini ko'taradi. Ish jarayonida asosiy ma'lumot beradigan materiallar o'quvchilarda ham bo'lishiga harakat qilish kerak. Bu ustaxona devoriga o'rnatilgan ma'lumot beruvchi jadvallar shiti yoki o'quvchilar ish joyida asosiy ma'lumot beruvchi jadvallardir.

O'quv ustaxonasini sirtqi tomondan bezash turlicha bo'lishi mumkin. Bu yerda ko'p narsa o'qituvchi va guruh faollari tashabbusiga, ta'lim muassasasining umumiy ko'rinishiga bog'liq.

O'quv ustaxonasini jihozlashda har doim did bilan dizayn va estetika me'yorlariga rioya qilish kerak. Ustaxona devorlari bo'm-bo'sh bo'lsa ham yaxshi emas, ammo devorlarga har xil plakatlar, shitlar, jadvallar va hokazolarni osib yopishtirib tashlayverish ham yaramaydi. Devorlarda har xil axborotlar ko'p bo'lsa unga o'rganib qolinadi va qabul qilinishi qiyin bo'ladi yoki mazmuni butunlay qabul qilinmaydi. Ustaxona devorlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarga samarali yordami tegadigan vositalar osilishi kerak.

Ustaxona devorini maxsus bezash (yasatish) katta ahamiyatga ega. Amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisi har doim shu narsani yodda tutishi zarurki, hamma ijobiy harakatlar o'quvchilarni tarbiyalaydi, shu jumladan, ustaxona bezagi ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Hech qachon, hech qanday sharoitda did bilan dizayn va estetika me'yorlariga rioya qilmasdan bajarilgan sxema, jadval, shiorlar, chaqiriqlar va boshqalar bilan ustaxona devorlarini band qilmaslik kerak. Ustaxonadagi hamma ko'rsatmali materiallar bir tartibda romlangan, oynalangan bo'lishi kerak.

Ustaxona tashqi ko'rinishini rasmiylashtirishda asos hisoblangan namunali ro'yxatni keltiramiz:

— devoriy plakat «Kasbiy tavsifnoma» (tarmoq ta'lim standartidan olib keltiriladi);

— devoriy plakat «O'quv ustaxonasida mehnat xavfsizligi qoidasi»;
devoriy plakat «Yong'inga qarshi qoida»;

— devoriy plakat «O'quv ustaxonasida o'quvchilarning xulq-atvor qoidasi»;

— devoriy plakat «Mehnat va ish joyini tashkil qilish bo'yicha o'quvchilar uchun eslatma»;

— maxsus o'quv ishlab chiqarish ishlari namunalari shiti;

— tez-tez qo'llanilib turiladigan ma'lumotnoma (spravochnik) jadvallari;

— guruhlar devoriy gazetasi;

— shiorlar va chaqiriqlar yozilgan shitlar va hokazo.

5-mavzu: Kasb-hunar ta`limining tashkiliy shakllari

O'quv moduli birliklari

1. Nazariy mashg'ulotlar
2. Amaliy va labaratoriya mashg'ulotlari
3. Ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya
4. Kasb xunar ta`limida masofaviy o'qitish
5. O'quv va ishlab chiqarish amaliyoti

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba mavzuni o'zlashtirgandan so'ng:

- nazariy mashg'ulotlarni biladi;
- amaliy va labaratoriya mashg'ulotlarini biladi;
- ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya tarzida o'qitishni tushunadi;
- kasb xunar ta`limida masofaviy o'qitishni biladi;
- o'quv va ishlab chiqarish amaliyotini ta`riflay oladi;

Mavzuni o'qitishda aqliy hujum, suhbat, klaster metodlaridan foydalaniladi.

Tayanch so'z va iboralar

Nazariy mashg'ulotlar, amaliy va labaratoriya mashg'ulotlari,
ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya, kasb xunar ta`limida masofaviy o'qitish, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti.

Zamonaviy pedagogikada ta`limning umumiy shakllari (jamoaviy, gurux bulib, yakka tartibda) va ukuv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish turlari farqlanadi.

Ta`limni tashkil etish shakllari pedagogik jarayonni tashkil etishning tarixan mavjud bulgan, barkaror va mantikdn tugallangan kurinishi bulib, unga muntazamlik va yaxlitlik, uz-uzini rivojlantirish, shaxsiylik va faoliyatli xarakter, ishtirokchilar tarkibining doimiyligi, utkazishning muayyan tartibi mavjudligi xosdir.

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (o'qituvchi va tahsil oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limning tashkiliy shaklini anglatadi.

Kishilik jamiyatining taraqqiyot etish jarayonida ta'limning tashkiliy shakllari turlicha bo'lgan.

Qadimgi paytlarda yakka tartibda o'qitish usuli keng tarqalgan bo'lib, ma'lum ijodiy jihatlarga ega bo'lganligi bois bu usul hozirgacha saqlanib qolgan.

O'rtaasrga kelib, kasbiy ta'lim-tarbiya kichik guruhlar shaklida o'tkazila boshlagan. Chunki bu davrda sanoat ishlab chiqarishi yo'lga qo'yilayotgan edi.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida chex pedagogi Ya.A.Komenskiy sinf-dars tizimini nazariy jihatdan isbotlab berdi.

Hozirgi paytda kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari quyidagi xususiyatlarga binoan turlanadi:

Tahsil oluvchilar soniga ko'ra — ommaviy, jamoa, guruhli, individual.

O'qitish joyiga ko'ra — ta'lim-tarbiya muassasalarida va ulardan tashqarida (o'quv ustaxonalarida, mashq maydonlarda, korxonalarda, uy ishlari, sayohat va shu kabilar).

O'quv vaqtining davomiyligiga ko'ra — 45 daqiqalik, juftlik (90 daqiqa), qisqartirilgan (70 daqiqalik), qo'ng'iroqsiz.

Amaliyotda sinf-dars tizimi keng ko'lamda qo'llanilganligi sababli dars ta'lim-tarbiya ishining asosiy shakli deb yuritiladi. Sinf-dars tizimining o'ziga xos jihatlari quyidagilar:

- deyarli bir xil tarkib, yosh va tayyorgarlik darajadagi tahsil oluvchilar ishtirok etadi;
- ta'lim-tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq alohida-alohida qismlar ko'rinishiga ega bo'ladi;
- har bir dars o'quv rejasiga kirgan ma'lum bir o'quv predmetiga oid bo'ladi;
- darslar muntazam ravishda almashib turadi;
- kasb ta'limi darslariga o'qituvchi, muhandis-pedagog, tajribali mutaxassis kabilar rahbarlik qiladi;
- tahsil oluvchilar turli ko'rinishdagi o'quv-bilish jarayonida ishtirok etadilar.

Quyidagilar sinf-dars tizimining ijobiy tomonlari hisoblanadi:

- qat'iy tashkiliy tuzilmaga egaligi;
- iqtisodiy ko'rsatkichlarining nisbatan yuqoriligi. Chunki bir o'qituvchi bir vaqtni o'zida ko'p sonli tahsil oluvchilar bilan ishlaydi;
- o'zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga qulay sharoit yaratiladi.

Shu bilan birga, sinf-dars tizimining quyidagi kamchiliklari ham e'tirofetilgan:

- o'rtacha tahsil oluvchiga mo'ljallanganligi;
- har bir tahsil oluvchi bilan individual ishlash imkoniyatining yo'qligi.

Ijtimoiy talablar, kasb ta'limining maqsad va vazifalari, tahsil oluvchilarning talab hamda ehtiyojlari, ta'lim-tarbiya qonuniyatlari, prinsiplari kabilarga ko'ra kasbiy-ta'lim darslariga quyidagi talablar qo'yilishi lozim:

1. Fan-texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so'nggi yutuqlari, ilg'or pedagogik tajribalardan imkon qadar foydalanish, ta'lim-tarbiya qonuniyatlariga asoslanib, dars tuzilmasini maqbullashtirish.

2. Darsda barcha didaktik prinsiplarning maqbul nisbatini ta'minlash.

3. Tahsil oluvchilarning qiziqishi, ehtiyojlari, moyilligini hisobga olgan holda mahsulli o'quv-bilish faoliyati uchun shart-sharoit yaratish.

4. O'quv materialini mukammal o'zlashtirilishi uchun fanlararo aloqadorlikka amal qilish.

5. Tahsil oluvchilar tomonidan ilgari o'zlashtirilgan bilimlar va ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda ish ko'rish.

6. Tahsil oluvchilarning barcha ijobiy jihatlarini rag'batlantirish, o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish yo'li bilan rivojlantirishga erishish.

7. Darsning barcha bosqichlarida mantiqiy va his-tuyg'ularga asoslanish.

8. Didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalanish.

9. Nazariy materialni amaliyot bilan uzviy bog'lab o'rganish.

10. Zarur bilim, ish-harakat, oqilona fikrlash va amaliy faoliyat ko'rsatish usullarini tarkib toptirish.

11. Tahsil oluvchilarda uzluksiz ravishda o'qib-o'rganish, o'z bilimi va kasbiy mahoratini oshira borish malakasini shakllantirish.

12. Darslarni mukammal rejalashtirish natijalarini oldindan bashorat etish va tashxislash.

Kasb ta'limiga oid zamonaviy darslarda bir-biri bilan uzviy bog'liq ta'lim, tarbiya va rivojlantiruvchi maqsadlarni uyg'unlashtirish bu sohadagi aniq maqsadlarni ham aniqlashtirib olishni talab etadi.

Kasb ta'limda zamonaviy darslarga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

A) har bir darsning ta'lim-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifasini aniq belgilab olish;

B) ijtimoiy talab va tahsil oluvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini maqbullashtirish;

V) o'quv-bilish faoliyatini samarali pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish;

G) ta'limning turli shakl, metod va vositalarining uyg'unligini oqilona ta'minlash;

D) dars tuzilmasini ijodiy yondashgan holda shakllantirish;

J) tahsil oluvchilarning turli o'quv-bilish faoliyatlarini uyg'unlashtirish;

Z) ta'lim jarayoni ishtirokchilari orasida tezkor-teskari aloqani ta'minlash, ta'sirchan boshqaruv mexanizmini ishlatish;

E) darsni ilmiy-uslubiy asosda tashkil etish.

Darsga qo'yiladigan tarbiyaviy talablar quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlab, ulardan oqilona foydalanish:

- ta'lirn mazmuni va maqsadlaridan kelib chiqadigan tarbiyaviy vazifalarni qo'yish;

- tahsil oluvchilarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash;

- tahsil oluvchilarga nisbatan munosabatda bo'lish;

Rivojlantiruvchi talablar;

- tahsil oluvchilarda o'qib-o'rganishga bo'lgan ijobiy rag'batni shakllantirish va rivojlantirish;

- tahsil oluvchilarning rahiy xususiyatlari va rivojlanganlik darajasini o'rganish va hisobga olish;

- o'quv mashg'ulotlarini ilgarilab borish darajasida o'tkazish;

- tahsil oluvchilarni aqliy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishlarini oldindan bashorat etish va bo'ladigan o'zgarishlarga mos ravishda tezkor o'zgartirishlar kiritish;

Bundan tashqari kasb ta'limi metodikasida tashkiliy, psixologik, boshqaruvchilik, maqbul muloqot o'rnatish, hamkorlik qilish, sanitariya-gigiyena, etika va shu kabi talablar ham hisobga olinad

6-mavzu: Kasbiy ta`lim metodlari

O'quv moduli birliklari

1. Ta`lim me`todlari haqida tushuncha.
2. Og'zaki metodlar.
3. Ko'rgazmali metodlar.
4. Amaliy metodlar.
5. Kasb xunar ta`limida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba mavzuni o'zlashtirgandan so'ng:
- ta`lim me`todlari haqida tushunchaga ega bo'ladi;
- og'zaki metodlarni biladi;
- ko'rgazmali metodlarni biladi;
- amaliy metodlarni biladi;
- kasb-hunar ta`limida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishni axamiyatini tushunadi.

Mavzuni o'qitishda aqliy hujum, suhbat, klaster metodlaridan foydalaniladi.

Tayanch so'z va iboralar.

ta`lim me`todlari haqida tushuncha, og'zaki metodlar, suxbat, ma`ruza ko'rgazmali metodlar, amaliy metodlar, labaratoriya ishi, amaliy ishlar, mashqlar, kasb xunar ta`limida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
ulgurmasligiga sabab bo'ladi. O'qitish tamoyillari bilan bir qatorda o'qitishning asosiy qoidalari ham bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

– *tushunarlidan - tushunarsizga;*
– yaqindan - uzoqqa;
– osondan - qiyinga;
– aniqdan - mavhumga;
– umumiydan - xususiyga.

Ta'lim metodlari deganda o'qituvchi va tahsil oluvchilarning yagona maqsadga erishish borasidagi o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarini tushunmoq kerak.

O'qitish jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, nihoyatda xilma-xil va turli xarakterdagi omillarga bog'liq. O'qituvchi o'qitish usullarining bitmas-tuganmas xazinasiga ega. O'qitish usullarini har xil tasniflarini tahlil qilmay, uiarnmg ba'zilariga to'xtalib o'tamiz.

1. O'qitishda talabaning harakatlari tavsifiga ko'ra:
a) faol usullar
b) sust usullar

2. O'quv ishining turlariga qarab:
a) bilimlarni o'zlashtirishning dastlabki usuli
b) bilimlarni takomillashtirish usuli
c) bilimlarni tekshirib ko'rish va baholash usuli
3. O'quv materiallarini uzatich va idrok etish manbalariga qarab:
a) og'zaki usullar
b ko'rgazmali usullar
c) amaliy usullar

O'qitish usullari o'quv jarayonming amalga oshirish, ya'ni o'qitish va o'qish usullari bo'lganligidan, har bir usulga o'qituvchi faoliyati va talabalar faoliyati nuqtayi nazaridan qarash kerak. Shuning uchun ham, ta'lim usullarini o'quv materiallarini uzatich va idrok etish manbalari bo'yicha quyidagicha guruhlaymiz.

Og'zaki usullar. Agar talabalar asosiy o'quv axborotini o'qituvchining o'quv mulohazalari va isbotlari j'arayonida yoki darslik mavzulari asosida olsalar, bunday usullar og'zaki usullar jumlasiga kiradi (tushuntirish, hikoya, suhbat va h.k.).

Og'zaki usullar	***Ko 'rsatmali usullar***	***Amaliv usullar***
Suhbat; maqsadni tushuntirish talabalarga muammoli savot berish, talabalar-ning javoblarini muho-kania qilish. *O 'quv adabiyoti bilan mustaqil ishlash; maqsadni tushuntirish: Topshiriqning mazmum va talabalarning ish tarti bini amqiash, talabalar ishiga rahbarlik qilish. yakun yasash.* *Ovoz yozishdan va radio, televidiniyedan, multime dia resurslai-idanfoydala-nish: maqsadni tushuntirish kompyuter, texnika va multimedia vositalarini boshqarish; talabalarni idrok etishiga rahbarlik qilish va yakun yasash.*	*Ko'rgazmali o'quv adabiyotlari rasmlar va chizmalai-ni, videotas-virlar, Multimedialar, tajribaviy mehmat usul larini namoyish qilish; maqsadni tushuntirish; topshiriqni aniqlashi texnika vositalarini boshqarish, tqjribalarni amalda ko 'rsatish,* *Talabalarning obyekt vajarayonning mustaqil kuzatishlari; maqsadni tushuntirish, kuzatish obyektlarini aniqlash; talabalarning kuzatishlariga rahbar lik qilish. yakun yasash.*	*Laboratoriya va amaliy ishlar; maqsadni tushun tirish, talabalar ishin, tartibini va mazmu-nini aniqlash ham da rahbarlik qilish; yakun yasash;* *Mashqlar: maqsadni tushunti rish; talabalarning ishini tartibini va muzmunini tushun tirish; yakun yasash.* *Talabalarning ijodiy ishlari; maqsadni tushuntirish, muammo qo'yish; talabalar ishiga rahbarlik qilish va yakun yasash.*

Og'zaki usullar qo'llash jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalanish mumkin. Ammo ular yordamchi rol o'ynaydilar.

Bayon darsda ko'rgazmali vositalardan foydalanish yoki foydalanmasligiga bog'liq bo'lmagan holda tuziladi. Masalan, o'qituvchi tikuv mashinasining

tuzilishini va ishlash tartibini tushuntirayotganda kinematik sxemadan foydalanish mumkin. Lekin isbot mantiqini kinematik sxema belgilamaydi, balki u tushunchani o'zlashtirishga yordam beradi, xolos.

Og'zaki usullardan foydalanishning muvaffaqiyat ko'rsatkichlari - talabalarning yangi bilimlarni eslab qolishlari va takror aytib bera olishlaridir. Og'zaki usullarda talabalar o'qituvchi mulohazalari jarayonini takrorlaydilar, unga taqlid qiladilar.

Talaba o'qituvchming tushuntira olish mantiqiga qanchalik yaqinlashsa, materialni shunchalik muvaffaqiyatliroq o'zlashtiradi.

Og'zaki usullardan yangi materialni o'rganish paytida foydalaniladi va bu o'rganish fanlarni egallashning boshqa usullari bilan qo'shib olib borilsagina ular ta'limda yaxshi samara beradi.

Ko'rgazmali usullar deganda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar va texnika vositalariga ko'p darajada bog'liq bo'lgan o'quv materialini o'zlashtirish shakllari tushuniladi.

Ta'limning ko'rgazmali vositalari bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish xarakterini belgilaydi. Masalan, tikuv mashinasi detallarining namunalari ko'rsatilganda, mexamzmlarning ishlashini virtual model orqali yoki tikuv mashinasida bajariladigan texnologik jarayonnming videotasviri namoyish qilinishi orqali tushuntirish mumkin,

Asosiy maqsad dars mazmuni, albatta. O'qituvchi esa qo'shimcha tuzatish kiritishi mumkin, xolos.

Ta'limning bunday usullaridan foydalanilganda talabalarnmg bilish faoliyati ko'rgazmali vositalar yordamida shakllanadigan yoki esga tushiradigan hissiy obrazlarga, tasawurlarga bog'liq bo'ladi. Ko'rgazmali qurollar bilimlarni bir tizimga solish va boyitishda, shuningdek, talabalarnmg fikr yuritish faoliyatini faollashtirishda yordam beradi.

Ta'limning ko'rgazmali usullari taiabalarnmg bilish faoliyatida obrazli va mantiqiy, konkret va abstrakt, hissiy va aqliy jihatlarning nisbatini chuqur tushunishni talab etadi.

Amaliy usullar. Mashqlar, mustaqil topshiriqlar, amaliy va tajriba-sinov ishlari asosida o'quv materialini egallash shakllari ta'limning amaliy usullari jumlasiga kiradi. Ana shu usullar yordamida amaliy ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Bunday ko'nikmani shakllantirish jarayoni o'quv faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ko'nikmalarni egallashning muvaffaqiyati uni shakllantirish sharoitiga bog'liq.

Birinchi shart-ko'nikma nima maqsadda shakllantirilishmi anglashdir. Har qanday ko'nikma-avtomatlashgan darajaga yetkazilgan harakatlar sistemasidir. Agar talaba o'quv materialini o'zlashtirishda ularning ahamiyatini tushunmasa, bu harakatlarni shakllantirish qiyin bo'ladi. Masalan: tikuv mashinasi kiyimni qaysi qismlarini tikishga mo'ljallanganligini va buning uchun kiyim materialiga mos ravishda ip va ignalar tanlanishi tartibini bilmasa, shu ishlarni bajarishdagi harakatlanni shakllantirish qiyin bo'ladi.

Ikkinchi shart-mashqlarning tizimli bo'lishi. Odatda, ko'nikmalarni egallashdagi kamchiliklarga o'quv mashqlari tizimini tashkil etish va o'tkazishdagi

kamchiliklar sabab bo'ladi, ya'ni mashqlarni o'tkazish uchun kerakli vositalar bilan ta'minlanmaganligi.

Uchinchi shart-amaliy harakatlarni anglagan holda bajarish. Talabalar harakatlarning muayyan fikriy rejasiga asoslanishlari, ish jarayonlarining izchilligmi yaxshi tushunishlari zarur. Ularni mexanik tarzda takrorlashga va yodlab olishga yo'l qo'ymaslik kerak.

To'rtinchi shart-dastlabki amaliy harakatlar va jarayonlarga puxta tayyorlanish. Ular ongli ravishda reja asosida bajarilsa, ko'nikma tezroq, muvaffaqiyatliroq shakllanadi. Buning uchun talabalar nazariy bilimlarni yaxshi egallashlari kerak.

Beshinchi shart-mashqlarni mustaqil bajarish va o'zini o'zi nazorat qilish. Talaba ko'nikmani mustaqil bajara boshlaganida u o'z harakatlarini nazorat qiladi. O'qituvchi talabaga o'z-o'zini nazorat qilish usullarini o'rgatishi zarur. Masalan, talaba kiyimni bironta detaliga bezak berish jarayonini amaliy o'rgangandan keyin, uyda o'zi mustaqil ravishda bajarishga va baho berishga o'rganadi.

Oltinchi shart-bajarilgan mashqlar, amaliy ishlar tahlili va ularni baholash. O'quv ko'nikmalari va malakalarida ijobiy va salbiy jihatlar bo'ladi.Talabalar yo'l qo'yadigan tipikxatolar namoyon bo'ladi. Lekin sinfda yaxshi ishlarni namoyish qilish, rag'batlantirish kerak. Ijobiy namuna asosida o'qitish afzalroqdir.

Agar ko'nikmani shakllantirish shartlariga rioya qilinsa, o'qitishning amaliy usullari o'quv materialining muvaffaqiyatli egallanishiga olib keladi.

«Innovatsion texnologiya»lar tushunchasi

Shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda talaba (yoki o’kuvchi)larni faqat tayyor bilimlarni egallashga o’rgatib kelingan edi. Bunday usul talaba (yoki o’quvchi)larda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so’ndirar edi.

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta`limning samaradorligini ko’tarishga bo’lgan qiziqish, e`tibor kundan-kunga kuchayib bormokda. Zamonaviy texnologiyalar qo’llanilgan mashg’ulotlar talaba (yoki o’quvchi)lar egallayotgan bilimlarni o’zlari qidirib topishlariga, mustakil o’rganib, taxlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Uqituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo’naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o’quv jarayonida talaba (yoki o’quvchi) asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog - olimlarning yillar davomida ta`lim tizimida

Nega o’qitamiz ?

Nimani o’qitamiz?

Qanday o’tsitamiz? savollariga javob izlash bilan bir qatorda

Qanday qilib samarali va natijali o’qitish mumkin degan savoliga ham javob qidirdilar.

Bu esa, olim va amaliyotchilarni o’kuv jarayonini texnologiyalash-tirishga, ya`ni o’qitishni ishlab-chikarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko’rish mumkin, degan fikrga olib keldi.

Bunday fikrning tug’ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo’nalishini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda ta`lim muassasalarining o’quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga e`tibor berilayotganining asosiy sababi qo’yidagilardir:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojintiruvchi ta`limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida «Ta`lim to’g’risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da rivojlatiruvchi ta`limni amalga oshirish masalasiga alohida e`tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o’quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o’qituvchini ta`lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo’lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To’rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo’llashga asoslanganligi sababli, ularning qo’llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta`minlaydi.

O’quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to’g’ri joriy etilishi o’qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talaba (yoki o’quvchi)dan ko’proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlatini talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o’kuv-tarbiya jarayonida qo’llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talaba (yoki o’quvchi)ni kim o’qitayotganligi va o’kituvchi kimni o’kitayotganiga bog’liq.

Pedagogik texnologiya asosida o’tkazilgan mashg’ulotlar yoshlarning muhim xdyotiy yutuq va muammolariga o’z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o’z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo’layotgan innovatsion jarayonlarda ta`lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o’zlashtirish va o’zlashtirgan bilimlarini o’zlari tomonidan baholashga kodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustakil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta`lim muassasalarining o’quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o’qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o’rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta`limda ko’llanishiga oid bilimlar, tajriba talaba (yoki o’quvchi)larni bilimli va yetuk malakaga ega bo’lishlarini ta`minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha ***innovation***) yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon xamda o’qituvchi va talaba (yoki o’quvchi) faoliyatiga yangilik, o’zgarishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol («**Inter**» - bu o’zaro, «**act**»- harakat qilmoq) - o’zaro harakat kilmok yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo’lishni anglatadi. Boshqacha so’z bilan aytganda, **o’qitishning interfaol** uslubiyotlari -bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo’lib, unda ta`lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo’ladilar, ular biladigan va o’ylayotgan narsalarni

tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman talaba (yoki o'quvchi)larning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular fakat pedagog va talaba (yoki o'quvchi)larning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orkali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

– talaba (yoki o'quvchi)ning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;

– talaba (yoki o'quvchi)larning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiyligini ta`minlanishi;

– talaba (yoki o'quvchi)larning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustakil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;

– pedagog va talaba (yoki o'quvchi)larning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari kiradi.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba`zi o'kituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogt texnolagiya - fakat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonila ko'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositatlari, komp yuter. proektor yoki boshka texnik vositalar. Bizning fikrimizcha, peldgognk texnolognyaning eng **asosiy negizi** -o'kituvchi va talaba (yoki o'xuvchi)eing belgnlangan maksaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'lik. O'kitish jarayonida, maksad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta`lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba (yoki o'kuvchi) o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, xdr ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talaba (yoki o'quvchi)lar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, taxdil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruxd-a, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu - o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. *O'quv jarayonidagi **pedagogik texnologiya** - bu aniq ketma-ketlshdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talaba (yoki o'tsuvchi)ning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir matssadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirshgan va kafolatlangan natija berishiga tsaratilgan pedagogik jarayondir.*

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)ning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya`ni texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)ning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda talaba (yoki o'quvchi)larning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, komp kier bilan ishlash lozimdir, balki fil m (yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'lar. Bularning hammasi o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)larga bog'liq.

Shu bilan birga o’quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o’qituvchi o’quv predmetining o’ziga xos tomonini, joy va shiroitni, eng asosiysi, talaba (yoki o’quvchi)larning imkoniyati va extiyojini va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqacha aytganda, talaba (yoki o’quvchi)ni ta`limning markaziga olib chiqish kerak.

Ta'lim metodlarini tanlash. Ta'lim usullarini tanlash birinchidan, darsda ko'zda tutilgan o'quv maqsadlariga bog'liq. Masalan, darsning maqsadi yangi bilimlarni o'rganishdan iborat bo'lsa, o'qituvchi bu bilimlarni o'zi bayon etadi yoki talabalarning kitob bilan mustaqil ishlashini tashkil qiladi. Birinchi holda u turli xil narsalarni ko'rsatish bilan qo'shib olib boriladigan hikoya, tushuntirish, ma'ruza yoki suhbat usulidan foydalanishi mumkin. Agar darsda talabalarda amaliy ko'nikmalar hosil qilinishi kerak bo'lsa, buning uchun mashq qilish usuli qo'llaniladi.

Ikkinchidan, o'rganiladigan fanning mazmum va darsning aniq materialiga bog'liq bo'ladi. Masalan, «Tikuvchilik texnologiyasi» fanida o'rganish kiyimga ishlov berishda bir xil usullar, ishlab chiqarish ta'limi darslarida esa butunlay boshqa usullar qo'llaniladi. Ayrim hollarda o'rganilayotgan texnologik jarayonlarni talabalar bevosita kuzatishlari mumkin. Shuning uchun o'qituvchi bu kuzatishni tajribalarda yoki mehnat faoliyati jarayonida tashkil etadi. Agar ularni bevosita kuzatish mumkin bo'lmasa, o'qituvchi turli xil ko'rsatmali qurollarni namoyish qilishdan foydalanadi.

Uchinchidan, talabalarning ilgarigi tayyorgarlik darajasiga va shaxsiy tajribasiga bog'liq. Agar yangi material talabalarga butunlay notanish bo'lsa, o'qituvchi buni ko'rsatmali qurollar va tajribalarni ko'rsatish bilan qo'shib o'zi bayon qiladi.

Nihoyat, ma'lum bir o'qitish usulini tanlash asbob-uskunalar, ko'rsatmali qurollar va o'quv jarayonining normal o'tishini ta'minlaydigan boshqa shart-sharoitlarning borligiga, shuningdek, o'qituvchining tajribasi, ish uslubi va shaxsiy sifatlariga bog'liq. O'qituvchining vazifasi-bu shart-sharoitlarni yaxshilash hamda o'zining pedagogik mahoratini doimo takomillashtirib borishdan iborat.

7-mavzu: Nazariy ta`lim va uni loyihalash

O’quv moduli birliklari

1. Dars va uning turlari.
2. Dars rejasi va uning tarkibiy qismlari.
3. Darsning metodik strukturasi.
4. Nazariy ta`lim darslarida didaktik tamoyillarni qo’llashning xususiyatlari.

Aniqlashtirilgan o’quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba mavzuni o’zlashtirgandan so’ng:

- dars va uning turlarini biladi;
- dars rejasi va uning tarkibiy qismlarini biladi;
- darsning metodik strukturasini o’rganadi;

– nazariy ta`lim darslarida didaktik tamoyillarni qo'llashning xususiyatlarini biladi;

Mavzuni o'qitishda aqliy hujum, klaster va sinkveyn metodlaridan foydalaniladi.

Tayanch so'z va iboralar

Dars, darsning mazmuni, darsning maqsadlari, darsga qo'yiladigan talablar, didaktik maqsadlar bo'yicha darsning turlari, kundalik dars rejasi, dars matni, darsning metodik strukturasi.

Darc deganda o'qituvchining o'quv guruhiga (brigadaga) uyushgan, tayyorgarlik darajasi bir xil, tarkibi o'zgarmas o'quvchilar bilan mashg'ulot o'tkazishi tushuniladi.

Dars kasb-hunar kollejida xam ta`limni tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi.

Har bir dars o'quv jarayonining bir qismi hamda bilim, ko'nikma va malakalarni egallashning bir butun mantiqiy yakunlangan bosqichidir.

Har bir dars quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Maqsad va mazmunning aniqligi; bu talab darsning butun o'quv materialinn va uning har qaysi qismini to'g'ri tanlash bilan amalga oshadi.

**2. Ta`limiy va tarbiyaviy vazifalarning birligi;** ta`limning tarbiyaviy xarakteri uning ob`ektiv qonuniyati hisoblanadi. Shu bilan birga o'qituvchi o'quvchilarning kasbiy bilimlarini shakllantirishda hamma imkoniyatlardan foydalanishi kerak.

**3. Darsning har qanday bosqichida ta`limning eng kerakli metodlarini tanlash;** o'qitish metodini to'g'ri tanlash o'qituvchi mehnatining samaradorligini va o'quvchilarning eng yuqori faolligini ta`minlaydi, o'quvchilarga chuqur va puxta bilimlar berishni, ularda bi-limlarni amalga tatbiq etish malakalarini shakllantiradi.

4. **Darsda o'quvchilarning jamoa va yakka tartibdagi ishini to'g'ri qo'shib olib borish**; o'qituvchi dars davomida butun guruh bilan ishlashdan tashqari, o'quvchilarning yakka tartibdagi topshiriqlar bo'yicha mustaqil ishlashini ham keng joriy qilishi lozim.

5.**Darsni samarali tashkil etish**; bu talab darsga ajratilgan vaqtdan unumli foydalanishni, o'qituvchi va o'quvchilarning darsga yaxshi tayyorlanishini, mashg'ulotning yangi texnik jihozlar bilan ta`minlanishini, uning barcha elementlari, strukturasi puxta tuzilishini taqozo etadi.

Didaktik maqsadlar bo'yicha darsning quyidagi turlari mavjud:

1. **Yangi bilimlarni o'rganish darsi**. Bunday darslarda mavzu va ko'zlangan maqsad aytilib, yangi o'quv materiali bayon etiladi va o'quvchilarning mustaqil ishlashi uyushtiriladi. Uyga topshiriqlar beriladi. Darsning bu xili o'quv materialini o'zlashtirish oson hollarda o'tkaziladi.

2. **Umumiy yoki aralash dars**. Bunday darslarda har xil didaktik masalalar hal etiladi — uy topshiriqlarini va o'quvchilarniig bilimlarini tekshirish, yangi materialni bayon qilish va boshqalar amalga oshiriladi. Ular maxsus fanlarni o'rganishda eng kup tarqalgan. Aralash dars o'quv jarayonining bir-biriga eng

yaqin zvenolarini o’z ichiga oladi, bu esa o’quvchilar bilimlarni puxta va ongli o’zlashtirishini ta`minlash uchun muhimdir.

3. **Bilimlarni mustahkamlash darsi**. Bunday darslarda oldin o’rganilgan materiallar yuzasidan o’quvchilar bilan suhbatlar o’tkaziladi, kinofil mlar ko’riladi, bilimlarni esga solinadi, faktlar va tushunchalarni o’quvchilarning xotirasida mustahkamlanadi. Natijada bilimlar ancha puxtalashadi.

4. **Sinash-tekshirish darsi**. Bunday darslarda mavzu, bo’lim yuzasidan og’zaki savol-javoblar, test yordamida, yozma yoki grafik usulda tekshirish ishlari o’tkaziladi. Ulardan ko’zlanadigan maqsad — har bir o’quvchining tayyorgarlik darajasini asosli baholash uchun kerakli ma`lumotlar olish, ya`ni bilimlari qanchalik ongli va puxtaligini aniqlashdan iborat.

5. **Muammoli dars**. Bu darslardan maqsad o’quvchilar qo’yilgan muammolarni yecha olish yoki yecha olmasligini aniqlashdir. Bunday darslar o’quvchilar maxsus fanlardan ma`lum bilim, ko’nikma va malakaga ega bo’lganlaridan keyin o’tkaziladi.

Darsning ana shu asosiy turlari strukturasi quyida keltiridadi.

I. Yangi bilimlarni urganish darsi: 1. Tashkiliy qism. 2. Yangi o’quv materialini bayon qilish va mustahkamlash. 3. Uyga topshiriq berish. 4. Darsni yakunlash.

II. Umumiy yoki aralash dars: 1. Tashkiliy kism. 2. Uyga topshiriqni tekshirish. 3. Uquvchilar bilimini og’zaki (yakka tartibda, bir yo’la yoki aralash holda) tekshirish. 4. Yangi o’quv materialini bayon qilish. 5. Yangi o’quv materialini mustahkamlash. 6. Uyga topshiriq berish. 7. Darsni yakunlash.

III. Bilimlarni mustahkamlash darsi: 1. Tashkiliy kism. 2. Uy topshirig’ini tekshirish. 3. O’quvchilyardan so’rash, o’quv materialini mustahkamlash. 4. Uyga topshiriq berish. 5. Darsni yakunlash.

IV. Sinash-tekshirish darsi: 1. Tashkiliy kism 2. Uqituvchining topshiriqni tushuntirishi. 3. O’quvchilarning savollariga javob berish. 4. O’quvchilarnnng topshiriqlarni bajarishi. 5. Bajarilgan ishlarni o’qituvchiga topshirish. 6. Uyga topshiriq berish. 7. Darsni yakunlash.

V. Muammoli dars. 1. Tashkiliy qism. 2. Muammoli vaziyatni hosil qilish. 3. Muammoni bayon qilish. 4. Muammoni hal qilish yo’llarini kursatish va hal etish. 5. Natijalarni muhokama qilish 6. Uqituvchining izoxlashi va umumlashtirishi. 7. Uyga topshiriq berish. 8. Darsni yakunlash.

Dars muvaffaqiyatli o’tishi uchun uni tashkil etish bo’iicha o’qituvchi faoliyatining maqsadini aniqlash lozim.

Darsning maqsadi uchta: ta`limiy (o’qitish), tarbiyaviy va rivojlantirish maksadlariga bo’linadi. Ta`limiy maqsadga umuman quyidagilar kiradi:

yangi tushunchalarni shakllantirish;

yangi qonun, qonuniyat, xususiyat va belgilarni uzlashtirishni ta`minlash;

yangi harakat usullarini o’rgatish;

bilimlardagi yetishmovchiliklarni bartaraf etish;

bilimlarni umumlashtirish va tizimga solish;

malakalarni shakllantirish;

ma`lum harakat usullarini mustahkamlash:

tushunchalar orasidagi bog’lanishlarni aniqlash bo’yicha o’quvchilarda biror narsa to’g’risida tushunchalarni shakllantirish;

dunyoqarash g’oyalari va muammolarini aniqlash;

o’quvchilarda u yoki bu harakatni, voqealarni baholash bo’yicha bilimlarni shakllantirish;

xulosa chiqarishga tayyorlash, o’zlashtirishga erishish.

Tarbiyaviy maqsad o’quvchilarda quyidagi muayyan shaxs sifatlari va xarakterini tarkib toptirishdan iboratdir;

dunyoqarashni va kasbga qiziqishini;

o’z-o’zini tekshirish va o’zaro yordamni;

voqeliklar orasidagi bog’lanishlarni aniqlash va tahlil qilish ko’nikmalarini;

bir sohadan ikkinchi sohaga bilimlarni ko’chirish ko’nikmalarini;

fanlararo bog’lanishlarni amalga oshirish ko’nikmalarini;

nutq madaniyatini;

vatanparvarlikni;

mehnatga ongli munosabatni;

ongli intizom va yaxshi xulkni;

ta`lim olishga ijobiy munosabatni;

estetik qarashlarni;

ish o’rnini tashkil etish va o’z faoliyatini tekshirishni;

e`tiqodni.

Ta`limning mazmuni hayot va zamon bilan uzviy bog’lansa, u tarbiyalash xususiyatiga ega bo’ladi.

Rivojlantirish maqsadi — dars jarayonida o’quvchilarning psixologik sifatlarini diqqat, xotira, taffakkur va bilish qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Psixologik adabiyotlarni tahlil qilish o’quvchilarda tafakkurni, politexnik, mehnat, bilish (anglash) va aqliy ko’nikmalarni, iroda va mustaqillikni ri-vojlantirish, ularni kelgusi darslarga tayyorlash za-rurligini ko’rsatadi.

Agar bilimlarni shakllantirish va maqsadli tarbiyalash o’quvchilarning bilish qobiliyatini takomillashtirsa, buni rivojlantiruvchi ta`lim deb tan olinadi

Dars rejasi mavzu bo'yicha aniq mashg'ulotni o'tkazishning asosiy rejalashtiruvchi hujjati bo'lib, u amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisining tayyorlov ishi natijasi hisoblanadi. Darsning standart majburiy reja shakllari belgilanmagan, chunki reja shakli darsning mazmuni, amalga oshirish usullari, uning tarbiyaviy maqsadlari, bo'lajak ish xarakteri, mashqlarni tashkil qilish va o'qituvchi tajribasiga bog'liqdir. Dars rejalarini tuzishda quyida keltiriladigan o'quv ishlab chiqarish amaliyoti dars rejasi namunasidan foydalanish mumkin.

Endi namuna sifatida ayrim fanlar bo’yicha dars rejalarini ko’rib chiqamiz.

8,9-mavzu: Kasbiy fanlarni o’qitishda o’quv materiallarini bayon etish metodlari

O’quv moduli birliklari

1. *O’qitish metodlarining tasnifi,*
2. *Faol o’qitish metodlari.*
3. *O’quv materialini o’qituvchi tomonidan og’zaki bayon etish metodi.*

4. *O’qituvchi nutqiga qo’yilgan talablar.*
5. *Ko’rgazmali qo’llanma va o’qitish vositalaridan foydalanish metodikasi.*
6. *O’quv materialini muammoli bayon etish.*
7. *Fanlararo bog’lanishlarni amalga oshirish.*

Aniqlashtirilgan o’quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba mavzuni o’zlashtirgandan so’ng:

- *o’qitish metodlarining tasniflay oladi;*
- *faol o’qitish metodlarini biladi;*
- *o’quv materialini o’qituvchi tomonidan og’zaki bayon etish metodini biladi;*
- *o’qituvchi nutqiga qo’yilgan talablarni biladi;*
- *ko’rgazmali qo’llanma va o’qitish vositalaridan foydalanish metodikasini o’rganadi;*
- *o’quv materialini muammoli bayon etishni biladi;*
- *fanlararo bog’lanishlarni amalga oshirishni tushunadi.*

Tayanch so’z va iboralar

O’qitish metodlarining tasnifi, turlari, faol o’qitish metodlari. O’quvchilarni yangi bilimlarni o’zlashtirishga tayyorlash. O’quv materialini o’qituvchi tomonidan og’zaki bayon etish metodi. O’qituvchi nutqiga qo’yilgan talablar. Yangi o’quv materialini o’tishda suhbat metodidan foydalanish, ko’rgazmali qo’llanma, o’qitish vositalaridan foydalanish metodikasi.

O’quv materialini muammoli bayon etish fanlararo bog’lanishlarni amalga oshirish. O’qituvchining pedagogik faoliyati, uning mohiyati va strukturasi.

Keyingi yillarda pedagogika Fani va amaliyotida ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda Faollashtirishga yo'naltirilgan Faol usullarini ishlab chiqish va ulardan Foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Shunday samarali usullardan biri muammoli o'qitishdir. Muammoli o'qitish deganda mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va talabalarning ularni yechishga qaratilgan Faol, izlanuvchan, mustaqil Faoliyati tushuniladi. Buning natijasida talabalar puxta kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Talabalarning mashg'ulotlarga faol qatnashishi yoki qatnashmasligi o'qituvchiga bog'liq. Lekin talabalarni darsga jalb etish maqsadida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan bar qanday urinish yetarli darajada samara bermasligi mumkin. Bunday darslarni muammoli tarzda o'tish talabalarning darsga qiziqishini orttiradi. Bunda bar bir talaba darsning mohiyatini tushunib olishi uchun uning oldiga o'qituvchi tomonidan ma'lum bir muammo qo'yilishi kerak. Qo'yilgan muammoning talabalarda qay darajada intilish uyg'otishi uning xarakteriga bog'liq. Bunda har bir talaba o'z oldiga qo'yilgan muammoning mohiyatini chuqur anglab, uni yechishga harakat qilishi kerak. O'qituvchi esa bu jarayonni kuzatib boradi, tegishli maslahat berib yo'nalishlarni ko'rsatadi.

Zamonaviy darslarning xarakterli tomoni ham shunda. Muammoli o'qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo

bo'lishi individual holat bo'lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

O`qitish metodlarining tasnifi quyidagi rasmda keltirilgan bilimlarni



2-rasm. O’qitish metodlarining tasnifi

Topshiriq yuzasidan topshiriqlar, vazifalardan, muammoli vaziyatni o’z ichiga olgan boshqa vositalardan foydalanishda. Mana shularning hammasi bilish va qiziqish faoliyati

Muammoli darslarning yana bir xarakterli tomoni, bu usulni qo'llash talabalar bilimini o'stirish bilan birga ularda shu fanga qiziqish ham uyg'otadi.

Muammoli vaziyat yaratishning quyidagi uslubiy yo'llari mavjud:

– mavzu bo'yicha ziddiyatli holat paydo qilinadi va talabalarga yechim yo'llarini izlash taklif etiladi;

– muammoli holatga turlicha baho berish taklif etiladi;

– nazany va amaliy topshiriqlardagi muammolar aniqlanadi;

– taqqoslash, umumlashtirish va xulosalar chiqarish;

– aniq savollar qo'yiladi.

Ta'limning muammoli - izlanuvchan uslublari amalda bilimni so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyotlar yordamida bajariladi. Bunda o'quv

materialini muammoli bayon qilish uslubini qo'llash, amaliy muammoli - izlanuvchan ishlarini, hatto tadqiqot tipidagi amallarni bajarish to'g'risida so'z yuritish mumkin.



3-rasm. Faol o’qitish metodlarining tasnifi

O'quv materialini muammoli uslub yordamida o'tish tuzilgan muammoli ma'ruza uslubi orqali bilim bayoni davomida mulohaza yuritish, isbotlash, umumlashtirish, dalillarni tahlil qilish, talaba fikrini qamrab olish, uni faollashtirish kabi usullardan foydalanishni ko'zda tutadi.

Muammoli ta'lim uslublaridan biri evristik va muammoli izlanuvchan suhbati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi (pedagog) talabalar oldiga qator izchil va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan savollarni qo'yadi. Talabalar ularga javobberganda qandaydir shakllami aytib, ularning to'g'riligini isbotlashga harakat qiladilar. Shu bilan birga, mustaqil ravishda yangi mavzularni o'zlashtirishga harakat qiladilar. Agar evristik suhbatda taxminlar yangi mavzuning faqat biror qismiga aloqador bo'lsa, muammoli-izlanuvchan suhbatda talabalar muammoli vaziyatning butun bir tizimini hal qiladilar. Shuning uchun ham, bu suhbatning farqi shartli bo'lib faqatgina muammoli vaziyatda qo'llanish tadbirlariga taalluqlidir.

Ta'limning muammoli -- izlanuvchan uslublarida ko'rgazmali qo'llanmalar esda saqlashni faollashtirish maqsadida emas, balki darsda muammoli vaziyatni yaratadigan amaliy masalalarni qo'yish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, keyingi paytda rasmlar va chizmalar tizimi ko'rinishida muayyan o'quv vaziyatlari tasvirlarining ko'rgazmali qo'llanmalari ko'p tayyorlanmoqda. Bu usulda talabalarning mustaqil fikrlashining ustuvor ko'rinishlarini aniqlash oson ko'chadi.

Muammoli - izlanuvchan uslublar ko'proq ijodiy bilish faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Ular talabalarning mavzuni

chuqur anglashiga, mustaqil egallashiga yordam beradi. Bu uslublar, ayniqsa, quyidagi hollarda samarali qo'llaniladi: o'quv jarayonida tushuncha, qonun va nazariya kabilarni shakllantirish ko'zda tutilganda, daliliy axborotni ma'lum qilish, mehnat faoliyatining laboratoriya-tajriba-sinov uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishda, o'quv materialining mazmuni prinsipial jihatdan yangi bo'lmay, ilgari o'rganilganining mantiqiy davomi bo'lsa, uning asosida talabalar yangi bilimni qidirish uchun mustaqil qadam tashlasa, mazmun hodisadagi sabab-oqibat va boshqalarga olib kelsa.

O’qituvchining o’quv materialini og’zaki bayon etish metodikasi. O’quvchilarga o’quv materialini bildirishning asosiy metodlaridan biri so’zlab berish, tushuntirish, ma`ruzani o’z ichiga oladigan og’zaki bayon etishdir. Bularning hammasida ta`lim berishning faqat bir vositasidan - o’qituvchi so’zidan foydalaniladi.

So’zlab berish o’quv materialini hikoya tarzida bayon etishni ko’zda tutadi. Bu metod o’quv materiali, asosan, tavsifiy xarakterda bo’lib, mantiqiy izchilligi bilan farq qiladigan hollarda qo’llaniladi. So’zlab berish yordamida, odatda, kirish mavzulari, mashina va mexanizmlarning umumiy tuzilishi, materiallarning xossalari va ishlatilishi, ishlab chiqarishning umumiy texnologiyasi masalalari va shu kabilar bayon etiladi.

Tushuntirish o’quv materialini og’zaki bayon etishni ko’zda tutadi. Tushuntirish jarayonida o’qituvchi solishtirish, taqqoslash, deduktsiya, induktsiya, asoslash, qonuniyatlar chiqarish, masalalar yechish va shu kabilardan foydalanadi. Tushuntirish, asosan, xususiy va konkret ma`lumotlarni bildirishda qo’llaniladi. PrKasb hunaro kollejlari o’qituvchilarining ish tajribasidan so’zlab berish va tushuntirish sof holda kamdan-kam uchraydi, ular ko’pincha so’zlab beritsh-tushuntirishdan iborat bo’lgan kompleks metod tarzida qo’llaniladi.

*Ma`ruza,* so’zlab berish va tushuntirishdan farqli o’laroq, ancha aniq tuzilgan bo’ladi. Ma`ruzalar, odatda, o’quv dasturining yirikroq, printsipial muhim masalalari yuzasidan o’qiladi. Ma`ruzada o’quv materiali yaxlit va izchillik bilan bayon etiladi, o’zaro bog’langan tushunchalar, qonuniyatlar tizimi ochib beriladi, kursning turli mavzulari orasida ichki bog’lanishlar o’rnatiladi. Kirish ma`ruzalari, sharh ma`ruzalar, rukn ma`ruzalar va xotima ma`ruzalar bo’ladi.

Ma`ruza so’zlab berishga qaraganda uzoq davom etadi (u, odatda, butun darsga mo’ljallanadi) va o’quvchilarning yozib borishini (konspekt tuzishini) ko’zda tutadi. Ma`ruzani eshitish so’zlab berishni eshitishga qaraganda qiyinroq, chunki ko’prqo diqqat-e`tiborni talab etadi. Ma`ruzalar, odatda, kollejlarnint yuqori kurslarida qo’llaniladi.

Metodik usul nuqtai nazaridan olganda so’zlab berish, tushuntirish hamda ma`ruza juda ko’p umumiylikka ega, shu sababli umuman, og’zaki bayon metodikasini ko’rib chiqamiz va har qaysi metodning o’ziga xos xususiyatlarini qayd etamiz.

Og’zaki bayon etishga tayyorgarlik ko’rishda shuni nazarda tutish zarurki, o’quvchilar yangi materialni, odatda, u tegishli mantiqiy izchillikda qism-bo’laklab bayon etilgan taqdirdagina ancha samarali o’zlashtiradilar. O’quv materialining har bir qismi nisbatan tugal mazmunga ega bo’lishi kerak. Bayonni rejashtirishda

materialni asosiy masalalar mumkin qadar kam bo’ladigan tarzda tuzishga harakat qilish zarur. Tajribadan ma`lumki, o’quvchilar ikki-uchta asosiy fikrni oson, to’rt yoki beshta asosiy fikrni qiyinroq idrok etadilar, agar asosiy fikrlar sakkiz-o’nta bo’lsa, o’quvchilar ancha qiynaladi.

Bayon etishda eng qiyini boshlang’ich qismdir, shuning uchun o’qituvchi uni juda puxta mashq qilishi zarur. Hamma vaqt ma`lum va konkretroq materialdan boshlab, sekin-asta yangi materialga o’tish lozim.

O’qituvchilar ish tajribasida yangi fakt, hodisa, qonuniyat va voqealarni tushuntirishni tuzishniig ikki usuli: induktiv hamda deduktiv usullari qo’llaniladi.

Induktiv usulda o’qituvchi xususiydan umumiyga, deduktiv usulda esa, aksincha, umumiydan xususiyga boradi. Bir materialning o’zini ko’pincha ikki usul bilan berish mumkin. Masalan, po’latning qattiqligi bo’shatish temperturasiga bog’liqligini induktiv usul bilan tushuntirish, ya`ni har xil temperaturalarda bo’shatilgan ayrim namunalarning qattiqligini o’lchab, chog’ishtirma jadval tuzish va bog’liqlikni quyidagicha ta`riflash mumkin: bo’shatish temtteraturasi ko’tarilishi bilan qattiqlik pasayadi. Deduktiv usulda dastlab qonuniyat ta`riflanadi, so’ngra misollarda ko’rsatiladi.

Deduktiv usulda bayon etishga vaqt ancha kam sarflanadi, ammo bu usulni qo’llash uchun o’quvchilarda dastlabki bilimlar va abstrakt fikrlash borasida ma`lum tajriba bo’lishi zarur. Shu sababli kasb hunar kollejlarining o’quvchilari uchun, ayniqsa, o’qishning dastlabki bosqichlarida, materialni asosan induktiv usulda bayon etish lozim.

Bayon etishning induktiv yoki deduktiv usulining qo’llanilishi o’rganiladigan materialning mazmuniga bog’liq. Hikoya tavsifidagi materialni induktiv usulda bayon etgan ma`qul; mulohazalar, xulosalar, asoslashlar ko’p bo’lgan material ko’pincha deduktiv usulda bayon etiladi.

Shuni ta`kidlab o’tish zarurki, tushuntirishning induktiv va deduktiv usullari “sof” holda kam qo’llaniladi. Odatda, o’qituvchilar o’quv materialini bayon etishda, o’rganiladigan masalalarning murakkabligi va muhimligiga qarab bu usullardan kompleks tarzda foydalanadilar.

Bayon etishning g’oyaviy-siyosiy yo’nalganligi nihoyatda muhxim ahamiyatga ega. Darsda ta`lim masalalarigina emas, balki tarbiya masalalari ham hal qilinadi. Kasb hunar kollejlarining dasturlari har bir o’qituvchiga; ishlab chiqarish ta`limi ustasiga o’quvchilarda milliy istiqlol g’oyasining dunyoqarashini hosil qilishi, ularni g’oyaviy-siyosiy tarbiyalash uchun ko’p imkoniyatlar beradi.

Maxsus fanlar darslarida o’qituvchi o’quv materialini bayon etar ekan, tegishli sohada texnika va texnologiyaning takomillashtirilishi, uning rivojlanish sur`atlari hamda istiqbollari, o’zbek olimlari, konstruktorlari, ishlab chiqarish ilg’orlari va novatorlari erishgan yutuqlar to’g’risida so’zlab berishi zarur.

O’qituvchi umumtexnika fanlari (elektrotexnika materialshunoslik, umumiy texnologiya, elektrotexnika, radiotexnika va hokaeo) darslarida o’quvchilarga konkret misollarda tabiat, texnika, texnologiya, iqtisodga doir o’rganilayotgan o’odisalarning chinakam moddiy ahamiyatini chinakam ilmiy tushuntirib berishi, o’rab turgan dunyoni o’zgartirishda inson faoliyatining rolini ko’rsatishi kerak.

Yuqorida ta`kidlab o'tilganidek, o'quv materialini qism-bo'laklab bayon etish tavsiya qilinadi. Bunda fikrdan fikrga, qismdan qismga mantiqan o'tish, darsdan ko'zlangan asosiy maqsadni o'quvchilar esiga tushirish, materialning bayon etilgan har bir qismiga yakun yasash zarur, bu shartlarga amal qilish bayon etishning mantiqiyligini oshiradi. Bayon etish mantiqi o'quvchilarga tushunarli bo'lishiga harakat qilish zarur. Har bir fikr o'quvchilar ongiga yetkazilmog'i lozim.

Bayonning tushunarli bo'lishini oshirish uchun:

konkret bo'lish lozim, chunki umumiy mulohazalar, odatda, qiyinroq o'zlashtiriladi; zarurat bo'lmasa, tushunarsiz terminlardan foydalanmaslik kerak;

jumlalarni imkoni boricha qisqa tuzish lozim;

raqamli materiallarni etiyojsiz ishlatavermaslik zarur.

Bayon etish vaqtida o'qituvchi taqqoslashdan foydalansa, o'quvchilar materialni yaxshiroq tushunadi. Taqqoslash, deb ta`kidlagan edi K. D. Ushinskiy, har qanday fikrlash va har qanday tushunish asosidir. Olamdagi hamma narsani taqqoslash orqali bilamiz.

Muvaffaqiyatli bayon etishning eng muhim sharti o'qituvchi bayon etayotgan o'qkuv materialini idrok etish va tushunib olish jarayonida o'quvchilar e`tiborining turg'un hamda fikrlash faoliyatining aktiv bo'lishidir.

Ilg'or pedagoglar o'quvchilar e`tiborini jalb qilib turish hamda fikrlash faoliyatini aktivlashtirishning har xil usullari va metodik usullaridan foydalanadilar; bu usullarning samaradorligi har bir ayrim holda materialning mazmuniga, guruhniig tarkibi hamda tayyorgarligiga, darsda foydalaniladigan jihozlarga, o'qituvchining individual fazilatlari va ish tajribasiga bog'liq bo'ladi. Yaxshi pedagoglar tajribasini jamlab, eng xarakterli metodik usullarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Avvalo, so'zni ko'rsatma qo'llanmalar, tajribalar, mehnat usullarini namoyish qilish, daftarlrdagi yozuvlar, rasm chizish, sxema, grafik hamda jadvallar tuzish, diafil mlar namoyish qilish, magnitofonga yozib olinganlarni eshittirish va shunga o'xshashlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini khrsatib o'tish lozim. Uyg'unlashtirish bama`ni bo'lganda, tabiiyki, o'quvchilarni aktivlashtiradi, material yaxshi o'zlashtiriladi, chunki bu holda idrok etish jarayonida o'quvchilarning bir necha xil sezish organlari (analizatorlari) ishtirok etadi.

O'quv materialini bayon etishda ko'rsatma qo'llanmalardan, ya`ni tashqi ko'rsatmalilikdan foydalanishning muihmlign to'grisida gapirilar ekan, «ichki» ko'rsatmalilik rolini alohida ta`kidlab o'tish zarur.

O'qituvchi so'zlab berish va tushuntirishni shunday tuzishi kerakki, o'rganilayotgan materialning mohiyatini fikran tasavvur qilishi uchun o'quvchilarda bayon etilganlar to'g'risida jonli obrazlar paydo bo'lsin.

Bayon etishni muammoli qilib tuzish o'quvchilarni aktivlashtirish va ular e`tiborini oshirishga ko'p jihatdan yordam beradi. Uning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi qonuniyat, xulosa, qoida va shu kabilarni shunchaki bayon etib qolmay, balki haqiqatning "embiriologiyasini" ochib beradi, ya`ni ularni kashf etish yo'lini bir qadar takrorlaydi. O'qituvchi muammoni o'rtaga tashlab, uni hal qilishda vujudga keladagan ichki ziddiyatlarni tushuntiradi, o'z taxminlarini aytadi,

ularni muhokamaga qo’yadi, e`tirozlarni rad etadi, haqiqatni isbotlaydi. O’qituvchi ana shu metodik usul yordamida o’z mulohazalariga o’quvchilarni jalb etadi, ularni o’zi bilan birga fikrlashga majbur etadi, izlash muhiti hosil qiladi. Bu shaklda bayon etishda o’quvchilarni o’z fikrlarini aytish va xulosalar qilishga odatlantirish foydalidir.

Materialni bayon etish vaqtida o’quvchilarga savollar berishni rasm qilish kerak. Bunday metodik usul ikki maqsadni kelaydi. Birinchadan, o’qituvchi o’quvchilarning javoblari xarakteriga qarab, ularning materialni qanday o’zlashtirayotganligini bilish, ya`nn m`lum darajada «qayta aloqa» ni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo’ladi. Ikkinchidan, o’quvchilar o’qituvchining istagan paytda so’rab qolishini bilib, uni ancha diqqat bilan, atrofga chalg’imay eshitadilar.

Materialni bayon etish vaqtida o’qituvchi o’quvchilarga savollar berib, ular bayon etilganlarni qanchalik tushunganliklarini aniqlashga harakat qilishi lozim.

Bunda o’qituvchi o’quvchilardan o’zi aytanlarini shunchaki takrorlamay, balki ochilgan qonuniyatlarni, xulosalarni anglab olish va amalda tatbiq etishga harakat qilishlarini talab etishi zarur: bunda o’quvchilarni o’qituvchiga savollar berishga odatlantirish kerakki, bu ham o’quv materialining muvaffaqiyatli o’zlashtirilishiga yordam beradi, darsda o’quvchilarning fikrlash qobiliyati aktivligini oshiradi. Pestalotstsining “o’z vaqtida berilmagan savol yo’qotilgan xazinadir” degan dono so’zlarini esdan chiqarmaslik kerak. Mashhur pedagog V. A. Suxomlinskiy o’quvchilarning o’qituvchiga beradigan savollari ular fikri aktivliginin namoyon bo’lshi, «bilimlarni undirishning» zarur elementi, deb hisoblagan edi.

Agar o’quvchilarda o’qituvchiga savollar bo’lmasa, bu hol o’qituvchini sergaklantirishi, uni o’quvchilar passivligiga sabab nima: ularning qiziqmasligimi, tushunmasligimi yoki boshqa sabablar bormi, deb o’ylashga majbur qilishi lozim. O’quvchilarni aktivlashtirish, ularda o’rganilayotgan masalalarga qiziqish uyg’otish kerak. Oqilona berilgan savol uchun o’quvchini rag’batlantirish lozim.

O’quvchilar savollarni butun material yoki unint ayrim qismlari bayon etilib bo’lgandan keyin berishlari kerak. Aks holda savollar o’qituvchini asosiy fikrdan chalg’itishi mumkin. Bu metodik usul foyda o’rniga zarar keltiradi.

Shu munosabat bilan ta`kidlab o’tish kerakki, o’quvchilarga “Tushunarlimi?” yoki “Aniqmi?” degan an`anaviy savollar berish yo’li bilan ularni savollar berishga o’rgatish tavsiya etilmaydi. Bunday savollarga o’quvchilar odatda, baravariga «Tushunarli!» deb javob qaytaradilar, holbuki, hamma vaqt ham shunday bo’lavermaydi. O’quvchilarning e`tiborini yuqori darajada tutib turishga mantiqiy savollar deb ataladigan savollar, ya`ni o’qituvchi o’ziga-o’zi beriladigan va javobini o’zi qaytaradigan savollar yordam beradi. Bunday metodik usul bayonni xilma-xil qiladi, bundan tashqari, o’qkuvchilarni savollarga javob qaytarishga tayyorlaydi, bu esa o’quvchilarning darsni diqqat bilan tinglashiga ijobiy ta`sir etadi.

O’quvchilar charchashi oqibatida, ko’pincha, ularning diqqat-e`tibori va aktivligi pasayadi, o’quv materialini bayon etishda buni hisobga olish zarur. Uzoq vaqt e`tiborni jalb etish kishini charchatadi, o’quvchi o’qtuvchining so’zlarini

diqqat bilan eshita olmaydi, chalg'iy boshlaydi. Bu qonuniyatni bilmaydigan pedagoglar charchagan o'quvchilarda "e`tibor hosil qilishga" behuda urinadilar.

Ishni o'quvchilar butun dars bo'yicha charchamaydigan, diqqatini darsga jalb etadigan qilib tashkil etish lozim. o'quvchilar charchashining oldini olish usularidan biri darsni o'tkazish shakl va usullarining xilm-axil bo'lishi, darsnint eng unumli qismidan o'rganilayotgan o'quv materialini o'zlashtirish uchun foydalanishdir. Tajribali o'qituvchilar o'quvchilar o'zlashtirishi qiyin bo'lgan materialni darsning birinchi yarmida bayon etadilar, Takrorlash, o'quvchilardan so'rash va bilimlarni puxtalash ishlarini esa darsning ikkinchi yarmida o'tkazadilar. Darsda o'quvchilarning "aktiv dam olish" shakllaridan biri ular faoliyati turlarini almashtirishdan, ularga emotsional ta`sir ko'rsatishni yaxshilashdan iborat. Kinofil m va diafil mlardan lavhalar ko'rsatish, magnitofonga yozib olinganlarni eshittirish, plakatlar, maketlar ko'rsatish, tajribalar o'tkazish, daftarlarga rasmlar solish, masalalar yechish, kartochka-topshiriqlardagi savollarga javoblar qaytarish va shu kabilar - bularning hammasi o'quvchilarning ham charchab, ish qobiliyatlarini yuqori darajada tutib turishga yordam beradi.

Aksari tajribali o'qituvchilar o'quvchilar charchog'ini yozishda psixologik dam oldirish deb ataladigan usuldan foylalanadilar. Bunga, odatda, hayotdan olingan misollardan foydalanish, o'zlashtirish uchun ancha oson bo'lgan materialni bayon etishga o'tish yo'li bilan erishiladi. Shu maqsadda hazil-mutoyiba qilish, maqollar aytish, qiziq-qiziq voqealarni gapirib berish ham o'rinli bo'ladi. Texnika masalalarini o'rganishda hayotdan o'rganilayotgan materialga taalluqli misollar keltirish tavsiya qilinadi. Bu hol, bir tomondan, bayonni ancha ravshan, tushunarli qilsa, ikkinchi tomondan, o'quvchilar o'rganilayotgan hodisalarni, qonunlarni real amal qilayotganligini ko'radilar (masalan, pona— keskich, kuchlar jufti — vorotok, parallel kuchlarning egovga bosimi, kesish deformatsiyasi — qaychi, bo'shatish — charxlash vaqtida asbobni sovitish va hokazo).

O'quv materialini bayon etishga muayyan vaqt ajratilishi sababli o'qituvchi darsda mo'ljallanganlarning hammasini bayon etishga ulgurish uchun harakat qilishi kerak. Buniig uchun o'qituvchi:

darsni o'z vaqtida boshlashi;

darsga tayyorlanish vaqtida unint ayrim bosqichlari uchun ketadigan vaqtni, agar zarur bo'lsa, ayrim asosiy masalalarga ketadigan vaqtni taxminan belgilab olishi va dars jarayonida ana shu reglamentga rioya qilishi;

o'quvchilardan qo'yilgan savollarga aniq va qisqa javob qaytarishni talab etishi;

shaxsan o'zi uchun qiziq bo'lgan masalalarni ortiq darajada batafsil va uzoq vaqt bayon etmasligi lozim, aks holda ahamiyati kam bo'lmagan boshqa masalalarni bayon etishga vaqt yetishmay qoladi;

dars rejasi va konspektdan oqilona foydalanishi, lekin ularga bog'lanib qolmasligi, faqat vaqt-vaqti bilan o'zini nazorat qilish maqsadida ularga qarab olishi;

ko’rsatma qo’llanmalarni, asboblar va boshqa moddviy texnika kerak-yarog’larni o’z vaqtida taxt qilib qo’yishi hamda kerak bo’lgan vaqtda olish oson bo’ladigan tartibda joylashtirib qo’yishi zarur.

Har qanday materialni bayon etish so’ngida hamisha yakun yasash kerak. Og’zaki bayonning yakuniy qismi aytilganlarni umumlashtirish va yakun yasash uchun arur. Bayonning xotima qismida bayon etilgan materialning asosiy joylarini yana bir bor aytib o’tish, eng muhim joylariga o’quvchilar e`tiborini qo’shimcha ravishda qaratish, asosiy xulosani takrorlash kerak.

O’qituvchi nutqining texnikasi. O’quv materialini o’quvchilarga muvaffaqiyatli yetkazish uchun o’qituvchi bayon etish metodikasi bilan bir qatorda nutq texnikasini ham yaxshi egallagan bo’lishi kerak. Nutq texnikasi, ko’pchilik hollarda tabiat in`omi bo’lmay, balki o’z ustida tinmay ishlash natijasidir.

O’qituvchilar o’quv materialini har xil tarzda bayon etib, bunda ijobiy natijalarga erishishlari mumkin. O’qituvchi mukammal biladigan, o’quvchilarning chuqur va puxta bilim olishiga imkon beradigan metodikagina yaxshi bo’ladi. Shu munosobat bilan nutq texnikasi yuzasidan har bir o’qituvchiga bir xil darajada va istagan holda yarayveradigan metodik maslahat berish qiyin. Shuning uchun ilg’or pedagogik tajribani umumlashtirishga asoslangan ba`zi tavsiyalarni keltirib o’tamiz.

Avvalo shuni nazarda tutish kerakki, darsda o’quv materialini og’zaki bayon etish tashqi samaraga mo’ljallangan nutq bo’lmay, balki o’quvchilarga yangi bilimlar bayon etishdir.

O’quv materialini o’quvchilarga qarab, jonli tilda bayon etishga harakat qilish, “biz”, “siz”, “biz siz bilan” kabi olmoshlardan ko’proq foydalanish, o’quvchilarning diqqatiga e`tibor berib turish kerak.

O’qituvchi nutqining ifodali blishi uchun mimika va imo-ishoralar katta ahamiyatga ega, chunki ular bayon etilayotgan materialning ma`naviy bo’yog’ini kuchaytirishga, unga o’z munosabatini bildirishga yordam beradi. Ammo mimika, imo-ishoralarga haddan tashqari berilib ketish yaramaydi.

O’qituvchi o’quv materialini bayon etar ekan, unga befarq qaray olmaydi. Bu narsa o’quvchilarni o’am befarq qaray olmaydigan qiladi. O’qituvchi bayon etayotgan materialning emotsional bo’yogi o’quvchilar e`tiborni aktivlashtiradi.

Ta`lim jarayonini ijobiy emotsiyalar asosida qurish zarur. I. P. Pavlov ijobiy emotsiyalarga bosh miya katta yarim sharlari mahsuldor ishlashining manbai sifatida qarar edi. Psixologlar ijobiy emotsiyalarni inson faoliyatining qudratli stimuli deb hisoblaydilar. Didaktika zerikish ta`limning - ashaddiy dushmani ekanligini isbot qilgan.

Tabiiyki, bayonning emotsional bo’yogi imkonityatlari ko’p darajada fanning mazmuniga bog’liq. Gumanitar fanlar o’qituvchilarida bunday imkoniyatlar, masalan, umumtexnika va maxsus fanlar o’qituvchlarinikiga qaraganda ancha katta. Biroq eng “quruq” fan ham jonli, qiziqarli, jozibali tarzda bayon etilishi zarur. Bunga erishish vositalari juda ko’p. Bular jumlasiga tarixga kichikroq ekskursiya qilish ham, qiziqarli faktlar, amalda ishlatiladigan misollar keltirish ham, solishtirish ham kiradi va hokazo.

Har bir pedagogning nutq sifati va ovoz tembri har xil bo'ladi. Tegishlicha mashq qilib, ovozning yoqimli bo'lishiga erishish mumkin. Nutqning individual kamchiliklariga, masalan, dimog'dan so'zlash, so'zning oxirgi qismini "yutib yuborish" va shu kabi kamchiliklaoiga barham berish zarur. Nutqni parazit so'zlardan («xo'sh», «undan keyin» kabi so'zlardan) tozalash lozim.

O'qituvchi ovozining o'zi bemalol gapira oladigan ohangini aniqlab olishi juda foydali. Bu ohangdan chetga chiqish nutqni jonlantiradi. Nutqning past-balandligi muhim ahamiyatta ega. O'qituvchining auditoriyani to'ldirib, eng oxirgi qatorda o'tirgan o'quvchilar ham eshitadigan ovozi normal hisoblanadi. Biroq haddan tashqari baland ovoz o'quvchilarni charchatib qo'yadi.

So'zlashning tez-sekinligi ham nutq texnikasini xarakterlaydi. Juda tez nutqni (minutiga 150 so'z) o'quvchilar yaxshi tushunmaydi, haddan tashqari sekin nutq (mnnu.tiga 80 dan kam so'z) o'quvchilarning g'ashiga tegadi va e`tiborining susayishiga sabab bo'ladi.

Nutqning tezlik va balandlik darajasini, shuningdek, ohangini o'quv materialining qiyinlik hamda muhimlik darajasiga qarab o'zgartirish zarur. Muhim qonun-qoidalar, ta`riflarni oddiyroq yoki ikkinchi darajali materialga qaraganda balandroq ovoz bilan va sekinroq bayon etgan ma`qul. Hamma vaqt aniq va ravshan gapirishga harakat qilish lozim. Yangi terminlarni ayniqsa aniq aytish zarur.

Tajribali o'qituvchilar o'quv materialini bayon etish jarayonida ayrim jumlalar orasida va har bir muhim fikr yoki ta`rifdan keyin bir oz to'xtab-to'xtab oladilar. Bu hol o'quvchilar e`tiborini oshiradi va bayon etilayotgan materialni tushunib olishi uchun vaqt beradi.

Nutq texnikasi o'qituvchining kundalik ishi natijasidir; uni doimo takomillashtirib borish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

boshqalarning qanday gapirayotganini kuzatpb borish, ishdagi o'rtoqlari, shuningdek, majlis, ma`ruza, anjumandada gapirganlar nutqining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish lozim (tahlil uchun magnitofondan foydalangan ma`qul);

hamma vaqt o'z nutqini mashq qidirishga intilish kerak; nutqi yuqori madaniyatli va texnikali qilishning eng yaxshi usuli majlis, kengash, seminar, pedagogik o'qishlarda keng auditoriya oldida nutq so'zlashdir.

O'qituvchilar o'quvchilarga o'quv materialini bayon etishda didaktikaning eng muhim tamoyillaridan biri-ko'rsatmalilik tamoyilidan foydalanadilar.

Didaktikada ko'rsatmalilik tamoyili konkret bilan abstraktning birligi to'g'risidagi qoidasi asosida ko'rib chiqiladi. Narsa yoki hodisaning aslini yoki tasvirini idrok etish inson uchun atrofdagi borliqni, biror haqiqatni bilishning dastlabki va eng oddiy akti hisoblanadi hamda o'rganilayotgan narsalar, jarayonlar, hodisalar to'g'risida aniq tasavvurlar va abstrakt tushunchalar hosil qilish uchun asos vazifasini o'taydi.

O'qitishning ko'rsatmaliligiga sabab insonning fikrlash xususiyatidir. Bu xususiyat asosan konkretdan abstraktga tomon rivojlanadi. Tushunchalar va abstrakt qonun-qoidalar konkret kuzatishlar natijalariga asoslansa hamda ular bilan

mustahkamlansa, ancha oson va tez shaklanadi. Kishilarda tafakkurning rivojlanishi ularning yoshiga, hayot va ish tajribasiga va boshqalarga bog'liq. Ammo bizning tafakkurimiz rivojlanishning qaysi bosqichida bo'lmasin hamda biz qanchalik murakkab masalalarni o'rganmaylik, konkret faktlar va obrazlardan ajralib qolmasligimiz kerak.

Ko'rsatmalilik tamoyili o'qituvchining xilma-xil o'quv qo'llanmalari va o'qitishning audiovizual (eshitish-ko'rish) texnika vositalaridan foydalanishida, ularning pedagogika jihatidan ma`qul tarzda yasalishida aks etadi.

Ko'rsatma qo'llanmalar-o'quvchilarni o'rganiladigan ob`ektlar, hodisalar, jarayonlar to'g'risida yaqqol (asosan ko'rish) tasavvurlar hosil qilish metodida o'qitish maqsadida ishlatiladigan vositalar, o'zlashtiriladigan bilimlar xarakteriga, o'quvchilarda mavjud bo'lgan tasavvur, tushuncha, hayot va ish tajribasiga, darsning konkret vazifalariga qarab ko'rsatma qo'llanmalar o'qitishda har xil rolni bajaradi. Ular bilimlar manbai sifatida, shuningdek, o'qituvchi so'zlab berish, tushuntirish, suhbat vaqtida foydalanadigan rasm sifatida xizmat qilishi mumkin. Ko'pincha, bu ikkala vazifa kompleks tarzda kelishi mumkin.

Ko'rsatma qo'llanmalar va ulardan foydalanish haqidagi umumiy masalalar pedagogik adabiyotda ancha batafsil yoritilgan, shuning uchun bu vositalarning maxsus va umumtexnika fanlarini o'rganishda ishlatilishini mufassalroq ko'rib chiqamiz.

Maxsus va umumtexnika fanlarini o'qitishda ko'rsatmalilikdan foydalanish, umumta`lim fanlarini o'qitishdagiga nisbatan muayyan xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar umumta`lim fanlari mazmunining o'ziga xos xususiyatlari va ularni o'rganish metodikasi bilan bog'liq. Agar umumta`lim fanlarini o'rganishda ko'rsatma qo'llanma tamoyilini, asosiy g'oyani yaxshiroq o'zlashtirishga yordam bersa, texnika fanlarini o'rganishda esa ob`ektning konkret tuzilishi, ish sxemasi, detal va mexanizmlarning o'zaro ta`siri birinchi o'rinda turadi. Maxsus fanlarni o'rganishda mashina, asbob, qurilma va boshqalarning aslini o'rganish, shuningdek, ularni qismlarga ajratish hamda yig'ish uchun o'quvchilarga imkoniyat tug'dirish alohida rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan, ko'pgina kasblar bo'yicha ishchilar tayyorlash uchun ishlab chiqarish ta`limi dasturiga "Qismlarga ajratish-yig'ish ishlari" degan bo'limlar kiritilgan bo'lib, ulardan ko'zlangan asosiy maqsad xizmat ko'rsatilayotgan yoki ta`mirlanayotgan mashinalardan keng foydalaniladi. Ulardan quyidagi hollarda foydalaniladi:

- o'rganiladigan ob`ektniig asli juda katta yoki juda kichik bo'lganda (domna va marten pechlari, soat mexanizmi va shu kabilar);

- ob`ekt yoki hodisalarning aslini ko'rish mumkin bo'lmaganda (elektr toki, molekulalarning tuzilishi, kristall panjaralar va shu kabilar);

- o'rganaladigan ob`ekt yoki hodisalarning aslini bevosiga kuzatish - mumkin bo'laganda (asbob-uskunaning ichki tuzilishi, ximiyaviy apparatlarda, pechlarda va shu kabilarda sodir bladigan protsesslar);

- tushunchani grafik tarzida tasvirlash talab etilganda (dvigatel , o'tqaazishlar, tsiklogramma va shu kabilarning xarakteristikasi);

- murakkab ob`ektlarni oddiylashtirish yoki ishlash printsipini ko'rsatish zarur bo'lganda (qurilmalar sxemalari, stanoklarning kinematik sxemalri, printsipial elektr sxemalar va shu kabilar);

Harakatlanishning eng xarakterli momentida mexanizm yoki mashina detallarining joylashuvini qayd kilish va ko'rsatish talab etilganda (ichki yonuv dvigateli krivoship-shatunli va taqsimlash mexanizmlarining chekka nuqtalari, egovlashda harakatning o'ziga xos har xil nuqtalarida qo'llar, oyoqlar hamda gavdaning vaziyati v shu kabilar).

Garchi so'nggi vaqtda pedagogik tajribada yassi va hajmiy elementladan tuzilgan ko'pgina ko'rsatma qo'llanmalar (dinamik plakatlar, hajmiy sxemalar, elektrlashtirilgan sxemalar va shu kabilar) paydo bo'lgan esa-da, tasviriy ko'rsatma qo'llanmalrni yassi hamda hajmiy qo'llanmlarga bo'lish mumkin.

Yassi tasviriy ko'rsatma qo'llanmalar jumlasiga o'quv plakatlari (bular mashina, mexanizm, nsh usullariniig rasmiy tasvirlarini, sxema, jadval, raqamli va teksgli, grafik ko'rinishidagi hamda aralash matriallarni o'z ichiga oladi); fotografiya va fotoplakatlar; kitob, jurnal hamda al bomlardagi rasmlar; o'qituvchi sinf doskasiga yoki kodoskop plyonkasiga chizadigan tasvirlar kiradi.

Hajmiy tasviriy ko'rsatma qo'llanmalar jumlasiga model va maketlar kiradi. Model ishlaydigan ko'rsatma qo'llanma bo'lib, tasvirlangan mashina yoki qurilma qismlari hamda mexanizmlarinint kinematikasini va o'zaro ishlashini ko'rsatadi.

Model tasvirlangan originalning tashqi ko'rinishini aks ettirishi shart emas, unda o'zaro ishlaydigan asosiy detallari ajratib ko'rsatiladi. Maket, aksincha, tasvirlanadigan originalning tashqi (ichki) ko'rinishini iloji boricha aniq aks ettiradi. Maketlar, ko'pincha, ishlamaydigan ko'rsatma qo'llanma bo'lib, ishlov berish oson bo'lgan va arzon materiallar: pap ye-mashe (elim, gips amda br aralashtirilgan qog'oz massa), gil, gips, yog'och penoplast va shu kabilardan tayyorlanadi. Maketlar originalnint ichki tuzilishini ko'rsatish uchun, ko'pincha, qismlarga ajraladigan qilib tayyorlanadi. Ular, odatda, originalga nisbatan kichik yoki katta qilib yasaladi.

Mulyajlar maketlarning bir turi isoblanadi. Maxsus va umumtexnika fanlarining o'qituvchilari dinamik plakatlardan—aralash ko'rsatma qo'llanmalardan keng foydalanadilar. Bu qo'llanmalarda yassi tasvirlar bilan birga harakatchan elementlar ham bo'lganligi tufayli ba`zi protsesslar dinamikasini ko'satishga imkon beradi.

Ammo o'qituvchilarga, ko'pincha, ko'rsatma qo'llanmalar loyixalash, tayyorlash yoki bunday qo'llanmalar yaratishga rahbarlik qilishga to'g'ri keladi. Bunda quyidagn talablarga rioya qilish talab etiladi:

- ko'rsatma qo'llanma barcha o'quvchilar yaxshi ko'ra oladigan darajada katta bo'lishi kerak;

- qo'llanmadagi yoeuvlar sinfning istagan joyidan bemolol ko'rsa bo'ladigan darajada yirik, qora harflar bilan yozilishi lozim;

- muhim detal va joylar bo'lishi zarur haddan tashqari yorqin va kontrast bo'yoq tanlash yaramaydi; fon bilan tasvirlar ranglarining eng yaxshi nisbatlari quyidagilar: oq-ko'k, qora-sariq, yashil-oq, qora-oq plakatlardagi tasvirlar imkoni boricha ob`ektning rangiga bo'yalishi kerak; tasviriy vositalar kompleksi,

qo’llanmaning mazmunini ochib berish uchun tanlangan bo’yoqlar, qo’llanmaning bajarilishi o’quvchilarda estetik did hosil qilishi va bu didni rivojlantirishi lozim;

- ko’rsatma qo’llanmada tekst haddan tashqari ko’p bo’lmasligi kerak;
- plakatlarda tasvirlar soni, haddan tashqari ko’p bo’lmasligi zarur;
- plakatlarda tasvirlanadigan ob`ektlar tabiiy vaziyatda ko’rsatilishi lozim;
- ko’rsatma qo’llanma masshtabga rioya qilgan holda bajarilishi kerak; bu narsa, ayiqsa, muhim detallarning proportsiyalariga taalluqlidir;
- qo’llanmaning va uni ishlatish uchun xizmat qiladigan moslamalarniig konstruktsiyasi qo’llanmaning uzoq vaqt saqlanishini ta`minlashi zarur (doka, mato yoki kartonga - yelimlab yopishtirilishi, lok bilan qoplanishi, plakatlar bir-biriga lenta tarzida yelimlab yopishtirilishi darkor va hokazo).

O’kuvchilarga yangi materialni bayon etishda ko’rsatma qo’llanmalardan to’gri va o’z vaqtida foydalanish katta ahamiyatga ega. Pedagogika fani va ilg’or tajriba darsda ko’rsatma qo’llanmalar namoyish qilishga oi metodik talablar ishlab chiqdi, bu talablarga rioya qilish ularning didaktik qimmatini oshiradi.

Avvalo, hamma vaqt shuni esda tutish zarurki, ko’rsatma qo’llanmani namoyish qilish — maqsad bo’lmay, balki vositadir. Qo’llanmani ko’rsatish emas, balki u bilan ishlash kerak.

O’rganilayotgan materialning mazmuni va darsga ajratilgan vakt taqozo etgan hollardagina ko’rsatma qo’llanmani namoyish qilish tavsiya etiladi. darsda namoyish qilinadigan qo’llanmalar soni o’quvchilar o’quv materialini sifatli o’zlashtirishi uchun optimal bo’lishi lozim; darsda qo’llanmalardan haddan tashkari ko’p foydalanish yaramaydi.

Namoyish qilinayotganlarni idrok etish jarayonida o’quvchilar sezgi organlarining (analizatorlarining) ko’rish, eshitish, sezish, zarur hollarda esa ta`m bilish va hid bilish organlarining ko’pini jalb etish kerak.

O’qituvchi so’zi bilan ko’rsatmalilikning to’g’ri qo’shib olib borilishi katta ahamiyatga ega. Ko’rsatma qo’llanmalarni idrok etishning asosi birinchi signal sistemadir, ammo ikkinchi signal sistemaning signallariga tartibga soluvchi ta`sir etadi. Har qanday ko’rsatma qo’llanmalar namoyish qilinganda amma vaqt izoh berib turiladi. Ana shu izoh o’quvchining e`tiborini qo’llanmadagi aosiy va muhim tomonlarga qaratishga, kuzatilayotgan model, ob`ekt yoki hodisalardan ularning mohiyatini tashkil etuvchilarni ajrtib olishga yordam beradi. Qo’llanmani namoyish qilishdan oldin nimani va qanday maqsadda ko’ishlari to’g’risida o’quvchilarga aytib o’tyish zarur. «Yangilik samarasi» dan oqilona foydalanish lozim, shu sababli, ko’rsatma qo’llanmalarni namoyish qilishdan oldin ularni o’quvchilarga ko’rsatish tavsiya etilmaydi. Zarur bo’lgan hollarda kursatma qo’llanmalarni maxsus yopqich bilan yopib qo’yish lozim.

Ishlaydigan qo’llanmalarni albatta ishlatib ko’rsatish, ularni ko’zdan kechirishda o’quvchilarni maksimum fikrlash aktivligi va mustaqillik ko’rsatishga undash lozim.

Ko’rstma qo’llanma barcha o’quvchilarga yaxshi ko’rinadigan bo’lishi zarur. Mayda ob`ektlar ulardan tarqatilgan material sifatida foydalanilgandagina eng yaxshi idrok etiladi. Ammo tarqatiladigan materialni o’quvchilarga tushuntirish vaqtida berish yaramaydi, chunki bunday qilish o’quvchilar e`tiborini chalg’iadi.

Sinf doskasiga chiziladigan rasm. Ko’rsatmalilik vositalari ichida sinf doskasiga chiziladigan rasm katta o’rin tutadi. O’qituvchi chizgan rasmlar o’quvchilarning bilimlarni o’zlashtirish protsessini osonlashtiradi va umumtexnika hamda maxsus fanlar darslarida keng tatbiq etiladi. Yaxshi chizilgan rasmlar va sinf doskasidan to’g’ri foydalanish ko’rsatmalilikning boshqa vositalari bilan birga o’quvchilarning faktlarni, hodisalarni, voqealarni esda olib qolishlariga, to’g’ri tushunishlariga yordam beradi. O’qituvchi materialni bayon etish vaqtida doskaga rasm, chizma yoki sxemalar chizish yo’li bilan protsessni dinamikada, masalan, ichki yonuv dvigatelida tsikllar nabatlashib kelishini, priborlarning ulanish tartibini, ximiyaviy apparatda protsessning borishini va shu kabilarni ko’rsata oladi. Og’zaki bayon bilan doskaga chizilgan rasmlarning mosligi materialning o’quvchilar xotirasida puxta mustahkamlanihiga yordam beradi va mashg’ulotlarni qiziqarli hamda samarali qiladi.

O’qituvchi doskadan qanday foydalanishni bilishi kerak. Yangi materialni o’rganishda temani va maxsus terminlarni doskaga yozib qo’yish lozim. Ayrim terminlarni yoki rasmning ayrim qismlarini ajratib ko’rsatish uchun rangli bo’rlardan foydalavish zarur. Doskada tasvirlash uchun murakkab bo’lmagan rasmlar tanlash kerak. Agar doskada murakkab rasmni ko’rsatish zarur bo’lsa, uni oldindan chizib qo’yish darkor, doskadagi tasvir bir tekislikda berilgani uchun rasmning perspektivasi, narsanint hajmiyligini shtrixlash yoki soya joylarini bo’rlash yo’li bilan ko’rsatish kerak, doskada pala-partish yozuvlar va rasmlar bo’lmasligi lozim. Rasmlarning yozuvlarini o’quvchilar qiynalmay o’qishlari uchun ular yirik harflar bilan yozilishi darkor. Ikkinchi darajali va foydalanilgan materialni chiqarib tashlash lozim, aks holda u o’quvchilar e`tiborini chalg’itadi. Zarur hollarda (ayniqsa, chizmachilik kabinetida) doskani bo’r bilan yoki tirnab kataklab chiqish tavsiya etiladi, doskadan foydalanish qulay bo’lishi uchun unga qo’zgaluvchan chizg’ich yoki burchaklik o’rnatish keak, bu esa to’g’ri, o’zaro perpendikulyar chiziqlar va har xil burchaklar ostida chiziqlar o’tkazishga imkon beradi.

Rasmlar doskaga tez va bexato chizilishi lozim, bunga esa jiddiy mashg’ulot va mashqlar natijasida erishish mumkin. Shunint uchun o’qtuvchi Darsga, amaliy mashg’ulotga tayyorlanishda bu dars yoki amaliy mashg’ulotda tushuntirish vaqtida foydalaniladigan rasmlarnn mashq qilishi zarur.

O’qitishning texnika vositalari deganda, o’quvchilarning bilim, uquv hamda malakalarni o’zlashtirishini osonlashtirish va uning samaradorligini oshirish hamda o’qituvchining o’quvchilarga bilim, uquv va malakalar berish, ularni mustahkamlash hamda tekshirib ko’rish borasidagi mehnatini yengillashtirish uchun foydalaniladigan mexanikaviy qurilmalar kompleksi tushuniladi.

O’qitishnint texnika vositalari jumlasiga informatsiya berishda foydalaniladigan texnika (kinoproektor va diaproektorlar, epidiaskop, filmoskop, magnitafon, televizion, hamda komp yuter qurilmalar va shu kabilar) gina emas, balki tegishli texnika bilan birga foydalaniladigan o’ziga xos informatsiya elituvchilarning o’zi (kinofilmlar, diafilmlar, diapozitivlar, programmalashtirilgan topshiriqlar va shu kabilar) ham kiradi. Texnika vositalari qatoriga

elektrlashtirilgan har xil qo'llanmalarni (sxemalar, diagrammalar, kartalar va shu kabilarni) ham kiritish lozim.

Maxsus va umutexnika fanlarini o'rganishda ishlatiladigan barcha texnika vositalarini uchta asosiy gruppaga birlashtirish mumkin:

-audiovizual vositalar (kinoproektsiya, diaproektsiya va epiproektsiyalar, ovoz yozib olish, televidenie, komp yuter, radio);

- trenajerlar;

- dasturlangan o'qitishning texnika vositalari.

O'quvchilarga o'quv materialini bayon etish jarayonida o'qitishning audiovizual texnika vositalari eng ko'p ishlatiladi.

Kasb-hunar kollejlarida yuqori malakali usta va o'qituvchilar, boy texnikaviy imkoniyatlar, o'quvchilarning texnikaviy ijodiyoti keng rivojlanganligi tufayli o'quv kabinetlarini o'qitishning texnika vositalari bilan jihozlashga, bu vositalarni bilim yurtlarida tayyorlashga, sanoatda ishlab chiqarilgan texnika vositalarini takomillashtirishga katta e`tibor berilmoqda. Kabinetlarni o'qitishning texnika vositalari bilan jihozlash ishida quyidagi asosiy texnikaviy-pedagogik talablarga amal qilish kerak:

Birinchi, o'quv kabinetlarini o'qitishning texnika vositalari bilan jihozalashda o'quv protsessida ulardan kompleks tarzda foydalanilishini hisobga olish zarur. Komplekslikni quyidagilar nuqtai nazaridan olib qarash lozim:

- informatsiya elituvchi (kinolenta, diafilm, diapozitiv, epidiaskopiya kartochkasi, kitobdagi rasmlar, magnitofonga yozib olingan ma`lumotlar va shu kabilar);

- texnikaviy qurilmalar (kinoproektor, diaproektor, epidiaskop, magnitofon va shu kabilar);

- texnika vositalarining vazifasi ta`lim va tarbiya ishi masalalarini ta`minlash, informatik va emotsional maqsadlarning birligiga erishish, o'qitish, kontrol qilish va o'quvchilarning mustaqilligi problemalarini hal etish);

- informatsiyaning mazmuni (ayni kabinetda o'rganiladigan fanlar o'quv dasturlarining barcha mavzularini qamrab olganligi).

Ikkinchi, o'quv kabinetining istagan joyidan ko'rish va eshitish uchun yaxshi sharoit ta`minlash lozim.

Uchinchi, o'quv kabinetlarida o'qitishning texnika vositalari ishlatilganda shovqin manbalarini yo'qotish kerak.

To'rtinchi, barcha texnikaviy kurilmalar puxta va buzilmay ishlashi darkor.

Beshinchi, texnika vositlarining tuzilishi va ishlatilishi oddiy bo'lishi kerak.

Oltinchi, o'qitishning barcha universal va maxsus texnika vositalaridan birgalikda oqilona foydalanish lozim.

Ettinchi, ishlatilishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lishi zarur (moddiy xarajatlar, o'qituvchi vaqti, jismoniy kuchlar, kabinetning sahni nuqtai nazaridan tejamli bo'lishi kerak).

Maxsus va umumtexnika fanlari o'quv materialini bayon etashda foydalaniladigan texnika vositalarini ko'rib chiqamiz.

O'quv kinosi - o'qitishning eng ko'p tarqalgan texnika vositasi bo'lib, ob`ekt hamda hodisalarni harakatda va rivojlanishda namoyish qilishga, materialni analiz

qilib va umumlashtirishga, shuningdek, konkret idrok etishdan abstrakt idrok etishga o'tishga imkon beradi. O'qtv filmidan o'qituvchi o'quv materialini bayon etishida illyustratsiya sifatida, shuningdek, o'quvchilar uni mustaqil o'rganishi uchun foydalanishi mumkin.

O'quv filmi yordamida o'quv materialining asosay joylarini ajratib ko'rsatish va o'quvchilar e`tiborini shunga jalb etish, protsesslarni tabiiy vaqt izchilligida emas, balki ular xarakterini tushunish uchun eng qulay tarzda ko'rib chiqish mumkin. O'quv filmi bevosita kuzatab bo'lmaydigan hodisalarni: ko'zga krinmaydigan darajada mayda zarracha va detallarni, har xil organizmlarning ichki tuzilishini, uzoqlashgan narsalarni, juda tez va juda sekin sodir bo'ladigan hodisalarni ko'rsatishga imkon beradi. Harakatda juda ham qisqa vaqt davom etadigan voqea va hodisalarni kino vositalari yordamida sekinlashtirilgan sur`atda namoyish qilish (bu hol o'zgarishning barcha fazalarini ko'zdan kechirishga imkon beradi) va, aksancha, bir necha soat, kun yoki oy mobaynida sodir bladiganlarni esa ekranda bir necha sekund yoki minut ichida ko'rsatish mumkin. Ovozli filmni idrok etishda ko'z ham, quloq ham aktiv ishtirok etadi. Ko'rish va eshitish organlariga bir vaqtda ta`sir etishi o'quv kinofilmini o'qitishning boshqa vositalaridan ajratib turadi va muhim didaktik vazifalarni hal qilishga imkon beradi.

O'quv kinofilmlaridan foydalanish o'qitish va tarbiyalash vazafalarini qo'shib olib borishga imkoniyat tug'diradi. Kinofil`mlar yordamida ko'rsatmali o'qitishning tarbiyalovchi ahamiyati shundan iboratki, u fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini, ishlab chiqarish-texnikaviy estetikani, ishlab chiqarish novatorlarining tajribalari va yuqori mehnat madaniyatini ko'rsatish, ayrim muammolarning tarixiy rivojlanishi bilan tanishtirish imkonini beradi va hokazo. O'quv filmlari o'quvchilarni mehnat va kasbga muhabbat ruhida tarbiyalashga, dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi. Filmlarda ko'rilganlarning hammasi o'quvchilar uchuts haqiqat va ishontirarlidir, ularning nihoyatda kuchli ta`sir etish sababi ham ana shunda.

O'quv kinofilmlaridan foydalanishning forma va metodlarini aniqlashda ular quyidagi tiplarga bo'linishini hisobga olish zarur:

- o'quv dasturining ayrim mavzulari materialini ochib beruvchi qisqa metrajli (1—Z qismli) o'quv kinofilmlari; bular mavzu jihatidan bir-biriga bog'liq blgan kinolavhalar seriyasidir;

- o'rganilayotgan materialning xususiy qonun-qoidalarini ko'rsatuvchi qisqa lavhali kinofilmlr; ularning mazmuni va metodik tuzilishi o'qituvchi dars davomida operativ foydalanishi uchun moslashtirilgan bo'ladi o'zlashtirish uchun ancha uzoq vaqt va ko'p marta takrorlash talab qilinadigan hodisa hamda jarayonlarni namoyish qilishga mo'ljallangan kinofilm-kol tsovkalar;

- yagona mavzu va metodika bilan bog'liq bo'lib, butun o'quv fani asoslarini navbati bilan bayon etunchi to'la metrajli o'quv filmlari hamda ilmiy ommabop filmlar yoki, hatto, kinokurslar.

Fanlararo bog'lanishlar muammosining hal qilinishi o'quv jarayonining mazmuni, metodlari va tashkil etilishini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Bu muammoning hal etilishi jarayoni umumiy va kasb-hunar ta`limining uzviy qo'shib

olib borilishi asosida quriladigan kasb-hunar kollejlari uchun alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanlararo bog'lanishlarni, ularnint konkret ahamiyati jihatidan olganda, o'qitish jarayonida yoki o'quvchi ongida, har xil o'quv fanlari orasida o'rganiladigan faktik bog'lanishlar ifodasi deb tushunish kerak. Fanlararo bog'lanishlar - ko'p qirrali, turli xarakterli, har xil funktsiyali hodisa. Shuning uchun bu tushunchaning mohiyatiga va o'quv jarayonidagi o'rniga oid juda xilma-xil, ko'pincha, bir-biriga qarama-qarshi talqinlar mavjud.

Fanlararo bog'lanishlar mohiyatini to'g'ri tushunish uchun uning ikki tomoni borligini nazarda tutish kerak. Bu tomonlarni shartli ravishda ob`ektiv va sub`ektiv tomonlar deb ataymiz. Fanlararo bog'lanishlarning ob`ektiv tomoni o'qitish mazmunini aniqlashda aks etadi va o'quv rejalari hamda dasturlarini ishlab chiqishda, tegishli o'quv fanlaridan darsliklar, o'quv hamda metodik qo'llanmalar tuzishda hisobga olinadi. Fanlararo bog'lanishlarning bu tomoni o'quv rejalari, dastur va darsliklarda o'zaro bog'langan fanlarning o'quv materialini tanlash hamda joylashtirishga shunday yondoshishni belgilaydiki, bunda o'quvchilarning bir yoki bir necha fanni o'rganishdan olgan bilimlari boshqa failarni o'rganishda asos bo'ladi yoki ularni o'rganishda mustahkamlanadi. Fanlararo bog'lanishla o'zaro bog'langan fanlarning dastur va darsliklarida ochib beriladigan shunga o'xshash tushunchalar talqinining mushtarakligida, o'quv materialini ratsional tanlashda, unga ayni bir asosiy qonun va nazariyalarn asos qilib olishda namoyon bo'ladi.

Bu - fanlararo bog'lanishlarning o'qituvchi o'qitish jarayonida amalga oshiradigan sub`ektiv tomonidir.

O'quvchilar juda ko'p fanlarni o'rgandilar, ularda xilma-xil uquv va malakalar hosil bo'ladi. Bularniig hammasini o'quvchilar o'zaro bog'langan yagona kompleks tarzida idrok etishlari kerak. Ammo, o'quvchilar bunga undalmasa, ularning o'zlari har xil fanlar darslarida olgan bilimlarini, odatda, bir-biriga taqqoslamaydilar ular orasida bog'lanishlar o'rnatmaydilar.

Ular har qaysi fan materialini ularga darslik hamda o'qituvchi taklif etgan mantiqqa muvofiq ravishda idrok etadilar va o'zlashtiradilar. Shuning uchun ham barcha o'qituvchi va ustalar ma`lum maqsadga qarata ishlashi, yaxshi o'ylangan didaktik usullar tizimi zarurki, ular o'quvchilar ongida bu bog'lanishlarni o'rnatishga yordam bersin. Bu didaktik usullar o'quvchilarga pedagogik ta`sir etishning hamma tomonini qamrab olishi lozim.

Ammo o'quv ishi amaliyotida fanlararo bog'lanishlar, asosan, faqat o'rganilayotgan material mazmuni pozitsiyasidangina olib qaraladi. O'qituvchilar ko'pchilik hollarda o'z fanini to'laroq va chuurroq ochib berish uchun fanlararo bog'lanishlarni o'quvchilar boshqa fanlarni o'rganishda olgan bilimlaridan foydalanish deb tushunadilar. Shu maqsadda fanlararo bog'lanishlarga oid xilma-xil jadvallar, o'quv jarayonining jadvalli grafiklari tuziladi, har xil fanlarning hzaro bog'liq materialini o'rganish izchilligiga oqilona o'zgartishlar kiritiladi. Bularning hammasi to'g'ri, biroq bir tomonlamadir. Fanlararo bog'lanishlarni, ularning umumiy va ko'p qirrali xarakterini nazarda tutib ancha keng tizim sifatida talqin qilish kerak. Fanlararo bog'lanishlarning mohiyati va klassifikatsiyasini ko'rib

chiqishda o’qitish jarayoni ob`ektini, ya`ni o’qituvchi hamda ustalarning pedagogik ta`siri o’qitish va tarbiyalashga qaratilgan o’quvchini asos qilib olish lozim. Bu holda fanlararo bog’lanishlarning ta`sir doirasi ancha kengayadi va o’zaro bog’langan fanlarnigina emas, balki barcha fanlarni o’rganishni, binobarin o’quv jarayonida ishtirok etuvchi barcha o’qituvchi hamda ustalar faoliyatini qamrab oladi.

Fanlararo bog’lanishlarning asosiy tiplari. O’qitishning qonun-qoidalarga asoslanib va to’plangan tajribani tizimga solib, fanlararo bog’lanishlarning quyidagi asosiy tiplarini ajratib ko’rsatish mumkin: o’quv materialining mazmuni jihatidan bog’lanish; hosil qilinadigan uquvlar jihatidan bog’lanish; o’qitish metodlari hamda vositalari jihatidan bog’lanish.

Fanlarichra bog’lanishlar. Pedagogik tajribada “fanlararo bog’lanishlar termini”, ko’pincha, xarakteri jihatidan yaqin bo’lgan “fanlarichra bog’lanishlar” termini bilan bir qatorda ishlatiladi. *Fanlarichra bog’lanishlar* bir fan materialining mazmuni va tuzilishi mantiqi hamda o’rganilishi jihatidan bog’lanishidir. Fanlarichra bog’lanishlarning ham ob`ektiv va sub`ektiv tomonlari bo’ladi. Fanlarichra bog’lanishlarning sub`ektiv tomoni mavzuga va umuman fanga oid darslar tizimini tuzishda, ilgari o’rganilganlarga asoslanishda, fanni o’rganishning umumiy mantiqida namoyon bo’ladi. Fanlararo bog’lanishlarning tiplari, turlari, o’rnatilish usullari va shakllari to’g’risidagi ko’pchilik tavsiyalarni fanlarichra bog’lanishlarga ham tatbiq etish mumkin.

10 - mavzu: Amaliy va laboratoriya mashg’ulotlar tizimi

O’quv moduli birliklari

1. *Amaliy va laboratoriya mashg’ulot turlari, tizimi va ularni o’quv jarayonida tutgan o’rni.*
2. *Laboratoriya, amaliy mashg’ulotlarining tashkiliy shakllari.*
3. *Laboratoriya, amaliy mashg’ulotlarga qo’yiladigan umumiy talablar.*
4. *Mashg’ulotlarni rejalashtirish va uni o’tishga tayyorgarlik ko’rish.*
5. *Laboratoriya amaliy mashg’ulot rejasi va uni o’tish metodikasi.*

Aniqlashtirilgan o’quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba mavzuni o’zlashtirgandan so’ng:

- *amaliy va laboratoriya mashg’ulot turlari, tizimi va ularni o’quv jarayonida tutgan o’rnini tushunadi;*
- *laboratoriya, amaliy mashg’ulotlarining tashkiliy shakllarini biladi;*
- *laboratoriya, amaliy mashg’ulotlarga qo’yiladigan umumiy talablarni biladi;*
- *mashg’ulotlarni rejalashtirish va uni o’tishga tayyorgarlik ko’rishni biladi;*
- *laboratoriya amaliy mashg’ulot rejasi va uni o’tish metodikasini o’rganadi.*

Mavzuni o’qitishda aqliy hujum, suhbat, klaster metodlaridan foydalaniladi.

Tayanch so’z va iboralar

Amaliy va laboratoriya mashg’ulot turlari, tizimi va ularni o’quv jarayonida tutgan o’rni. Mashg’ulotlarni o’tishni tashkil etish. Laboratoriya, amaliy mashg’ulotlarining tashkiliy shakllari. Laboratoriya, amaliy mashg’ulotlarga qo’yiladigan umumiy talablar. Mashg’ulotlarni rejalashtirish va uni o’tishga

tayyorgarlik ko'rish. Perspektiv mavzular rejasi. Yo'l-yo'riqli texnologi karta. Laboratoriya amaliy mashg'ulot rejasi va uni o'tish metodikasi. (Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish yo'nalishidagi maxsus fanlar bo'yicha).

O'quv jarayonining asosiy bosqichlaridan biri bilimlarni amalda tatbiq etishdan iborat, buning natijasida o'quvchilarda uquv va malakalar hosil bo'ladi. Umumtexnika va maxsus fanlarni o'rganishda olingan bilimlarni amalda tatbiq etish shakllaridan biri tajriba ishlari va amaliy ishlardir. Tajriba ishlari muayyan texnikaviy jarayonlarni, qonuniyatlarni**,** sabab-natijali bog'lanishlarni va shu kabilarni tekshirish maqsadida eksperimentlar o'tkazish orqali hodisalarni kuzatish hamda tahlil qilish bilan bog'liqdir; masalan: tuprohning qattiqligini tortish kuchiga ta`sirini tekshirish; moyning qovushqoqligini aniqlash; mashinaning ish unumdorligini aniqlash va hokazo. Amaliy ishlardan ko'zda tutilgan maqsad - o'quvchilarda texnikaviy ob`ektlarni yanada chuqur o'rganish maqsadida ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan uquv hamda malakalar hosil qilish; chunonchi: mashina va mexanizmlarni qismlarga ajratish, yig'ish, sozlash, rostlash; qishloq xo'jalik mashinalarida ishlash; kattalik hamda parametrlarni o'lchash va hokazo.

Tajriba ishlari va amaliy ishlar bevosita ishlab chiqarish xarakteriga ega emas. Ulardan ko'zlangan maqsad - o'quvchilarga mazmuni jihatidan umumtexnika va maxsus fanlar bilan bog'liq bo'lgan texnologik jarayonlar, texnikaviy hodisalar, umumiy qonuniyatlar, amaliy qoidalar, texnikaviy normativlar va shu kabilarni amalda o'rgatishdir. Tajriba va amaliy ishlar davomida o'quvchilar o'zlaridagi. mavjud bilimlarni tushunadilar, mustahkamlaydilar va kengaytiradilar, bu bilimlarni tatbiq etishga o'rganadilar, bu esa kasbiy mahoratni oshirish uchun zarurdir.

Kasb hunar kollejlari sharoitida tajriba ishlari va amaliy ishlar "sof holda" qo'llanilmaydi. Ular o'quv dasturlariga tajriba-amaliy ishlar tarzida kiritilgan.

O'z vazifasi, o'quv jarayonida tutgan o'rni jihatidan umumtexnika va maxsus fanlar bo'yicha qilinadigan tajriba-amaliy ishlar nazariy ta`lim bilan ishlab chiqarish ta`limi orasida oraliq vaziyatni egallaydi hamda malakali ishchilar tayyorlashning bu ikki tomonini o'zaro bog'lashning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Bu bog'lanish tajriba-amaliy ishlar rukni va mazmunini aniqlashda, tajriba -amaliy ishlar jarayonida o'quvchilar olgan uquvlarni ishlab chiqish ta`limi jarayonida tatbiq etish va kengaytirishda, ularni o'tkazish metodlari hamda metodik usullarini uyg'unlashtirishda namoyon bo'ladi. O'qtuvchilar tajriba - amaliy ishlarni o'tkazar ekanlar, o'quvchilarning ishlab chiqarish ta`limi davomida olgan uquv hamda malakalaridan foydalanadilar, ularni chuqurlashtiradilar. Bu, avvalo, qismlarga ajratish-yig'ish, sozlash, rostlash operatsiyalari, qishloq xo'jalik agregatlarida ishlash, texnikaviy xizmat ko'rsatish operatsiyalari va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan tajriba-amaliy ishlarga taalluqlidir. Bunday bog'lanish umumtexnika va maxsus fanlar o'qituvchilari bilan ishlab chiqarish ta`limi masterlarining shaxsiy aloqalari doirasida ham, o'quv ustaxonasidagi jihoz va asboblardan tajriba -amaliy ishlar bajarish uchun foydalanishda, yagona texnikaviy hujjatlardan foydalanishda, ayrim tajriba -amaliy ishlarni birgalikda o'tkazishda ham bo'lishi kerak.

Miqdoriy va sifatiy tajriba-amaliy ishlari. Tajriba-amaliy ishlarni ularning xarakteri jihatidan ***miqdoriy*** (miqdorga bog'liq bo'lgan) va ***sifatiy*** (sifatga bog'liq bo'lgan) ishlarga bo'lish mumkin. Mikdoriy tajriba -amaliy ishlar aniq o'lchashlar, hisoblab chiqarishlar, hisoblar bilan bog'liq. Ularning natijalari tekshirilayotgan ob`ekt yoki hodisalardagi miqdoriy bog'lanishlarni ochib beruvchi muayyan kattalik bilan ifodalanadi. Miqdoriy tajriba-amaliy ishlarga quyidagilar misol bo'la oladi: maydalangan tuproqning sifat ko'rsatkichlarin aniqlash; ekish mashinalarida urug' sarfini aniqlash; kul tivator ishchi organlarini sozlash va hokaeo.

Sifatiy tajriba-amaliy ishlar davomida o'quvchilar xulosalar qiladilar, qonuniyatlarni aniqlaydilar, bilimlarini chuqurlashtiradilar; ularda zarur uquvlar hosil bo'ladi. Sifatiy tajriba-amaliy ishlar jumlasiga quyidagilar kiradi: metallarni cho'zilashga sinash; bajariladigan ishniig turiga qarab keskichlar tanlash; har xil qishloq xo'jalik mashinalarining tuzilishini o'rganish va xokazo.

Tajriba-amaliy ishdan ko'zda tutilgan maqsad ko'p jihatdan uni o'tkazish metodikasini: o'quvchilar ishiga o'qituvchining rahbarlik qilish usullarini, ayrim tajribalarni bajarish tartibi va shu kabilarni belgilab beradi. o'quvchilar nazariy materialni bilib olganlaridan, o'rganilayotgan hodisalar, jarayonlar bilan tanishganlaridan so'ng ular bilan tajriba-amaliy ish o'tkazish ancha oson ko'chadi. Bu holda o'qituvchining yo'riqnomasi nihoyatda qisqa va lo'nda bo'ladi. Natijasiga asoslanib o'quvchilar ma`lum xulosalar chiqarishi kerak bo'lgan tajriba-amaliy ishlarni bajarish ancha murakkab. O'quvchilarni bunga oldindan tayyorlash, o'qituvchining yo'riqnomasi ancha batafsil bo'lishi zaur. Bunday ish davomida o'qituvchi o'quvchilar ishini kuzatibgina qolmay, balki ularning faoliyatini yo'lga soladi, ularni zarur xulosalarga olib keladi.

Fanlararo kompleks tajriba-amaliy ishlar. Kollejlarda umumta`lim fanlari o'rganiish munosabati bilan ***fanlararo kompleks tajriba-amaliy ishlar*** qo'llanila boshlandi. Bu ishlarni bajarish davomida o'quvchilar umumta`lim, umumtexnika yoki maxsus fanlardan olgan bilimlarini mustahkamlaydilar va bu bilimlarini amalda tatbiq etish uquvlarini egallaydilar. Bunday tajriba-amaliy ishlarni umumta`lim va umumtexnika fanlaridan ana shunga o'xshash material taxminan bir vaqtda o'rganilgan o'ollarda o'tkazgan ma`qul. Fanlararo tajriba-amaliy ishlarga misollar:

Frontal va nofrontal tajriba-amaliy ishlar. Tajriba-amaliy ishlar ***frontal va nofrontal*** o'tkazilishi mumkin. Frontal tajriba-amaliy ishlarda guruhdagi barcha o'quvchilar bir tipdagi jihozlarda yakka-yakka bo'lib yoki kichikroq zvenolarga bo'linib ishlab, bir xil topshiriqni bajaradilar. O'quv materialini darslarda o'rganishdan oldin yoki o'rganish bilan bir vaqtda bajariladigan tajriba-amaliy ishlar frontal o'tkazilishi kerak. Tegishli o'quv materialini o'rganishni tugallovchi tajriba-amaliy ishlar frontal o'tkazilishi mumkin va ma`kul.

Tajriba-amaliy ishlarni frontal tashkil etish bir qancha afzalliklarga ega: ish programmaning tegishli mavzusi o'rganib bo'lingandan keyinoq o'tkazilishi mumkin, bunda asta-sekin oddiydan murakkabroqqa o'tiladi; o'quvchilarga rahbarlik qilish va ishlarning bajarilishini kuzatib turish osonlashadi; butun guruhga yo'riqnoma berish mumkin bo'ladi. Bu usulning kamchiliklari jumlasiga ustaxonada juda ko'p bir xil asbob-uskunalar bo'lishining talab etilishi kiradi.

Tajriba-amaliy ishlar davomida o’quvchilar kuzatadilar, tavsiflaydilar, o’lchaydilar, hisoblaydilar, eksperimentlar, tadqiqotlar o’tkazadilar, umumlashtiradilar, montaj, demontaj qiladilar, rostlaydilar, sozlaydilar, nazorat qiladilar. Shunga asoslanib, umumtexnika va maxsus fanlarni o’rganishda o’tkaziladigan tajriba-amaliy ishlarni quyidagicha guruhlash mumkin.

№	Tajriba-amaliy ishlarning turi	Tajriba-amaliy ishlarga jihozlar	Fan
1	Har xil texnikaviy hodisa va jarayonlarni, xom-ashyo, material hamda mahsulotlarning xossalarini kuzatish va tahlil qilish	Po’latning xossalariga issiqlik ishlovi berishning turlari va rejimlari ta`siri	Materialshunoslik
		Urug’larning ekilish xossalari (unib chihish energiyasini, unuvchanligini, tozaligini, ekishga yaroqliligini aniqlash)	Agronomiya
2	Mashina, mexanizm, apparat, asbob, moslama va shu kabilarning tuzilishi hamda ishlashini kuzatish va tahlil qilish	Don yig’ish kombaynining sozlanishlarini amalga oshirish	Qishloq xo’jalik mashinalari
		Erga ishlov berish texnologiyasini tuzish	Mashina traktor parkidan foydalanish
3	Texnikaviy kattaliklar, parametrlar, xarakteristikalar orasidagi miqdoriy va sifatiy bog’lanishlarni tekshirish. Bu bog’lanishlarning optimal qiymatlarini aniqlash	Traktorning tortish kuchini aniqlash	Qishloq xo’jalik mashinalari
		O’tmaslashgan lemexlarni tamirlashni o’rganish	Mashinalari ishonchliligi va ta`miri
4	Har xil texnikaviy va texnolgik kattaliklarni aniqlash va nazorat qilish uchun nazorat qiliash asboblaridan foydalanish usullarini o’rganish	Tuproq namligini quritish pechi va tarozilar yordamida aniqlash	Tuproqshunoslik va dehqonchilik asoslari
		Moyning qovushqoqligini viskozimetr bilan aniqlash	Yonilg’i-moylash materiallari
5	Buzuqliklarni diagnostik qilish, sozlash, rostlash, moslash va h.k.	Traktorlar va qishloq xo’jalik mashinalarining sistema, qism hamda agregatlarini sozlash	Traktorlar va avtomobillar

Dars rejasi mavzu bo'yicha aniq mashg'ulotni o'tkazishning asosiy rejalashtiruvchi hujjati bo'lib, u amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisining tayyorlov ishi natijasi hisoblanadi. Darsning standart majburiy reja shakllari belgilanmagan, chunki reja shakli darsning mazmuni, amalga oshirish usullari, uning tarbiyaviy maqsadlari, bo'lajak ish xarakteri, mashqlarni tashkil qilish va o'qituvchi tajribasiga bog'liqdir. Dars rejalarini tuzishda quyida keltiriladigan o'quv ishlab chiqarish amaliyoti dars rejasi namunasidan foydalanish mumkin.

I. Mavzu:
_____

II. Maqsad:
_____

III. O'quv soatlar miqdori: _____

IV. Mavzuni o'rganish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar:

V. Mavzuni o'rganish davomida shakllanadigan nazariy bilimlar:

VI. Jihoz va uskunalar:

VII. Mavzu bo'yicha o'quv amaliyotini o'tkazish tartibi

O'qnv amaliyotini o'tkazish bosqichlari	Faoliyat turlari	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1-bosqich. Kirish (5 daqiqa).	Mavzuni e'lon qiladi va ichidagi vazifani tushuntiradi. Ishning ketma-ketligi va baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	Tinglab eshitadi.
2-bosqich. O'quv materialini bayon etish (20 daqiqa).	Milliy ko'ylak, lozim tikishda uchraydigan mayda bo'lakchalar va ularga texnologik ishlov berish jarayonini tushuntiradi. Bajariladigan ishlar ketma-ketligini bayon qiladi. O'quvchilarning nazariy bilimlarini test yoki og'zaki so'rov orqali aniqlaydi.	Tinglab eshitadi. Test topshiradi yoki og'zaki savol-javob
3-bosqich. Kirish yo'riqnomasi (50 daqiqa).	O'quvchilarni asosiy mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishtiradi. Ishlab chiqarish sanitariyasi va elektr, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni tushuntiradi. O'quvchilarni texno-logik xarita bilan ta'minlaydi. Yoqa, koketka, eng, etak manjetga ishlov berishni amalda ko'rsatadi. Har bir ish joyda qanday ish olib borilishi bo'yicha yo'1-yo'riq ko'rsa-tadi,	Usta bajarayotgan ishni diqqat bilan kuzatadi. Berilgan topshiriqning maqsad va vazifalarini yozib oladi

	vazifani bajarish uchun vaqt belgilaydi.	
4-bosqich. Joriy yo'riq. Amaliy ish (3 soat)	Milliy ko'ylak mayda bo'laklariga ishlov berishda texnologik jarayon ketma-ketligining to'g'ri bajarilishi: — yoqaga ishlov berish; — koketkaga ishlov berish; — etak qismiga ishlov berish; — engga ishlov berish; — lozim manjetiga ishlov berishni tushuntiradi va nazorat qiladi.	Har bir ish joyida berilgan yo'1-yo'riq xari-tasini o'rgana-dilar va amaliy bajaradilar. Berilgan vaqtga qarab ketma-ketlik asosida ko'y-lak bo'laklariga ishlov beradilar. Vazifani mustaqil bajaradilar.
5-bosqich. Yakuniy yo'riq. Baholash, tahlil qilish va yakunlash (40 daqiqa).	Har bir o'quvchining bajargan ishlarini qabul qiladi va yakun yasaydi. Bajarilgan ishlarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi. Baholash natijalarini e'lon qiladi. Bajarilgan ishlardagi yutuq va kamchi-liklarni ko'rsatadi. Uyga vazifa va uni bajarish uchun tavsiyalar ko'rsatadi.	Bajargan ishini topshi-radi, baho natijalarini eshitadi, tahlil qiladi. Uy vazifasini daftarga yozib oladi.

Ish faoliyatini endi boshlayotgan amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchilariga dars rejasi bilan birgalikda kirish yo'rig'i konspektini tuzish tavsiya qilinadi. Bu o'qituvchi tayyorlov ishining majburiy elementi bo'lmay, balki yaxshi tuzilgan konspekt darsni yuqori darajada olib borishga yordam beradi. Konspektda o'quv materialining asosiy mohiyati qisqacha bayon etilib, zaruriy dalillar, jadval ma'lumotlari, sxemalar, eskizlar, hisob-kitob ishlari va hokazolar keltiriladi.

O'tilayotgan dars bo'yicha konspektning muhim tarkibiy qismi o'rganilayotgan mavzu uchun yo'riqnoma xaritasi hisoblanadi.

Konspektni bir mavzu uchun yaxlit tuzish maqsadga muvofiqdir. Shuning bilan birga oldin tuzilgan va foydalanilayotgan konspektni yangi dalillar bilan — gazeta, jurnal, maqolalar, yangi darslik qo'llanma, tajriba almashish va boshqa manbalar asosida to'ldirib borish mumkin. Bu o'qituvchining ijodiy faoliyatiga bog'liq.

Shunday qilib, konspekt o'qituvchi o'zlashtirgan, manbalardan izlab topgan yangi axborotlar, uslubiy — texnik materiallar bilan to'ldirib boriladi.

Amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisining darsga tayyorlanishida eng muhim tarkibiy qismlaridan biri mehnat ko'nikmalarini va o'quv ishlab chiqarish ishlarining bajarish yo'1-yo'riqlarini ko'rsatishdan iboratdir. O'qituvchi tomonidan kasb – hunar asoslarini chuqur egallanishi tegishli darajada uslubiy jihatdan darsni samarali olib borish omilidir.

Mehnat ko'nikmalari va ishni bajarish qobiliyatini ko'rsatishga tayyorlashda quyidagilarai:

– dars materiallari mazmunini tahlil qilish va ko'rsatish uchun mo'ljallangan mehnat harakatlari, ish bajarilish usullarini belgilash;

– ko'rsatish uchun mo'ljallangan ishni bajarish ketma-ketligi va usullarini, mazmun, qoidalarini ochib ko'rsatadigan texnologik xaritasini diqqat bilan o'rganish;

– ko'rsatishni izchillik bilan belgilash va uni dars rejasida bayon etish;

– zarur ko'rsatmali qo'llanmalarni va yozma yo'riq hujjatlarini belgilash va tayyorlash;

– ko'rsatishning uslubi va amaliy mashq harakatlarini o'ylab ko'rish;

– ko'rsatishga mo'ljallangan harakatlarni elementlarga bo'lish, mehnat harakatini bajarishga ajratilgan vaqtlarni belgilash;

– ko'rsatishda qo'llaniladigan jihozlar, yo'riqlar, moslamalar, nazorat–o'lchov va boshqa vositalarni tayyorlash va tekshirish;

– tajribali o'qituvchi kuzatuvida ish harakati va usullarini bajarishni mashq qilish zarurdir.

11-Mavzu: O’quvchilar bilim, ko’nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash

O’quv moduli birliklari

1. O’quv materialini o’zlashtirilishini nazorat qilishning maqsadlari va usullari.
2. O’rganilgan materialni o’zlashtirilish darajasini nazorat qilish. Reyting nazoratini tashkil qilish.
3. Nazorat natijalarini tekshirish va o’quv faoliyatini optimallashtirish.
4. Test sinovlarini o’tkazish.
5. O’quvchilar bilim, ko’nikma va malakalarni baholash

**1. Ta`limiy maqsadi:** Talabalarnig bilim, ko`nikma va malakalarni tekshirish metodlari haqidagi yangi tushuncha va dunyoqarashini, fikrlash doirasini yanada boyitish.

2. Tarbiyaviy maqsadi: Ilg`or pedagogik texnologiyalarni o`rganish asosida talabalarda o`quv –bilish faoliyatiga ijobiy munosabatlarni shakllantirish.

3. Rivojlantiruvchi maqsadi: Har bir talaba mustaqil va erkin harakat qilish, o`ylash, fikr-mulohaza yuritish va kasbiy mehnat ko`nikmalarni egallashini o`rgatish.

Asosiy tushuncha va iboralar:

Nazorat; reyting; nazorat funktsiyasi; nazorat turi; shakli va usullari; test, testlash; testlash shakli; o’quv jarayonining optimizatsiyasi.

1.O’quv materialini o’zlashtirilishini nazorat qilishning maqsadlari va usullari.

Ta'lim beruvchining vazifalari (o’qitishdan kutiladigan natijalar):

- ma'ruza vazifalarini bayon **etadi**;
- nazoratning asosiy maqsadini **shakllantiradi;**
- nazorat shaklini, tur va usulini **tasniflaydi;**
- reyting – nazorat mohiyatini **tushuntiradi;**

- o’quvchilarning bilim va ko’nikmalarini baholashga bo’lgan talabni **farqlaydi;**
- o’quvchining o’quv faoliyatidagi baholar mezoni bo’yicha bilimlarni **namoyish etadi;**
- o’quv mashg’ulotni loyihalashning asosiy bosqichlarini **tavsiflaydi.**

O’qituvchining o’quv-tarbiyaviy maqsadi:

- **nazorat maqsadini**, unga bo’lgan talabni, uning o’quv-tarbiyaviy jarayonini tashkil qilishdagi rolini **tushuntiradi**;
- nazorat shaklini, turi va usulini **tasniflaydi;**
- nazorat usulini tanlash muammolarini va uni to’g’ri tashkil qilish mohiyatini tahlil qilish;
- ta'lim jarayonida o’qituvchining tipik xatosini **tahlil qilish;**
- ma'ruza mashg’ulotida ko’rib chiqiladigan savollar bo’yicha o’quvchida shaxsiy qoyalarni ifodalashni **faollashtirish.**

O’quv materialini o’zlashtirilishini nazorat qilishning maqsadlari.

- O’qituvchi nazoratning maqsadi haqida **aytib beradi**.
- Nazoratning asosiy funksiyasini **oydinlashtiradi.**
- O’quvchilarning o’quv faoliyatiga bo’lgan nazorat talablarini **tushuntiradi.**

O’quvchilarning bilim va malakalarini nazorat qilish - o’quv jarayonining zaruriy elementlaridan biridir. Uning to’g’ri tashkil qilinishi ko’p hollarda o’quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish samaradorligi va mutaxassisni tayyorlash sifati bilan bog’liq.

TA'LIM — bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga, mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida bilim o'zlashtiriladi va tarbiya amalga oshiriladi.

METODIKA— pedagogikaning o'qitish qonuniyatlari, qoidalari, tashkil etish shakllari, amalga oshirish va natijalarini nazorat qilib, baholash metod hamda vositalarini o'zida mujassamlashtiruvchi fan tarmog'idir. Har bir o'quv fani, o'qitish sohasi o'rgatishning vazifalari, mazmuni, metodlari va tashkil etish shakllari metodika asosiga qurilgan.

O'QITISH METODIKASI - bu turli usullar tizimi bo'lib, o'quv-didaktik materiallardan foydalanish orqali belgilangan maqsadga erishish uchun nazariy va amaliy mashg'ulotlar paytida qo'llaniladigan usullar majmuasidir.

Kasbiy ta'lim metodikasi ijtimoiy hayotning ma'lum sohasida faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, amaliy ish-harakat usullarini shakllantirish qonuniyatlari, qoidalari, shakl, metod va vositalari hamda mazmuni haqidagi pedagogikaning muhim tarmog'idir.

METOD — iborasi (yunoncha-methodas-tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot ma'nosini anglatib) voqelikni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish usullari majmuasidir. Metod insonning amaliy faoliyati negizida vujudga kelgan. Metod — pedagogik jarayon element! sifatida mazmun — maqsadlarga maksimal mos

kelishi kerak, ana shunda — tarbiya, ta'lim rivojlanish amalga oshadi. Metodning asosiy vazifasi — qobiliyatni rivojlantinsh. Kasbiy faoliyatda metodning asosiy ko'rsatkichi — uning kasbiy faoliyat vositalariga mosligidadir.

BILIM - bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlarning ichki zaruriyatidan kelib chiqqan bog'liqlikdir. U qonuniyat deb ham yuritiladi. Chunki bu zaruriy bog'liqlik narsa va hodisalaming tabiatidan kelib chiqadi va insonning ixtiyoridan tashqari mavjud bo'ladi. Uni o'zgartirib bo'lmaydi. Bilim kishidan kishiga ma'lumot (axborot) orqali o'tadi.

KO'NIKMA VA MALAKALAR. Ko'nikma va malakalar deganda biror shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratib beravchi, tashharidan kuzatish mumkin bo'lgan xatti-harakatlari va reaksiyalari tushuniladi. **Malakalar** ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda yuz beradigan xatti-harakatlardir.

MALAKA- kishi egallagan bilimlari ko'nikma bosqichidan o'tib, doimiy harakat turiga aylanishi, mahorat hosil qilishi.

MAHORAT- o'zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy ish-harakatlarni (shu jumladan, dars berishni) kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish.

BAHOLASH- ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

KASB - muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyati turi. Kasb-hunar sirlarini egallashga umumiy hamda maxsus ma'lumot, amaliy ish-harakat usullarini o'zlashtirish orqali erishiladi.

Nazoratning asosiy funktsiyalari:

- **tekshiruvchi** – nazorat ko'rsatkichlari ta'lim natijalari haqida muhokama qilish uchun, ya'ni keyingi kursga ko'chirish, diplom berish kabi masalalarni yechishda bosh asos bo'lib xizmat qiladi;
- **ta'lim beruvchi**-nazorat topshiriqlarini bajarish jarayonida oldin egallangan bilimlarni aniqlash va to'ldirish yo'li bilan taqomillashtirish, takrorlash va mustahkamlashga yordam beradi, o'quvchi qayta fikrlaydi va o'tilgan materialni umumlashtiradi, bilimni amaliy faoliyatda qo'llaydi;
- **rivoj topuvchi** – har bir tekshirishdan o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarini qayta tiklashlari, mavjud bilimlarni qayta ishlashlari va sistemaga kiritishlari, xulosa qilishlari, umumlashtirishlari hamda ta'limni rivojlantirishga samarali ta'sir qilishi haqida isbot keltirishlari lozim;
- **tarbiyaviy** – nazorat o'quvchini tartibga soladi, unda o'zining shunga javobgarlik hissini tarbiyalaydi, sistematik o'quv mehnatiga o'rgatadi, doimiy faol o'quv faoliyatini shakllantiradi, o'z bilim va malakasini takomillashtirishga ruhlantiradi, o'zini baholashga ob'ektiv harashni, o'zini nazorat qilishga bo'lgan ehtiyojini rivojlantirishga o'rgatadi;
- **uslubiy** – nazorat o'qitish usulini baholash, uning kuchli va kuchsiz tomonlanini ilg'ash, ta'lim faoliyatining optimal variantini tanlash imkonini beradi.

Nazoratga bo’lgan talablar

Nazorat quyidagicha bo’lishi lozim:

- **rejali va sistematik**, ya'ni nazorat rejalashtirilgan o’quv-tarbiyaviy jarayonga mos amalga oshirilishi, uning organik qismini tuzish va ta'lim dasturining asosiy masalalariga tayangan bo’lishi lozim;
- **ob'ektiv,** o’quvchilarning o’quv faoliyatidagi muvaffaqiyat va kamchiliklarni real va qiyosiy baholash imkonini beruvchi, o’quvchilarning etarlicha o’zlashtirmaganligiga asoslangan, sub'ektiv baholash muhokamasidan mustasno ravishda bilim va malakalarni egallash darajasini to’g’ri qo’yishi;
- **har tomonlama**, ya'ni o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilgan ma'lumotlarning haqiqiy darajasini to’liq namoyon qilish, dasturning barcha bo’limlarini qamrab olish, nafaqat predmetga tegishli bilimlarini tekshirishni, balki dunyoharash bo’yicha g’oyalarni, umumta'lim va maxsus bilimlarni egallashni ta'minlash;
- **individual** - nazorat vaqtida o’quvchilarning tabiiy sekin ishlashi, uyatchanligi, ortiqcha o’ziga ishonish, jismoniy kamchiliklar kabi individual sifatlari e'tiborga olinishi;
- **tejamkor,** ya'ni o’qituvchi va o’quvchining vaqtini sarflash bo’yicha tejamli bo’lishi, tekshirilgan ishlarni va nisbatan qisqa muddatda holatiy baholarini tahlil qilishni ta'minlovchi bo’lishi;
- **pedagogik xushmuomalik**, barcha tanbeh, ko’rsatma va baholashni xushmuomala va do’stona shaklda qilish lozim.

2.O’rganilgan materialni o’zlashtirilish darajasini nazorat qilish. Reyting nazoratini tashkil qilish.

- O’qituvchi nazoratning turi, usuli va shaklini **tasniflaydi:**
- Nazoratning ba'zi turi, usuli va shakli bo’yicha topshiriqni va asosiy farqni **tushuntiradi:**
- Talabalar e'tiborini nazoratning to’g’ri usulini **tanlashga qaratadi:**
- Reyting-nazorat haqida **ma'lumot beradi:**
- Testni tuzish bo’yicha **misollar keltiradi:**

Ta'lim jarayoni doimo nazorat bilan kuzatib boriladi. Bilimni tekshirish o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilgan bilimning mavjudligini va sifatini aniqlaydi, bilimdagi muammolarni aniqlaydi va ularning o’z vaqtida bartaraf qilishga imkon beradi. Agar o’quvchilar bilimining sifatini nazorat qilish uni o’zlashtirilganligini yoki zaif o’zlashtirilganligini ko’rsatsa, o’qituvchi o’quv materiallarining to’g’ri tanlanganligini, o’quv jarayonini tashkil qilish shakli va usullarini, tayyorgarlik darajasini, o’quvchilarning imkoniyat darajasini tahlil qilib ko’rishi lozim.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to’g’risidagi nizom O’zbekiston Respublikasining **«Ta’lim to`g’risida»** va **«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»** qonunlari hamda O’zbekiston Respublikasi O’ROO’MTV ning 2010 yil 25-avgust 333-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan **«Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to’g’risidagi nizomga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish haqidagi »** buyruqning bajarilishidir. Ushbu nizom 2010 –yil 5- sentabrdan kuchga kirgan.

Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta`lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o`zlashtirishida bo`shliqlar hosil bo`lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

***Reyting tizimi quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan*:**

- talabalarda Davlat ta`lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko`nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;
- talabalar o'zlashtirishini muntazam ravishda nazorat etib borish, ularni semestr (o'quv yili) davomida o'z ustilarida uzluksiz faol ishlashlarini ta'minlash;
- talabalar bilimini haqqoniy, aniq va adolatli baholash hamda natijalarni ularga muntazam ravishda ma'lum qilish;
- talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini keng rivojlantirish;
- professor-o'qituvchilarda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rish, baholash savollarini tuzishda mas'uliyatini oshirish.
- o`quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

Fan bo'yicha maksimall reyting bali o'quv rejasida aynan shu fanga ajratilgan soatlar va mustakil ish uchun ajratilgan soatlar miqdori bilan belgilanadi.

Talaba bilimini baholashda, avval uning o'zlashtirish ko'rsatkichi aniqlanadi, so'ng dars soatlari miqdoriga muvofiq, uning fan bo'yicha reytingi hisoblab topiladi.

Baholash turlari va shakllari.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va qo'ydagi turlar orqali amalga oshiriladi:

-joriy baxolash (JB);

-oralik baxolash (OB);

-yakuniy baxolash (YaB).

Reyting (inglizchada rating)–tasnifiy ro'yxatda (reyting-varaq) shaxmatning sportdagi yutug'ini baholovchi individual raqamli ko'rsatkich.

Fan bo'yicha **JB** va **OB**lar talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimall reyting balining 70 %, **YaB** maksimal reyting balining 30% miqdorida belgilanadi.

YaB turi Universitet ilmiy kengashining 2010 yil 3 – sentyabr 1 – sonli qarori bilan tasdiqlangan «Reyting tizimining yakuniy baholash bosqichida «yozma ish» yoki test usulini tadbiq etish bo'yicha nizomi»ga asosan o'tkaziladi.

Agar o'quv rejasida mazkur fan bir necha semestr davomida o'tilishi belgilangan bo'lsa, fan bo'yicha talabaning umumiy reyting bali har bir semestrda shu fandan to`plagan reyting ballari yig'indisiga teng bo'ladi.

O'quv jarayonida nazoratning asosan quyidagi turlari qo'llaniladi: joriy, oraliq va yakuniy.

Joriy nazorat – Talabaning fan mavzulari bo`yicha bilim va amaliy ko`nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat-amaliy, tajriba va seminar mashg'ulotlari natijalari bo'yicha o'tkaziladi. Joriy nazorat talabalarning

olgan bilimlarini amaliy topshiriqlarni va muammoviy holatlarini echish uchun qulay bo’lishini aniqlashga, mavzuni o’rganishda o’quvchilar duch kelayotgan qiyinchiliklarni aniqlab, yordamga muqtoj bo’lganlarga o’z vaqtida yordam berishga imkon yaratadi. (3-rasmga qarang).



4-rasm. Joriy nazoratni mashg`ulotlar bo`yicha tavsiflanishi.

Oraliq nazorat – semester davomida o`quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o`z ichiga olgan) bo`limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko`nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraqliq nazoratning soni (bir semestrda ikki martadan ko`p o`tqazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og`zaki, test va hokazo) o`quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.Oraliq nazorat-o’qituvchiga o’quvchining yangi materialni qanchalik o’zlashtirganligini, bilimni qabul qilish va o’zlashtirishda qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganliklarini hamda buning sabablari nimada ekanligini aniqlash imkonini beradi. Oraliq nazorat mazkur mavzuni davom ettirish mumkinligini yoki yangi qo’llanmadan foydalanib, qo’shimcha tushuntirishlar olib borish kerakligini aniqlab beradi (4-rasmga qarang).



5-rasm. Oraliq nazoratni tavsiflanishi.

Yakuniy nazorat – semestr yakunida muayyan fan bo`yicha nazariy bilim va amaliy ko`nikmalarni talabalar tomonidan o`zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat -o'quvchilar bilimlarini ma'lum bir mavzu, qism yoki fanni butunlay o'rganib chiqqandan keyin o'quv semestri yoki o'quv yili oxirida tekshirish imkonini beradi.

Baholash turlari har bir fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, dars jarayonida surov o'tkazish, test savollariga javob berish, kontrol ishlarini bajarish, suhbat, yozma ish yoki shu kabi boshqa shakllarda ham o'tkazilishi mumkin.

Dekanat va kafedralar belgilangan tartibda fan bo'yicha talabaning JB hamda YaB (yozma ish yoki boshqa usul) turlarida ko'rsatilgan o'zlashtirish ko'rsatkichlarini taxlil etib borishlari va ularning natijalarini belgilangan shakldagi

qaydnomalarda qayd etishlari lozim. Baholash natijalari o'quv bo'limida operativ ravishda ishlovdan o'tkaziladi.

Reyting natijalari Universitetning ilmiy kengashida muntazam ravishda muhokama qilib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilib boriladi.

Kafedralar fan bo'yicha baholash turlarining har biri bo'yicha reyting ballarini hisoblash kriteriyalarini ishlab chiqadi (nazorat ishlari, test savollari, savollar to'plami va xakazo) va Universitet o'quv - uslubiy kengashda tasdiqlanadi.

Talaba bilimini baholash tartibi va mezonlari.

Talabalarning bilim saviyasi, ko`nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabanig har bir fan bo`yicha o`zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Har bir fan bo`yicha talabaning semester davomidagi o`zlashtirish ko`rsatkichi 100 ballik tizimda butun sonlar bilan baholanadi.

Ushbu 100 ball nazorat turlari bo`yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Yakuniy nazoratga – 30 ball;

Joriy va oraliq nazoratlarga – 70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliqlarga taqsimlanadi). (1-diagrammaga qarang).

1-



Fanlardan talabaning semestr davomida nazorat turlari bo`yicha o`zlashtirish ko`rsatkichi

Talabaning reyting daftarchasiga alohida qayd qilinadigan kurs ishi (loyihasi, hisob-grafik ishlari), malakaviy amaliyot, fan (fanlararo) bo`yicha yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi va magistratura talabalarining ilmiy – tadqiqot va ilmiy – pedagogik ishlari, magistrlik dissertatsiyasi bo`yicha o`zlashtirish darajasi – 100 ballik tizimda baholanadi.

Talabaning fan bo`yicha o`zlashtirish ko`rsatkichini nazorat qilishda quyidagi na`munaviy mezonlar tavsiya etiladi:

a) 86 – 100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- xulosa va qaror qabul qilish;
- ijodiy fikrlay olish;
- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo`llay olish;
- mohiyatini tushuntirish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo`lish.

b) 71 – 85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo`llay olish;
- mohiyatini tushuntirish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo`lish.

v) 55 – 70 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mohiyatini tushuntirish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo`lish.

g) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi 0 – 54 ball bilan baholanishi mumkin:

- aniq tasavvurga ega bo`lmaslik;
- bilmaslik.

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55% saralash ball hisoblanib ushbu foizdan kam ball to'plagan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha 55% va undan yuqori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yilmaydi. (2-diagrammaga qarang).

2-diagramma



Fanlardan talabaning semestr davomida nazorat turlari bo`yicha o`zlashtirish ko`rsatkichining saralash ballari

Namunaviy mezonlar asosida muayyan fandan joriy va oraliq nazoratlar bo`yicha aniq mezonlar ishlab chiqilib, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi va talabalarga e`lon qilinadi.

Namunaviy mezonlar muvoviq mutaxassislik fanlar bo`yicha tayanch oliy ta`lim muassasalari tomonidan yakuniy nazorat uchun baholash mezonlari ishlab chiqilib, oliy ta`lim muassasasi Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi va turdosh oliy ta`lim muassasalariga yetkaziladi.

Talabalarning o`quv fani bo`yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning fan bo`yicha bir semestrdagi reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_f = \frac{V \bullet O`}{100}$$

Bu yerda:

V – semestrda fanga ajratilgan umumiy o`quv yuklamasi (soatlarda):

O` - fan bo`yicha o`zlashtirish darajasi (ballarda).

Talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55% dan kam bo'lsa yoki semestr yakunida joriy , oraliq vayakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balldan kam bo'lsa, u akademik qarizdor deb hisolanadi.

Akademik qarizdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlastirishi uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davovida fanni o'zlastira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'I bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Talabaning nazorat turlari bo'yicha erishgan natijalari kafedralar, dekanatlar va o'quv metodik bo'linmalarda kopyuter xotirasiga kiritilib, muntazam ravishda tahlil qilib boriladi.

Bilimni nazorat qilish usullari turlichadir. Bu og`zaki so'rov, yozma va amaliy ishlar.

Og`zaki so`rov-ham frontal, ham individual tavsifga ega. Frontal so'rovda savol butun auditoriyaga qo'yiladi. Shunday savollarni qo'yish kerakki, bu nafaqat talabadan o'z bilimlarini qayta tiklashni, balki bu bilimlar yangi holatda, amaliy xarakterli topshiriqlarni echishda fikrlashni va o'z harakatlarini tushuntira olishni talab qila olsin. Masalan: Kleykovina «kuchi» bo'yicha kuchsiz bo'lgan undan sifatli maqsulot olish uchun qanday choralar qo'llash lozim?.

Bunday savollarni nafaqat bilim sifatini aniqlashga, balki katta korrektsion ahamiyatga ham ega.

Individual so'rov ham frontal so'rov kabi nafaqat nazariy bilimlarni tekshirishni, balki ularni amalda qo'llashni ham o'zida mujassamlashtiradi. Individual so'rovda o'qituvchi aksariyat hollarda talabani doska oldiga chaqirib, barcha auditoriya e'tiborini uning javoblariga jalb etadi.

Individual so'rov o'qituvchiga talabaning bilimini chuqurroq tekshirish imkonini beradi.

Nazoratning har qanday shaklida o'qituvchi o'quvchining muvaffaqiyatlarini raqbatlantirishi lozim.

- Yozma nazorat aksariyat test bo’yicha mustaqil nazorat ishlarini tashkil etish yo’li orqali o’tkaziladi.

Talabalar bilimini tekshirishda testdan foydalanish juda qisqa vaqt mobaynida barcha talabalar tomonidan materialni o’zlashtirish darajasini hamda barcha talabalar uchun xarakterli bo’lgan xatolarni, alohida talabalarning shaxsiy qiyinchiliklarini aniqlash imkonini beradi. Bu mavzuni o’ylab topilgan sistemasi va nazorat ishlarini tashkil qilish sharoiti mavjud bo’lganda talabalar bilmini nazorat qilishning eng qulay va tezkor usuli hisoblanadiv.

Nazorat ishlari o’qituvchi tomonidan zimdan tekshirilgan va tahlil qilingan bo’lishi lozim. Sifatli tahlil ma'lum materialni o’rganish uchun ishni to’g’ri tashkil qilish imkonini beradi.

- **Amaliy ish** – nazoratning bunday shaklida o’quvchilarga topshiriq beriladi va bu topshiriqni bajarish uchun ma'lum mavzu ustida sinchkovlik bilan ishlash lozim.
- **Standartlashtirilgan nazorat** – testlarni ishlab chiqish
- Testlashning turli shakllari mavjud, biroq ko’pincha quyidagilar qo’llaniladi:
- Tavsiya etilgan bir necha savoldan yagona to’g’ri javobni tanlash.
- Taklif qilingan tasdiqning haqqoniyligini baholash (to’g’ri, noto’g’ri).

Testli nazorat auditoriya vaqtining sezilarsiz sarfida barcha o’quvchilarni tekshirish imkonini beradi. Bu nazoratning asosiy kamchiligi - qo’llashning kamchilligidir: uning yordamida o’quvchilarning faqatgina reproduktiv faoliyatini tekshirish mumkin, shuning uchun uni joriy nazorat **jarayonida qo’llash ancha qulay**

Nazorat shakllari

- **Nazorat ishlari** o’rganilayotgan mavzu tugagandan keyin yoki mutaxassislikni egallash uchun zarur va o’quvchilarning tushunishi uchun ancha murakkab bo’lgan hamda boshqa fanlarni o’rganish uchun alohida ahamiyatga ega bo’lgan tutashgan savollar tugagandan keyin o’tkaziladi.
- **Sinov nazoratning yakuniy shakli** bo’lib, asosan, ishlab chiharish amaliyoti davrida qo’llaniladi.
- **Malakaviy sinov**-ishchi kasbini egalash uchun o’quv amaliyoti tugagandan keyin o’tkaziladi.
- **Kurs loyihasi va bitiruv malakaviy ishini bajarish** – ta'lim funktsiyasi bilan bir qatorda o’quv jarayonida nazorat funktsiyasini ham bajaradi va o’quvchilarda egallagan nazariy bilimlarini hamda amaliy ko’nikma va malakani tekshirishning zaruriy shakli hisoblanadi.
- **Semestrdagi nazoratlarni o’tkazish** natijasida o’quvchilar bilim faoliyatining natijalari yakuniy tekshiriladi, bilim va ko’nikmaning shakllanish darajasi namoyon bo’ladi.

Davlat attestatsiya sinovlari – nazoratning yakunlovchi shakli bo’lib, bu bo’lajak mutaxassisning ishga tayyorligini kompleks tekshirishga, kasbiy

faoliyatining tavsifiga mos keluvchi bilim, ko’nikma va malakani egallaganlik darajasini aniqlashga qaratilgan.

3.Nazorat natijalarini tekshirish va o’quv faoliyatini optimallashtirish

O’qituvchi ta'lim jarayonida o’quvchining bilimini baholashning mavjud usullarini tahlil qiladi.

- O’quvchining o’quv faoliyati samaradorligini aniqlash uchun «o’quv ishlarining samaradorligi» tushunchasini qo’llashning maqsadga muvofiqligini **asoslaydi.**
- O’quv ishlarini samaradorligini aniqlashning funktsional elementlarini **oydinlashtiradi.**
- Ta'lim jarayonining optimal variantini aniqlash uchun o’qituvchi faoliyatining asosiy bosqichlarini **tushuntiradi.**
- O’qituvchining ta'lim jarayonidagi tipik xatolarini **tahlil qiladi.**
- O’qituvchilar bilimini baholashning mavjud usullarini to’laligicha mukammal deb bo’lmaydi. Baholash sifati va ob'ektivligi avvaldan keskin diskussiya va tortishuvning predmeti bo’lib **xizmat qiladi.**

Bu holda bizning nuqtai nazarimizda o’quvchilarning o’quv faoliyati samaradorligini quyidagi ko’rsatkichlaridan foydalanish juda qiziqarli.

O’quv ishlarining samaradorligini - bu, mohiyatan talaba bo’lajak kasbining asosiy funktsional elementlarini qanday egallaganligi darajasi:

O’quvchining butun ta'limga nisbatan oldingi natijalarini taqqoslash bo’yicha o’quv faoliyatining sifatiy va miqdoriy tavsifining yaxshilanishi, ya'ni ma'lum davrda ta'lim samaradorligini tavsiflovchi bilim, malaka va ko’nikma sifatining va miqdorining o’sishi. Bu ko’rsatkich testlash va boshqa usullar yordamida aniqlanadi. Shuningdek, talaba tomonidan o’zlashtiriladigan o’quv predmetining kamchilik va afzalliklarini aniq tahlil qilish lozim.

Ma'lum usul va vositalar natijasida ta'limning aniq maqsadiga erishish uchun ketadigan vaqtni qisqartirish. Bu talabaga ko’proq mustaqil ishlashga, o’zining bo’lajak mutaxassisligidagi muammolar bilan chuqurroq tanishishga imkon beradi.

O’zlashtirishning mustahkamligi hamda o’quvchilar bilimini malaka va ko’nikmalarining «davomiyligi». Bu ko’rsatkich o’quvchini ta'limning oraliq emas, balki oxirgi natijalariga yo’naltiradi, bu esa talabaning keyingi o’qishi va uning professional faoliyati uchun zarur. Bu ko’rsatkich maxsus eksperimental protsedura yordamida o’lchanadi. Bu yerda o’zlashtirish aniq va latent mustahkamlikka ajratiladi. Aniq mustahkamlik darhol yakuniy nazoratdan keyin va 1-2 yil ta'limni o’tkazib testlash usuli yordamida baholanadi va foizlarda ifodalanadi. Latent mustahkamlik tabiiy eksperiment yo’li bilan baholanadi: talabalarga unutilganlarni qayta tiklash uchun berilgan predmetni takroran o’zlashtirish tavsiya etiladi. Tiklashga vaqt qancha kam ketsa, latent mustahkamlik shunchalik katta va boshlang’ich ta'lim samaradorligi yuqori bo’ladi. Bunday tahlil fanlararo aloqa muammolarini yangi sifatli, yanada baland darajaga o’tkazadi.

Talabaning o’quv faoliyatida o’quv materialini tashkil qilishni yaxshilash, unga erishishni oshirish, o’qitish motivatsiyasini kuchaytirish, talabaning bilish

faoliyatida adekvat odatlarga o’rgatishni ishlab chiqish, topshiriqning talabalar imkoniyatiga mosligi, didaktik tamoyillarga rioya qilish yo’li orqali (ikkinchi kabi) o’quv faoliyatidagi kutiladigan natijalarga qanday erishiladigan savolga javob beradi. Bu ko’rsatkich o’quv harakatining ma'lum turlarini bajarishda uning qiyin-yengilligini maxsus baholovchi blanka yordamida o’lchanadi.

Talabaning o’qitishdan qoniqishi. Ma'lumki, bu o’quv faoliyati jarayonini mustahkamlovchi asosiy emotsional omil bo’lib va u juda kerakli raqbatlantiruvchi emotsional fon hisoblanadi. Talabaning o’qishdan qoniqishi natijasida unda mustaqil o’quv ishlari uchun qurilma yaratiladi, bilish va takomillashuv motivatsiyasi oshadi, bu esa o’quv muassasasini tugatishi bilan uni berishga intilishida namoyon bo’ladi. O’qitishdan qoniqish hosil bo’lmasa, salbiy kechinmalar o’quvning qiyinligini oshiruvchi va bo’lajak mutaxassisning ijodiy salohiyatini tushiruvchi emotsional to’siq yuzaga keltiradi. Bu ko’rsatkichni aniqlash uchun maxsus savolnoma qo’llaniladi, bu talabaning qoniqish darajasini shkalalashga va miqdoriy (ballarda) ifodalashga imkon beradi.

O’quvchining o’qitishga, o’qituvchiga, mashg’ulotning aniq turiga munosabati.

Mohiyat bo’yicha bu ko’rsatkich – o’quv faoliyatining ko’p qirralarini integral ifodalaydi. U turli xil savolnomalar yordamida o’lchanadi.

O’quv faoliyati samaradorligi kontseptsiyasi foiziy – vosvoslik bilan muvaffaqiyatli ko’rsatishga, o’quv jarayonini boshqarishni yanada ixcham qilishga, o’qituvchining, kafedra va fakultetning ishini ob'ektiv va yaqqol baholashga imkon beradi.

O’quvchida bilim, malaka va ko’nikma sifatini nazorat qilish o’quv – tarbiyaviy jarayonni optimizatsiyalashga imkon beradi.

O’quv jarayonini optimizatsiyalash – bu uni qurishda, shakl, usul va ta'lim vositalarini tanlashda ilmiy asoslangan optimal variantni tanlash.

Ta'lim jarayonidagi optimal variantni tanlash o’qituvchi faoliyatidagi quyidagi bosqichlarni ko’zda tutadi:

a) o’qitish, takrorlash va rivojlantirish vazifasi, (o’quv mashg’ulotining maqsadi)ni aniqlash;

b) qo’yilgan maqsadni e'tiborga olgan holda ta'lim mazmunini tanlash va aniqlashtirish;

c) maqsadga mos shakl, usul va o’qitish vositasini tanlash;

d) loyihalangan o’quv jarayonga o’quvchilar tarkibi xususiyatini, o’quv-ta'minot bazasi va boshqalarni - e'tiborga olgan holda oydinlashtirish kiritish;

e) o’quv mashg’ulot rejasini rasmiylashtirish.

O’quv jarayonini optimallashtirish uni loyihalash bosqichida amalga oshiriladi.

O’quv mashg’ulotini loyihalash bosqichlarini ko’rib chiqamiz.

1 bosqich. O’quv mashg’ulotining maqsad va vazifalarini aniqlash

O’quv mashg’ulotida o’qituvchi **ta'lim, tarbiya va rivojlanish** masalalarini hal qiladi.

Natijada, go’yoki jamiyat tomonidan ilgari surilgan «mutaxassisni tayyorlashga ijtimoiy buyurtma» sifatidagi maqsadning transformatsiyasi boradi,

o’ziga quyidagilarni: didaktik maqsadi (ta'lim beruvchi) – o’quvchilarning kasb faoliyati uchun zarur bo’lgan bilim, malaka va ko’nikmalar bilan qurollanishni; rivojlanish maqsadi - ijodiy tafakkurning bilish ehtiyoji va qobiliyatining rivojlanishi, mustaqil aqliy mehnatga malaka va ko’nikmaning shakllanishi; tarbiya maqsadi - shaxsning fuqarolik sifatini, kasbga bo’lgan muhabbati va qiziqishini, ijodiy faolligini va boshqalarni tarbiyalashni biriktiradi.

O’qituvchining o’quv mashg’ulotining maqsadi va vazifalarini aniqlashdagi tez-tez uchraydigan xatosi quyidagilar hisoblanadi:

- faqat yangi o’quv materialini o’rganishga bo’lgan munosabat bo’yicha maqsad va vazifani aniqlashtiradi, xuddi shu vaqtda esa masalan, murakkab dars o’ziga bir qancha qismlarni, ya'ni bilim va malakani, mustaqil ish va boshqalarni tekshirishni biriktiradi.
- faqat o’qituvchiga tegishli maqsadni aniqlash («o’quvchilarga bilim berish», «…ma'lum qilish», «… gapirib berish»), bunda o’qituvchi oldida nafaqat o’quv informatsiyani ma'lum qilish, balki turli usullarni qo’llagan holda o’quvchilarni bilimni o’zlashtirishga tayyorlash vazifasi ham turadi;
- vazifani rasmiy rejalashtirish.

Shunday qilib, shuni e'tiborga olish lozimki, ijodiy tafakkurning rivojlanishi ta'limning mos usulini qo’llash yo’li bilan amalga oshiriladi, avvalo muammoli-izlanishli; bilishga bo’lgan qiziqish va qobiliyatni rivojlantirish masalalari o’quvchilarda mustaqil bilim egallashga va fikr yuritishga hamda uni amaliyotda qo’llashga ilhomlantiruvchi ta'limning faol usullari asosida amalga oshiriladi; mustaqil aqliy mehnatda malaka va ko’nikmani shakllantirish vazifasi – o’quv mashg’ulotida yoki uyga berilgan topshiriqni bajarishda turli xil mustaqil ishlarni tashkil etish orqali amalga oshirildi.

2 bosqich. O’quv materialini tanlash, aniqlashtirish va tashkil qilish

Mavzuni tanlash bosqichida o’qituvchi quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- eng asosiysi o’quvchiga o’zlashtirish uchun zarur bo’lgan eng muhimini tanlash;
- materialni shunday qurish kerakki, diqqat markazida uning asosiysi, ya'ni muhim elementlari joylashsin;
- materialni o’quvchilarga tushunarli va ommabop shaklda taqdim etish;
- dars o’tiladigan o’quvchilarning tajribasini e'tiborga olgan holda materialni oydinlashtirish;
- zaruriyat tug’ilganda o’quv materialiga qo’shimcha kiritish.

Vazifaning mazmunini va o’quv informatsiyasini tanlash o’quv jarayonini optimizatsiyalashning eng zaruriy holati hisoblanadi. O’quv materialini malakali tanlash nafaqat didaktik vazifalarni samarali echishning garovi bo’lib xizmat qiladi, balki o’quvchilarning ta'lim jarayonidagi rivojlanishi va tarbiyasini ham ta'minlaydi.

3-bosqich. Ta'lim shakli, usuli va vositalarini tanlash

O’quv materiali mazmunini yaratish bilan bir vaqtda amalga oshirildi. O’quv jarayonini tashkil qilish shaklini tanlash ularning xususiyatlari bilan etarlicha qattiq shartlangan.

Ma'ruza - bu o’qituvchi tomonidan o’quv materialini monologik bayon

etilishi. Ma'ruza uchun, odatda, fanning asosiy nazariy holatlarini, qonuniyatlarini, tamoyillari va tasnifini ochib beruvchi material tanlanadi, bu esa qaqiqiy ma'lumotlarni, amaliy tavsiyalarni va xulosalarni o'rganish uchun asos hisoblanadi.

Seminar - bu o'quvchilarning mustaqil ishlari: ilk manbalarni, qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish, ilgor tajribalar haqida muhokama qilish. Seminar adabiyotlar bilan mustaqil ishlash zaruriyati bo'lgan materialni o'rganish uchungina qo'llanilishi mumkin.

Ekskursiya esa qachonki holatni, jarayonlarni ko'rsatish zaruriyati va imkoniyati bo'lganda, o'quv vaqti to'laligicha yangi o'quv materialini bayon qilishga sarflanganda va uni ob'ektni namoyish qilish bilan tasdiqlash lozim bo'lganda qo'llanilishi mumkin.

O'quv va tarbiyaviy vazifalarni samarali echish uchun o'qitishning uslub va usullarini maqsadga muvofiq tanlash katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, mustaqil aqliy mehnatda malaka va ko'nikmani shakllantirish lozimligini boshqargan holda, o'qituvchi ma'lum savolni o'rganish uchun kitob bilan mustaqil ishlash usulini tanlaydi, biroq bunda u material o'quvchilarga o'qituvchining izohisiz qanchalik hammabop ekanligini e'tiborga oladi.

O'qituvchi muammoli o'qish usulidan (evristik suqbat, o'quv diskussiyasi) foydalanishni rejalashtirgan holda, muammoli holatni yaratish uchun o'quv materialining mazmunini va imkoniyatlarini tahlil qiladi, o'quvchilarning aniq muammoli vazifani echish qobiliyatlarini baholaydi, qancha vaqt sarflashlari mumkinligini, vaqt etishmaganligi tufayli o'quv mashg'ulotida berilmagan ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirish uchun o'quvchilarning qobiliyatini e'tiborga oladi.

Xuddi shunday o'qitish vaositasi tanlanadi. Ta'kidlash lozimki, o'quv vositasining mavjudligi ta'lim uslubiga muhim ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgani kabi, hatto uning mazmuniga ham ta'sir qilishi mumkin.

Masalan, personal kompyuter va dasturlarning mavjudligi kasbiy topshiriqlarni odatdagi ta'lim amaliyotiga nisbatan sifatli qilib yechish imkonini beradi.

O'qituvchining o'qitish vositasini tanlashdagi xatolaridan biri – mavjud qo'llanmalarning: slayd va kinofilmlar namoyishi, jadvallarni ko'rsatish, ob'ektning o'zini yoki uni modelini ko'rsatish kabilarning barchasidan darhol foydalanishga intilish.

Materialni tushuntirganda diafilm va slaydlardan foydalanish, mustahkamlashda – jadvallardan, bilimni tekshirishda – matnsiz o'quv-ko'rgazmali qo'llanmadan, modeldan, haqqoniy ob'ektdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

4-bosqich. O'quvchilar tarkibining xususiyatlarini e'tiborga olish

Uslub va o'qitish vositalarini tanlashda o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlarining shakllanish darajasi e'tiborga olinadi: agar qiziqish bo'lmasa, ko'p vaqt va vositalar ta'lim motivatsiyasiga, sezgiga ta'sir qilishga, ilgari surilgan holatni asoslashga ajratiladi; agar o'quvchi kasbni o'rganishga katta qiziqish bildirsa, ko'p e'tibor mazmunni chuqurroq o'rganishga qaratiladi, diskussiya uslubi, tadqiqot uslubi keng qo'llaniladi. O'qitish shunday murakkab darajada

amalga oshirilishi kerakki, bunda o’quvchilarga bilim va malakani egallash uchun kuch sarflashga to’g’ri kelsin.

O’quv jarayonini optimizatsiyalashning tugallovchi bosqichi o’quv mashg’ulotining rejasini rasmiylashtirish hisoblanadi.

4. Test sinovlarini o’tkazish.

**O`quvchilar bilimini tekshirishning maqsadi** – ularning o`zlashtirish darajasini aniqlashdir. Testlarning o`zlashtirish darajasi bo`yicha tasnifi 1-rasmda berilgan. Unda o`zlashtirishning darajasi, testlarning turi va har xil ko`rinishlari aks ettirilgan.

1 -darajali o`zlashtirish testlari quyidagilarni o`z ichiga oladi:

1 -**Aniqlash testlari**. O`quvchilarga savollar beriladi. Ular “HA” yoki “YO`Q” deb javob berishlari kerak bo`lsa, alternativ topshiriqlardan foydalaniladi.

2. **Farqlash testlari**. Bu testda ko`p tanlab olinadigan topshiriqlardan bir necha javoblardan bitta tanlash taklif etiladi.

3. **O`xshash (solishtirish) testlari**. Bunda o`rganilayotgan ob'ektning umumiyligini yoki tafovutlarini topish kerak bo`ladi, solishtiriladigan xususiyat va parametrlar albatta topshiriqda berilad**O`xshatish testlarini** tuzish qiyinchiliklar tug`dirmaydi va mashinaga oson kiritiladi. Bunda javoblar ko`pligi uchun o`quvchilar o`ylashga, fikrlashga majbur bo`ladilar. Shu bilan birga, 1 darajali o`zlashtirishga javoblarni tanlash bo`yicha test-masalalar ham kiritiladi. Ularda javoblar bir necha variantda harf yoki raqamlar bilan beriladi. Talaba masalani echib qaysi javoblar to`g`riligini aniqlashi kerak. (5-rasmga qarang).



6-rasm. Testlarning tasnifi

Testlarni bajarishda o`quvchi faoliyatining harakteri bo`yicha tanlash testlarini quyidagi guruhlarga bo`lish mumkin:

1. So`z, harf va sonlar bilan belgilangan javoblarni tanlash.

2. Grafik shaklda berilgan javoblarni tanlash.
3. Ketma-ketlikni tanlash.
4. Berilgan o’lchamlardagi aniq faktorlarning ta'siri harakterini tanlash.
5. Predmetni tanlash.
6. Masalani ishlash natijalari bo`yicha son yoki harflarni tanlash.

Testlardagi topshiriqlarni xilma-xil bo`lishiga qaramay, ularni strukturasi jihatidan ikkita asosiy qismga: tanlanadigan va javobi konstruktsiyalanadigan topshiriqlarga birlashtirish mumkin. (6-rasmga qarang).



7-rasm. Testlarning 1 - o`zlashtirish darajasi tasnifi.

Testli nazorat bilimlarni aniqlashda yaxshi natija beradi, lekin tafakkur jarayonini ko`zatishga monelik qiladi, buning uchun boshqa usullardan – yozma ish, munozaralar, ishlab chiqarish vaziyatlarini tahlil qilish hamda muloqotlardan foydalanish kerak.

Lekin shu bilan birga bilimlarni testli nazorat qilish ta'lim jarayonini boshqarish imkonini kengaytiradi. Testlarni qo`llash o`quvchilarning amaliy qobiliyati va xotirasini rivojlantiradi.

Ta'lim oluvchilar tomomdan o'quv materiallari o'zlashtirilganligi-ni, ko'mkma va malakalar hosil bo'lganligmi tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qisrni hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bos-qichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. JJahgiash ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga enshilganlik darajasini oldindan beleilangan mezoniar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Baxolash-ta`lim jarayonining ma`lum boskichida, o’quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilab qo’yilgan me`zonlar asosida belgilash, o’lchash va taxlil qilish jarayonidir.

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati shundaki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi haqida ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. Baholash jTatgasida. ta'iim beruvchi uchun ta'lim oluvchilarning nimani bilishi va nimani tushunmasligi, gaysi material vaxshi o'zlashtirilganu, qaysi biri hali yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi yoki umuman o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining bilish faoliyatim kelgusida tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ta'lim beruvchi o'z ishining afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi. O'z ish metodlariga tuzatishlar kiritadi.

Shunmgdek, baholash natijalari ta'lim beruvchining o'quv dasturiga materiallarni ta'lim beruvchilarning bilish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqishi va baholashi uchun ham juda muhimdir.

Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birlari qiyin. qaysi birlari esa oson o'zlashtinlishi aniq-ravshan bo'ladi, Bu ta'lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim oluvchiga ham ta'lim jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi. qaysinisini qomqarli va nimani yomon o'zlashtirgam ma'lum bo'ladi. Bilimlarni tekshirmasdan ta'lim oluvchi o'z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas. Ba'zan unga go'yo u o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, amahyotda esa materialm yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi rna'lum bo'lib qoladi, Baholash natijasida. ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z bilimlanga tanqidiy baho berish darajalari amqlanadi. Ta'lim oluvchi o'z bilimlarining ijobiy tavsifi, kasb-hunar kollejida va uydagi ishining uslubini takomillashtirish, bilimlari, malaka va ko'nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Baholash hamisha ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatmi hosil qiladi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining

o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ulanm, uning xarakteridagi iroda, hamkorlik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarim shakllantirishga qaratishi lozim bo'ladi.

Ba'zan baholash jarayonida ta'lim oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga ham enshadi. Ta'lim jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib etadi. Shu bois, baholashni ta'lim olish jarayonining mezoni deb ham aytish mumkin.

Ta'lim oluvchi o'rtoqlarining, ota-onalarining unga, uning kollejdagi yutuqlariga va muvaffaqiyatsizliklariga munosabatiga hech qachon befarq qolmaydi. Uning bilimlanga berilgan baholar ushbu munosabatni belgilaydi. Mana shuning uchun ham maqtov, ma'qullash, tanbeh yaxshi yoki yomon baho qo'yish ta'lim oluvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasidagi va katta yoshdagilar orJsidagi mavqeyini shakllantiradi. Bu, ayniqsa, o'smirlar orasida katta ahamiyatga ega.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga ega. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta'lim muassasasi jamoasining ta’lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, talabalarning umumiy o'zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. p^ivlat ta'lim standartlarida davlat tomonidan qo'yilgan talablar nechog'lik bajaraliyotganligi aniqlanadi.

Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lim tizimi va uning komponentlari tekshinlib kp'rilishj kerak. Bu bilan ta'lim tiziimida kutilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib, o'lchanadi. Bilimlarni muntazam baholab bonsh ta'lim rejasi, unmg katta — kichik bo' limlari asosida amalga oshiriladi. Ta'lim tizimi natijala muayyan standart me'yori orqali ifodalanadi.

Baholash natijasida nafaqat ta'lim oluvchming, balki ta'lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi. Ta'lim vositalari, rejalar, ta'lim jarayomni tashkil etish sifatiga ham baho beriladi.

Ta'lim dasturini qism bo'laktari bo'yicha muntazam baholab borish oxir-oqibat aniq va adolatli baholanish shakllanishiga olib keladi. Kichik bo'limlar bo'yicha baholash, jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim oluvchini muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarini ro'yobga chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi,

Ta'lim berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish bilim, ko'nikma va malakalarni baholash talabaning o'zligini anglashi uchun bir imkomyatdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati naflida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

Nima uchun baholash kerak?

– o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
– keyingi bosqichga o'tishdan oldin avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
– natijaga erishilganligini tasdiqlash uchun;
– talabalarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
– yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
– o'qituvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
– yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;

– ta'lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
– talabalarni yutuqlarga qiziqtirish uchun;
– tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma'lumot berish uchun.

Nimani baholash kerak?

– nazariy bilimlarni;
– amaliy ko'nikma va malakalarni;
– xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarni.

Qachon baholash kerak?

– ta'lim jarayoni boshida (boshlang'ich baholash);
– ta'lim jarayoni davomida (joriy baholash);
– ta'lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

Baholashning asosiy xususiyatlari:

– ta'lim maqsadiga yo'nalganlik;
– muntazam o'tkazib borish;
– pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
– umumiy qabul qilingan natija standardariga asoslanganlik.

Yuqorida ta'kidlanganidek, nazariy bilimlar baholanayotganida kognitiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar baholanayotganida psixomotorik, xulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanayotganida esa – affektiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.



Besh ballik baxolash

Afzalligi	Kamchiligi
ta`lim oluvchi rag'batlantiriladi; ta`lim oluvchining faoliyatini tezkor nazorat qilish imkoniyatini beradi; ta`lim beruvchini vakti tejaladi; ta`lim oluvchining yakuniy bilimi baholarning soniga qarab emas, sifatiga karab baholanadi; baholash kulay bo'ladi; rasmiylashtirish hujjatlari kam bo'ladi.	baholashning nisbiyligi; yozma nutqda xatolarni to'g'rilash imkoniyatining kamayishi; baholashning sub`ektivligi.

Baholashning reyting tizimi

Afzalligi	Kamchiligi
hakkoniy baholanishi; yozma nutqning o'sishi; yozma nutqda xato va kamchiliklarni aniqlash; imkoniyatlarining mavjudligi; ta`lim oluvchining bilimga bo'lgan ishtiyokining sezilarli darajada oshishi; ta`lim oluvchini muntazam shug'ullanishga undashi	´ ta`lim beruvchi ta`lim oluvchi bilan ishlanganda ko'p vakt sarf qiladi; ´ ballarni hisoblash ko'p vaqtni talab qiluvchi murakkab jarayonligi; ´ baxolash usullariga qarab ta`lim oluvchi og'zaki nutkining pasayishi; ´ ajratilgan vaktning yetarli emasligi; ´ ta`lim oluvchini baholash nazoratining murakkabligi va nokulayligi

Nazorat uchun savollar

1. Bilim nazorati va o'quvchilar malakasi nima uchun kerak?
2. Nazoratning asosiy funktsiyasini ayting.
3. Nazoratga qanday talablar qo'yilganq?
4. «Reyting» atamasi nimani bildiradi?
5. O'quv jarayonida nazoratning qanday turlaridan foydalaniladi? Ularning farqlari?
6. O'quv jarayonida nazoratning qanday usullaridan foydalaniladi?Ularning afzalliklari va kamchiliklari?
7. Testlashning qanday shakllarini bilasiz? Test tuzishga namuna keltiring?
8. Nazoratning asosiy shakllarini ayting va ularni tavsiflang?
9. O'quvchining o'quv faoliyati samaradorligi darajasini qanday ko'rsatkich aniqlaydi?
10. «O'quv jarayonini optimizatsiyalash» tushunchasi nimani bildiradi?
11. O'quvchilarning ta'lim jarayoni optimal variantini tanlash qanday amalga oshiriladi? O'qituvchi faoliyatining asosiy bosqichlarini ta'riflang?

12-Mavzu: Nazariy ta`lim tahlili

O'quv moduli birliklari

1. Tahlil qilishning vazifasi, funktsiyasi va turlari.
2. O'qitish jarayonida nazariy ta`limni tahlil qilish metodikasi.
3. O'qituvchini o'zini-o'zi tahlil qilish.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba mavzuni o'zlashtirgandan so'ng:
- tahlil qilishning vazifasi, funktsiyasi va turlarini tasniflay oladi;
-o'qitish jarayonida nazariy ta`limni tahlil qilish metodikasini o'rganadi;
-o'qituvchini o'zini-o'zi tahlil qilish to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi.

Tayanch so'z va iboralar

Tahlil qilishning vazifasi, funktsiyasi va turlari, o'qitish jarayonida nazariy ta`limni tahlil qilish metodikasi, o'qituvchini o'zini-o'zi tahlil qilish.

Pedagogik faoliyatda amalga oshirilgan ko'p yillik ish tajribalari va kuzatishlar, o'qituvchi hamisha o'z ustida ishlashi, bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirib borishi kerakligini ko'rsatmoqda. O'qituvchi pedagogik mahoratining kundan-kunga o'sib brrishi, o'kuv jarayonida yashn pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llay olishini kuchayishi, unish pedagogik faoliyatida amalga oshadi. O'qituvchi faoliyatining qanchalik samarali ekanligini, odatda, uning mahoratini kuzatish, o'tayotgan darslarini tahlil qilish orqali bilish mumkin. Bunday ishlarni ko'pincha vazirlikning mas`ul xodimi, ta`lim muassasasi rahbari yoki uslubchilar, o'qituvchi va uslubiy birlashma boshliqlari amalga oshiradilar. Biror o'qituvchining darsiga kirish mo'ljallangan bo'lsa, o'qituvchilik kasbi odobiga ko'ra shaxslarni darsga kiritish oldidan (ayniqsa, tashqaridan kelgan shaxslarni) qaysi auditoriya (sinf)ga va qaysi darsga kirish kerak ekanliklari bo'yicha ogohlantirilishlari lozim. Avvalo, uslub birlashma raisi, imkoniyat bo'lmay qolgan takdirda ma`muriyat a`zolaridan biri, tashqaridan kelgan kuzatuvchini birga olib kirishi maqsadga muvofiq. Bu, o'z navbatida, ba`zi-bir anglashilmovchiliklar va psixologik to'siqlarning oldini olishga yordam beradi.

Kuzatuvchilar birgalikda darsga kirib kelib, orqa o'rindiqlardan birini egallagach, dars boshlanadi. O'qituvchi darsga kirganda qo'li (yoki o'quv xonasi)da guruh jurnali, o'kuv dasturi, kalendar-mavzu rejasi, darsning texnologik xaritasi bo'lishi kerak.

Dars tahlilining asosiy tarkibiy qismlari

Mutaxassis sifatida o'qituvchining darsini kuzatib, uni taxdil etishni mo'ljallagan shaxslar kuyidagilarga e`tibor berishlari maqsadga muvofiq:

• O'qituvchining darsga qanday tayyorgarlik ko'rganligi?

O'qituvchida darsning o'quv rejasi va mavzu bo'yicha turli ishlanmalarning borligi, turli didaktik tarqatma materiap va ko'rgazmali qurollarning tayyorligi. O'qituvchining darsga tayyorgarligi bilan yuzaki (yoki darsning bir qismida) tanishib chiqilmaydi. Uning dasrga tayyorgarligini butun mashg'ulot mobaynida kuzatish va taxdal etish lozim.

• Dars maqsad va vazifalarining qo'yilishi.

O’qituvchi har bir darsga aniq maqsad ko’yadimi? Maqsadni qanchalik to’g’ri kyadi? Vazifalar belgilanadimi?

• Tashkiliy ishlar tahlili.

Mashg’ulot o’tkaziladigan xonaning darsga tayyorligi, talaba (yoki o’quvchi)larning kayfiyati va sog’ligi, o’quv xonasi va stolining tozaligi, bo’r va namlangan lattaning borligi, ayrim sabablarga ko’ra darsda qatnashmayotgan talaba (yoki o’quvchi)larning ismi va shariflari yozilgan varaqchaning o’qituvchi stoliga qo’yilishiga, shuningdek o’qituvchining darsga hozirligiga va uning tashqi qiyofasiga ham e`tibor beriladi.

• Didaktik (yoki ta`limiy) tahlil.

Taxlilning bu turida mavzuning ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga tomon yo’nalishi, ko’rgazmaliligi va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyligi, ularning jonli va ravon tilda ochib berilishi nazarda tutiladi.

• Uslubiy tahlil.

Bunda o’qituvchi faoliyatining ikki tomoni: birinchidan, o’rganilayotgan mavzuga dasturda mo’ljallangan soatda, uni qanday usullar yordamida, talaba (yoki o’kuvchi)larning yoshi va shaxsiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yetkazib bera olishi, talaba (yoki o’quvchi)larni o’ylashga, izlanishga majbur etishi va unga sharoit yaratishi; ikkinchidan, o’qituvchi sifatidagi tajribalari kdy darajada ekanligini namoyish eta olishi nazarda tutiladi. O’qituvchining ikkinchi tomoni taxdil etilayotganda, uning ijodkorligi, uslubiy mahorati ko’zga tashlanishi lozim. O’qituvchining ilg’or pedagogik va novatorlik tajribalari mana shu yerdan boshlanadi.

• Metodologik taxlil.

Ushbu taxlil mobaynida ta`lim yo’nalishidagi xukumat qarorlari, talablar, davlat tili, milliy ruh, madaniyatning go’zal durdonalari, shu soha bo’yicha buyuk alloma va olimlarning qilgan ishlari, fikrlari, respublikadagi oxirgi o’zgarishlarning mashg’ulot davomida foydalanilishi asos qilib olinishi mumkin.

• Psixologik tahlil.

Bu tahlilda, avvalo, talaba (yoki o’quvchi)larning kayfiyati, ularning sog’ligi, jamoadagi sog’lom muhit, talaba (yoki o’kuvchi)larning xushyorligi, fanga bo’lgan qiziqishlari, dars berayotgan o’qituvchisiga munosabati, talaba (yoki o’quvchi)larning hozirjavobligi, sezgir va topqirligi, idroki, yangi va avvalgi materiallarni esda saqlashlari, obrazli va mantiqiy tafakkurlari, talaba (yoki o’quvchi)lar fantaziyasi, oldida turgan mas`uliyatlariga nisbatan talaba (yoki o’kuvchi)larning irodali yoki irodasizligi, ulardagi qobiliyat, bilim, ko’nikma va malakalar ko’lami kabi tomonlar kiradi. O’qituvchining favqulodda vujudga kelgan vaziyatdan o’z obro’sini saklagan holda chiqa olishi, o’zini boshqara olishi ham inobatga olinadi.

• Pedagogik tahlil.

Tahlilning bu turi ancha murakkab va mas`uliyatli bo’lib, o’qituvchining tashqi qiyofasi, talaba (yoki o’quvchi)lar bilan til topa olish mahorati, madaniyati, odobi bilan birgalikda dars jarayonida umuminsoniy tarbiyaning tarkibiy qismlarini talaba (yoki o’quvchi)larga bera olishi va uning nutq madaniyati ham nazarda tutiladi.

Mashg’ulot mobaynida hozirgi kunda dolzarb bo’lib turgan milliy tarbiya (ekologik, iqtisodiy, axloqiy, jinsiy, mehnat, nafosat va milliy istiqlol g’oyasini singdirish) elementlari qanday amalga oshirildi?

Bu tarbiya turlaridan qay biriga aynan shu darsda ko’prok e`tibor berildi?

Dars tarbiyaviy ta`sirining samarasi qanday bo’ldi?

Bu masalalar pedagogik taxdilning asosini tashkil etadi. Shuni ta`kidlash kerakki, o’qituvchining ma`noli nutqini hech qachon boshqa narsaga qiyoslash (yoki almashtirish) mumkin emasligi ma`lum.

• O’qituvchining xamkorlikdagi vazifasi tahlili:

o talaba (yoki o’kuvchi)larni fikrlashga o’rgatishi;

o aniq fikr va materiallarni o’rganib, mulohaza yuritish, fikr bildirishni ta`minlashi;

o talaba (yoki o’kuvchi)larni izlanishga, qidirib topishga o’rgatishi;

o talaba (yoki o’quvchi)ni o’zi mustaqil fikrga ega bo’la olishi.

• Yakuniy tahlil (yoki xulosa). O’qituvchining qanday mutaxasis ekanligi buyicha fikrlar va turli takliflar, yo’l-yo’riqlar bayon etiladi.

Darsni taxlil etish jarayonida, avvalo, mashg’ulot olib borayotgan o’qituvchi gapirishi, so’ngra taxlilda ishtirok etuvchilar gapirishi maksadga muvofiq.

Eslatma: *o’qituvchining darsi va uning faoliyatiga bir dars tahlili bo’yicha xulosa chiqarib bo’lmaydi. Uning faoliyatiga tantsidiy fikr berish uchun uning turli shakldagi bir necha darslarini kuzatish kerak.*

Darsni kuzatuvchilar an`anaviy, noan`anaviy, rivojlantiruvchi ta`limning maqsadi va mazmuniga qarab, darsni tahlil kilishlariga quyidagi ko’shimcha materiallar yordam berishi mumkin.

Pedagogik amaliyotda darsni umumiy (majmuaviy) tahlil qilish rejasidan ko'proq foydalaniladi. Darslarni kuzatish va tahlil qilish rejasidan qaysi birini tanlash darsga qanday maqsadni ko'zlab qatnashishga; kuzatuvchining kasbiy tayyorgarlik darajasiga; qatnashuvchi egallab turgan lavozimiga va kuzatishni tashkil etish shakli kabilarga bog'liq.

Darslarga ishtirok etish maqsadlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash va umumlashtirish;

o'qitish sifati va samaradorligini nazorat qilish;

ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish kabilar.

Shu o'rinda darsga jamoaviy tarzda yoki individual qatnashish shakli ham muhim ahamiyatga ega ekanligmi qayd etish lozim. Darsga qatnashishdan oldin o'qituvchinmg taqvimi bo'yicha mavzular rejasi, dars rejasi va ishchi rejasi bilan tanishishi maqsadga muvofiq. Darsning borishi haqida ma'lumotlarni yozib borishi urn obyektiv baholash uchun asos bo'ladi. Tahlil qilingan darsdan so'ng O'qituvchining yutuq va kamchiliklari muhokama etiladi. Darsnmg natijasini muhokama etishda, avvalo, so'z mashg'ulot o'tgan o'qituvchiga beriladi. U dars o'tishdan ko'zlagan maqsadiga erishganligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Shundan so'ng darsga qatnashganlar o'z fikrlarim iloji boncha dalillar keltirib, bildiradilar O'tilgan mashg'ulotning afzallik va kamchiliklanm ko'rsatadilar, kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini tavsiya sifatida bildiradilar. Bu paytda ma'lum munozara ham bo'lishi mumkin. Har qanday darsni tahlil etishda, awalo,

o'quv materialining o'ziga xosligmi, tahsil oluvchilar va O'qituvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni unutmaslik zarur. Muhokama oxirida darsning mazmundorligi, ko'zlangan maqsadga erishilganligi, mavjud yutuq va kamchiliklarini o'zida ifodalovchi qisqacha xulosa qilinadi. Undan so'ng tahlil etuvchilar tomonidan kuzatish va tahlil etish rejasi haqidagi hujjatlar rasmiylashtiriladi,

Kasb-hunar kollejlarida nazariy mashg'ulotlarni tahlil etish rejasi.

1. Kasb-hunar kolleji
2.Kurs, Guruh, Ixtisosligi
3. O'quv predmeti
4. Fan o’qituvchisi, kuzatuvchi o’qituvchi, Sana
5. Kuzatuvchining F.I.Sh. va egallab turgan lavozimi
6. Mashg'ulot (dars) mavzusi va uning tartib raqami
7. Dars turi
8. Darsning tashkil etilishi.
9. Dars moddiy-texnik ta'minotming tayorligi:
   – yassi ko'rsatmali qo'llanmalar;
   – hajmli ko'rsatmali qo'llanmalar;
   – kino va diafilmlardan lavhalar;
   – elektron ta'lim resurslari;
   – ishlaydigan modellar, asboblar, maketlar. trmajor (mashq qurilma)lar;
   – tarqatma materiallarnmg mavjudligi;
   – axborot-ma'lumot olish manbalari, sxemalar, jadvallar va shu kabilar;
   – o'qituvchi va tahsil oluvchilarning ish o'rinlarini jihozlanganligi;
10.O'qituvchining dars o'qitishga tayyorligini belgilovchi talablar:
   – dars rejasi va matnining mavjudligi;
   – dasturiy materialni bilishi;
   – predmetlararo aioqadorlikdan foydalanishi;
   – ishlab chiqarishning aniq sohasmi o'ziga xos xususiyatlarini bilishi;
   – xavfsizlik texnikasi qoidalanga amal qilishi;
   – tahsil oluvchilarning individual o'ziga xos jihatlarini bilishi;
   – o'qitishning texnik vositalaridan foydalana olish malakasi;
11. Tahsil oluvchilarning darsga qatnashish uchun tayyorligini belgilovchi talablar:
   – Davomatga ijobiy munosabati, tashqi ko'rinishi, daftar va boshqa o'quv predmetlarinmg mavjudligi;
   – avval o'tilgan matenallar mazmunini bilishi;
   – tahsil oluvchilarni ushbu darsdagi materialni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishi (kayfiyati).
12. Darsni oqilona tashkil etilganligi:
   – darsni aniq o'z vaqtida boshlanganligi, o'qitishning texnik vositalari, ko'rsatmali materiallardan oqilona foydalanishi;
   – dars rejasining o'rganilayotgan mavzu mazmuni, tuzilmasiga mos kelishi;
   – darsning bosqichlar bo'yicha sur'atining oqilonaligi;
   – o'qituvchi va tahsil oluvchilarning faolligi nisbati;
13. O'qituvchining faoliyati:

– tahsil oluvchilar oldiga darsning vazifalarim to'g'n va tushunarli qo'yilganligi;

– o'rganilayotgan materialnmg o'quv dasturiga nechog'li to'g'ri kelishi;

– o'rganilayotgan materialni davlat ta'lim standartiga to'g'ri kelishi ta'minlanganligi;

– umumtalim, umumkasbiy va maxsus bilimlarga tayangan holda yangi bilim va ish-harakat usullarini shakllantirishi;

– texnik-texnologik malakalarni shakllantirish;

– darsda ta'lim jarayonini tashkil etish shakli (yoppasiga, guruh, individual);

– tahsil oluvchilarning izlanuvchan faoliyatini tashkil etish;

– tahsil oluvchiiarning faolligini shakllantirish;

– ta'lim prinsiplarini amalga joriy etishi (predmetlararo aloqadorlik, kasbiy yo'nalganlik, politexnizm, uzviylik, tushunarlilik va shu kabilar);

– o'qitishda nisbatan ko'p qo'llangan usullar; ya'ni o'rganilgan materialni mustahkamlash, bilim va malakalami takomillashtirish bo'yicha mashqlarni bajarilishini tashkil etilishi;

– o'rganilayotgan mavzu, predmet va egallanayotgan ixtisoslikka nisbatan tahsil oluvchilarda qiziqish uyg'otuvchi usullardan foydalanishi;

– tahsil oluvchilar bilim va malakasini nazorat etib baholashi;

– o'tgan mashg'ulotlarni o'zlashtirmagan tahsil oluvchilarga bu borada yordam tashkil etish;

– uyga berilgan vazifa haqida tushuncha berish.

14. Tahsil oluvchiiarning o'quv faoliyati:

– darsda o'tilayotganlarga ongli munosabati;

– mehnat operatsiyalarining to'g'ri bajarilishi;

– o'lchov-tekshimv priborlaridan foydalana olish malakasi;

– o'z ish o'rni va mehnatini oqilona tashkil etilishi;

– texnik va texnologik talablarga amal qilishi;

– ma'lumotnoma va maxsus adabiyotlardan foydalanish malakasi;

– berilgan ishni me'yoriy vaqt ichida bajara olishi;

– o'quv ishlarida yuqori natijalarga erishish uchun intilishi;

– material, energiya, vaqt kabilarni iqtisod qilishga intilishi;

– o'z ish o'rni, jihozlar va asbob-uskunalarga ehtiyotkorona munosabatlari;

– mehnat tashabbuskorligi ko'rsatishi

15. Darsning umumiy baholanishi:

– tahsil oluvchilar tomonidan yangi materialni o'zlashtirilishi (angianganligi, mustahkamlanganligi);

– umumkasbiy malakalarni shakllanganlik darajasi;

– darsdan ko'zlangan maqsadga erishilganlik darajasi;

– umumiy xulosa.

16. Mashg'ulotlarni yanada takomillashtirish bo'yicha fikr-mulohazalar va tavsiyalar.

Dars o'tgan o'qituvchining imzosi,

Kuzatib tahlil etuvchi(lar)ning imzosi.

13-Mavzu: Kasb-hunar kollejlarida kasb ta`limi o'qituvchisi va o'quv ustasi. Kasbiy fanlar o'qituvchisining uslubiy ishlari

O'quv moduli birliklari

1. Kasb ta`limi o'qituvchisi va o'quv ustasining malaka tavsifnomasi, kasb ta`limi o'qituvchisi va o'quv ustasining vazifalari, xuquq va burchlari.
2. Kasb ta`limi o'qituvchisi va o'quv ustasini tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar.
3. O'qituvchining mustaqil uslubiy ishlari: o'z siyosiy ongini o'stirish, kasbi bo'yicha bilim va tajribani kengaytirish, ta`lim tarbiya soxasidagi o'z bilim va maxoratini shakllantirish
4. O'qituvchining jamoaviy uslubiy ishlari: pedagog ishlar, ochiq darslar va ularni o'tkazish.

Tayanch so'z va iboralar

Kasb ta`limi o'qituvchisi va o'quv ustasining malaka tavsifnomasi, kasb ta`limi o'qituvchisi va o'quv ustasining vazifalari, xuquq va burchlari, kasb ta`limi o'qituvchisi va o'quv ustasini tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar, o'qituvchining mustaqil uslubiy ishlari: o'z siyosiy ongini o'stirish, kasbi bo'yicha bilim va tajribani kengaytirish, ta`lim tarbiya soxasidagi o'z bilim va maxoratini shakllantirish, o'qituvchining jamoaviy uslubiy ishlari: pedagog ishlar, ochiq darslar va ularni o'tkazish.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- pedagog xodimning lavozimi bo'yicha majburiyatlari ro'yxati;

-tegishli lavozimni egallab turgan (egallashga nomzod) xodimning bilim ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar;

- tegishli lavozimni egallash uchun zarur bo'lgan ish staji va ta`lim darajasiga qo'yiladigan talablar.

Kasb ta`limi o'qituvchisi bilishi lozim:

a) O'zbekiston Respublikasining "Ta`lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash millliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari, qonun hujjatlari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta`limi markazining ta`lim tizimini, Davlat ta`lim standartlarini takomilllashtirish bo'yicha buyruqlarini;

b) o'qitadigan o'quv fanining ilmiy–nazariy asoslarini, uning mazmuni va amalda qo'llanilishini;

v) o'smirlarning ta`limi va tarbiyasining ilg'or shakllari, didaktik tamoyillari, o'qitadigan fani bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish va olib borish metodikasini;

g) zamonaviy va samarali nazorat metodlari, testlar va o'quvchilarning bilim ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini, o'quvchilarning o'zlashtirishi va faolligini baholovchi reyting tizimini;

d) pedagogik va kasbiy muloqot nazariyasi va amaliyotini, yosh psixologiyasi va fiziologiyasini;

e) o’quv jarayonida foydalanadigan ta`lim vositalarini amaliy qo’llashni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini;

j) kadrlarni tayyorlash sifatiga ta`sir etuvchi omillarni;

z) ma`naviy-ma`rifiy ishlarni dolzarb vazifalarini, yoshlar bilan tarbiyaviy ishlar olib borish usullarini, muloqotda, suhbatlarda, mashg’ulotlar olib borishda ahloq va muomala madaniyati masalalarini;

i) huquq asoslari va mehnatni ilmiy tashkil etishni;

k) mehnat xavfsizligi va gigienasi qoidalarini, o’quv kabinetlari, auditoriyalar va boshqa xonalarni jihozlashga qo’yilgan talablarni;

l) maxsus fan o’qituvchilari texnologik ishlab chiqarish, tegishli yo’nalishda ishlab chiqarishni boshqarish va iqtisod asoslari bo’yicha bilimlarga ham ega bo’lishlari shart.

Malakaviy talablar:

tayyorlov yo’nalishida dars berayotgan fani bo’yicha oliy pedagogik yoki muhandis-pedagog darajasida ma`lumot.

Kasb ta`limi o’qituvchisining lavozim vazifalari:

O’quv ishlari bo’yicha:

a) ta`lim darajasi va ma`lum kurslar (guruhlar) uchun mo’ljallangan, davlat ta`lim standartlari va o’quv dasturlariga asoslangan tegishli fan bo’yicha o’quvchilarga nazariy va amaliy o’quv mashg’ulotlarini tashkil etishni va o’tishni ta`minlaydi;

b) o’quvchilarning olgan bilimlarini amalda mustaqil ravishda qo’llashlari uchun tayyorlaydi, maslahat beradi;

v) ta`lim standartlari talablariga asosan o’quv materiallarini o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishini ob`ektiv baholashni ta`minlash uchun reyting nazoratini amalga oshiradi. Bu maqsadda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni amalga oshiradi, o’quvchilarning yozma ishlari va daftarlarini tekshiradi, reyting balllarini hisoblaydi;

g) o’quvchilar davomatining nazoratini olib boradi, ularning ta`lim muassasasi ustavi talablariga rioya qilishlarini ta`minlaydi;

d) bilimlarda oqsayotgan o’quvchilar bilan yakka tartibda va guruhli ishlarni olib boradi, davlat ta`lim standartlari talablari asosida o’quv materiallarini to’liq o’zlashtirishlarini ta`minlaydi.

O’quv-metodik va ilmiy ishlar bo’yicha:

a) o’quv mashg’uloti rejalarini ishlab chiqadi, didaktik, ko’rgazmali va tarqatma materialllarni tayyorlaydi, amaliy, laboratoriya mashg’ulotlariga, o’quv va ishlab chiqarish amaliyotlariga, kurs ishi, diplom loyihalari (ishlari)ga metodik ko’rsatmalar ishlab chiqadi;

b) amaliy mashg’ulotlarga masala va topshiriqlar, o’quvchilarning mustaqil, yakka tartibdagi va o’quv – izlanish ishlari, ularning bilimlarini nazorat qilish bo’yicha vazifalar tayyorlaydi;

v) ilmiy – pedagogik kengash, metodik kengash ishlarida, seminarlarda, ilmiy konferentsiya treninglarida, majlislarda, planyorkalarda, hisobotlarni tayyorlashda ishtirok etadi;

g) o’quvchilarni fanlar bo’yicha olimpiadalarga, turli musobaqalarga, ilmiy konferentsiya va festivallarga tayyorlaydi;

e) o’quv va ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilishida qatnashadi.

Tashkiliy – metodik ishlar:

a) maktablarda kasbga yo’naltirish ishlarini olib boradi;

b) mahalla faolllari bilan 9-sinflar bitiruvchilarini ta`limning kelgusi bosqichlariga qamrab olish masalalari bo’yicha ishlar olib boradi;

v) o’quvchilarda umumiy kasblar haqida tasavvurni shakllantiradi;

g) ochiq darslar (mashg’ulotlar) o’tkazadi va ularda ishtirok etadi;

d) fan to’garaklari ishlariga rahbarlik qiladi;

e) ta`lim muassasasining maslahat markazlari ishlarida qatnashadi;

j) madaniy – hordiq tadbirlarini tashkil etadi va o’tkazadi;

z) «Barkamol avlod» sport o’yinlarini o’tkazilishida, o’quvchilar orasida ijodiy ko’rik tanlovlarini tashkil etishda qatnashadi;

i) laboratoriya, kabinet, unga biriktirilgan xonalarning o’quv jihozlari va o’qitishning texnik vositalari, mulki va moddiy boyliklarining saqlanishini va ulardan samarali foydalanilishini ta`minlaydi;

k) o’quvchilarni foydalaniladigan o’quv-metodik adabiyotlar va axborot ma`lumotlari bilan ta`minlanishi va ularning saqlanishini nazorat qiladi.

Ma`naviy – ma`rifiy ishlar bo’yicha:

a) o’quv guruhlariga rahbarlik qiladi;

b) o’smirlarning tarbiyasi, ular shaxsini rivojlanishi, ularni ma`naviy-ma`rifiy tadbirlarga, musobaqalarga tayyorlash bo’yicha chora-tadbirlar o’tkazadi, buning uchun ota-onalar bilan, psixolog bilan hamda boshqa o’qituvchilar bilan yakka tartibda suhbat va uchrashuvlar o’tkazadi;

v) biriktirilgan guruh bilan muzey, ko’rgazmalarga tashriflar, yozuvchi va artistlar bilan ijodiy uchrashuvlar o’tkazilishini tashkil etadi.

Boshqa majburiyatlari:

a) mehnat va ishlab chiqarish intizomiga, hamkasblari bilan pedagogik ahloq normalariga, tegishli qonuniy me`yor talablariga, mehnat havfsizligi qoidalariga rioya qiladi, o’quv jihozlardan foydalanganda sanitariya –gigiena talablariga rioya qiladi;

b) o’z kasbiy tayyorgarligini (malakasini) doimiy ravishda oshirib turadi;

v) unga biriktirilgan o’quvchilar kontingentining ta`lim muassasasida bo’lganda yoki auditoriyadan tashqarida o’tkaziladigan tadbirlarida hayoti va sog’ligini saqlash bo’yicha qayg’uradi.

Kasb ta`limi ustasining bilishi lozim:

a) O’zbekiston Respublikasining “Ta`lim to’g’risidagi”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi qonunlari, boshqa qonun hujjatlarni Oliy va o’rta maxsus ta`lim Vazirligining, o’rta maxsus, kasb-hunar ta`limi Markazining qo’llanma va axborot, normativ materiallarini, buyruqlarini, ta`lim buyicha statistik ma`lumotlarni, Bola huquqlari haqidagi konventsiyani;

b) o’quvchilarning pedagogikasi va psixologiyasini asoslarini, kasbiy va amaliy faoliyatga tegishli masalalar bo’yicha meyoriy va uslubiy hujjatlarni,

o’quvchilar bilan ishlash bo’yicha mavjud bo’lgan dasturlar, uslubiy adabiyotlar va tegishli fan, texnika va texnologiya yutuqlari;

v) tarmoq menedjmenti va marketingining hususiyatlarini;

g) mehnat qonunchiligi, mehnat muhofazasining qoidalari va meyorlarini, texnika xavfsizligi va yong’inga qarshi muhofazani.

Bajara olishi lozim.

o’quv dasturi va davlat ta`lim standartlariga tegishli amaliy ishlarning barcha turlarini.

Malaka talablari:

a) ta`lim muassasining yo’nalishi bo’yicha oliy ma`lumot yoki ish staji so’ralmagan holda muhandis-pedagogik ma`lumot;

b) kasb (mutaxassislik) bo’yicha 3 yildan kam bo’lmagan amaliy ish staji va o’rta maxsus kasbiy ma`lumot.

Kasb ta`limi ustasining lavozim vazifalari:

a) biriktirilgan guruhlar bilan amaliy mashg’ulotlarni rejalashtiradi va o’tkazadi;

b) xonalarni, auditoriyalarni, ko’rgazmali vositalar, jihozlar va boshqa texnika vositalarini, amaliy mashg’ulotlarga, ishlarga kerak bo’lgan materiallarni tayyorlaydi;

v) amaliy mashg’ulotlar jarayonida o’quvchilarda nazariy bilimlarni mustahkamlashda, ularda mehnat va kasbiy tajribalarni shakllantirishni va ular bazasida ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalarini qo’llay olishni ta`minlaydi;

g) mahsulot ishlab chiqarish bo’yicha korxonalar, tashkilotlar va alohida shaxslar, bilan bitimlar tuzishda qatnashadi;

d) o’quvchilarni malakali ishlarni bajarishga, bitiruv imtihonlarini va kasbiy attestatsiyani topshirishga tayyorlaydi;

e) biriktirilgan guruhlarda tarbiyaviy ish olib boradi, bu sohada uslubiy va fan komissiyalari, o’quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik ishlarini olib boradi va darsdan tashqari tashkiliy-madaniy va tushuntirish tadbirlarini o’tkazishda qatnashadi;

j) doimo o’zining kasbiy va uslubiy mahoratini oshirib boradi. Uslubiy tashkilotlarning va uslubiy ishlarning boshqa shakllaridagi faoliyatida qatnashadi;

z) o’qituvchi va tarbiyachilar bilan yaqin muloqotda ishlaydi, kerak bo’lganda nazariy mashg’ulotlarga kirib turadi;

i) shaxsning umumiy madaniy shakllanishiga, ijtimoiylashishiga, kasbiy dasturlarni ongli ravishda o’rganishiga va tanlashiga yordam beradi. Davlat standartlari doirasida ta`lim tizimining turli shakllarini, uslublarini, qo’llanmalarni ishlatadi;

k) o’quvchilarni Davlat ta`lim standarti talablariga mos keladigan darajada tayyorlashni ta`minlaydi;

l) yong’inga qarshi himoya, texnika havfsizligi va mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me`yorlarining bajarilishini ta`minlaydi;

m) t`lim olish jarayonida o’quvchilarning sog’lig’ini va hayotini muhofaza qilishni ta`minlaydi.

Kasb-hunar kollejlarida ilmiy-uslubiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun kollej rahbari mohir pedagog va kasb-hunar sirlarini yaxshi biladigan mutaxassis bo'lishi kerak. U mustaqil ravishda bilim olish va malaka oshirish kurslari orqali ilmiy-uslubiy ishlarning mazmuni hamda ularni tashkil etishga oid masalalarni o'rganib borishi kerak.

Kasb-hunar kollejlarida tashkil etiladigan ilmiy-uslubiy ishlarning vazifalariga quyidagilar kiradi:

kasb-hunar kolleji pedagog va texnik xodimlarining ilmiy-g'oyaviy saviyasini, pedagogik mahoratini oshirish;

talabalarni milliy mustaqiUik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, usul va vositalanni takomillashtirish;

ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umummilliy, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash;

ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rgamsh, umumlashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayomga joriy etishdan iborat.

Ilmiy-uslubiy ishlarda ishtirok etish kasb-hunar kollejlaridagi barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar uchun majbuny bo'lib, bu ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlaridagi uslubiy ishlarning mazmuni, yo'nalishi, tuzilmasi kabilar uslubiy ish haqidagi Nizom bilan belgilanadi, shu Nizomga muvofiq, jamoaviy va individual tarzda uslubiy ishlar olib boriladi.

Quyidagilar jamoaviy uslubiy ish shakllari sirasiga kiradi:

pedagogik kengash;

uslubiy komissiyalar;

- ilg'or tajriba maktabi, muammoli seminarlar, ilmiy-uslubiy konferensiyalar, pedagogik o'qish va turli uslubiy kengashlar.

Individual uslubiy ish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

kasb-hunar kollejlari rahbarlari, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar va boshqa muhandis-texnik xodimlarning o'z g'oyaviy-siyosiy darajasi, pedagogik malakasi va kasbiy mahoratini oshirish yuzasidan olib boriladigan mustaqil uslubiy ishlari;

kollej rahbari (direktor), umng o'rinbosarlari, katta usta, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar va boshqa muhandis-texnik xodimlar bilan olib boradigan individual uslubiy ishlari.

Uslubiy ishlar shakli va mazmuni bo'yicha ham, pedagogik xodimlarning turli guruhlarini qamrab olish bo'yicha ham muvofiqlashtirilgan taqdirdagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Kasb-hunar kollejida uslubiy ishlarni umumiy mavzu asosida tashkil etish tajribasi bunday muvofiqlashtirish usullaridan biridir. Uslubiy ishni bunday tashkil etishning mohiyati shundan iboratki, kasb-hunar kolleji ma'lum bir vaqtga mo'ljallangan umumiy mavzuni tadqiq etadi. Buning natijasida ta'lim-tarbiya jarayonini takormllashtirishning dolzarb muammolanni hal etishga muayyan hissa qo'shadi, turli toifadagi pedagogik xodimlarning tayyorgarlik darajasi hisobga olingan holda, ularning pedagogik mahoratini oshirish vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Uslubiy ish shakllari va maqsadlarining rang-barangligi, uning turli guruh va toifadagi pedagoglarni o'ziga jalb etishini hisobga olib, tadbirlarni mazmuni va o'tkazish muddatlarini muvofiqlashtirish, bir ishning bir necha marta takrorlanishini bartaraf etish, uning samaradorligini oshirish uchun pedagogik amaliyotda uzoq vaqtlardan beri «Uslubiy ishlarning umumiy rejasi» tuziladi. Bunday rejada kasb-hunar kollejidagi barcha uslubiy ishlar tizimi taqvim muddatlar va muhim tadbirlar bo'yicha uyg'unlashtiriladi.

Kasb-hunar kollejidagi uslubiy ishlarning aniq shakllarini kollej pedagogik kengashi belgilaydi. Kollej rahbari (direktor) uslubiy ishlarga urnumiy rahbarlik qiladi. U «Uslubiy ishlarning rejasi»ni tasdiqlaydi, pedagogik kengash ishiga rahbarlik qiladi, instruktiv-uslubiy majlislar o'tkazadi, o'qituvchi va muxandis pedagoglar o'tkazadigan mashg'ulotlarni tahlil qiladi, alohida o'qituvchilarning uslubiy ishlariga rahbarlik qiladi, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limini yuqori idoralariga o'zi rahbarlik qilayotgan kollejdagi uslubiy ishlarning ahvoli to'g'risida hisobot beradi.

Direktorning o'quv-ishlab chiqarish ishlari bo'yicha o'rinbosari, umuman, kollejdagi uslubiy ishlarning, shuningdek, maxsus fanlar turkumi o'qituvchilari bilan olib boriladigan uslubiy ishlarning tashkilotchisi hisoblanadi.

Ijtimoiy o'quv predmetlari va tarbiyachilar bilan olib boriladigan uslubiy ishlarni direktorning o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, umumta'lim o'qituvchilari bilan olib boriladigan uslubiy ishlarga esa ilmiy bo'lim mudiri rahbarlik qilad

14-Mavzu: Kasb-hunar ta`limida ishlab-chiqarish amaliyoti

O’quv moduli birliklari

1. Ishlab chiqarish amaliyotining maqsad va vazifalari.
2. Ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorgarlik va o’tkazish, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish va o’tkazish.
3. Ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish.

Aniqlashtirilgan o’quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba mavzuni o’zlashtirgandan so’ng:

-ishlab chiqarish amaliyotining maqsad va vazifalarini biladi;

-ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorgarlik va o’tkazish, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish va o’tkazish shakllari to’g’risida tushunchaga ega bo’ladi;

-ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish metodikasi to’g’risida tushunchaga ega bo’ladi.

Tayanch so’z va iboralar

Ishlab chiqarish amaliyotining maqsad va vazifalari, ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorgarlik va o’tkazish, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish, ishlab chiqarish amaliyotini o’tkazish shakllari, ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish.

ISHLAB ChIQARISh AMALIYOTNING MAQSADI

Ishlab chiqarish amaliyotining vazifalari: o`quvchilar mutaxassislik bo`yicha kasbiy ko`nikmalarga ega bo`lishi, konkret qishloq xo`jalik korxonalarining faoliyatini o`rganish asosida kasbiy fanlami o`rganishda olgan bilimlarini mustahkamlash, kengaytirish va tizimga keltirish, amaliy tajribaga ega bo`lish, kasbiy fikr yuritishni rivojlantirish, mehnat jamoasi sharoitida nutq faoliyatini shakllantirish va «Traktorchi», «Qishloq xo`jalik texnikasini ta'mirlash bo`yicha chilangar» va «Elektrgaz payvandchi» ixtisosliklarini egallash.

O`quvchilar mashina-traktor parki va ta'mirlash-xizmat ko`rsatish ustaxonasi mavjud bo`lgan xo`jaliklarga yo`nalishi maqsadga muvofiq bo`ladi.Ishlab chiqarish amaliyoti davrida o`quvchilar mashina-traktor parkini, ta'mirlash-xizmat ko`rsatish ustaxonasi ishini, qishloq xo`jalik texnikasidan foydalanishni, ularga texnik xizmat ko`rsatish va ta'mirlashni tashkil qilish bilan tanishish, kollejda olgan bilim va ko`nikmalarini mustahkamlanishi zarur.

Ishlab chiqarish amaliyoti davomida o`quvchilar kundalik hisobot olib boradilar, unda o`quvchilar har kuni bajargan asosiy ishlar ro`yxati yoziladi, texnologik jarayonlariga, ishlarni tashkil qilishga tushunchalar beriladi.

Kundalik hisobotga texnologik jarayonlarning sxemalari, shaxsiy kuzatishlari, kamchiliklar, xulosa va takliflar, chizma va eskizlar ilova qilinadi.

Mintaqaviy sharoitlar va mavsum ishlari hisobga olinib ishlab chiqarish amaliyoti dasturiga o`zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Amaliyot natijasida o`quvchilar quyidagi ko`nikmalarga ega bo`lishlari kerak:

— mashinalarni tanlashi va mashina-traktor agregatlarini tuzish;

— mashina-traktor agregatlarida ishlash;

— mashina-traktor agregatlarining ish sifatini nazorat qilish;

— chorvachilik mashina va jihozlarini ishga tayyorlash, sozlash va ularda ishlash;

— traktor, kombayn, qishloq xo`jalik va chorvachilik mashina hamda jihozlariga kunlik va rejali texnik xizmat ko`rsatish;

— qishloq xo`jalik texnikasini ta'mirlash bo`yicha chilangarlik ishlarini bajarish;

— elektr va gaz payvandlash ishlarini bajarish;

— ish joylarini yig`ishtirish.

Amaliyot natijasida o`quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo`Hshlari kerak:

— traktorlarga tashxis qo`yish;

— avtomobillarga tashxis qo`yish;

— qishloq xo`jalik mashinalari va o`zi yurar shosselarga texnik xizmat ko`rsatish;

— dvigatellarni ta'mirlashga qabul qilish, qismlarga ajratish va yuvish;

— yig`ish va sozlash ishlari;

— elektr jihozlariga texnik xizmat ko`rsatish.

AMALIYOTNING MAZMUNI

Kirish. Xo`jalik bilan tanishish

Amaliyotning maqsadi. Kundalik hisobotni olib borilishi to`g`risida ma'lumot. Xo`jalikning qisqacha tarixi, boshqarish stmkturasi, mutaxassislarning vazifalari. Muhandis-texnik xodimlari bilan suhbat, texnika xavfsizligi va ish tartibi bo`yicha yo`riqnoma.

Xo`jaiikning qisqacha yo`riqnomasi, qishloq xo`jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish tajribasi, ishlab chiqarish uchastkalari, ilg`orlar ishi, mehnat intizomi qoidalari bilan tanishish.

o`quvchilarni ish turlari bo`yicha taqsimlash.

1-mavzu. Paxta hosilini yig`ib-terib olish va g`o`zapoya yulish agregatlarida ishlash

Paxta hosilini yig`ib-terib olish agregatlarida ishlash. Paxta terish mashinasi (agregat)ni texnik holatini tekshirish va sozlash. Dalani ko`zdan kechirish. Dastlabki kirish, agregatni sozlash. Paxta terish bo`yicha ishlarni bajarish. Davriy ish sifatini tekshirish, agregat ishlashida hosil bo`lgan nuqsonlarni bartaraf etish, agregatni sozlash. Eng qulay harakatlanish usulini tanlash, salt yurishlarni kamaytirish. Bajargan ishni topshirish, hujjatlarni rasmiylashtirish. Agregatga texnik xizmat ko`rsatish. Smenani topshirish. Ish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo`yicha takliflar.

G`o`zapoya yulish (maydalash) agregatida ishlash. Traktor va g`o`zapoya yulish (maydalash) mashinasini texnik holatini tekshirish, agregatni tuzish. Agregatni sozlash. Dalani ko`zdan kechirish, dastlabki kirish, yulish mashinasini sozlash. G`o`zapoyani yulish (maydalash) bo`yicha ishni bajarish. Davriy ish sifatini tekshirish, yulish mashinasini ishlashida hosil bo`lgan kamchiliklarni bartaraf etish, sozlash. Eng qulay harakatlanish usulini tanlash, salt yurishlarni kamaytirish. Bajargan ishlarni topshirish, hujjatlarni rasmiylashtirish. Agregatga texnik xizmat ko`rsatish va uni turar joyiga qo`yish. Ish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni tahli! qilish va ularni bartaraf etish bo`yicha takliflar.

2- mavzu. Tuproqqa ishlov berish va kuzgi ekinlarni ekish agregatlarida ishlash

Yer haydash agregatida ishlash. Traktor va plugni texnik holatini tekshirish, yerhaydash agregatini tuzish va uni sozlash. Agregatning harakatlanish usulini tanlash. Dalani pollarga (uchastkalarga) bo`lish. Agrotexnikaviy talablariga rioya qilib agregat bilan yer haydash. Mehnat unumdorligini oshirish va traktorni to'la yuklash uchun tezliklar bilan manyovrlash. va dvigatelning tartibli rostlagichdan foydalanish. Yo`nalish va harakatlanish usullarini tanlash. Davriy ish sifa-tini tekshirish, hujjatlarni rasmiylashtirish. Agregatlarga texnik xizmat ko`rsatish. Smenani topshirish.

Tuproqqa ekish oldidan ishlov berish agregatlarida ishlash. Texnik holatini tekshirish, agregatlar tuzish va ularni sozlash. Agrotexnikaviy talablarga rioya qilish va ilg`or mexanizatorlarning tajribasidan foydalanib tuproq qatlamini yumshatish (kultivatsiya), baronalash, tekislash va hokazo ishlarni bajarish. Mehnat unumdorligini oshirish uchun tezliklar bilan manyovrlash va dvigatelning barcha tartibli rostlagichdan foydalanish. Yo`nalish va harakatlanish usullarini tanlash. Davriy ish sifatini tekshirish, hujjatlarni rasmiylashtirish. Agregatga texnik xizmat ko`rsatish. Smenani topshirish.

Kuzgi ekinlarni ekish agregatida ishlash. Traktor va seyalkani texnik holatini tekshirish, ekish agregatini tuzish va uni sozlash. Agregatning yo`nalishini va harakatlanish usulini tanlash. Dalani ekishga tayyorlash. Agregatni dastlabki o`tishida seyalkani ishlash sifatini lekshirish. Agrotexnikaviy talablarga rioya qilib va ilg`or mexanizatorlar tajribasidan foydalanib don ekishini bajarish. Agregatlarni eng kam to`xtashda seyalkalarni to`ldirishni uddalash. Seyalkalar ishini kuzatish va nuqsonlarni zudlik bilan bartaraf etish. Ish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo`yicha takliflar.

3-mavzu. Chorvachilik mashina va jihozlarida ishlash

Ozuqa tayyorlash, ozuqa tarqatish, hayvonlarni sug`orish va go`ngni yig`ishtirish mashina hamda jihozlariga texnik xizmat ko`rsatish, joriy ta'mirlash va sozlash. Ko`rsatilgan jihozlar (mashinalar)da ishlash. Sog`ish qurilmalariga texnik xizmat ko`rsatish, joriy ta'mirlash va sozlash.Sutga dastlabki ishlov berish jihozlariga texnik xizmat ko`rsatish, joriy ta'mirlash, sozlash va ularda ishlash. Ish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo`yicha takliflar.

4-mavzu. Ta’mirlash ustaxonalari va mashinalarga texnik xizmat ko`rsatish punktlarida ishlash

Ish joylarini tashkil qilinishi (joylanishi), ularni jihozlari, asbob-uskunalari va texnikaviy hujjatlari ta'minlanishi bilan tanishish. Ustaxonaning uchastkalari o`zaro bog`liqligini o`rganish. Mashinalarning texnik holatini aniqlash (tashxis qo`yish) va detallarni yaroqliligini (defektatsiya qilish) aniqlash. Traktor, kombayn vaboshqa qishloqxo`jalik mashinalariga kundalik va rejali texnik xizmat ko`rsatishni o`tkazish. Qishloq xo`jalik texnikasini ta'mirlash bo`yicha chilangar sifatida ishlash. Elektr va gaz payvandlash uchastkalari (sex)da elektr gaz

payvandchi sifatida ishlash. Ish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo`yicha takliflar.

5-mavzu. Ishlab chiqarish ekskursiyasi

Amaliyot rahbari boshchiligida ilg`or mashina-traktor parkiga, chorvachilik fermasiga, ta'mirlash ustaxonalariga, ilg`or tajribalari va fan yutuqlari bilan tanishish va o`rganish maqsadida ekskursiya tashkil qilinadi.

6-mavzu. Materiallarni umumlashtirish va amaliyot bo'yicha hisobotni rasmiylashtirish

Ishlab chiqarish amaliyotining natijalari bo`yicha o`quvchi barcha materiallarni umumlashtiradi, tahlil va xulosa chiqaradi hamda kundalik hisobotni rasmiylashtirishini yakunlaydi. Kundalik hisobotida o`quvchi tomonidan amaliyot davrida bajarilgan ishlarning turlari va hajmi ko`rsatiladi.

O`QITISH USLUBLARI

Og`zaki, amaliy, ko`rgazmali, multimedia, kodoskop va boshqalar.

ESLATMA. o`qituvchi mavzuning xususiyatidan kelib chiqqan holda dars o`tish uslublarini o`zi tanlaydi hamda yangi uslub qo`llash huquqiga ega.

BAHOLASh TIZIMI. o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini baho-lash Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligi, o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomoni-dan tasdiqlangan «Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o`quvchilarining bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g`risida»gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

15-Mavzu: Ishlab chiqarish ta`limi tizimi (2 soat)

O'quv moduli birliklari

1. Ishlab chiqarish ta`limining psixologo-pedagogik va metodik asoslari.
2. Amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishning psixologo-pedagogik asoslari va ularning turlari.
3. Ishlab chiqarish ta`limining umumiy tavsifi va uni aniqlovchi omillar.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba mavzuni o'zlashtirgandan so'ng:

- ishlab chiqarish ta`limining psixologo-pedagogik va metodik asoslari to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi;
- amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishning psixologo-pedagogik asoslari va ularning turlarini ta`riflay oladi;
-ishlab chiqarish ta`limining umumiy tavsifi va uni aniqlovchi omillarni o'rganadi.

Tayanch so'z va iboralar

Ishlab chiqarish ta`limining psixologo-pedagogik va metodik asoslari, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishning psixologo-pedagogik asoslari, ularning turlari, ishlab chiqarish ta`limining umumiy tavsifi, ishlab chiqarish ta`limini aniqlovchi omillar.

Ishlab chiqarish ta`limining maqsadi — o'quvchilarning kasbiy malakalarini shakllantirishdir. Bu ko'nikma va malakalar laboratoriya-amaliy mashg'ulotlarda,

traktor, kombayn, agregatlarda ishlash hamda avtomobillarni boshqarish darslarida, ustaxonada dars o'tish, maxsus fanlar-dan o'quv amaliyotini o'tish va ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida shakllanadi.

Yangi o'quv reja va dasturlari oldingilariga qaraganda quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi, ya`ni:

— ishlab chiqarish ta`limi turlariga ajratilgan soat va uning mazmuni;

– ishlab chiqarish ta`limining tashkiliy shakllari va uni o'tish metodikasi mukammallashganligi;

– ishlab chiqarish ta`limining turlari va qo'yilgan maqsadlarning aniqligi;

– tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning hozirgi kun talabiga mos kelishi, ya`ni ular sxemalar, grafiklar, diagrammalar, chizmalarni mukammal o'qiy olishlari, tasvirlarni bilish va puxta tushina olishlari va hokazolar.

Qishloq xo'jalik mashina va jihozlaridan foydalanish va ularga texnik xizmat ko'rsatish" yo'nalishidagi o'quv reja va dasturlarga binoan ishlab chiqarish ta`limi quyidagilardan iborat:



8-rasm. Kasb xunar kollejlarida ishlab chiqarish ta`limi tizimini tuzilmasi (QXMSQIT yo'nalish misolida)

<u>Kasbiy ko'nikma va malakalar</u>. Kasbiy bilimlarni egallash, ishlab chiqarish malaka va ko'nikmalarning shakllarini-hunar texnika bilim yurtlari o'quvchilarning bilim faoliyatlaridagi o'zaro bog'liq komponentlardir. Bu muammoni hal qilinishi o'quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga ko'p darajada bog'liqdir.

Malaka maqsadga yo'nalgan faoliyat jarayonida undagi ayrim harakatlarga maxsus e`tibor bermagan xolda, lekin ong nazorati ostida avtomatik suratda bajarish qobiliyatidir. Shu bilan birga bu harakatlar, mashq qilish jarayonida shakllangan va ancha murakkab harakatlar strukturasiga kiradi.

Faoliyatning ayrim qismlarini avtomatik ravishda bajarish qobiliyati turlicha bo'lishi mumkin, chunki ko'nikmalar sifati ham bir xil emas. Ko'nikmalar shakllangan va shakllanmagan, yangi va eski, oddiy va murakkab, alohida va kompleks bo'lishi mumkin. Bularning hammasi o'zlari shakillanib o'zlashtirilayotgan faoliyatga bog'liq bo'lib, davomsiz yoki uzoq vaqtga, oddiy yoxud murakkab mashqlar bir xil, yoinki xilma-xil, faoliyatining oddiy va murakkab sharoitini hisobga oladi.

Ishlab chiqarish malakalarining quyidagi turlari ma`lum:

aqliy malakalar - *bu vazifalarni bajarishda mavjud bilim hamda tajribalarni o'ylab turmasdan zudlik bilan qo'llay olish, vaziyatni faxmlash (kesish rejimini tanlash, o'zi egri yozar uskuna qurilmalar, nazorat uskunalar ko'rsatkichlarini o'qi shva xokazo);*

sensor malakalar - *bu yerda sezgi organlari faoliyati asosiy rol o'ynaydi: (alanga rangiga qarab haroratni, metalning tashqi ko'rinishiga qarab sortini, mashinalarning singan, buzilganligini ovoziga qarab aniqlash va xokazo);*

dvigatelli (motorli) malakalar - *ishlab chiqarish ta`limi uchun juda xos bo'lib, ishlab chiqarish ta`limida o'quvchilarning o'zlashtirishi va tayyorgarligini belgilaydi, asosan qo'llar harakati bilan, ba`zan qo'l, oyoq va butun tana harakati bilan bog'liq (silliqlash, kesish, stanok dastasini burash, mexanizmlar bilan ilashish va xokazolarda qo'llar harakati);*

senor dvigatelli malakalar - *idrok va dvigatelli harakatlarni o'z ichiga oluvchi malakalar. Bu tipga mashina va qo'lda bajarilishi kerak bo'lgan jarayonlarni o'rganishda shakllanadigan ko'pchilik ko'nikmalar kiradi;*

irodaviy - intizom ko'nikmalari.

Har bir ko'nikma shakllanish jarayonida qator bosqichlarni bosib o'tadi. Dvigatelli ko'nikmalarning quyidagi shakllanish bosqichlarini ko'rib o'tamiz.

birinchi - *malakali fikrlashning boshlanishi. Maqsadni aniq tushunish, ammo unga erishish yo'llarini yaxshi tushunmaslik. Harakatni bajarishda qo'pol xatolar;*

ikkinchi - *ongli, ammo epsiz bajarish. Harakatni qanday bajarishni aniq tushunish, ammo o'z diqqatini qancha jamlashiga qaramay noaniq bo'sh bajarish; ortiqcha harakatning ko'pliligi, mazkur ko'nikmani ijobiy tadbiq etishning yo'qligi.*

uchinchi - *malakaning avtomatlashishi. Harakatlarni bo'shashtirilgan erkin diqqat vaqtida borgan sari sifatliroq bajarish va uni taqsimlash imkoniyatining mavjud bo'lishi ortiqcha harakatlarni bartaraf etish; ko'nikmalarning ijobiy tadbiq etishning paydo bo'lishi.*

to'rtinchi - *o'ta avtomatlashtirilgan ko'nikma. Boshqa murakkabroq bir harakatni bajarish vositasi bo'lgan harakatni aniq, tejamli qat`iy bajarish.*

Rivojlanayotgan ko'nikmalar paydo bo'lishlari bilanoq o'zaro aloqada bo'ladilar. Yangi ko'nikmani o'zlashtirishning yengil va qiyin bo'lishi hamda

uning avval shakllangan ko'nikmalar bilan o'zaro aloqasi ko'nikmalarning tadbiq etilishi deb ataladi (ijobiy yoki salbiy).

Ko'nikmaning salbiy tadbiq etilishi shunday xollarda uchraydiki, unda ma`lum bir harakatni bajarish, ko'nikmaga ega bo'lgan ishchi uni boshqa yo'l bilan bajaradi (masalan, boshqa stanokka o'tishi, boshqarish dastasi avvalgi stanoknikiga nisbatan boshqacha joylashgan; shofyorning o'zgacha boshqarish sistemasiga ega bo'lgan avtomashinada ishlashi va hokazo).

Ko'nikmalarni ijobiy tadbiq etishda o'quvchilar yangi va o'xshash ko'nikmalarni tezda egallab oladilar (masalan, pichoq bilan kesishdagi ko'nikmalar, silliqlashdagi ko'nikmalarning shakllanishiga ijobiy ta`sir qiladi).

Ba`zan chetdan qaraganda oddiy bo'lib ko'ringan ko'nikmalarning shakllanish jarayoni tashqi jixatdan oddiy bo'lib tuyulsa-da, aslida juda murakkab. Bir qarashda taxmin qilish mumkinki, batafsil tushuntirish, ish usullarini yetarli miqdordagi mashqlar yordamida ko'rsatish, o'quvchilarni diqqat-e`tibori hamda harakati bu ko'nikmalarni ta`minlaydi, deyish mumkin. Ammo ko'pincha yetarli nazariy tayyorgarlikka ega bo'lgan hunar-texnika bilim yurti bitiruvchilari, amaliy ko'nikma va malakalarini bo'sh egallaydilar. O'quvchilarda ko'nikmalar shakllanishining murakkabligi, ta`lim usulini tanlashdagi barcha xollarda hisobga olinishi lozim bo'lgan ko'pgina faktorlarning ta`sir bilan izoxlanadi. Ko'nikmalarni shakllanishiga quyidagshi faktorlar ta`sir ko'rsatadi: 1) o'quvchilarning muvaffaqiyatlarga erishishdagi qiziqishlari; 2) ularda zarur bilimlarning mavjudligi; 3) instruktajning boshlanishiga qadar va mashqlar jarayonidagi samaradoligi; 4) mashqlar jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish usta bahosining o'z vaqtida bo'lishi va ob`ektivligi; 5) o'quvchilar faoliyatining aktiv xarakteri, ular aktivligini oshiruvchi ta`lim metodlarini qo'llash; 6) mashq miqdori; 7) ko'nikmalarning rivojlanish darajasiga aniqlik, temp va hokazolar jihatidan qo'yiladigan talablar; 8) ko'nikmalarning turli ko'rinish va xususiyatlari; 9) o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari.

Ko'nikma avtomotizmdan shu bilan farq qiladiki, sinov mashqlarida bu harakat unga diqqat yo'naltirilgan xolda to'la va ongli bajarilib, asosan mashqda avtomotlashgan haraktlarda diqqat ularga emas, balki ular maqsadiga yo'naltirilgan xolda bajarilishi kerak. Bunda ko'nikmalarni takomillashtirib borishga qarab, avtomotlashtiriladigan harakatlarni maqsadi, ulardan muntazam ravishda uzoqlashtirib va shu yo'l bilan yoki bu ishni yanada murakkabroq ko'nikmalar kompleksini shakllantirish lozim. Shu bilan birga murakkab malakalar ham takomillashtirib boriladi.

Malaka - bu kishining ishni yaxshi sharoitda mahsuldor, zarur sifatlar bilan tegishli vaqtda bajara olish qobiliyatidir. Har qanday malaka bilim hamda ko'nikmalarni o'ziga olib mavjud ko'nikma bilimlar asosida shakllanadi, ularni yangi sharoitlarda yetishmaydigan elementlarni qaytadan shakllantiradi. Malakka bilim va ko'nikmalarga zid deb bilish yoki sanab o'tilganda, ba`zan uchrayotgandek ulardan oldin qo'yish mumkin emas, chunki malaka ular asosida asosida tarkib topadi. Professional malakalar K. K. Platonov va G. G. Golubevlar ta`kidlaganidek o'z shakllanishida qator bosqichlarni bosib o'tadi.

Birinchi bosqich - *boshlang'ich ko'nikma. Harakat maqsadini va uni bajarishning ilgari egallangan bilim hamda ko'nikmalarga (odatda maishiy) tayanadigan izlanish yo'llarini anglash faoliyat sinov va xatolar yo'li bilan amalga oshiriladi;*

Ikkinchi bosqich - *yetarli bo'lmagan ko'nikmali faoliyat. Harakatni bajarishda muayyan faoliyat uchun xos bo'lmagan ilgari egallangan ko'nikmalardan foydalanish;*

Uchinchi bosqich - *alohida umumiy ko'nikma. Faoliyatning turli ko'rinishlari uchun zarur bo'lgan qator o'ta rivojlangan, ammo tor malakalar (o'z faoliyatini rejalashtira olish ko'nikmasi, tashkilotchilik malakasi va xokazo.)*

Turtinchi bosqich - *o'ta rivojlangan ko'nikma. Muayyan faoliyatga oid bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanish; faqat maqsadni emas, balki unga erishish yo'llarini tanlash sababini ham anglash;*

Beshinchi bosqich - *mahorat. Turli malakalardan ishonchli ijodiy ravishda foydalanish.*

Mahorat-kasb malakalar rivojalnishning yuqori darajasi va kasb-ta`limning mutloq maqsadidir. Unga amaliyot orqali erishiladi. Mahorat - bu murakkab ishni tez va aniq bajarishning yengilligi, bu mehnatning yuqori sifati va barqaror ritmi uchun kafolat beruvchi ishdagi ishonchlilikdir.

*<u>Kasbiy mehnat odatlari</u>**.** O'quvchilarning ko'pgina harakatlari faqat ko'nikma va malaka tarzida emas, balki odatlar sifatida ham shakllanadi.*

Mehnat odatlari - mehnat va ishlab chiqarish ta`limida hosil qilingan hamda avtomatlashgan harakterga ega bo'lgan fe`l-atvor odatlaridir.

Quyidagilarni kasbiy odatlar deb xisoblash mumkin: mehnat intizomiga rioya qilish (ishga, bilim yurtiga mashg'ulotlarga, yig'ilishlarga o'z vaqtida kelish, berilgan topshiriqlarni va ichki kun tartibini aniq bajarish):

texnologiya qoidalariga aniq va qat`iy rioya qilish (yo'l – yo'riq, texnologik kartadan foydalanilgan xolda chizmalar bo'yicha ishlatilishi kerak bo'lgan material, asbob, jihoz va texnikadan foydalanish);

mehnat qilishning eng ilg'or metodlarini izlashga doimo intilish, ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga xalaqit beruvchi eskirgan, takomillashgan narsalarga tanqidiy munosabat;

ish o'rin joylashtirish tartibi (dastgoh, stanok va asbobni ishga tayyorlash hamda ularni ishdan keyin tartibga solish va boshqalar);

mulkka ehtyotlik munosabatida bo'lish, ilg'or ish tajribalarini o'rtoqlashish va ishlab chiqarish rejasni bajarishga ko'maklashish istagi;

xavfsizlik texnikasi, mehnatni muhofaza qilish qoida va talablariga rioya qilish.

Ta`lim jarayonidagi kommunistik tarbiya masalasini, o'quvchilarda ko'rsatib o'tilgan odatlarni shakllantirmasdan turib hal etish mumkin emas. Zararli odatlarning vujudga kelishidan saqlanish lozim. Ular ko'pincha e`tiborsizlik, parishonxotirlik va intizomsizlikka shuningdek, tegishli mehnat sharoitining yo'qligi va o'quv jarayonini yomon tashkil etilishi tufayli yuzaga keladi. Masalan o'quvchilarni ba`zan noto'g'ri ish usullariga, asboblardan noto'g'ri foydalanishga odatlantiriladi.

<u>Ishlab chiqarish ta`lim tizimini takomillashtirish</u>**.*** *Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida texnologik jarayonlar va ishchilar mehnati mazmuning analizi, ilg'or pedagogik tajribani umumlashtirish, shuningdek psixofiziologik hamda didaktik tadqiqotlar asosida ishlab chiqarish ta`limining operatsion - kompleks tizimi rivojlanishida davom etib, takomillashmokda.

Ishlab-chiqarish ta`limi tizimining (o'quv jarayonida va bevosita ishlab chiqarishda) operatsion-potok, operatsion-ishlab chiqarish, mahsulot-texnologik muammo-analitik kabi yuksak mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan, shuningdek apparaturali ishlab chiqarish jarayonlari ishchilarni tayyorlash xususiyatlariga mos keladigan tizimlarni ishlab chiqarishga harakat qilinmoqda.

16-Mavzu: Ishlab chiqarish ta`limini tashkil etish va uni o'tkazish

O'quv moduli birliklari

1. Ishlab chiqarish ta`limini rejalashtirishning vazifasi va mazmuni.
2. Ishlab chiqarish ta`limining metodik ta`minoti: dars jadvali, dars rejasi, o'quv ishlab chiqarish ishlarining ro'yxati va turlari, ko'rsatmali texnologik karta, mehnat xavsizligidan yo'l-yo'riq, o'quvchilarini ish o'rinlari bilan almashinish jadvali, ularning vazifasi, mazmuni va ishlab chiqarish metodikasi.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba mavzuni o'zlashtirgandan so'ng:

- ishlab chiqarish ta`limini rejalashtirishning vazifasi va mazmunini tushunadi.
- ishlab chiqarish ta`limining metodik ta`minoti: dars jadvali, dars rejasi, o'quv ishlab chiqarish ishlarining ro'yxati va turlari, ko'rsatmali texnologik karta, mehnat xavsizligidan yo'l-yo'riq, o'quvchilarini ish o'rinlari bilan almashinish jadvali, ularning vazifasi, mazmuni va ishlab chiqarish metodikasi bo'yicha tushunchalarga ega bo'ladi.

Tayanch so'z va iboralar

Ishlab chiqarish ta`limini rejalashtirishning vazifasi va mazmuni, dars jadvali, dars rejasi, o'quv ishlab chiqarish ishlarining ro'yxati va turlari, ko'rsatmali texnologik karta, mehnat xavsizligidan yo'l-yo'riq, o'quvchilarini ish o'rinlari bilan almashinish jadvali, ularning vazifasi, mazmuni, ishlab chiqarish metodikasi.

<u>Darsni maqsad va mazmunini aniqlash</u>. Darsning maqsad va mazmunini aniqlash vaqtida usta quyidagi ishlarni qiladi:

- yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash va ularni tuzatish uchun oldingi mashg'ulotlarni tahlil qiladi;
- oldingi dars vazifalari qay darajada hal etilganini, kamchiliklarning sabablarini aniqlaydi va shu asosda navbatdagi darsni olib borish paytida qanday o'zgarishlar kiritish lozimligini belgilab oladi;
- oldingi mashg'ulotlar natijalarini tahlil qilish asosida darsning ta`lim va tarbiyaviy maqsadini hamda dars uchun o'quv dasturidan kelib chikadigan vazifalarni belgilab qo'yadi;

- dars strukturasi va darsning har bir kismi uchun zarur bo’lgan vaqtni qanday taqsimlanishini hamda dars davomida o’quvchilar bajarishi mumkin bo’lgan o’quv ishlab–chiqarish ishlarini aniqlaydi; (o’quvchilar darsda o’zlashtirib olishlari lozim bo’lgan ish usullarini aniqlaydi).

DARSNING MAQSAD VA MAZMUNINI ANIQLASH PAYTIDA USTA QUYIDAGILARTI BELGILAB OLADI.

O’quvchilar darsda o’zlashtirib olishi lozim bo’lgan kasbga doir bilimlar, malaka va ko’nikmalar mazmuni	O’quvchilar bajariladigan o’quv – ishlab chiqarish ishlari	Maxsus texnologiya, materialshunoslik va boshqa fanlarga oid mashg’ulotlar mazmuni	Darsda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmuni va uning tavsifi

MODDIY – TEXNIKA TAYORLILIGI QUYIDAGILARNI O’Z ICHIGA OLADI

Zarur ashyolar, materiallar, asbob-uskuna va mehanizm, moslamalar tehnikalarni tayorlab qo’yish	O’quv – texnika xujjatlarini tayorlash	Ko’rsatma qurollar tayorlash

METODIK TAYORGARLIK QUYIDAGILARNI O’Z ICHIGA OLADI

ISHNING ENG SAMARALI METODLARINI YANLASH	**DARSDA O’QUVCHILAR GURUHINI UYUSHTIRISH SHAKLINI TANLASH**	**DARS MAVZUSIGA OID TEXNIK VA PEDAGOGIK ADABIYOTLARNI O’RGANISH**	**DARSDA NAMOYISH QILINISHI LOZIM BO’LGAN HARAKAT MASHQLAR**

DARS REJASINI VA KONSPEKTNI TUZISH

Odatda, dars rejasida quyidagilar nazarda tutiladi: o’quvchilarning o’quv o’rinlarini ishga tayyorlash; o’quvchilarni ish o’rinlariga joylashtirish, o’quvchilar guruhiga kirish berish; o’quvchilar mustaqil ishlayotgan paytlarida ularga kundalik, frontal yoki yakka tarzda yo’l–yuriqlar berish (har bir aylanish rejalashtirilib chiqiladi); butun guruhga yakunlovchi yo’l–yuriq berish; navbatdagi mashg’ulotlarga moddiy jihatidan tayyorgarlik ko’rish.

Moddiy texnika bazasini tayyorlash. Moddiy texnika bazasi tayyorlash paytida usta omborda zarur materiallar, asbob uskunalar, moslamalar, mexanizmlarning bor yo'qligini tekshiradi va yetishmayotgan narsalar bilan ta`minlash choralarini ko'radi.

Tegishli talabnomalar tuzadi: mavzuni o'rganish vaqtida foydalaniladigan moslamalar, mexanizmlar, qurilmalar tayyorlaydi hamda ularni tekshiradi. Zarurat tug'ilgan paytlarda ta`mir qilish va sozlash choralarini ko'radi; o'quv texnika hujjatlarini, chizmalarni, ma`lumot jadvallarini, ko'rsatmali, texnologik xaritalarni ajratib oladi; mashg'ulotlarda foydalanish uchun o'quv–ko'rsatma qurollar; ma`lumotnomalar (spravochniklar), plakatlar, hakikiy va hajmli qo'llanmalar, etalonlar, tayyor mahsulotlar va hokazolarni tayyorlaydi.

Metodik tayyorgarlik. Usta metodik tayyorgarlik ko'rayotgan paytida tegishli metodik qo'llanmalarni, tavsiyanomalarni, fan-texnikaga doir adabiyotlarni o'rganadi; o'quvchilarning nazariy mashg'ulotlarida olgan texnika hamda umumiy ta`lim bo'yicha bilimlarning hajmini aniqlash maqsadida umumiy texnika va umumiy ta`lim fanlari o'qituvchilari bilan suhbatlashadi hamda fanlararo aloqalar masalalarini belgilab oladi; mavzuni o'rganish; o'quv ishini tarbiyaviy ishlar bilan bog'lash forma va metodlarini o'ylab oladi; Metodik komissiyani muayyan mavzuni o'rgaish yuzasidan tayyorgarlik ko'rish masalalari muhokamasida ishtirok etadi; mashqlar tanlaydi.

Ishlab chiqarish ta`limi darslarining turlari**.** Darsda o'rganiladigan o'quv materialining maqsad va mazmuniga qarab: ishlab chiqarish operatsiyalarini o'rganish; kompleks ishlarni bajarish; o'quvchilarning bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini tekshirish (tekshiruv ishlari) bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Ishlab-chiqarish ta`limi darsini o'tish quyidagi shart-sharoitlar yaratishni talab qiladi:

- o'quvchilarning faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan o'quv-ishlab chiqarish ishlari muntazam ravishda ustaning rahbarligida o'tkaziladi;
- usta mashg'ulotlar paytida butun guruhni ko'rib turishi kerak.
- texnologik jarayon o'quv-ishlab chiqarish ishlarining maqsad va vazifalariga bo'ysindirilishi lozim.
- frontal ish shakllari uchun o'quvchilarning ish o'rinlari bir xil bo'lgani ma`qul;
- usta uchun maxsus uyushtirilgan ish o'rnini hozirlashga harakat qilish zarur.
- ustaxona, uchastka, jihozlar o'qitish maqsadlariga mos bo'lishi lozim.
- jihozlar, asbob-uskunalar va moslamalar ta`limning frontal bo'lishiga erishish imkonini berishi kerak.
- kompleks-operatsion tizim asosida ta`lim berish uchun o'quv - ishlab chiqarish ishlarini o'quv davrlariga moslab maxsus tanlab olish zarur;
- o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarida zamonaviy, yuksak darajadagi mahsuldor jihozlar, asbob-uskunalar, moslamalar bo'lishi lozim.

Asosiy operatsiyalarni bajarish bo'yicha egallangan ko'nikmalar o'quvchilar tomonidan boshlang'ich malaka ishlarini bajarishlari bilan mustaxkamlangan taqdirdigina boshlang'ich, operatsion va kompleks davrlarda ishlab chiqarish ta`limining dars sistemasi to'liq amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish operatsiyalarini o'rganish darsi (mashg'uloti)ning tuzilishi**.** Usta ishlab chiqarish ta`limi o'quv dasturining har bir bo'limi va temasini materialning hajm jihatdan taxminan har xil bo'lgan bir qancha qismlarga-ma`lum vaqt ichida o'tishga mo'ljallangan darslarga bo'lib yuboradi. Bilim yurtlarida ishlab chiqarish ta`limi darslari butun o'quv kuni davomida olib boriladi, yani ularni butun kun bo'yi olib borishga qaror qilingan.

Ishlab chiqarish ta`limi darsi muqaddima, asosiy va yakunlovchi qismlardan iborat (10-rasm) bo'lib kirish yo'l-yo'riqlari mustaqil ishlanayotgan (mashq qilayotgan) payda o'quvchilarga beriladigan kundalik va yakunlovchi yo'l-yo'riqlarni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish yo'l-yo'riqlari o'quvchilarga mo'ljallangan faoliyatni tashkil etish uchun asosiy pedagogik vositadir. Eksperimental tadqiqotlar ko'rsatganidek, o'rganilayotgan mehnat harakatlarining vazifalari, ularni bajarish vositalari, shart-sharoitlari va usullari to'g'risida tasavvur hamda tushunchalar tarkib toptirish bu faoliyatga asos qilib olinadi.

Kirish yo'l-yo'riqlari ishlab chiqarish ta`limi dasturining mavzusi, mavzuchasi yoki bulimini o'rganishdan oldin beriladi. Bularning vazifasi o'quvchilarni o'quv-ishlab chiqarish ishlarini ongli ravishda eng samarali usullar bilan bajarishga tayyorlash, (brak) yaroqsiz va xatolarning olidini olish, xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishiga erishishdir.

Odatda dars boshlanayotganda kirish yo'l yo'rig'i beriladi. Ammo darsda bir necha mavzuchalar o'rganiladigan yoki o'quvchilar yangi, murakkab ishni bajaradigan bo'lsalar, kirish yo'l-yo'rig'ini bir qancha qismlarga bo'lib yuborib, dars davomida ularni bir biri bilan almashtirib to'rish, ayni vaqtda o'quvchilarga o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajartirish ma`kul.

Kasb-xunar kollejlarining ayrim ustalarini butun bir guruh o'quvchilarga ayni bir vaqtda kirish yo'l-yo'rig'i beriladi. Ba`zan hatto «umumguruh kirish frontal yo'riqnomasi» degan murakkab ibora (nom) ham qo'llaniladi. Bu-noto'g'ri. Guruh o'quv ishining tashkil etilishiga, ya`ni butun guruh ishining ayni bir vaqtda o'rganilishiga yoki ta`lim shartlariga qarab guruhlar alohida zvenolarga bo'linadi, yoxud har bir o'quvchi bilan yakka tartibda mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bunda usta har bir zvenoga yoxud har bir o'quvchiga alohida – alohida kirish yo'riqnomasi berish lozim. Har gal kirish yo'riqnomasini qanday berish kerakligini ustaning o'zi hal qiladi.

Yo'riqnomalar berish jarayonida usta o'quvchilarni maxsus texnologiya va boshqa fanlar darslarida olgan bilimlardan, shuningdek, ularning maktabda olgan fan asoslari bilimlaridan foydalanish lozim. Bunda nazariy ta`lim darslarni takrorlab o'tirmaslik kerak, lekin amaliy axamiyaga ega bo'lgan ayrim masalalarni ikki-uch o'quvchidan so'rash yoki asosiy nazariy fikr va qoidalarni qisqacha ishlatib o'tish darkor.

Ta`lim berish paytida yo'riqnoma kartalardan foydalanish tavsiya etiladi. Yo'riqnoma kartalardan foydalanish o'quvchilarga:

mehnat qilish usullarni o'rganish borasidagi ishni ancha mustaqil, binobarin, aktiv ishga aylantirish;

guruhdagi o'quvchilarning faoliyatidan qat`iy nazar o'quvchining tayyorgarligi, shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlariga qarab materialni o'rganish sur`atlarini tanlab olish;

umuman ishni yoki uning tugallangan qismini o'zicha tasavvur etish (bu meterialni ancha tushunib o'zlashtirishga asoslanadi);

butun ta`lim olish davri jarayonida zarurat tug'ilgan paytlarda o'quv-instruktiv materialning istalgan qismiga qaytish;

kasb - xunar kollejlaridagina emas, balki ishlab chiqarishda ham ishlab chiqarish ta`limi samaradorligini oshirish imkonini beradi.



Usta beradigan kirish yo'riqnomalarining mazmuni (1-qurs guruhlari uchun) taxminan quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

O'quvchilarning bor-yo'qlikliklarini tekshirish; uy topshirig'ining bajarilganligi tekshirish; o'quvchilarni navbatdagi o'quv mashg'ulotlarning mazmuni bilan tanishtirish;

maxsus texnologiya, materialshunoslik, chizmachilik va boshqa fanlar yuzasidan zarur ma`lumotlarni takrorlash maqsadida o'quvchilardan ularni so'rash;

o'quvchilarni chizmalar, texnologik kartalar va texnik talablar bilan tanishtirish. Umumiy ta`lim fanlaridan (fanlararo aloqalar) olingan ma`lumotlarga asoslanib, texnologik jarayonni tahlil qilish;

zarur materiallar, asbob-uskunalar va moslamalarni namoyish qilish (ko'rsatish);

o'quv-ishlab chiqarish topshirig'ini bajarishning eng samarali yo'llari va usullarini ko'rsatish; ish usullarini va mehnatning ilg'or metodlarini ko'rsatish hamda tushuntirish;

asbob-uskunalarni tayyorlash va ish o'rnini to'g'ri tashkil etish usullarini tushuntirish hamda ko'rsatish;

o'quvchilarni xavfsizlik texnikasi bilan tanishtirish;

ko'rsatilgan yangi usullarni o'quvchilarga sinash tariqasida bajartirish;

bajarish paytida ko'pchilik o'quvchilarning yo'l qo'ygan xato ish usullarini takror ko'rsatish va tushuntirish;

o'quvchilarni bayon etilgan materialni qayday o'zlashtirganlarini ikki-uch o'quvchidan ish usullarini ko'rsatish va topshiriqni bajarish yo'llarini tushuntirib berish orqali so'rash yo'li bilan tekshirish.

Kundalik yo'l-yo'riq berish o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarish paytida o'quvchilarning faoliyatiga rahbarlik qilishdir. Kundalik yo'l-yuriq berishning asosiy shakli har bir o'quvchiga yakka tarzda yo'l-yuriq berishdir. Yakka tarzda yo'l-yo'riq berish jarayonida, agnr shunday qilish zarur bo'lsa, usta muqaddima yo'l-yo'rig'i berayotgan paytda ko'rsatgan va tushuntirgan narsalarni to'ldiradi, o'quv ishlarida har bir o'quvchining aktivligi va mutaqilligiga erishadi.

Usta o'quvchilarga kundalik yo'l-yo'riqlari berishga tayyorgarlik ko'rayotgan vaqtida ta`lim-tarbiya soxasidagi o'z tajribasiga asoslangan o'quvchilarning ma`lum ishlarni bajarishlari paytida tug'ilishi mumkin bo'lgan xato va qiyinchiliklarni hisobga oladi.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ishlab chiqarish ta`limi dasturining biror mavzuni o'rganish vaqtida o'quvchilarda ko'pincha bir xil tipik xatolar uchrab turadi. Ko'pgina ishlab chiqarish ta`limi ustalargina har bir darsning yutuq va kamchiliklarini, o'quvchilardan uchraydigan tipik kamchiliklarni mutazam ravishda hisobga olib, tahlil qilib boradilar, o'z pedagogik ko'zatishlarning natijalarini aniqlab oladilar hamda o'zlarining kelgusi ishlarida ulardan foydalaniladi. Usta o'quvchilarning ishlarini ko'zatib va to'zatib borib, ehtimol tutilgan xatolarning oldini oladi, noto'g'ri ishlash usullarining mustahkamlanib qolishiga yo'l qo'ymaydi.

Guruh o'quv ishlariga rahbarlik qilish vaqtida o'quvchilarda ishlab chiqarish intizomi, batartiblik, diqqat-e`tibor va ayni paytda zarur ishlab chiqarish-texnik jasorat tarbiyalash lozim. Ish o'rnini tashkil etish va xavfsizlik texnikasiga rioya qilishga alohida e`tibor qilshi lozim.

Ko'pgina ustalar biror maqsadni ko'zlab aylanib chiqishni oldindan belgilab qo'ymoqdalar. Usta orqada qolayotgan o'quvchilarga yordam ko'rsatish uchun

maxsus aylanib chiqadi. Ayni vaqtda u o'quvchilarning ishlarini diqqat bilan ko'zatadi va ularga zarur ko'rsatmalar beradi.

Ishlab chiqarish ta`limi ustalari qo'llaniladigan aylanib chiqishning bir varianti sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Birinchi aylanib chiqish kirish yo'riqnomasi o'quvchilar ish o'rinlariga joylashtirilagandan keyin o'tkaziladi va nazorat qilish harakteriga ega bo'ladi. Usta hamma o'quvchilar ishga kirishgan-kirishmaganliklarini, ishni bajarishga halal beruvchi tashkiliy qiyinchiliklar bor-yo'qligini tekshiradi.

Ikkinchi aylib chiqish paytida usta ish o'rning to'g'ri tashkil qilganini, ishlash usullarini (xatolarga yo'l qo'yilgan qo'yilmaganliklarnini), ko'rsatilgan usullarni o'zlashtirish darajasini, materiallar, asbob uskunalardan to'g'ri foydalanishani, xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinishni tushuntiradi.

Navbatdagi aylanib chiqish o'quvchilar mashqlarni bajarayotganlarida o'tkaziladi. Usta ayrim o'quvchilar oldida to'xtaydi, diqqat bilan uning ishlash usullarini ko'zatadi, lekin o'quvchilarning ishiga zaruratsiz aralashmaydi. Xatolar, topilgan paytda o'quvchilarga darxol ularni tushuntirish va ishlashni to'g'ri usullarini ko'rsatish tavsiya etilmaydi (xato xavfli oqibatlarga olib kelmasa, albatta). Yaxshisi yordamchi savollar berish yo'li bilan o'quvchilarning xatolarini o'zlari topib to'zatishlariga erishgan ma`qul ishga shu tarzda yondashish o'quvchilarda ishda tashabbuskorlik va mustaqillik xislatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Agar guruhdagi o'quvchilarning anchagina bir qismi bir xil xatoga yo'l qo'ysa, bir xil ish usullarini bilmasa, qo'shimcha kollektiv yo'riqnoma berish zarur. Bu ko'pincha ustaning kirish yo'riqnomasini yetarli darajada ustalik bilan bermasligi va ish usullarini ko'rsatmasligining oqibati bo'ladi.

Ish tugagandan keyin o'quvchilar tayyor detallarni yoki tugallanmagan ishlarni ustaga topshiradilar, o'z ish o'rinlarini va ustaxonani yig'ishtiradilar.

Usta yakunlovchi yo'riqnomasini bir kunda o'tkaziladigan o'quv ishining tahliliga asoslangan aktiv suhbat yoki qisqacha tushuntirish tariqasida beradi. Usta yakun yasab, mashg'ulotdan qanday o'tganligini, guruh va ayrim o'quvchilarning erishgan yutuqlarini, biror o'quvchining ishida qanday xatolar sezilganligini, mashg'ulot paytida qanday kamchiliklar yuz berganligini, mehnat va texnologiya intizomining bo'zilganligini, uning sabablarini, kelgusida kamchiliklar bo'lmasligi uchun qayday choralar ko'rish lozimligini tahlil qiladi. Nihoyat butun guruhning o'quv kuni davomida qilgan ishlariga yakun yasash zarur.

Tugallangan ishlarni baholash va nima uchun muayyan bir baho qo'yilganligini o'quvchilarga tushuntirish kerak. Usta ishni baholayotgan paytda avvalo bajarilgan ishning sifatiga va bajarilish muddatiga asoslanadi.

Ta`limning boshlang'ich davrida, ayniqsa o'quv ustaxonalarida ishlab chiqarish darsining oxirida o'tkaziladigan yakunlovchi suhbatlar ustaga har bir o'quvchini yaxshiroq va tezroq o'rganib olishi uchun yordam beradi. Bunday suhbatlar ustani o'quvchilar bilan yaqinlashtiradi, bu esa kelgusida ustaning guruh bilan inoq bo'lib ishlashiga imkon beradi, uning tarbiyachi sifatida obro'-e`tiborining ortishiga, pirovard natijada ishlab chiqarish ta`limi hamda tarbiyaviy ishlarni muvoffaqiyatli o'tkazishiga yordam beradi.

Yakunlovchi yo’riqnoma berish paytida ustalar ko’pincha kompleks baholar qo’yadilar. (nazariya masalalari va ilgari o’rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo’llana olishi; ish usullarini to’g’ri bajara olishi; ish usularini to’g’ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o’rnida begilangan tartibni qo’llab-quvvatlashi; chizmani o’qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish normalansa, belgilangan normalarni bajarish uchun), bunday baholar ijobiy natijalar beradi. Bunda o’quvchilarning o’quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

O’quvchilar guruhning o’quv ustaxonasidan chiqishiga ruxsat beridan oldin o’quvchilarga navbatdagi mashg’ulotda qilanadigan o’quv ishlari haqida qisqacha axborot berishi zarur. Bu bilan qilanadigan ishga o’quvchilar e`tibori oldindan jalb etiladi.

Yakunlovchi yo’riqnoma berish paytida usta uyga topshiriqlar berishi mumkin. Topshiriqlarni miqdori va hajmi mavzuga bog’liqdir. Tajriba ko’rsatayotganidek, o’quvchilarga bir hafta davomida ikki-uch savoldan tashkil topgan bitta topshiriq berish ayniqsa yaxshi natija beradi. Uyga beriladigan topshiriqlar tuzishda maxsus fanlar o’qituvchilari ustalarga faol yordam ko’rsatadilar. Ishlab chiqarish ta`limidan uyga beriladigan topshiriqlarning mazmuni va hajmini metodika komissiyalari ma`qullaydi.

Usta navbatdagi darsga reja-konspekt tayyorlaydi. Ustaning mexanik- yig’uv ishlari slesarlari guruhi bilan «Ajraluvchi birikmalarni yig’ish» mavzusi bo’yicha o’tkaziladigan mashg’ulotlarning reja-konspektini namuna tariqasida keltiramiz (6 jadval).

O’quv-ishlab chiqarish ta`limi ustalari mashg’ulot vaqtida o’quvchilar topshirikni bajarilishi, kamchiliklari, halal beruvchi tashkiliy kiyinchiliklar bor yo’qligini tekshirish maqsadida aylanib chikadi.

Usta yakunlovchi yo’l-yuriqni bir kunda o’tkaziladigan o’quv ishlarining tahliliga asoslangan faol suhbat yoki qisqacha tushuntirish tariqasida beradi. Usta yakun yasab, mashg’ulot qanday o’tganligini, guruhga va ayrim o’quvchilarning erishgan yutuqlarini, biror o’quvchining ishida qanday xatolar sezilganligini, mashg’ulot paytida qanday kamchiliklar yuz berganligini, mehnat va texnologiya intizomining bo’zilganligini, uning sabablarini kelgusida kamchiliklar bulmasligi uchun qanday choralar ko’rish lozimligini analiz qiladi. Guruhning o’quv mashg’uloti davomida qilgan ishlariga yakun yasash zarur.

Kompleks ishlarni o’rganish darsi (mashg’uloti) ning tuzilishi. Bu darsda ustaning guruh bilan olib boradigan ishining asosiy farqli tomoni shundaki, o’quvchilar ishlab chiqarish harakteridagi o’quv ahamiyatiga ega bo’lgan ishlarni mustaqil ravishda bajaradilar, operatsiya va murakkab usullarni bir – biriga qo’shib olib borishning xarakterli tomonlarini o’rganib oladilar. Ilgari o’tilgan operatsiyalarni aniq va tez bajarish malakalarini takomillashtiradilar hamda qo’shimcha hali o’zlariga tanish bo’lmagan ba`zi operatsiyalarni o’rganadilar.

Kompleks ta`lim davrida ko’pincha o’quv ishlari frontal bo’lmaydi. Bu ustaning guruh bilan olib boradigan ishiga o’z ta`sirini ko’rsatadi. Mavzularni rejalashtirishni va o’quv ishlarini o’tkazish metodikasini qiyinlashtiradi. Shuning uchun, kompleks ishlar bajarishni o’rgatish vaqtida garchand o’quv ishlari

elementlarining o'zi (kirish, yo'l–yurik, kundalik (joriy) yo'l – yuriqlar bilan birga olib boriladigan mustaqil ishlar hamda yakunlovchi yo'l–yuriq) qo'llanilsada, usta usha paytda o'z oldida turgan ta`lim–tarbiyaviy vazifalarining o'ziga xos xarakterini hisobga olish zarur.

Kompleks ishlarni o'rgatish paytida beriladigan yakunlovchi yo'l – yuriq muhim ahamiyatga ega.

Kompleks ishlarni bajarish vaqtida usta o'quvchilarning ish tajribasini umumlashtirib berishi o'quv nuqtai nazaridan alohida qiziqish uyg'otadi. Kompleks ish tsikllarining hammasini o'tkazish natijasida o'quvchilar o'rganayotgan kasbga (mutaxassisliklariga) mos bo'lgan og'irrok ishlarni bajarish sohasidagi ko'nikma va malakalarni mustahkamlashlari hamda takomillashtirishlari lozim.

O'quvchilar ishini baholashda usta o'quvchilarnig ish o'rinlarini tug'ri tashkil qilganliklari va ish jarayonlarida xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilganliklarini; bajarilgan ishning sifati hamda belgilangan normalarga rioya qilinishini; mehnatga ongli va vijdonan munosabatni hisobga olishi lozim.

17-Mavzu: Kasbiy fanlardan kurs va diplom ishlari

O'quv moduli birliklari

1. Kasbiy fanlardan kurs ishlarining maqsad va vazifalari.
2. Kurs va diplom ishlarining mavzularini tanlash va tasdiqlashga qo'yiladigan talablar.
3. Diplom ishlarni bajarish va unga qo'yiladigan talablar.
4. Diplom ishlarini rasmiylashtirish, himoya qilish va unga qo'yiladigan talablar.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba mavzuni o'zlashtirgandan so'ng:

- kasbiy fanlardan kurs ishlarining maqsad va vazifalarini biladi;
- Kurs va diplom ishlarining mavzularini tanlash va tasdiqlashga qo'yiladigan talablar, diplom ishlarni bajarish va unga qo'yiladigan talablar, diplom ishlarini rasmiylashtirish, himoya qilish, unga qo'yiladigan talablarni o'rganadi.

Tayanch so'z va iboralar

Kasbiy fanlardan kurs ishlarining maqsad va vazifalari, kurs va diplom ishlarining mavzularini tanlash va tasdiqlashga qo'yiladigan talablar, diplom ishlarni bajarish va unga qo'yiladigan talablar, diplom ishlarini rasmiylashtirish, himoya qilish, ularga qo'yiladigan talablar.

Diplom ishining maqsadi:

Diplom ishini bajarishdan asosiy maqsad KXK bitiruvchilarini:

- ilmiy,tehnikaviy va ishlab chiqarish masalalarini echishda nazariy va amaliy bilimlarni bir tizimga keltirish (sistemalashtirish),mustahkamlash va kengaytirish;
- diplom ishida ko'zda tutilgan masalalarni echishda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va izlash,tagriba usullarini o'rganush;
- zamonaviy ishlab chiqarish, fan va tehnika taraqqiyoti sharoitida o'quvchilarning mustaqil mehnat qilishga toyyorgarligini aniqlashdan iborat.

1.Diplom ishida bajarilgan ishlar va mavjud ma'lumotlarning to'griligi uchun diplom ishi muallifi bo'lgan o'quvchi va diplom ishi rahbari javobgardir.

2. Diplom ishi o’quvchining bitiruv ishi hisoblanib, Davlat attestasiya komissiyasi natijasiga ko’ra unga kichik mutahasis malakasini berish masalasini hal qiladi.

Diplom ishining mazmuniga qo’yiladigan talablar. Diplom ishining mazmuniga quydagi talablar qo’yiladi:

1. Diplom ishi o’quvchining materiallarini qisqa, lo’nda mantiqiy asoslangan holda uddalay olishini ko’rsatishi, uning bezatilishi esa diplom ishi talablariga javob beradigan bo’lishi kerak.

2. Diplom ishini yozishda o’quvchi foydalangan manba (adabiyot va ining muallifi) haqida ma’lumot berishi kerak.

3. Diplom ishining hajmi 30-50 bet qo’lyozma (15-20 bet mashina yozuvi) matindan oshmasligi kerak. Namoyish qilinadigan material 2-6 varaq chizmada (format Al) ifodalangan bo’lishi kerak.

4. Diplom ishini bajarish uchun tanlangan mavzular o’zining yangiligi, orginalligi va dolzarbligi, shuningdek ishlab chiqarishda iqtisodiy va ilmiy samara berishi bilan ajralib turishi kerak.

5. Diplom ishi mavzusini tanlashda quyidagilarga etibor berish kerak:

-diplom ishi mavzusining yo’nalishi va mutahassislikka mosligi;

-tarmoqdagi yangi tehnologik jarayonlarni tashkil etishga mavzuning aloqasi;

-Diplom ishilashtirish jarayonida ekologiya va ishlab chiqarishni tashkil etish, mehnat muhofazasi, standartlashtirish va sifat nazorati kabi masalakarning mujassamlanganligi.

6. Diplom ishining mavzusi qisqa va aniq bo’lishi, bilan birga bajariladigan vazifaning mohiyatini ifodalashi kerak.

7. Diplom ishi mazmuni yoki yoki uning rahbarini (zaruriyat tig’ilgan taqdirda)faqat diplooldi amaliyot davrida almashtirish mumkin.Buning uchun o’quvchi kollej direktori nomiga ariza yozadi.Diplom ishining yangi mavzusi yoki yangi rahbar kollej direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Diplom ishining tuzilmasi:

1. Diplom ishi quyidagi tarkibiy qisimlardan iborat:

Titul varag’i.
Topshiriq
Mundarija
Kirish.
Nazariy qisim.
Tehnologik qisim.
Jihozlar(tarmoq tehnologiyasi bo’yicha).
Iqtisodiy qisim.
Mehnat muhofazasi qisim.
Xulosa.
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati.
Ilovalar.
Chizmalar (formatAl)da bajariladi.
Diplom ishining titul varag’idagi ma’lumotlar 1-ilovada keltirilgan.
Diplom ishi vazifasi haqidagi ma’lumotlar 2-ilovada keltirilgan.

Mundarijada diplom ishidagi tarkibiy qisimlar, bo'limlar, kichik bo'limlarning nomlari yoziladi.

Kirish qismida diplom ishining ishlab chiqarish tehnologik jarayonlarning echilishi kerak bo'lgan vazifalari bayon etiladi.Mavjud muammolar aniqlanadi va shu muammolarni qanday va qay tarzda bajarilishi rejalashtiriladi.Ushbu vazifani amalgam oshirish usullari belgilanadi.

Diplom ishining nazariy qismi qo'yilgan masalalarni hal rtish uchun kerakli hisob-kitoblar, jadvallar, chizmalar, diagrammalar va turli rasmlar orqali yoritiladi. Tehnologik qism tarmoqning zamonaviy tehnologik tamoyillar va belgilangan vazifani hal etish usullarini qamrab olishi kerak.

Jihozlash qusmi diplom ishida ko'zda tutilgan jihozlar vauskunalar hamda ularning tehnikaviy va foydalanish haraktiristikalarini o'z ichiga olgan bo'lishi karak.

Iqtisodiy qismida bajarilgan ishlarning tehnik- iqtisodiy samaradorligining tahlili va uni asoslash,shuningdek ishlab chiqarishni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish masalalari aniqlanadi.

Mehnat muhofazasi qismida tarmoqdagi hafsizlik tehnikasi, sanoat sanitariyasi mehnat gigienasi masalalari yoritiladi.

Xulosa qismida diplom ishining natijalari umumlashtiriladi, turli hisob-kitoblar taqqoslanadi.Ko'zda tutilgan natijalarni amaliyotda tadbiq etish bo'yicha aniq tadbirlar belgilanadi.

Foydalanilgan adbiyotlar diplom ishini bajarish vaqtida qo'llanilgan barcha manbalarning nomlari kiritiladi.

Ilovalarda diplom ishi matnini to'ldiruvchi turli yordamchi materiallar ko'rsatiladi.

Yordamchi rasmlar va sh.k.

Diplom ishi rahbari loyihaning mavzusi va harakterga qarab tushuntirish yozuvini mazmunini aniqlaydi. Shuningdek, ba'zi bir qismning kengaytirish yoki kamaytirish to'g'risida zarur maslahatlar beradi.

Tushuntiruv yozuvi qismiga asosiy talablar

Tushuntirish bayoni davlat standarti talablari asosida rasmiylashtiriladi va diplom ishi topshirig`iga mos kelishi kerak. Tushuntirish qismi qo`lyozma tarzida rasmiylashtiriladi.

Diplom ishining grafik qismini ro`yhati davlat standart talablari bo`yicha Al (24)formatda bajariladi.

Kirish - Diplom ishini bajarish borasida ma`lumotlarni xozirgi sharoitda qishloq xo`jalik mashinalari, qishloq xo`jalik korxonasi, fermer xo`jaliklari, muqobil yoki tuman MTPlari taxlillari bo`yicha mavzuni dolzarbligi yoritib beriladi.

Umumiy qism – Diplom ishining umumiy qismida esa qishloq xo`jalik korhonasi, fermer xo`jaliklari, muqobil yoki tuman MTPlari taxlillari, atrof muhitni va mehnatni muhofaza qilish, mavzu yechimining umumiy holda iqtisodiy samaradorligi asoslab beriladi.

Taklif etilayotgan yechimlardan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik umumiy baholanadi.

Xulosa – bajarilgan ishning yakunlari keltiriladi.

Diplom ishini bajarish

O`quvchi diplom ishini vazifasini olgach, darhol uni boshlashga kirishish kerak. Tajriba shuni ko`rsitdiki diplom ishini bajarishga kehikib kirishish, uning o`z muddatida bajarilmasligiga asosiy sabab bo`ladi.

Diplom ishini sifatli va o`z vaqtida bajarilishi uchun quyidagilar tavsiya etiladi.

- rahbarlar taklif etgan topshiriq bilan tanishish;
- berilgan vazifalarni adabiyotlar orqali mustaqil o`rganib chiqish;
- ko`zda tutilgan loyiha bo`yicha dastlabki ish rejasini tuzib chiqish va uni loyiha rahbari bilan muhokama qilish;
- mahsus adabiyotlarni tanlash, shu jumladan, davriy adabiyotlardan ham foydalanish.

Diplom ishini bajarish davrida o`quvchiga ishchi o`rni ajratib berilishi va tegishli sharoitda yarati berilishi kerak.

Diplom bajarish davrida bitiruv loyiha rahbariga doimiy ravishda hisobot berib turishi kerak. Rahbar o`z navbatida taqvim rejasiga muvafiq bajarilgan ishni belgilab boradi(loyiha xajmiga nisbatan foiz xisobida).

Diplom ishiga rahbarlik qilish

Diplom ishi ishlariga rahbarlik maxsus fan o’qituvchilari shuningdek boshqa o’quv yurtlari yoki ishlab-chiqarish korhonalarining yuqori malakali mutahassislari safida tayinlanadi.

Diplom ishi ishi rahbari:

-topshiriq beradi;

-Diplom ishining bajarilishi rejalashtiriladi;

-asosiy adabiyotlar, ma’lumot va arhiv materiallarini hamda mavzu bo’yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;

-o’quvchi bilan muntazam ravishda maslahatlar o’tkazadi;

-diplom ishining bajarilishini nazorat qiladi;

-o’quvchi bajargan Diplom ishining sifat va miallifligiga jvob beradi .

Diplom ishi rahbarining taklifiga binoan, o’quv bo’limi Diplom ishiga ajratilgan vaqt byudjeti hisobidan ishning ayrim bo’limlari bo’yicha maslahatlarni taklif etishi mumkin.

O’quvchi ish muallif, tanlangan qarorning to’griligi va uning topshiriqqa muvofiqligiga, Diplom ishi ishida kuchirmachilik holatining yo’qligiga javob beradi.

Diplom ishini bezatilishi

Diplom ishining hisob- kitob tushuntiruv yozuvining matn materiallari mashinttyha yoki qo;lyozma uslida A4 formatda (210x297 mm) ga yozuv qogozining bir tomonidan davlat standartlari talabi asosida bajariladi

Tushuntiruv yozuvi quyidagi tartibda joylashtiriladi titul varagi diplom ishini bajarish bo`yicha topshiriq, mazmuni, tushintiruv yozuvning bo`limlari, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovalar. Betlar pastki qismida o`ng

tomonidan 10mm qoldirib, arab raqamlarida belgilanadi. Titul varag`iga raqam qo`yilmaydi. Texnologik xujjatlar davlat standartlariga mos ravishda bajariladi.

Diplom ishining grafik qismiga qalamda yoki qora tushda Al formatdagi chizma qog`ozida bajariladi.

Tushuntiruv yozuvi varaqlarining atrofida quyidagi o`lchamda bo`sh joylar qoldiriladi: chap tomonida – 30mm, o`ng tomonida 10-mm yuqori tomonida 15-mm, past tomonidan 20-mm.

Diplom ishidagi materiallar “loyiha tuzilmasi” – ga mos ravishda ketma – ket bayon etiladi (3 band).

Diplom ishida zarur bo`lgan formula yoki rasimlar qaysi manbadan olinganligi ko`rsatiladi.

Tushuntiruv yozuvi bo`lim, kichik bo`limlarga bo`linadi. Har bir bo`lim alohida betdan boshlanadi va aloxida tartib nomerga ega bo`ladi. Masalan: 1,2,3,.

Har bir kichik bo`lim esa quyidagicha belgilanadi:2.1, 3.1, 4.2 va xokazo. Sarlavhalar simmetrik ravishda yoziladi. Sarlavhalarni 8-18 mm kattalikda yozish tavsiya etiladi.Sarlavha va matn orasidagi masofa 3-4 inerval bo`lishi kerak.

Tushuntiruv yozuvida foydalanilgan adabiyotlar to`g`risida quyidagi malumotlar keltiriladi:

- mualiflarning ism-familiyasi, adabiyotlar nomi, qayerda va qachon chop etilganligi yoziladi;
- davriy nashirlardan foydalanilgan taqdirda, qaysi gazeta (jurnal), maqolaning nomi, mualiflarning ismi-familiyasi va qachon chiqarilganligi yoziladi.

Tushuntiruv yozuvidagi rasimlar tushda yoki qalamda bajariladi.Har bir rasm qalam bilan belgilab qo`yiladi.

Diplom ishidagi sonli materiallarni jadval ko`rinishida keltirish tavsiya etiladi.

Diplom ishining tushuntiruv yozuvi to`liq bajarilgandan so`ng, u muqovalab, kitob shakliga keltiriladi.

Diplom ishini himoya qilish

Diplom ishi himoya qilish oldidan ta`lim muassasasida o`rganilgan bilimlarni takrorlash kerak bo`ladi. Diplom himoyasi kuni ta`lim muassasasi direktorining buyrug`i bilan belgilanadi. Diplom ishi barcha xohlovchilar ishtirok etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: «Sharq», 1997.
2. G`ulomov S. Kuch-bilim va tafakkurda «O`AJBNT Markazi ,2002.-285 b.
3. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to`plami: S.S.G`ulomov tahriri ostida; Tuzuvchilar:B.X.Raximov, Sh.D.Jonboev va boshq. –T: «Sharq», 2001.-672b.
4. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to`plami: S.S.G`ulomov tahriri ostida; Tuzuvchilar:Sh.A.Ayupov, B.X.Raximov va boshq. -T: «Sharq», 2003.-752b.
5. Mirsaidov K. «Maxsus fanlarni o`qitish va ishlab chiqarish ta'limi». T.: «O`qituvchi», 1996.
6. Mirsaidov K, Xidirov O`, Choriev R. «Ishlab chiqarish ta'limi». T,O`qituvchi», 2002.
7. Olimov Q.T., Uzoqova L.P., Halimov E.Z., Rustamov R.M., Ashurova S.Y. Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi. T.: «Fan», 2004, -120 b.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. A.Xoliqov Pedagogik mahorat. Toshkent, “Tafakkur bo`stoni”, 2011 y
2. Q.Olimov va boshqalar. Kasb ta`lim uslubiyati’’ IQTISOD-MOLIYa’’2006.-160b.
3. T.Atamuratova va b. Mutaxassislik fanlarni o`qitish metodikasi. T.,Yangi asr avlodi. 2008. -180 b,
4. P.M.Po`latova Maxsus pedogogika. T.:G`afur G`ulom, 2005.-223 b.
5. O`.M.Asqarova va boshqalar. Pedogogika. T.”TALQIN” , 2008.-287 b.
6. V.Gorskiy. Texnik ijodkorlik va qishloq xo`jalik tajribachiligi bo`yicha sinfdan tashqari ishlar. T.: «O`qituvchi », 1991.
7. M.Ochilov. Oliy maktab pedagogikasi. T.: Aloqachi, 2008 y.
8. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: Aloqachi, 2008 y.
9. X.Po`latova. Tabiasthunoslikni o`qitish maxsus metodikasi, T.: O`zbekiston, 2006 y.
10. J.Hasanboyev, X.A.To`raqulov va boshqalar Pedagogika Toshkent, “Nosir”, 2011

Internet saytlari

1.	www. Google. uz.	12.	www.mail.ru
2.	www. Ilm. uz.	13.	www.referat.ru
3.	www. Ziyo-NET. uz.	14.	www.yandex.ru
4.	www. Tosh DPU. uz.	15.	www.cer.uz
5.	http://e-lib.qmii.uz/	16.	www.google.uz
6.	http://www.konserv-zavod.ru/	17.	www.students.ru
7.	http://www.orhei-vit.ru/products.htm	18.	www.ref.ru
8.	www.suhofrukti.ru	19.	www.daewoo.com
9.	www.rambler.ru	20.	www.age.uz
10.	www.lupa.ru	21.	www.bilim.uz
11.	www.pgs.ru	22.	www.reviev.uz

AMALIY MASHG`ULOTLAR MAZMUNI:

Amaliy ishlarni bajarishda quyidaga yo`l-yo`riqlarga rioya qiling.

1. Ishni boshlashdan oldin xavfsizlik texnika qoidalari bilan tanishib chiqing, baxtsiz hodisalarning oldini oling va havfli vaziyatlarni oldindan ko`ra biling. Ishni xalat kiygan holda bajaring.
2. O`qituvchi yoki laborant ruxsatisiz ishni boshlamang.
3. Ishni bajarish vaqtida tinchlik, ozodalik va tartibni saqlang.
4. Asboblardan faqat belgilangan maqsadda foydalaning.
5. Elektr toki bilan ishlaydigan asboblar tayyor bo`lgach, o`qituvchi yoki laborant ruxsati bilan yurgizing. Ish tugagach asboblarni tokdan uzib, ish joylarini tartibga keltirib qo`ying.
6.Ish boshlashdan avval yoki bajarish vaqtida asboblarning zarracha shikastlanganligini va ixotasi buzulganligini payqab qolsangiz, darxol o`qituvchi yoki laborantga habar qiling.
7.Mabodo biror uchqun yoki yong`in chiqqanini ko`rsangiz, sarosima va vaximaga tushmasdan, o`t o`chirish vositalari yordamida yong`inni o`chirishga kirishing.

Kirish

Kasbiy ta’lim metodikasi talabalarning pedagogika, psixologiya hamda maxsus fanlardan olgan bilim va ko‘nikmalarini amalga tatbiq etish, kasb – hunar kollejlarida o‘z ixtisosligi bo‘yicha dars berishning shart – sharoitlari, tashkiliy shakllari hamda metodlari, shuningdek, ularga oid rejalashtiruvchi hujjatlar mazmuni bilan tanishtiruvchi fan hisoblanadi.

U o‘z oldiga barkamol rivojlangan, hozirgi zamon ruhida tarbiyalangan, bozor iqtisodiyoti sharoitida ta’lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni amalga oshirishga oid dolzarb muammolarni ijobiy hal eta oladigan, milliy va umuminsoniy qadiryatlarimizni chuqur his etib, ularni ta’lim-tarbiya mazmuniga singdira oladigan ulug‘ inson kasb ta’limi o‘qituvchisini tayyorlash kabi aniq maqsadni qo‘yadi.

Kasbiy ta’lim metodikasidan amaliy mashg‘ulotning maqsadi talabalar (tinglovchilar) ning o‘quv materialini o‘rganishdagi faolligini oshirish yo‘li bilan ularning o‘quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil o‘zlashtira olish imkoniyatlaridan eng maqbul tarzda foydalanishdir.

Amaliy mashg‘ulotlarinig tashkiliy-metod asoslari qo‘yidagilardan iboratdir. Umumiy qoidalar:

- talabalar (tinglovchilar) ning amaliy ishlarini o‘quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida, didaktik tamoyillar asosida amalga oshirish;
- talabalar (tinglovchilar) ning amaliy ishlarini kasb ta’lim metodikasi fani, uni bo‘limlari, ayrim mavzulari bo‘yicha tashkil etish, o‘quv-metodik va didaktik materiallar bilan ta’minlash;
- talabalar (tinglovchilar) amaliy ishlarni bajarishlari va yakunlashlarida o‘qituvchining bevosita yordami;

- amaliy ishlar tugagach, talabalar (tinglovchilar) o‘quv materialini qanchalik o‘zlashtirganini aniqlash uchun munozora, bahs, amaliy o‘yin va hakozalarni tashkil etish;
- talabalar (tinglovchilar) mustaqil ishlarda o‘zlashtirgan bilim va malakalarni o‘z kasbkorlik faoliyatlarida qo‘llay olishlari nuqtai nazaridan, o‘rganilayotgan fanlarga bog‘lab, qarab chiqish kerak;
- talabalar (tinglovchilar) ning har bir amaliy ish natijalarini konspekt, tayyor ish, grafik ish, referat va hakozalar sifatida topshirishlari;
- talabalar bajargan eng yaxshi ishlar tanlovini o‘tkazish. g‘oliblarni rag‘baglantirish.

Shuningdek, talabalar bilan ishlashning turli masalalari bo‘yicha mustaqil fikr yuritish, mantiqli fikr bildirish, mantikli xulosalar chiqarish iqtidorni tarkib toptiradi, tegishli adabiyotlar, ilmiy tavsiyalar va ma’lumotlardan foydalanish ko‘nikma va malakalarini takomillashtiradi.

1– amaliy mashg`ulot.

Mavzu: Kasbiy ta'lim metodlari

Ishning maqsadi: Talabalarga ta'lim jarayonida qo`llaniladigan metodlar haqida tushunchalar berish

Talaba amaliy mashg`uloti davomida quyudagilarni o`rganadi:

**O`qitish metodlari** ta'lim jarayonida o`qituvchi va o`quvchilar faoliyatining yo`nalishini, o`qitish jaaryonining qanday tashkil etilishi va olib borilishini hamda o`qituvchining ish haraktlarini belgilaydi. Bu metodlar o`qituvchi tomonidan o`quvchilar bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirish uchun qo`llanadigan usullar yig`indisini o`z ichiga oladi.

Ta'lim tizimida o`qitish metodlari bilan birga “usul” va “vosita” atamalari ham ishlatiladi.

Usul – ma'lum o`quv materialini o`tishda qo`llanayotgan asosiy o`qitish metodi bilan birga ikkinchi bir o`qitish metodining ayrim elementlaridan foydalanib ish ko`rishdir.

Vosita – o`qitish metodlarini amalga oshirish uchun zarur bo`lgan yordamchi o`quv materiallari – asbob, qurol, apparat va shu kabilardan foydalanishdir. Ta'lim metodlari o`qitish jarayonida va pedagogik tafakkurning ko`p asrlik rivojlanishi tarixida muhim o`zgarishlarga duch keldi. Pedagogikada ta'lim metodlarini tavsiflash va belgilashga bir xil yondoshish mavjud emas. Ayrim mualliflar metodlarini belgilashda bilish manbaalarining hususiyatlarini asosiy deb hisoblaydilar; chunonchi, og`zaki (Suhbat, tushuntirish, bayon qilish, o`quvchilarning texnik adabiyotlar bilan mustaqil ishlashi va boshqalar); ko`rgazmali (ko`rgazmali qurol, kinofilm va diafilmlarni namoyish etish); mehnat usullarini ko`rsatish o`quvchilarni mustaqil kuzatishlari va boshqalar); amaliy (mashg`lar, operatsiyalar, ish usullari, amaliy laboratoriya mashg`ulotlari) va boshqalar.

Keyingi paytlarda pedagogika nazariyasi va amaliyoti o`quvchilar bilish faoliyatining harakteri bo`yicha tasniflanadigan metodlar qo`llanilmoqda.

Ta'lim jarayonida qo`llanadigan metodlar o`quvchilar faolligini oshirishi, o`rgatilayotgan o`quv metodlarini o`quvchilar chuqur o`zlashtirishini ta'minlashi lozim.

**Tushuntirish – ko`rgazmali metod**. O`qituvchi har xil vositalar yordamida o`quvchilarga tayyor ma'lumot beradi va ular ma'lumotni qabul qiladilar, anglaydilar va xotirada saqlaydilar.

Eslash metodi. O`qituvchi topshiriqlar tizimi bilan o`quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi. O`quvchi esa tasvirlar bo`yicha ko`nikma va malakalarni egallaydilar. O`quvchilar bilimining hajmi ortib borgan sari birinchi metoddan ikkinchisi bilan birga foydalanish ko`payib boradi.

Muammoli bayon. O`qituvchi muammoli vaziyatni vujudga keltiradi, dars davomida uni hal qilish yo`llarini tushuntrib boradi va hal qiladi. O`quvchilar o`qituvchi bilan birgalikda muammoni xal qilishda faol ishtirok etadilar.

Tadqiqot metodi o`quvchilarning yangi muammoni hal qilishdagi mustaqil izlanishi va ijodiy faoliyatini tashkil etish usulidir. Bunda o`qituvchi ularga tayyor muammoni bayon qilmaydi. Uni o`quvchilarning o`zlari o`quv materialini o`zlashtirish jarayonida topadilar. Shundan so`ng o`qituvchi muammoli vaziyatni vujudga keltiradi.

**An'anaviy o`qitish metodlari** – og`zaki bayon qilish, tushuntirish, Suhbat, ma'ruza, o`quv adabiyotini o`qish; tajribalar o`tkazish, natural ob'ektlarni ko`rgazmali vositalarni namoyish etish; mashg`, yozma ish, grafik ish, laboratoriya ishlari – bayon etilgan metodlar tizimida vosita va usul sifatida namoyon bo`ladi. O`qituvchi esa ular yordamida u yoki bu metodlardan foydalanib darsini yuqori saviyada o`tkazadi.

**Amaliy o`qitish metodlari**. Amaliy metod deganda o`quv materialini mashg`lar, mustaqil topshiriqlar, amaliy va laboratoriya ishlari asosida o`zlashtirishning shakllari tushuniladi. Ishlab chiqarish ta'limida bu metodga ish usullari, mehnat operatsiyalari, kompleks ishlar va vazifalarni bajarishda mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan ishlar, trenajerlarga oid mashg`lar, laboratoriya – amaliy ishlarga esa texnologik jarayonni boshqarish mashg`lari kiradi.

**Mashg`lar** – ko`nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustaxkamlash maqsadida muayyan harakatlarni ko`p marta takrorlashdir. Ishlab chiqarish ta'limdagi mashg`larga asosan quyidagi talablar qo`yiladi: mashg`larni o`quvchilar ongli va maqsadga muvofiq yo`sinda bajarishlari; mashg`lar metodikaga asoslanishi, tizimli, izchil, o`zluksiz bo`lishi va takrorlanishi; o`quvchilarning ishdagi mustaqilligi muntazam rivojlanib borishi kerak.

**Onglilik va maqsadga muvofiqlik mashg`larni bajarishdagi eng muhim talabdir**. O`quvchilar mashg`ni nima uchun kerakligini aniq tasavvur qilishlari va maqsadga erishishga faol intilishlari lozim. O`rganiladigan meznat jarayonlarining ilmiy-texnik asoslarii bajarish yo`llari, ishda uchraydigan xatolarni bilish o`quvchilarga o`rganilayotgan harakatlarni o`zlashtirish imkonini beradi.

Onglilik va maqsadga muvofiqlik ko`nikmalar shakllanishining dastlabki paytlarida ayniqsa katta ahamiyatga ega. O`quvchilar mashg` natijalaridan dovdirab qolmasliklari uchun o`qituvchi, usta ularning qiyinchiliklardan, qiyinchiliklarni engish yo`llaridan ogoxlantiradi. Mashg`lar muvaffaqiyatli o`tishi uchun o`qituvchi o`quvchilarning tegishli natijalarga erishishdagi intilishlarini qo`llab quvvatlashi kerak. Mashg`larni tobora qiyinlashtirib borish zarur. Ko`nikmalarni shakllantirish jarayoni o`quv faoliyatida xal qiluvchi rol o`ynaydi. Ko`nikma xosil qilishning muvofaqiyati qator shartlarga bog`liq.

Birinchi shart – ko`nikma nima maqsadda shakllantirishini anglashdir. Har qanday ko`nikma – avtomatlashgan darajaga etkazilgan harakatlar tizimidir. Agar o`quvchi materialni o`zlashtirishda uning ahamiyatini tashanmasa, unda bunday harakatlar shakllanishi qiyin bo`ladi.

Ikkinchi shart – mashg`larni tizimli bo`lishi. Odatda ko`nikmalar xosil qilishdagi qiyinchiliklarga o`quv mashg`lari tizimini tashkil etish va ularni o`tkazishdagi kamchiliklar sabab bo`ladi.

Uchinchi shart – amaliy harakatlarini ongli ravishda bajarish. O`quvchi o`z harakatlarini, ish operatsiyalarini izchilligini yaxshi tushunishi zarur, ularni mexanik tarzda takrorlashga va yodlab olishga yo`l qo`ymaslik kerak.

**To`rtinchi shart** – dastlab amaliy harakatlar va operatsiyalarga puxta tayyorlanish. Operatsiyalar ongli ravishda, reja asosida bajarilsa, ko`nikma tezrok va muvoffaqiyatlirok shakllanadi. O`quvchi o`zining dastlabki harakatlarida xatoga yul kuymasligi lozim, chunki ularni qayta o`rganishga to`g`ri kelmaydi. Dastlabki harakatlardagi xato keyin takrorlanib, mustaxkamlanib qolishi mumkin va uni to`zatish qiyin bo`ladi. Shu sabali harakatlarni bajarayotganda operatsiyalar tartibini ovoz chiqarib yoki chiqarmay gapirib turish g`oyat foydalidir. O`qituvchi shu harakatlar va operatsiyalarni e'tibor bilan nazorat qilib boradi.

Beshinchi shart – mashg`larni mustaqil bajarish va o`zini o`zi nazorat qilish. O`qituvchi o`quvchiga bunday nazoratning usullarini o`rgatishi zarur.

Oltinchi shart – bajarilgan mashg`lar, amaliy ishlarni taxlil qilish va baxolash. O`quv ko`nikma va malakalarning ijobiy hamda salbiy jixatlari bo`ladi. O`quvchilar tipik xatolarga yo`l qo`yadilar. Darslarda yaxshi ishlarni namoyish qilish, ijobiy namuna asosida o`qitish maqsadga muvofiqdir.

Ko`nikmalarni shakllantirishning mana shu shartlariga rioya qilinsa, o`qitishning amaliy metodlari o`quv materialini muvoffaqiyatli o`zlashtirishga olib keladi.

Shakllangan ko`nikma va malakalarni mustaxkamlash va takomillashtirishni ta'minlashning asosiy omillari:

Ko`nikma va malakalarning ongli, tushunib va mustaxkam shakllanishi.

Ularni shakllantirishda o`zlashtirilgan bilimlarga tayanilishi.

Xatolarning oldini olish, ularni o`z vaqtida to`zatish. Noto`g`ri ish usullariga yul kuymaslik.

1 O`quvchilarga yagona pedagogik talablar qo`yish.

2 Topshiriqlarni sekin-asta murakkablashtirib borish.

3 Mashg`lar uchun ajratilgan vaqtdan to`g`ri foydalanish.

4 Malakalar to`liq shakllangunicha mashg`larni davom ettirish.

5 O`quvchilarning e'tiborliligi.

6 Mashg`larning muntazam ravishda o`tkazilishi

7 O`quv materialini muammoli bayon etish.

8 O`quv jarayonini takomillashtirishning asosiy yo`nalishlari – o`quvchilarning ta'limiy ishlarini faollashtirish, mustaqilligini rivojlantirish, o`qitishning eng samarali shakl va metodlaridan foydalanishdir. Bu shakllardan biri o`quv materialini bayon etishni muammoli qilib to`zatishdir. Bunda o`quvchi ongida muammoli vaziyat yoki ilmiy izlanishni eslatuvchi vazifa shakllanadi. O`quvchining o`zi savolga javob topishga, muammoni xal qilishga intiladi. Odatda, u to`g`ri javobni o`qituvchi yordamida topadi. Ammo o`zi qidirib topishga intilishi va echim variantlarini topishi unda bilish faolligini, mustaqil fikrlashni vujudga keltiradi, uning bilish faoliyatiga ijodiy tus beradi.

O`qitishda tafakkur yangi harakat usullarini va o`zlashtirilishi lozim bo`lgan yangi bilimlarni “kashf etish”lariga xizmat qiladi va shunda o`qituvchilarda ruy beradigan psixik holatni ketirib chiqaradigan muayyan vaziyatlar hamda ularga mos vazifalar muammoli vaziyat va vazifalar deb ataladi. Shunday vaziyatni yaratish va usha muammoni xal qilishda o`qituvchining tutgan yo`li, usuli muammoli bayon qilish deyiladi.

Muammoli vaziyatni vujudga keltirish va muammoni xal qilish asosida tashkil etilgan o`quv jarayoni muammoli o`qitishdir:

- Muammoli vazifalar va vaziyatlar quyidagi hollarda vujudga kelishi mumkin:
- Muayyan ma'lumotlar bo`yicha echimlarni topish uchun mustaqil izlanishda;
- Mavxum mazmunning muayyan tasavvurlar bilan bog`lanishi asosida;
- Bilimlarni o`quvchilarning shaxsiy tajribasi va amaliy ishlari bilan bog`lashda;

Topqirlik yuzasidan topshiriqlar, vazifalardan, muammoli vaziyatni o`z ichiga olgan boshqa vositalardan foydalanishda. Mana shularning hammasi bilish va qiziqish faolligini keltirib chiqaradi. O`quvchilar o`zlarida echimni topish uchun zarur bilimlar borligini tushunadilar va muammo javobning to`g`ri variantini topishdan iborat bo`ladi.

Ta'limning muammoli metodlaridan foydalanish orkali materialni uzlashtirishi o`quvchi tafakkurining natijasi buladi. Ammo o`qituvchilar shuni esda to`tishlari kerakki, o`quvchilar uzlaricha xamma narsani «kashf etish"ga va urganib olishga kodir emaslar. Ular uqituvchi rahbarligida xulosalar chiqaradi, qoidalarni ta'riflaydi. Shu sababli ta'limning muammoli metodlaridan foydalanishda xam o`qituvchining tushuntirishi uz adamiyatini yo`qotmaydi. Shu asnoda uktitish metodlarining shakli, mazmuni kuyidagicha aks etadi (1-jadval



1-jadval. O`qitish metodlarining tasnifi.

Ta'limning muammoli metodlaridan foydalanishda materialni o`zlashtirish o`quvchi tafakkurining natijasi bo`ladi. Ammo o`qituvchilar shuni esda to`tishlari kerakki, o`quvchilar o`zlaricha hamma narsani “kashf etish”ga va o`rganib olishga kodir emaslar. Ular o`qituvchi rahbarligida xulosa chiqaradi,

qoidalarni ta'riflaydi. Shu sababli ta'limning muammoli metodlaridan foydalanishda ham o`qituvchining tushuntirishi o`z ahamiyatini yo`qotmaydi.

Shu bilan birga o`qitish metodlarining quyidagi tasnifi ham mavjud (1-rasm). Unda metodlar ikki guruxga: bilimlarni dastlabki o`rganish metodlari va bilimlarni mustaxkamlash hamda takomillashtirish va malakalarni shakllantirish metodalriga bo`lingan. O`qish jarayonida o`quvchilarning faollk darajasiga qarab birinchi guruxdagi metodlar yana ikkiga bo`linadi, bular ma'lumotli – rivojlantiruvchi, muammoli izlanishli metodlardir.

An'anaviy ta'limda ma'lumotli – rivojlantiruvchi metodlarning salmogi ancha katta. Bunday darsda o`quvchiga nisbatan o`qituvchi faollrok katnashadi.

Bilimlarni mustaxkamlash va ko`nikmalarni shakllantirish uchun ko`pincha reproduktiv metoddan foydalaniladi. Bu metod o`quv materialini aytib berish va esda saqlashga, ijodiy tafakkurning rivojlanishiga, mustaqil bilish faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan bo`ladi.

Lekin o`qitish metodlari turg`un, doimiy emas, ular keyingi paytlarda rivojlanib faol o`qitish metodlari shaklida namoyon bo`lmoqda.

**Faol o`qitish metodlari** o`quv materialini egallash jarayonida o`quvchilarni fikrlash va bilish faoliyatiga undaydi.

Faol o`qitish metodidan quyidagicha foydalaniladi:

A). O`qituvchi o`quv materialini qayta gapirib berish va esda saqlash uchun tayyor bilimlarni namoyish etmaydi;

B). U o`quv materialini shunday bayon qiladiki, o`quvchilar faol bilish va amaliy ishlar jarayonida mustaqil bilim hamda ko`nikmalarni egallaydi (2-rasm).

Faol o`qitish metodlarining xususiyati, ular asosida amaliy va fikrlash faoliyatiga intilish yotishidir. Bu metodlardan darsning har xil boskichlarida: bilimlarni dastlabki o`rganishda, mustaxkamlash va takomillashtirishda, ko`nikma, malakalarni shakllantirishda foydalanish mumkin.

Lekin o`quv jarayonida faqat faol o`qitish metodlaridan foydalanmaslik, balki u bilan an'anaviy o`qitish metodlaridan ham foydalanish kerak.

Talaba amaliy mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi.

Asosiy tushuncha va iboralar:

O`qitish metodlari, usul, vosita, tushuntirish ko`rgazmali metod, eslash metodi, muommoli bayon, tadqiqot metodi, an'anaviy o`qitish metodlari, amaliy metod mashg`lari, ko`nikma xosil qilish shartlari, ko`nikma va malakalarni mustaxkamlash va takomillashtirish omillari, o`quv materiallarini muammoli bayon etish, faol o`qitish metodalari.

Nazorat uchun savollar

1. Kasbiy ta`lim metodlarini aytib bering.
2. Ta'limning muammoli metodi deganda ninmani tushinasiz?
3. Faol o`qitish metod deganda ninmani tushinasiz?
4. O`qitish metodlarining tasnifini aytib bering.
5. Ko`nikma hosil qilishning muvofaqiyati qanday shartlari mavjud?

2– amaliy mashg`ulot.

Mavzu: Ta'limning faol o`qitish metodlari bilan tanishish.

Ishning maqsadi: Talabalarga fikrlash va bilish faoliyatiga undovchi faol o`qitish metodlarining tasnifi va ulardan foydalanish ko`nikmalarini o`rgatish.

Talaba amaliy mashg`uloti davomida quyidagilarni o`rganadi:

Faol o`qitish metodlari o`quv materialini egallash jarayonida o`quvchilarni fikrlash va bilish faoliyatiga undaydi (2-jadval).



2- jadval. Faol o`qitish metodlari

Faol o`qitish metodidan kuyidagicha foydalaniladi:

a) ukituvchi o`quv materialini kayta gapirib berish va esda saklash uchun bilimlarni namoyish etmaydi;

b) o`quv materiali shunday bayon kilinadiki, bunda o`quvchilar faol bilish va amaliy ishlar jarayonida mustakil bilim hamda kunikmalarni egallaydi.

Faol amaliy va fikrlash faoliyatiga intilish. Bu metodlardan darsning xar xil boskichlarida: bilimlarni dastlabki o`rganishda, mustaxkamlash va takom illashtirishda, kunikma va malakalarni shakllantirishda foydalanish mumkin.

Bilimlar tizimini shakllantirish yoki kunikma va malakalarni egallashiga karab, faol ukitish metodlari taklidsiz va taklidli buladi.

Taklidli ukitish metodlari, kasbiy malaka va kunikmalarni, kasbiy faoliyatni modellashtirishga karatilgan ta'limni takozo etadi. Ularni kullashda kasbiy faoliyat, vaziyatlariga va ana shu faoliyatning uziga taklid kilinadi. Taklidli uqitish metodlari uyinli va uyinsiz buladi.

Faol o`qitish metodi bilimlarni dastlabki o`rganishga yunaltirilgan bulib, tafakkurni, bilishga qiziqish va kobiliyatni, kunikma va malakalarni rivojlantirishga imkon yaratadi.

Lekin o`quv jarayonida fakat faol ukitish metodlaridan foydalanmaslik, balki u bilan an'anaviy ukitish metodlari (ma'ruza, tushuntirish, xikoya, Suhbat va hokazolar)dan xam foydalanish kerak. Darsning muvaffaqiyatli o`tishi uchun uni tashkil etish buyicha ukituvchi faoliyatining maqsadini aniqlash lozim.

Darsning maqsadlari kuyidagilardan: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish maqsadlaridan iborat.

- Ta'limiy maqsadga kuyidagilar kiradi:
- yangi tushunchalarni shakllantirish;
- yangi qonun, qonuniyat, xususiyat va belgilarni uzlashtirishni ta'minlash;
- yangi harakat usullarini o`rganish;
- bilimlardagi etishmovchiliklarni bartaraf etish;
- bilimlarni umumlashtirish va tizimga solish;
- malakalarni shakllantirish;
- ma'lum harakat usullarini mustaxkamlash;
- tushunchalar orasidagi bog`lanishlarni aniqlash buyicha o`quvchilarda biror narsa tug`risida tushunchalarni shakllantirish;
- dunyoqarash goyalari va muammolarini aniqlash;
- o`quvchilarda u yoki bu harakatni, vokealarni baxolash buyicha bilimlarni shakllantirish;
- —xulosa chiqarishga tayyorlash, uzgartirishga erishish. Tarbiyaviy maqsad o`quvchilarda kuyidagi muayyan shaxs sifatlari va xarakterni tarkib toptirishdan iboratdir:
- dunyokarashni va kasbga qiziqishni;
- uz-uzini tekshirish va uzaro yordamni;
- vokeliklar orasidagi bog`lanishlarni aniqlash va taxlil qilish kunikmalarini;
- bir sohadan ikkinchi sohaga bilimlarni kuchirish kunikmalari;
- fanlararo bog`lanishlarni amalga oshirish kunikmalarini;
- nutk madaniyatini;
- vatanparvarlikni;
- mehnatga ongli munosabatni;
- ongli intizom va yaxshi xulkni;
- ta'lim olishga ijobiy munosabatni;
- estetik karashlarni;
- ish urnini tashkil etish va uz faoliyatini tekshirishni;
- e'tikodni.

Ta'limning mazmuni x,ayot va zamon bilan uzviy bog`lansa, u tarbiyalash xususiyatiga ega buladi.

Rivojlantirish maqsadi —dars jarayonida o`quvchilarning psixologik sifatlarini dikkat, xotira, tafakkur va bilish kobiliyatlarini shakllantirishdir.

Psixologik adabiyotlarni taxlil qilish o`quvchilarda tafakkurni, politexnik, mehnat, bilish (anglash) va akliy kunikmalarni, iroda va mustakillikni rivojlantirish, ularni kelgusi darslarga tayyorlash zarurligini kursatadi.

Agar bilimlarni shakllantirish va maqsadli tarbiyalash o`quvchilarning bilish

kobiliyatini takomillashtirsa, buni rivojlantiruvchi ta'lim deb tan olinadi.

Talaba amaliy mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi.

Asosiy tushuncha va iboralar:

Usul, vosita, tushuntirish faol o`qitish metodalari, tarbiyaviy maqsad, ta'limiy maqsad, rivojlantirish maqsadi

Nazorat savollari

1.Faol o`qitish metodlarini tasniflang?
2.Darsning ta'limiy maqsadi deganda nimani tushunasiz?
3.Darsning tarbiyaviy maqsadi o`quvchi shaxsida nimalarni shakllantiradi?

3– amaliy mashg`ulot.

Mavzu: Ta'lim metodlarini tanlash va ta`limning davomiyligi

Ishning maqsadi: Talabalarga ta'lim metodlarini tanlash va ta`limning davomiyligi to`g`risidagi bilish faoliyatiga undovchi faol o`qitish metodlarining tasnifi va ulardan foydalanish kunikmalarini o`rgatish.

Talaba amaliy mashg`uloti davomida quyidagilarni o`rganadi:

Quyida ta'lim jarayonida foydalanmoqchi bo`lgan metodlarni tanlash vaqtida hisobga olish lozim bo`lgan ayrim jihatlarni ko`rib chiqamiz:

Ta'lim maqsadlari: Har qanday ta'limning maqsadi-ko`nikmalari va malakalarini shakllantirish, shunga zarur shaxs sifatlari va ko`rsatmalarini ishlab chiqish.

O`quv faoliyatii harakatida maqsadning barcha komponentlari amalga oshar ekan, turli metodlarni birgalikda qo`llash zarur. Shuning uchun, metod tanlashda eng asosiy omil bo`lib, aniq o`quv mashg`ulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi.

Metod tanlash nafaqat o`quv maqsadidan, balki o`quv material mazmuniga va bu fanning murakkabligiga bogliq. Bundan tashqarii metodlarni tanlashda o`quvchilarning soni ularning o`quv imkoniyatlari, ta'limning davomiyligi, o`quv moddiy sharoitlar va o`qituvchining mahoratiga bogliq.

O`QUVCHILARNING SONI

O`quv guruhidagi o`quvchilarning soni muhim ahamiyatga ega. Agar ular ko`pchilik bo`lmasa, eng faol usuldan foydalanib, o`qitishini jadal sur'atda olib borish mumkin. Agar o`quvchilar ko`p bo`lsa, Agar siz faol usullardan o`zini oo`lamagan darajada ko`p foydalansangiz, ulurning har biriga etarli e'tibor berish uchun vaqtingiz etishi amri mahol. Katta guruhlar uchun o`quv materialini ogzaki bayon qilish usullari (ma'ruza, hikoya, tushuntirish) ko`proq mos keladi.

O`**QUVCHILARNING O`QUV IMKONIYATLARI**

O`qitish metodlarini tanlashda o`quvchilarning o`quv imkoniyatlarini hisobga olish juda muhim: yoshi, tayyorgarlik darajasi hamda jamoada o`zaro munosabatlarning o`ziga xosligini.

O`quvchilarning o`z-o`zini boshqarish qobilyati va uni e'tiborga olish muhimdir. Quyida qammaga ma'lum darajalardag kelib chiqqan holda o`quvchilarning o`z-o`zini boshqarishni o`ziga xosligini ko`rib chiqamiz.

O`z-o`zini boshqarishning birinchi darajasi. O`quvchi vazifani to`liq qabul qiladi, ish oxirigacha uni to`liq saqlaydi. Diqqat Bilan chalgimasdan ishlaydi. Asosan Aniq ishlaydi, xatoga yo`l qo`ysa, tekshirayotganda buni sezadi va to`girlaydi. O`quvchi ishini to`gri chiroyli tartibli bajarilganini Yana bir bor tekshiradi.

O`z-o`zini boshqarishning ikkinchi darajasi. O`quvchi vazifani to`liq qabul qiladi, uni ish oxirigacha Sqlaydi. Ish jarayonida ba'zi bir xatolarga yo`l qo`yishi mumkin, lekin ularni sezmaydi va tuzatmaydi. Ishni tekshirish vaqtida ham xatolarni sezmaydi. Yaxshi baho olishga intilishi bo`lgani Bilan ishni bezatilish sifati uni o`zgarmaydi.

O`z-o`zini boshqarishning uchinchi darajasi. O`quvchi vazifaning faqat bir qismini qabul qiladi, lekin mashgulot oxirigacha uni qabul qilgan hajmini qam Saqlab qolmasligi mumkin. Vazifani bajarayotganda faqat e'tiborsizlik tufayli emas, balki vazifani bajarish qoidalarini eslab qolmasligi mumkin. Vazifani bajarayotganda faqat e'tiborsizlik tufayli emas balki vazifani bajarish qoidalarini eslab qolmaganligi uchun ham xatolarga yo`l qo`yadi. Xatolarni odatda sezmaydi, ish jarayonida tuzatmaydi, vazifani tekshirayotganida qam sezmaydi. Ishni yaxshilashga qohish bildirmaydi. Olingan natijalarga sovuqqonlik Bilan qaraydi.

O`z-o`zini boshqarishning to`rinchi darajasi. O`quvchi vazifaning kichik qisminigina qabul qiladi, lekin shu zahotiyoo` uni batamom yo`qotadi. Xatolarni sezmaydi, ularni tuzatmaydi,vazifani to`gri bajarilganligini tekshirishga vaqt ketkazmaydi. Bajarilgan ish sifatiga befarq.

O`z-o`zini boshqarishning beshinchi darajasi. O`quvchi vazifani umuman qabul qilmaydi. Uning oldiga qandaydir vazifa qo`yilganligini tushunmaydi ham. Vazifadan, qalam Bilan qogozdan foydalanish kerakliginigina ilgab oladi. Hoshiya satrlarni hisobga olish varagini yozib bitiradi.

Dasturning yoki o`quv kursi mavzularining davomiyligi tabiiyki, metod tanlashda ta'sir etadi. Ularning ba'zilari o`quvchilarni tayyorlashga qancha ko`p vaqt talab qilsa bu faoliyatni bajarishga ham shuncha vaqt talab qiladi. Ta'lim muddati shunchalik

Chegaralangan bo`lishi mumkinki, ko`p vaqt talab qiladigan metodni siz o`ylaganchalik tez-tez ishlatish imkonini bermaydi, bu holda bu usullarni faqat maqsadga muvofiqroq joylarda qo`llash mumkin.

Vaqt u yoki bu metodni amalga oshirishga ketgan mehnatingizni nuqtai-nazardan muhim omil hisoblanadi. Ba'zi usullar sizdan boshqalarga nisbatan ko`proq tayyorgarlikni talab qiladi. Shuning uchun bunday usullarni qo`llash rejalashtirayotib, siz faoliyatni tashkil qilishning Ushbu metodini amalga oshirishni tayyorlashga vaqt va kuch etarlimi, deb o`zingizga savol berishingiz kerak.

O`QUV- MODDIY SHAROITLARI

Bazi metodlarni qo`llashda alohida sharoitlar talab qilinmaydi: kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnit doskasi, maxsus jihozlangan hona va h.k. Agar siz siz o`quv moddiy sharoitlar talab qiladigan metodlardan foydalanmoqchi bo`lsangiz, ularning naqdligini ta'minlashingiz kerak.

O`QITUVCHINING MAHORATI

O`z-o`zidan ravshanki, siz o`quv dasturini bajarish jarayonida ma'qul bo`lgan, metodlarni qo`llashni bilishingiz kerak. O`qituvchining metodlarni to`gri tanlay olishi uning metodik malakasini darajasini ko`rsatib beradi. O`qituvchi to`gri savol berish malakasiga ega bo`lishi va savol javob texnikasini egallagan bo`lishi kerak. Bundan tashqarii o`qituvchi no`ananaviy metodlarni qo`llaganda fikr mulohazalarini umumlashtirishni va xulosalar chiqarishni bilishi qamda guruqni boshqarish qobilyatiga ham ega bo`lishi kerak. Modellashtirish modelining modellarini qo`llaganda o`qituvchi o`yin rejasini tuza olishi, vaziyat mazmunini va ishtirokchilarining vazifalarini ishlab chiqishini bilishi lozim.

Ta'limning tashkiliy sharti belgilangan tartibda va aynan sodir bo`ladigan o`qituvchi va o`quvchining maxsus tashkil qilingan faoliyatining tashqi ifodasidir.

Shunday qilib ta'limning tashkiliy shakli didaktik kategoriya sifatida o`quv jarayonining quyidaagi tashqi tomonlarini , ya'ni uning mavjudlik tarzini, tartib va rejimini:

o`qituvchi va o`quvchining hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ifodasini aks ettirish.

Talim jarayonidagi o`zaro hamkorlik faoliyatimizning tashqi ifodasi sifatida uning tashkiliy shakli muhim hisoblanadi. Ta'limning tashkiliy shaklini quyidagicha ifodalash mumkin.

Bizning o`quvchilar bilan hamkorlikdagi faoliyatimiz, guruh dars tizimini doirasida ta'limni tashkillashtirish shakllari quyidagilarida o`z ifodasini topadi.

Jamoa ish-barcha o`qituvchilar Bilan bir vaqtda ishlash;

Guruhlarda ishlash;

Juftliklarda ishlash;

Guruhda ishlash;

Guruhlar aro ishlash

Yakka tartibda ishlash.

Ushbu tashkiliy shakllarning har biri, jamoaviy va yakka tartibda ta'limni birgalikda olib borishni turliligi, ta'lim oluvchilarning mustaqillik darajasini turliligi va boshqalar Bilan tavsiflanadi.

Ularning qiyosiy tavsifini quyidagi jadvalda keltiriladi.

Ta'limning tashkiliy shakllarini qiyosiy tavsifi.

Ta'lim shakllari	**Xarakterli xususiyatlari**	
	Afzalligi	**Kamchiligi**
1	2	3
Jamoa	• O`quv mashgulotining Aniqgi va tartibliligi ta'minlanadi; • O`quv guruhining jamoasi bir butun sifatida ishlaydi; • Tejamlilik-o`qituvchi bir vaqtning o`zida barcha o`qituvchilar	• O`qituvchi-ta'lim berish ob'yekti; Ta'lim berish yalpi xarakterga ega-o`qituvchilar bilan yakka tartibdagi ta'lim tarbiya ishlarining olib borish imkoniyati bo`lmaydi;

	bilan ishlaydi	O`qituvchi barchani birvaqtdan bir xil dastur bo`yicha o`qitadi, har bir o`qituvchini tayyorgarlik va rivojlanish darajasi, o`qish imkoniyatlari hisobga olinmaydi. «O`rtacha o`quvchi»ga yondoshiladi: o`qituvchilarning qobilyatlari O`rtacha holatga keltiriladi; O`quvchilar o`zaro deyarli muloqotda bo`lmaydilar va hamkorlik qilmaydilar-har biri o`zi uchun ishlaydi.
1	2	3
Guruhli	• O`qituvchi – ta'lim sub'ekt iva ob'ekti hisoblanadi; • Guruhda ish, har bir a'zosining imkoniyati, qobilyati va ishlash tezligini o`zaro yordam va o`zaro nazorat qilishni hisobga olgan holda vazifalarni ta?simlash asosida tashkillashtiriladi; • Hamkorlikda,ishlashda guruhning har bir a'zosining tajribasi boshqalarni to`ldiradi, materialni o`zlashtirishga yordam beradi; • Guruh a'zolari va guruhlar o`rtasida o`qituvchilarning faoliyati, ularning mustaqilligini, muloqotda bo`lishini, hamkorligini, o`zaro bogliq munosabatlarda ma'suliyatni sezishni ta'minlaydi. • Har bir a'zo o`zi uchun va boshqalar uchun ishlaydi. • Natijada yakka tartibda ish paytidagi nisbatan kam vaqt sarflangan holda olinadi; • Guruhda hamkorlikda ishlash tufayli olinadigan natijalar o`qituvchilar vazifasini alohida bajarganga nisbatan ancha yuqori bo`ladi.	• Ta'lim guruhda ishni bajarishga va uni natijalarini olishga ma'lum bir vaqtni sarflashni talab qiladi; • Ko`p mehnatni talab qiladi, ya'ni o`qituvchi tayyorgarlik uchun ko`p mehnat qilishi kerak; • Noto`gri tashkil qilinganda o`quv jarayoni nazoratdan chiqib ketishi va boshqarib bo`lmaydigan tus olishi mumkin.
1	2	3
Yakka tartibda	• O`qituvchilarni yuqori darajada mustaqil bo`lishini ta'minlaydi;	• Ko`p mehnatni talab qiladi, ya'ni o`qituvchi yakka

	• O`qituvchini maksimal rivojlanishini tayyorgarlik, rivojlanish, qobilyat va bilish imkoniyatlari darajasini maksimal hisobga olgan holda ta'limni-yakka tartiblashni ta'minlaydi; • O`qituvchining kuchi va tayyorgarlik darajasi bo`yicha har birini ta'lim olish tezligi boshqariladi; • Har bir o`qituvchiga mutanosib yakka tartibda yordam berishni ta'minlaydi.	tartibda vazifalarni ishlab chiqishi, ularni amalga oshirishiga yordam berishi, nazorat qilishi va baholashi uchun ko`p mehnat sarflashi kerak. • Tejamkor emas: o`qituvchi faqat bita o`quvchi bilan ishlaydi.

O`quvchilarni guruhlarga qay tarzda ajratish kerak.
O`quvchilarni guruhlarga shakllantirishda quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur:
Tasodifiy belgilar bo`yicha –buning uchun o`quvchiga birdan beshgacha ketma-ket sanashni iltimos qilamiz,mkeyin esa birinchilarni, ikkinchilarni, uchinchilarni va hokazolarni kichik guruhlarga birlashtiramiz.
Ihtiyoriy belgilar bo`yicha:
-O`quvchilarni xonada joylashganiga qarab guruhlarga joylashtirish mumkin.
-Majburiy kichik guruhlarga ajratish:
-O`qituvchi o`quvchilarni majburiy ravishda hzi kichik guruqLarga ajratadi.
Guruxning son tarkibinini Aniqlash paytida vazifaning xarakterini xisoga olish kerak. Vazifalarning murakkablik darajasiga qarab kichik guruhlar soni quyidagicha shakllantiriladi.
-Kichik vazifalarni bajarish uchun guruhning optimal tarkibi 3-5 kishi (MashqLar, o`quv turniri, kitob Bilan ishlash va boshqalar)
-5 va 7 kishigacha murakkab vazifalar uchun.
-ko`p mehnat talab qiladigan (chet tillar bo`yicha mashgulotlardan) murakkab vazifalari uchun ko`p sonli guruh tuzish zarur;
-bir-birini tushinishni talab qiladigan (chet tillar bo`yicha darslarda) mashqLar uchun juftliklarda ishlash yaxshi.
O`quvchilarni son tarkibiga ko`ra guruhlashning sxematik ko`rinishi.

Ta'lim vositalari.

Ta'lim-tarbiya jarayoninig sifati va samaradorligini oshirish ko`p jio`atdan ta'lim vositalari Bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog`liq bo`ladi.
Ta'lim vositalari oltita turga bo`linadi.
-Matnli vositalar
-Tasvirli vositalar
-audio vositalar
-yordamchi (jihoz) vositalar
-real vositalar

Ta'lim vositalarining turlari
Matnli

Ma'lumot olish va ma'lumotlarni qayta ishlash
-o`quv dasturlari
-maxsus adabiyotlar (darslik)
-tarqatma materiallar
-imtio`on va nazorat savollari

Tasvirli

Umumiy tasavvurni vujudga keltirish
-fotosuratlar
-eskiz, chizma, sxemalar
-ramziy tasvirlar, reja jadvallar, simvollar
-diagramma va grafiklar
Audio

Jarayonlar va ishlash mexanizmlari to`g`risida real tasavvurlarni vujudga keltirish

-videofilmlar
-kompakt disklar
-audiokassetalar

Yordamchi jihoz

Tasvir va matnni yozish va saqlash
-doskalar (oq doska, magnit doskasi)
-«Pinbord» doskasi
-videoproektorlar, videoproektor doskasi
-kodoskop
-videomagnitafon, kamera
-kompyuter
-flipchartlar

Modeli

O`rganilayotgan ob'ektning modeli orqali u haqda tasavvur hosil qilish
-modellar
-maketlar

Real

O`rganilayotgan obektlar haqida real tasavvurni vujudga keltirish
-asbob-uskunalar
-stanoklar
-yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlar

Nazariy darslarda o`qituvchilar asosan matnli va yordamchi vositalardan, misol uchun darsliklar va tarqatma materiallardan va texnik vositalardan foydalaniladi.

Amaliy Mashg`ulotlarda ular ko`proq tasvirli va real vositalardan ya'ni eskiz, chizmalar, asbob-uskunalardan foydalanadilar.

Ovoz va tovushli (audio) shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audio vositalar jarayonlar va vazifalar to`g`risidagi keng qamrovli real tasavurlarni vujudga keltiradi.

Yordamchi vositalar buning aksi o`laroq tasvir va matnlarini yozib olish va SAqlash imkonini beradi. Ular doska, flipchart , pingbort doskasi, kodoskop, videoprektor kabilardir.

Ish sohasiga real narsalar, ya'ngi mahsulotlar asbob va boshqalar dar syoki instruktaj paytida didaktik funkstiyaga ega bo`lsa, o`quv vositasi sifatida qo`llanilishi mumkin.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan mAqsad, mo`ljallangan guruh, maxsus soha va metodlarga mos holda tanlash muhim o`rin tutadi.

Bundan tashqarii o`qituvchi o`quv va ko`rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan mAqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilish kerak. Texnik vositalardan foydalanayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qilad oladigan bo`lishi lozim. O`qituvchilar doska tasvirlari, flipchart tasvirla va kodoskop slaydlari kabi vizual vositalarni o`zlari ishlab chiqadilar

Bo`r doska

Bo`r doska eng qadimgi, arzon va boshqalarga nisbatn ko`proq ishlatiladigan vosita hisoblansa kerak. Manna ko`p yillardirki, u nazariy va Amaliy darslarda qullaniladigan texnik vosita hisoblanadi.

Bugungi televizorlar va kompyuterlar dunyosida doska sinfdagi eng ishonchli va ko`proq qo`llaniladigan o`quv vositasidir.

Doskadan nima mAqsadlarda foydalaniladi?

- Nazariy darsda bilimlarda dam-badam ishlab chiqish uchun
- Dalillar, tushunchalar, tamoyil va usullarni namoyish qilish uchun
- Ma'lumotlarni taqdimot qilishuchun
- Mavzu yoki holatni fniq vaziyatlarda namoyish qilish uchun
- Yozuvlar yozish uchun
- Asosiy punktlarni tushuntirish uchun
- Rasm va grafiklarni ko`rsatish uchun
- Matematik amallarni bajarish uchun
- Diqqatni jalb qilish uchun
- Doskadan foydalanishdagi kamchiliklar:
- Doskaga diqqat Bilan yozish o`qituvchidan doskaga qarashini talab qiladi, buning uchun u o`quvchilarga orqAsi Bilan o`girilishga majbur
- Doskadagi yozuv (tasvir) SAqlanishi mumkin emas va shuning uchun uni qayta qo`llash mumkin emas
- Doskaga yozish ko`p vaqtni talab qiladi

Flipchart

Flipchart doskaga juda o`xshashligiga qaramasdan, ko`pgina farqLar ham mavjud. Flipchartning eng asosiy qulayligi-bu matnni o`chirmasdan yozib ketaverish imkoniyatining borligi, ya'ni joy etishmasligidan yozilgan yozuvlarni o`chirishga hojat yo`q, faqat etarlicha qog`oz bo`lishi talab etiladi.

Shunday qilib, barcha fikr-mulohazalarni SAqlash mumkin, hatto bir necha haftalik tanaffusdan so`ng bu qog`ozni Yana osib qo`yish va munozarani davom ettirish mumkin. Flipchartning boshqa qulayligi sinfdagi devor yoki doskaga birin ketin hamma varaqlarini yopishtirish imkoniyati qisoblanadi. Butun guruh ishining

natijalarini bir paytda ko`rish, taqqoslash va SAqlab qolishning bunga teng boshqa imkoniyati yo`q.

Flipchartdan nima maqsada foydalaniladi?

- Guruhiy baxs-munozaralarning natijalarini saqlash va ularni kelajakdagi tadbirlarda ishlatish uchun;

Jarayonning bosqichlarini khrsatish uchun;

- Taqdimotni tashkillashtirish uchun;
- Turli masalalar bo`yicha asosiy qismlarni ajratib ko`rsatish uchun;
- Flipchartning boshqa qulayliklari:
- Doskani boshqa joyga siljitish mumkinligi foydalanishninsh qulayligi;
- O`zgaruvchanligi (varaqlarni olib quyish va yopishtirib qo`yish mumkin);
- Turli ranglardagi markerlardan foydalanish mumkin, bu o`z navbatida o`quvchilarning diqqatini jalb etishga yordam beradi.

Kamchiliklari:

Yozuv tushunarli bo`lishi kerak, aks holda uni o`qish qiyin bo`ladi

Xato yozmaslikka harakat qilish kerak, aks holda hamma to`g`irlangan joylar doim ko`rinib turadi;

Varaqlarni nusxalashtirish faqat fotosurat yoki ko`chirib yozish orqali mumkin xolos;

Ko`p flipchart qog`ozlari talab etiladi.

Pinbord doskasi

«Pinbord» inglizcha so`z bo`lib, (pin-mahkamlash, board-doska) doskaga mahkamlash degan ma'noni anglatadi.

Qoidaga ko`ra, pinbord doskasi ustiga o`rash qog`ozi tortiladi va qo`shimcha kerakli material sifatida turli rang va shakldagi kartochkalar bo`lishini talab qiladi. Ular pinbord doskasiga ignalar Bilan mahkamlanadi. Ishni tugutgandan shng kartochkalarni o`rash qog`oziga yopishtirish va ularni navbatdagi tadbirlar uchun qo`llash mumkin.

Kartochkalar maxsus rang-barang plomasterlar Bilan yoziladi.

Bu vosita asosan yig`ilishlarda muqim o`rin egallaydi, chunki bu vosita yordamida qarorlar, muammolarni ishlab chiqi shva guruhiy bahs-munozaralarni boshqarishni ko`rgazmali qilish mumkin.

Kodoskop

Kodoskop uchun sath (ekren), shuningdek, plyonka-slaydlar kerak.

Kodoskap o`qituvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi. O`quv jarayonini bu vositasiz tasavur qilish mumkin emas. Asosiy qulayligi shundaki, slaydlar kompyuterda yoki shuningdek qo`lda professional darajada tayyorlash mumkin. Ulardan istalgan vaqtda foydalanish va ish o`rni o`zgarganida boshqa joyga o`tkazish mumkin. Ammo kodoskopning faqat sifati emas (yorug`lik kuchi), balki ishlab chiqilgan slaydlarning sifati ham muhimdir.

Slaydlarni tayyorlash uchun quyidagi materiallar kerak bo`ladi:

- Astetatli qog`oz-sun'iy toladan qilingan tiniq qog`oz;
- Alohida qoplamaga ega, nusxalashtirish mumkin bo`lmagan slaydlar;

- Slaydlarga yozish uchun flomasterlar (doimiy yoki suv Bilan o`chirish mumkin bo`lgan);
- Slaydlarni tozalash uchun spirt;
- Simvolli asboblar (shablonlar, chizg`ich vash u kabilar).

Slaydlarning qulayliklari

Ularni hamma joyda tayyorlash mumkin (uyda, ish joyida…)

Ularni qo`lda qanday tayyorlash ukin bo`lsa, fotonusxa va kompyuter yordamida ham shunday tayyorlash mumkin;

Ular katta guruhga ko`rinarli bo`lishi kerak;

Bir marta tayyorlab ulardan bir necha bor foydalanish mumkin;

Rangli tasvirni qo`llash mumkinligi;

O`qituvchi o`quvchilar bilan «ko`z aloqasini» doimo saqlab turishi mumkin.

Kodoskopning kamchiliklari

- Kodoskop doska yoki flipchartga qaraganda qimmatroq;
- Ko`pincha takrorlanadigan xato: bir slaydga xaddan tashqarii ko`p ma'lumot yoziladi;
- Darslikning meyoriy varaqlarini nusxalashtirish ishtiyoqi mavjud (juda kichik shriftdagi yozuv, juda kata matn);
- Slayd ustida to`g`rilash ko`pincha murakkab (kodoskop nurida doimo ko`rinadi);
- Ranglardan haddan tashqarii ko`p foydalanish;
- Elektr energiyasini talab qiladi.

Ta'lim jarayonidagi eng muhim vositalar yuqorida ta'rif berilgan predmetli vositalar dars jarayonini ko`rgazmali qilishga, o`quv materialining o`zlashtirilishini engillashtirishga va o`quvchilarning motivastiyasini oshirishga xizmat qiladi.

«Yuz marta gapirgandan ko`ra, bir marta afzal» degan xalq iborasi bunga yaqqol misol bo`ladi. Ko`rgazmalilik, tushunarlilik va misol-namunalardan foydalanish kabi didaktik tamoyillar bu iboraga javob beradi. Chunki bu vositalardan foydalanishning mohiyati, o`qituvchi o`quvchilarda bilimlarni ko`rgazmali va imkon qadar real hayotga yaqin holda shakllantirishidir.

Talaba amaliy mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi.

Asosiy tushuncha va iboralar:

ta'lim maqsadlari, o`quv maqsadlari, o`quv- moddiy sharoitlari, o`qituvchining mahorati, ta'lim vositalari, yordamchi jihoz, model, bo`r-doska, flipchart, pinbord doskasi, kodoskop, slayd.

Nazorat savollari.

1. Ta'lim metodlarining maqsadi nima?
2. O`quv guruhidagi o`quvchilarning soni muhim ahamiyatga egami?
3. “O`quvchilarning o`z-o`zini boshqarish”-deganda nimani tushunasiz?
4. Ta'lim vositalarining qanday turlari mavjud?
5. O`quv jarayonida ta'lim vositalaridan nima maqsada foydalaniladi?

4– amaliy mashg`ulot.

Mavzu: Zamonaviy ta'lim texnologiyasi

Ishning maqsadi: Talabalarga zamonaviy ta'lim texnologiyalari haqida tushuncha berish.

Talaba amaliy mashg`uloti davomida quyidagilarni o`rganadi:

Ta'lim texnologiyalarini o`quv jarayoniga joriy etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

-"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" maqsadi va vazifalarini ro`yobga chiqarish uchun ta'limni jadallashtirish zarurligi;

-ta'lim-tarbiya jarayonida o`qituvchi va o`quvchi rolini o`zgartirish zarurrligi;

-fan-texnika taraqqiyotining o`ta rivojlanganligi natijasida axborotlarni keskin ko`payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi;

- kishilik jamiyati o`z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo`lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o`tib borayotganligi;

-barkamol avlodni tayyorlash talabi ularga eng ilg`or bilim berish usuli hisoblangan ob'ektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir;

Ta'lim jarayoni yuqorida sanab o`tilgan beshta asosiy shartlarni barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbirdir.

Ushbu tushunchalarni o`quv jarayoniga ko`chiradigan bo`lsak, o`qituvchi pedagognik o`qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitlarda ko`rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo`lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatli intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo`yicha bunday ijtimoiy hodisani pedagogik texnologiya desa bo`ladi. Pedagogik texnologiya oqimi deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda tez tarqaladi, YUNESKO kabi nufuzli tashkilot tomonidan tan olindi va hozirgi kunda ko`pgina mamlakatlarda muvaffaqiyatli o`zlashtirilmoqda va qo`llanilmoqda.

BMT nufuzli idoralarida biri bo`lgan YUNESKOning ta'rificha,

Ta'lim texnologiyasi-ta'lim modellarining optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o`zaro ta'sirini hisobga olgan holda, butun o`qitish va bilimlarni o`zlashtirish jarayonini yaratish, qo`llash va aniqlash tizimidir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim texnologiyasi tushunchasi o`qitish va o`rganish jarayoniga tizim sifatida qarashni anglatar ekan, avvalo tizim tushunchasini tushunib olish zarur.

Tizim-tartiblangan, o`zaro uzviy bog`langan va birgalikda umumiy funkstiyani bajaruvchi elementlar to`plamidir.

Misol uchun, avtomobil dvigateli bir nachta tizimlardan iborat bo`lib, har bir tizim bir nechta elementlardan tashkil topgan. Moylash tizimini ko`rib chiqadigan bo`lsak, uni tashkil etuvchi elementlardan birortasi ishlamay qolsa, yoki yomon ishlasa dvigutelning ishqalanuvchi qismlariga moy etib bormaydi va natijada

dvigatel ishdan chiqadi. Ko`rinib turibdiki, tizimning faoliyati uni tashkil etuvchi har bir elementiga va o`z navbatida har bir element bir-biriga chambarchas bog`liq.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: ta'lim jarayonini bir tizim deb qaraydigan bo`lsak, uni tashkil etuvchilari, ya'ni elementlariga quyidagilar kiradi:

-o`quv maqsadi;
-kutilayotgan natijalar;
-o`qituvchi;
-o`quvchi;
-ta'lim mazmuni;
-ta'lim metodi;
-ta'lim shakli;
-ta'lim vositalari;
-nazorat va baholash;
-Quyida tavsiya etilayotgan sxemada ta'lim jarayonining tuzilmasi keltirilgan.

Ta'lim jarayonining tuzilmasi



Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda yuqorida sanab o`tilgan elementlardan birortasi e'tibordan chetda qolsa yoki noto`g`ri tanlangan bo`lsa tizim ishlamaydi, demakki, ta'lim jarayoni oldiga qo`yilgan maqsadga erishilmaydi.

Ta'lim modellari

Ta'lim modeli-ta'lim jarayoni tuzilmasidir.

Ta'lim modellari ikki turga ajratiladi:

- an'anaviy ta'lim modeli;
-noan'anaviy ta'lim modeli.



Noan'anaviy ta'lim modelini o`z navbatida uch qismga ajratish mumkin.



Tadqiqot natijasi shuni ko`rsatadiki, an'anaviy dars o`tish ta'limning samarali modellaridan biri bo`lib qolmoqda.

An'anaviy dars- muayyan muddatda mo`ljallangan ta'lim jarayoni ko`proq o`qituvchi shaxsiga qaratilgan mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir.

O`quv materiali yangi va ancha murakkab bo`lganda, an'anaviy dars ko`p hollarda ta'ldim jarayonining birdan-bir metodi bo`lib qolmoqda.

Ma'lumki an'anaviy dars ta'lim jarayonining markazida o`qituvchi turadi. Shu bois, ba'zida an'anaviy darsni markazida o`qituvchi turgan o`qitish usuli deb ham atashadi.

An'anaviy dars o`tish modelida ko`proq ma'ruza, savol-javob, Amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo`lib, o`quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman o`quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o`quvchilarning o`zlashtirish darajasini ko`tarilishiga olib keladi.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o`qituvchi tomonidan o`quvchilarning qiziqishini ortirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag`batlantirilib turilishi, o`quv materialini kichik-kichik bo`laklarga bo`lib, ularning mazmunini ochishga baxs, munozara, aqliy xujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot, rolli o`yinlar metodlarini qo`llash, turil-tuman qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi,Yu o`quvchilarni amaliy mashqlarini musstaqil bajarishga undash, turli baholash usullaridan foydalanish, ta'lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.

Bu modellar asosida o`quvchi shaxsiga qaratilgan bo`lib va ularni boshqacha qilib markazda o`quvchi turgan ta'lim modellari deb ham atashadi.

An'anaviy ta'lim modeli-o`quvchilarning o`zlashtirish tushunib etish, bilimini ustahkamlash, o`zlashtirish faoliyatini taminlaydi. Tayyor holatda o`quvchilarga bayon qilingan o`qitish va bilim olish modelidir. An'anaviy ta'lim modelining metodlari dars jarayonida qo`llaniladigan ta'lim jarayonining markazida o`qituvchi turadi. An'anviy ta'lim modeliga ma'ruza, namoyish, video usul, to`rt pag`onali usul laboratoriya ishlari, amaliy mashqlar kabi metodlar kiradi.

Hamkorlikda o`rganish modeli o`quvchilar bilimini o`zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo`yicha reproduktiv faoliyatni ta'minlovchi mohorat va malakani ketma-ketlik bo`yicha o`quvchining bevosita boshchiligida ishga solishni tashkil etishga asoslangan o`qitish va bilim olish modelidir.

Ushbu model o`quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishni ko`zda tutadigan metodlardan iborat. Bularga kitob Bilan ishlash, o`quv suhbati, davra suhbati, aqliy xujum, kichik guruxlarga ishlash, baxs-munozara kabi metodlarni kiritish mumkin.

Modellashtirish modeli-real hayotda va jamiyatda yuz beradigan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko`rinishini sinfxonada yaratish va ularda o`quvchilarning shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta'lim olishini ko`zda tutuvchi metodlardan iborat. Ushbu metodlarning asosiy maqsadi o`quvchilarning faqat tinglashi emas, balki bilimlarini o`zlashtirishda bevosita ishtirokini ta'minlash orqali ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bularga ishbop o`yinlar va rolli o`yinlar kabi metodlarni ko`rish mumkin.

Tadqiqot modeli-o`quvchilar tomonidan muammoni tushunish va echish mustaqil bilim olishni kuchaytiradigan va shunga undaydigan usullari yihindisidan iborat. Tadqiqot modelining maqsadi dars jarayonida o`quvchilarga savol qo`yish va ularda javob izlashda qiziqishini uyg`otishga qaratilgandir. Ushbu model bo`yicha o`qitish o`quvchilarni Amaliy izlanish jarayonida bevosita qatnashishini ta'minlaydi. Bularga muammoli vaziya, loyihalash metodi, mustaqil izlanish, yo`naltiruvchi matn kabi metodlar kiradi. Quyidagi ta'lim modellari bo`yicha metodlar tizimiga batafsil to`xtalib o`tamiz.

Metod-(grekcha “metodos” so`zidan olingan bo`lib izlanish yoki bilish yo`li, nazariya, ta'limot ma'nosini anglatadi). Aniq vaziyatni echishga bo`ysindirilgan borliqni amaliy yoki nazariy o`zlashtirish operastiyalarining yoki yo`llarining yig`indisidir.

Metod-o`quvchi va o`qituvchining muayyan maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullar yig`indisidir. Amaliyotdagi oddiy qoida shu haqda guvohlik beradiki ya'ni bilimlarni berish nazariy darsini dastlabki 20 daqiqasida amalga oshirish keyin esa baxs munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirib o`quvchilarning bilimlarini mustahkamlash kerak. Har qanday qanday holatda ham nazariy dars jarayonida masalan, faqat ma'ruza o`qiladigan vaqt 20 daqiqadan oshmasligi kerak, chunki o`rganishning daslabki 20 daqiqasi eng samarali, 30 daqiqadan keyin esa o`rganishni davom ettirish motivastiyasi tezda pasaya boshlaydi. Bu hamma takliflar o`quvchilar diqqatini uzoqroq vaqtgacha saqlab turishga xizmat qiladi. Idrok qilish paytida qancha ko`p sensorik (sezgi) kanallaridan foydalanilsa esda olib qolingan bilimlarning miqdori va sifati shunchalik yuqori bo`ladi. Agar bilimlar faqat ma'ruzalar orqali (passiv tinglash yo`lida) berilgan bo`lsa unda 3 kundan so`ng ularning faqat 25% ni esda saqlash mumkin. Agar u ma'ruzalar o`qish (tinglash) namoyish va ko`rgazmali qilish, (ko`rish, ushlab ko`rish va shu kabilar) orqali berilsa va shu to`g`risida baxslashsa unda 3 kundan so`ng 75% ni esga tushirishi mumkin. Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sinsorik kanallar birgalikda ishga solingan bo`lsa ma'lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o`tish jarayoni tezlashadi. Bu esa bilishning asosi bo`lib hisoblanadi.

Bundan quyidagi qoidalar kelib chiqadi:

1.O`quv vaziyatini tayyorlashda noan'anaviy metodlar va audio-vizual vositalarini samarali ishlatish lozim.Bunda birdaniga ko`pgina sensorik kanallar jalb etiladi.

2.O`quv materiali to`g`risida baxslashishga doim imkon beradi.O`quv suhbatlar guruhiy baxs munozaralar tavsiya etiladi, chunki bu metodlar o`quvchini faollikka chaqiradi. O`qitish metodlarini tanlashda uning samaradorligini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega.

O`quvchilarning o`zlashtirish darajasiga o`qitish metodlarining ta'sir darajasi.

1.Ma'ruza-eshittirganimizning 5 %
2.O`qish o`qiganimizning 10%
3.Videousul namoyish-ko`rganimizning 20%
4.Tajribani namoyish qilish, ko`rgan va eshitganimizning 30%
5.Baxs munozara muhokama qilganimizning40%
6.mashqlar-o`qigan, yozgan, gapirganimizning 50%
7.Ishbop o`yin, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash, mustaqil o`qiganimizning tahlil va muhokama qilganimizning, himoya va namoyish qilganimizning 75%
8.Yo`naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o`qitish-mustaqil o`rgshanganimizning tahlil va muhokama qilganimizning boshqalarni o`qitgan narsalarimizning 90%

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko`rsatadiki, dars jarayonida noan'anaviy metodlar qo`llanilganda o`quvchilarning axborotini eslab qolish xususiyatini eng yuqori darajasi 30% ni tashkil etar ekan. Noan'anaviy metodlar qo`llanilganda esa o`quvchilarning axborotlarni o`zlashtirish darajasi yanada ko`tarila boradi.

Quyidagi dars jarayonlarida yuqori samaradorlikka erishish uchun qo`llaniladigan an'anaviy va noan'anaviy metodlardan qanday foydalanish mumkinligi to`g`risida ma'lumot beradi.

O`quvchilarning o`zlashtirish darajasiga o`qitish metodlarining ta'sir darajasi.

1.Ma'ruza eshitganimizning-50%
2.O`qish o`qiganimizning-10%
3.Videousul, namoyish ko`rganimizning-20%
4.Tajribani namoyish qilish, ko`rgan vaeshitganimizning -30%
5.Bahs, munozara, muhokama qilganimizning-40%
6.Mashqlar o`qigan, yozgan, gapirganimizning-50%

Talaba amaliy mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi.

Asosiy tushuncha va iboralar:

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, ta'lim-tarbiya, fan-texnika taraqqiyoti, YUNESKO, metod, noan'anaviy metodlar, o`qituvchi.

Nazorat savollari .

1. Ta'lim modellarining turlari.
2. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim modellari.
3. Ta'lim jarayoni tuzilmasi.

5– amaliy mashg`ulot.

Mavzu: Ma'ruza metodi

Ishning maqsadi: Talabalarga “Ma'ruza” metodi haqida tushuncha berish.

Talaba seminar mashg`uloti davomida quyidagilarni o`rganadi:

Ma'ruza-katta hajmdagi o`quv materialini nisbatan uzoq vaqt davomida monologik bayon etishdir.

Bu metodning asosiy vazifasi- ta'lim berish, o`rgatish.

Belgilari:

- Qatiy tuzilmaga ega:
- Nutqiy-mantiqiy bayon qilish.
- Berilayotgan axborotning ko`pligi.

Talaba amaliy mashg`uloti davomida quyudagilarni o`rganadi:

Ma'vzular o`qituvchilaga o`quvchilar tajribasizligi tufayli etibor bermaydigan fanning muhim lahzalarini ajratib ko`rsatib ko`rsatish imkonini beradi.

O`quvchilar bilan o`qituvchining birgalikdagi ushbu faoliyatini tashkil etishinng **samarali shartlari quyidagilardan iborat:**

-ma'ruzaning batafsil rejasini tuzish;

-ma'ruza rejasini eshittirish;

-rejaning har bir punktini yoritishdan so`ng qisqacha umumiy xulosa qilish;

-ma'ruzaning bir qismidan bshqa qismiga (bo`limiga) o`tishga mantiqiy bog`liqlikni ta'minlash;

-muammoli bayon qilish;

-yozib olish zarur bo`lgan joydlarni ajratish (yozdirish);

-ma'ruzalarni uning alohida xolatlarini batafsil tahlil qilish imkonini beruvchi semenar mashg`ulotlari va amaliy mashg`ulotlar bilan qo`shib olib borish;

Ma'ruza metodidan foydalanganda ma'lumotlar, tushuntirishlar (izohlar) va faktlar ratstional ravishda taqdim etiladi.

Ma'ruza metodining avzalliklari:

-aniq ilmiy bilimlarga tayanadi;

-vaqtdan unumli foydalaniladi;

-o`qituvchi tomonidan o`quv jarayonini to`liq nazorat qilish imkoniyati paydo bo`ladi.

Ma'ruza metodining kamchiliklari:

-o`quvchilar passiv ishtirokchi bo`lib qoladilar;

-o`qituvchi bilan o`quvchilar bevosita muloqotga kirisha olmaydilar;

-katta miqdordagi bilimlarni o`zlashtirish o`quvchilar uchun qiyin kechadi;

-uzoq vaqt davomida diqqat bilan tinglab o`tirish o`quvchilarni tez toliqtiradi;

-eslab qolish darajasi barcha uquvchilarda turlicha bo`lganligi sababli, sinf bo`yicha o`zlashtirish darajasi past bo`lib qolishi mumkin;

Talaba amaliy mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi.

Asosiy tushuncha va iboralar:

Ma'ruza metodi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, ta'lim-tarbiya, fan-texnika taraqqiyoti, o`qituvchi.

Nazorat savollari

1. Ma'ruza metodining asosiy vazifasi nimadan iborat?
2. Ma'ruza metodining qanday avzalliklarini bilasiz?
3. Ma'ruza metodining qanday kamchiliklari bilasiz?

6– amaliy mashg`ulot.

Mavzu: Modulli o`qitish metodi

Ishning maqsadi: Talabalarga modulli o'qitish usuli to`g`risida tushunchalar berish

Talaba amaliy mashg`uloti davomida quyidagilarni o`rganadi:

«**Modulli o'qitish**" termini xalqaro tushuncha — modul bilan bog'liq bo'lib. uning bitta ma'nosi - faoliyat ko'rsata oladigan, o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugunni bildiradi. Bu ma'noda u, modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

Modul fanining fundamental tushunchalari malum hodisa, qonun, bo'lim, ma'lumbir yirik mavzu yoki o'zaro bog'liq tushunchalarguruhini o'z ichiga oiadi.

Modul -bu o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi bo'lib, o'quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga qaratilgandir.

Har bir modul ma'ruza mashg'ulotlari va shu bilan bog'liq boigan amaliy (seminar), laboratoriya mashg'ulotlaridan iborat bo'ladi.

Modulli o'qitishda, o'quv dasturlarini toia, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali o'qitish imkoniyati yaratiladi. Ya'ni, o'qitishm individuallashtirish mumkin bo'ladi.

Modulli o'qitish - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u Talabalaming bilim olish imkoniyatlarini va ijodiy qobiiiyatlarini rivojlantirish tizimiga moslashgandir.

Modulli o 'qitish, kasbiy ta 'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi.

- Modul — faoliyat asosida o'qitish usulmi maqbullashtirish va tizimlash, dasturlarni o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlaydi;
- o'qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbga qiziqtirish asosida, faoliashtirish, mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.

Modulli o'qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o'qituvchilar tarkib darajasi;
- talabalar tayyorgarlik darajasi;
- kutiladigan natijalar ko'rsatkichlari;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga,
- modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o'qitish fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi muammoii va yo'nqli ma'razalar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar talabalaming ijodiy qobiliyatim rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

Modul amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, ma'ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldirishi kerak.

Modulli o'qitishnmg samaradorligini oshirishga erishish uchun quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

- muammoli muloqotlar;
- evnstik suhbatlar;
- o'quv o'yinlari;
- loyihalash va yo'naltiruvchi matnlar va hokazo.

Modulli o'qitishda talabalarni o'z qobiliyatiga ko'ra, bilim olishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Modulli yondashuv o'qituvchi uchun ma'lum darajada darslik funksiyasini bajaruvchi o'quv qo'llanmalar va o'quv materiallarini ishlab chiqishda ham qo'llanishi mumkin. Maxsus fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'quv amaliyotlarini o'tkazishda qo'llaniladigan o'quv materiallari bo'yicha namunaviy modullar 1 va 2-ilovada keltirilgan. Ushbu o'quv materiallarining afzalligi shundaki, modul bo'yicha amalga oshiriladigan har bir faoliyat turi xaritalar ko'rinishida berilib, ular asosan talabaning mustaqil ravishda amaliy ishlarni bajarish, tajribalar o'tkazishga yo'naltirilish imkoniyatini beradi.

Hisobot: Talabalarga modulli o'qitish usuli to`g`risida hisobot tayyorlaydilar.

Talaba amaliy mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi.

Asosiy tushuncha va iboralar:

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, modulli o'qitish usuli, ta'lim-tarbiya, xalqaro tushuncha, metod, o`qituvchi.

Nazorat savollari .

1. Modulli o'qitish usuli nima?
2. Modulli o 'qitish, kasbiy ta 'limning qanday zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi?
3. Modulli o'qitish samaradorligi qanday omillarga bog'liq?
4. Modulli o'qitishning afzalligi nimada?

7– amaliy mashg`ulot.

Mavzu: Dasturlashtirilgan o'qitish metodi

Ishning maqsadi: Talabalarga dasturlashtirilgan o'qitish usuli to`g`risida ma`lumotlar berish

Talaba amaliy mashg`uloti davomida quyidagilarni o`rganadi:

Dasturlashtirilgan o'qitish - bu dasturlashtirilgan o'quv materialimng o'qituvchi (kompyuterlar, elektron darslik , kinotrinajyor va boshqalar) yordamida boshqaradigan o'zlashtirishdir.

Dasturlashtirilgan o'qitish tamoyillarga ajraladi.

- Boshqaravchi tuzilmalarning ma'lum darajasidagi iyerarxiyasi quyidagi mas'uliyatli vaziyatlarda pedagog tizimni boshqaradi: fandan urnumiy yo'nalishni belgilash, fanga munosabat, individual yordam berish va tuzatishlar kiritish;

- pedagog va talabaga zarur bo'lgan tezkor teskari aloqa, biriga o'quv materialni tushunish uchun, ikkinchisi, tuzatishlar kiritish uchun.'

Teskari aloqa ichki va tashqi ko'rinishda amalga oshiriladi. Ichki teskari aloqa — talabaning o'zi tomonidan bajariladigan, o'quv materialining o'zlashtirilishini muttasil tahlil qilib borish. Tashqi teskari aloqa — pedagog yoki boshqaravchi - o'qituvchi qurilma tomonidan o'quv materialining talaba tomonidan o'zlashtirilishini rnuttasil baholab borish.

- O'quv materialini qadamlab beruvchi texnologik jarayon asosida ishlab chiqilgan dasturlar, Bu esa, o'quv materialini dasturda alohida mustaqil, ammo o'zaro uzviy bog'liq qismlar ko'rinishida shakllanishini anglatadi. Qadam o'zaro uzviy bog'liq uchta bo'g'indan iborat: axborot. teskan aloqa elementi va nazorat izchil qadamli o'quv amallari yig'indisi o'qituvchi dasturini — dasturlashtirilgan o'qitish asosini tashkil etadi.
- O'qitishning individualligi turli vaqtda boisa ham, o'quv matenalming to'la o'zlashtirilishi ta'minlanadi. Chunki o'qitish sur'ati. o'quv materialining har bir talaba tomonidan o'zlashtirilishi individualdir.
- **O'qituvchi (o'rgatuvchi) vositalardan foydalanish**. Dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasining xususiyati shundaki, o'quv materiali talabalar tomonidan nazorat topshiriqlarini o'z ichiga olgan, uncha katta bo'lmagan bloklar bo'yicha o'zlashtiriladi.

Dasturlashtirilgan o'qitish jarayonida talabalar juda faol bo'ladilar. Talabalaregallaganbilim, albatta, oldindan tuzilgan dasturning qanchalik darajada to'g'riligiga bog'liq. Dasturlashtirilgan o'qitishning yana bir xususiyati shundaki, u o'qituvchiga juda katta imkoniyatlar ochib beradi, ya'ru o'qituvchi ijodiy ishlarini olib borishi hamda talabalar bilan ko'proq mustaqil ishlashi uchun imkoniyat yaratiladi.

Dasturlashtirilgan o'qitishning asosiy afzalliklaridan biri doimo o'z-o'zini nazorat qilish va talabalarning material ustida ishlash jarayonida ularning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlan ustidan nazorat qilishdir. Talabalar o'z-o'zlarini nazorat qilishlari bajarilgan jarayon natijalarini namuna bilan solishtirib ko'rish orqali amalga oshiriladi; namuna esa dastuming har bir qadamdagi ichki teskan aloqa matenallarida keltiriladi. Tashqi teskari aloqani amalga oshinsh, ya'ni o'qituvchi tomonidan nazorat qilish ancha murakkab ishdir. Nazorat qilishning uzluksizligini ta'minlash maqsadida turli xil nazorat qiluvchi qurilmalar qo'llaniladi.

Nazorat qiluvchi qurilmalar sifatida kompyuter ishlatiladi. Talabalar bilimini tekshirish maqsadida har bir mavzuning, o'quv materialining oxirida o'qituvchi test savollari va ularning to'g'ri javoblan kodini kiritishi kerak. Shuning uchun ham, talaba o'qituvchining ishtirokisiz obyektiv ravishda o'z-o'zini nazorat qila olmaydi,chunki u savolning to'g'ri javobi kodini qurilmaga kiritish uchun bu javobni oldindan bilishi kerak.

Talaba amaliy mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi.

Asosiy tushuncha va iboralar:

Dasturlashtirilgan o'qitish, dasturlashtirilgan o'qitish tamoyillari**,** zamonaviy ta'lim texnologiyalari, metod, kompyuter, o`qituvchi.

Nazorat savollari .

1. Dasturlashtirilgan o'qitish usuli nima?
2. Dasturlashtirilgan o'qitish tamoyillariga nimalar kiradi
3. Dasturlashtirilgan o'qitish samaradorligi qanday omillarga bog'liq?

8– amaliy mashg`ulot.

Mavzu:Motivatsiya(qiziqtirish) metodi

Ishning maqsadi: Talabalarga motivatsiya (qiziqtirish) usulito`g`risida ma`lumotlar berish

Talaba amaliy mashg`uloti davomida quyidagilarni o`rganadi:

Motivatsiya (**qiziqtirish) usulida** dars qiziqarli, hattoki, darsga taalluqli bo'lmagan mavzular to'g'risidagi suhbat bilan boshlanadi.

lloji bo'lsa suhbatm darsga bog'liq mavzular yuzasidan boshlash kerak. Masalan, qiziqarli kashfiyot, yangilik yoki hikoyat tanlanishi mumkin. Bularning barchasi birinchi dars mobaynida talabalarning kayfiyati ko'tanlib. shu sohaga qiziqishiga yoki keying! darslarda o'rganadigan faniga e'tiborini qaratishiga yordam beradi.

Agar dars yangi talabalar guruhida o'tilayotgan bo'lsa, o'qituvchi ularga o'zim tanishtirib yo'qlama orqali talabalarga ham o'zlarini tanishtirish imkonim beradi. Bu talabalarda o'qituvchiga nisbatan hurmat uyg'otadi. Ta'riflangan va tanlangan o'qitish fanlarini va modullari asosida nazariy fan maqsadini bayon etib, motivatsiya va muayyan mavzuga kiriladi. Intrinli (ichki) va ekstrinli (tashqi) motivatsiya uchun sabab va argumentlar topishga harakat qilish lozim. Motivatsiya bilan o'qish va o'rganishga bo'lgan tayyorlik uchun shart-sharoit yaratiladi. So'ngra o'qituvchi talabalarga maxsus sohabo'yicha yangi materialm tushuntiradi, qisqa ma'ruzalar o'qiydi, munozaralar uyushtiradi, o'quv suhbatlari, o'yin mashg'ulotlan va muammolarni hal qilish haqida suhbatlar o'tkazadi. Keyingi darslarda yangi mavzuni boshlashdan awal o'tilgan darslar qisqacha, umumlashtirilgan holda qaytarilishi kerak.

Talabalarga mavzularga mos tarqatma matenallar berilishi lozim. Bu o'quv jarayonmi yengillashtiradi. Mavzum boshlamasdan, tarqatma materiallar tarqatilmaydi. Ularni mavzuga monand ravishda birin-ketin tarqatish, o'qib chiqish uchun yetarli daqiqalar berish va talabalar e'tiborini axborotga qaratish uchun ovoz chiqarib o'qitish maqsadga muvofiq.

Talabalarga fikr yuritish va mavzuni qaytarish imkoniyatini beruvchi topshinqlar berish o'zlashtirilgan bilimlarni faol ravishda qayta ishlab borish uchun zarur. Ular bilimlarni qabul qilishning nisbiy passiv fazasidan so'ng faol faza kelishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Guruhlarda ishlash yoki mustaqil ravishda topshiriqlarni yechish va natijalarni taqdim etish samarali o'qitish usullari hisoblanadi.

Har bir topshiriq yoki mashqdan keyin talabalar o'zlari bajargan ishlarni baholashlan lozim. Boshqacha bir imkoniyat guruhlarda natijalarni ochiq-oydin va

samimiy muhokama qilishdir. O'quv fani yakunida suhbat mustaqil, ammo o'zaro uzviy bog'Iiq qismlar ko'rinishida shakllanishini anglatadi. Qadam o'zaro uzviy bog'Iiq uchta bo'g'indan iborat: axborot. teskari aloqa dementi va nazorat izchil qadamli o'quv amallari yig'indisi o'qituvchi dasturini — dasturlashtirilgan o'qitish asosini tashkil etadi.

- **O'qitishning individualligi turli** vaqtda boisa ham, o'quv matenalining to'la o'zlashtirilishi ta'minlanadi. Chunki o'qitish sur'ati, o'quv matenalining har bir talaba tomonidan o'zlashtirilishi individualdir.
- **O'qituvchi (o'rgatuvchi) vositalardan foydalanish**. Dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasining xususiyati shundaki, o'quv materiali talabalar tomonidan nazorat topshiriqlarini o'z ichiga olgan, uncha katta bo'lmagan bloklar bo'yicha o'zlashtiriladi.

Dasturlashtirilgan o'qitish jarayonida talabalar juda faol bo'ladilar. Talabalar egallagan bilim, albatta, oldindan tuzilgan dasturning qanchalik darajada to'g'riligiga bog'Iiq. Dasturlashtirilgan o'qitishning yana bir xususiyati shundaki, u o'qituvchiga juda katta imkoniyatlar ochib beradi, ya'ni o'qituvchi ijodiy ishlarini olib borishi hamda talabalar bilan ko'proq mustaqil ishlashi uchun imkoniyat yaratiladi.

Dasturlashtirilgan o'qitishning asosiy afzalliklaridan biri doimo o'z-o'zini nazorat qilish va talabalarning material ustida ishlash jarayonida ularning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari ustidan nazorat qilishdir. Talabalar o'z-o'zlarini nazorat qilishlari bajarilgan jarayon natijalarini namuna bilan solishtirib ko'rish orqali amalga oshiriladi; namuna esa dasturning har bir qadamdagi ichki teskan aloqa matenallarida keltiriladi. Tashqi teskari aloqani amalga oshirish, ya'ni o'qituvchi tomonidan nazorat qilish ancha murakkab ishdir. Nazorat qilishning uzluksizligini ta'minlash maqsadida turli xil nazorat qiluvchi qurilmalar qoilaniladi.

Nazorat qiluvchi qurilmalar sifatida kompyuter ishlatiladi. Talabalar bilimini tekshirish maqsadida har bir mavzuning, o'quv materialining oxirida o'qituvchi test savollari va ularning to'g'ri javoblan kodini kiritishi kerak. Shuning uchun ham, talaba o'qituvchining ishtirokisiz obyektiv ravishda o'z-o'zini nazorat qila olmaydi,chunki u savolning to'g'ri javobi kodini qurilmaga kiritish uchun bu javobni oldindan bilishi kerak.

Talaba amaliy mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi.

Asosiy tushuncha va iboralar:

Motivatsiya (qiziqtirish) usulida, dars zamonaviy ta'lim texnologiyalari, metod, kompyuter, o`qituvchi.

Nazorat savollari .

1. Motivatsiya (qiziqtirish) usuli nima?
2. Muammoli o'qitish usulining mohiyatini tushuntiring.
3. Motivatsiya (qiziqtirish) usuli samaradorligi qanday omillarga bog'liq?
4. . Motivatsiya (qiziqtirish) usulining afzalligi nimada?

9– amaliy mashg`ulot.

Mavzu: Aqliy hujum metodi

Ishning maqsadi: “Aqliy hujum” metodi haqida o`qituvchilarning bilim va ko`nikmalarni shakllantirish.

Talaba amaliy mashg`uloti davomida quyudagilarni o`rganadi:

Kutilayotgan natija: “Aqliy hujum” metodini dars jarayonida ko`llay oladi. Aqliy hujum-g`oyalarning generastiya (ishlab chiqish) qilish metodidir.

“Aqliy xujum” metodi biror muammoni echishda o`quvchilar tomonidan bildirilgin erkin fikr va mulohazalarni to`plab, ular orqali ma'lum echimga kelinadigan eng samarali metoddir. Aqliy hujum metodining yo zma va og`izaki shakllari mavjud. Og`zaki shaklida o`qituvchi tomonidan berilgan savolga o`quvchilarning har-biri o`z fikrini og`izaki bildiradi. O`quvchilar o`z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar.Yozma shaklida esa berilgan savolga o`quvchilar o`z javoblarini qog`oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko`rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki penbord doskasiga ignalar yordamida mahkamlanadi. “Aqliy xujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo`yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to`g`ri va ijobiy qo`llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o`rgatadi.

**Aqliy hujum metodidan foydalanilganda o`quvchilarning** barchasini jalb etish imkoniyati bo`ladi, shu jumladan o`quvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. O`quvchilar o`z fikrini faqat og`zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko`nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi o`quvchilarda turli g`oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod o`quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi o`qituvchi tomonidan qo`yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1.o`quvchilarning boshlang`ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo`yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2.Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog`lash maqsad qilib qo`yilganda-yangi mavzuga o`tish qismida amalga oshiriladi.

3.O`tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo`yilganda-mavzudan so`ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

Aqliy hujum” metodining tuzilmasi



“Aqliy hujum” metodining bosqichlari:

1.o`quvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo`yicha o`z javoblarini (fikr, mulohaza)-bildirilishlarini so`raladi;
2.o`quvchilar savol bo`yicha o`z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3.o`quvchilarning fikr g`oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog`ozlarga yoki doskaga) to`planadi;
4.fikr-g`oyalar ma'lum belgilar bo`yicha guruhlanadi;
5.yuqorida qo`yilgan savolga aniq va to`g`ri javob tanlab olinadi.
“Aqliy hujum” metodining qo`llashdagi asosiy qoidalar:
1.Bildirilgan fikr-g`oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2.Bildirilgan har qanday fikr-g`oyalar, ular hatto to`g`ri bo`lmasa ham inobatga olinadi.
3.Bildirilgan fikr g`oyalarni to`ldirish va yanada kengaytirish mumkin.

“**Aqliy hujum” metodining avzalliklari:**

- Natijalar baholanmasligi o`quvchilarni turli fikr-g`oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- O`quvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- Fikr-g`oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- O`quvchilarning boshlang`ich bilimlarini tekshirib ko`rish imkoniyati mavjud;
- O`quvchilarda mavzuga qiziqish uyg`otish mumkin.

“Aqliy hujum” metodining kamchilik tomonlari:

- O`qituvchi tomonida savolni to`g`ri qo`ya olmaslik;
- O`quvchidan yuqori darajada eshitish qobilyatining talab etilishi.

Talaba amaliy mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi.

Asosiy tushuncha va iboralar:

Aqliy hujum metodi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, metod, kompyuter, o`qituvchi.

Nazorat savollari.

1. «Aqliy hujum» metodi nima.
2. «Aqliy hujum » metodidan kutilayotgan natija
3. «Aqliy hujum» metodining bosqichlari.
4. «Aqliy hujum» metodining avzallik va kamchiliklar

10– amaliy mashg`ulot.

Mavzu: To`rt pog`onali metodi

Ishning maqsadi: Talabalarga “To`rt pog`onali” metodi to`g`risida ma`lumotlar berish.

Talaba amaliy mashg`uloti davomida quyudagilarni o`rganadi:

To`rt pog`onali metod-amaliy ko`nikmalarni o`zlashtirish jarayonining to`rt pog`ona doirasida kechadigan metoddir.

**Bu metod o`quvchilarga bir hilda takrorlanadigan** qo`l ko`nikmalarini tez va mukammal o`rganib olishlariga yordam beradi. To`rt pog`onali metod qo`llanilganda, o`quvchilar iloji boricha oddiy operastiyalar bilan tanishtiriladi, so`ng uni takrorlaydilar to mukammal o`zlashtirmaguncha mashq qiladilar.

Ushbu metod quyidagi bosqichlardan iborat:

-tushuntirish;
-nima qilish kerakligini ko`rsatib berish;
-ko`rsatilgan tarzda qaytarish;
-mashq qilish;

To`rt pog`onali metodning asosiy belgisi- o`quvchilarning o`qituvchi ko`rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanganligidadir.

“**To`rt pog`onali” metodning afzalliklari:**

-o`quvchilarda amaliy ko`nikmalarda shakllantirishda yordam beradi;
-vaqtdan unumli foydalanish imkoniyati mavjud;
-oddiy ish bosqichlarini o`zlashtirish darajasi yuqori bo`ladi.

“**To`rt pog`onali ” metodning kamchiliklari.**

-o`quvchilarning harakatlari o`qituvchi ko`rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanib qoladi;
-o`quvchilar yakka tartibda o`rganishga yo`naltiriladilar, lekin mustaqil fikrlash imkoniyati chegaralangan bo`ladi;
-ish bosqichlarini amalga oshirishda hech qanday yangicha yondashuvlvrgv yo`l qo`yilmaydi.

Talaba amaliy mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi.

Asosiy tushuncha va iboralar:

To`rt pog`onali metod, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, kompyuter, o`qituvchi.

Nazorat savollari.

1. To`rt pog`onali metodning asosiy belgisi qanday amalga oshiriladi.

2. “To`rt pog`onali ” metodda o`quvchilar qanday operastiyalarni amalga oshiradilar.
3. “To`rt pog`onali” metodning afzalliklari va kamchiliklari.

11– amaliy mashg`ulot.

Mavzu: Kichik guruhlarda ishlash metodi

Ishning maqsadi: Talabalarni kichik guruhlarga ajratib, berilgan topshiriqning yechish yo`llarini ishlab chiqishni ularga o`rgatish.

Talaba amaliy mashg`uloti davomida quyidagilarni o`rganadi:

Kichik guruhlarda ishlash o`qituvchi tomonidan berilgan ma'lum bir topshiriqning hamkorlikda bajarish uchun o`quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, berilgan topshiriqning echish yo`llarini, ishlab chiqishni taqozo etuvchi metoddir.

Ushbu metod qo`llanilganda o`quvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo`lishga, bir-biridan o`rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo`ladi.

Kichik guruhlarda ishlash metodi qo`llanilganda o`qituvchi boshqa noan'anaviy metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo`ladi. Chunki o`qituvchi bir vaqtning o`zida barcha o`quvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining afzalligi:

-o`qitish mazmunini yaxshi o`zlashtirishga olib keladi;
-muloqotga kirishish ko`nikmasining takomillashishiga olib keladi;
-vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
-barcha o`quvchilar jalb etiladi;
-o`z-o`zini va guruhlar aro baholash imkoniyati mavjud bo`ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining kamchiliklari.

-kuchsiz o`quvchilar bo`lganligi sababli kuchli o`quvchilarni ham past baho olish ehtimoli bor;
-barcha o`quvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo`ladi;
-guruhlar aro o`zaro salbiy raqobatlar paydo bo`lib qolishi mumkin;
-guruh ichida o`zaro nizo paydo bo`lishi mumkin.

Talaba amaliy mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi.

Asosiy tushuncha va iboralar:

Kichik guruhlarda ishlash metodi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, kompyuter, o`qituvchi

Nazorat savollari.

1. Kichik guruxlarda ishlash metodida o`quvchi qanday imkoniyatlarga ega bo`ladi.
2. “Kichik guruhlarda ishlash” metodining afzalligi va kamchiligi
3. Talabalarni kichik guruxlarda ishlash metodiga o`rgatish qanday amalga oshiriladi

12– amaliy mashg`ulot.

Mavzu: Bahs-munozara metodi

Ishning maqsadi: Talabalarni biror mavzu bo`yicha o`zaro bahs, fikr almashinuvga o`rgatish.

Talaba seminar mashg`uloti davomida quyudagilarni o`rganadi:

Bahs-munozara- o`quvchilarni ikki guruhga bo`lgan holda, biror mavzu bo`yicha o`zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o`tkaziladigan o`qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda Ushbu metodd qo`llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini o`quvchilarning biriga topshirish mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib bori shva har bir o`quvchilarni har-bir o`quvchilarni munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda o`quvchilar orasida paydo bo`ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:

-o`quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;

-o`quvchilar o`z fikrining to`g`riligini isbotlashga harakat qiladi;

-o`quvchilarda eshitish qobilyatining rivojlanishiga yordam beradi;

“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:

-o`qituvchidan boshqarish mahoratini talab etadi;

-o`quvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo`lgan mavzu tanlash talab etiladi;

Talaba amaliy mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi.

Asosiy tushuncha va iboralar:

Bahs-munozara metodi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, kompyuter, o`qituvchi

Nazorat sovollari.

1.Baxs-munozara metodining ta'lim tizimiga ta'siri.

2. Bahs-munozara” metodining afzalliklarini ayting..

3. “Bahs-munozara” metodining kamchiligini ayting.

13– amaliy mashg`ulot.

Mavzu:Ishbop o`yin metodi

Ishning maqsadi: Talabalarni har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitastiya qilish (taqlid, aks ettirish) ga o`rgatish.

Talaba amaliy mashg`uloti davomida quyidagilarni o`rganadi:

**Ishbop o`yin** metodi berilgan topshiriqlarga ko`ra yoki o`yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitastiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hasoblanadi.

O`yin faoliyati Biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitastiya qilish orqali beriladi.

Bir tomondan o`yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraqil natijalarga ko`ra ishtirokchilar o`z faoliyatlarini o`zgartirish imkoniyatiga ham ega bo`ladilar. Ishbop o`yinda rolla va rollarning maqsadi aralashgan holda bo`ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qa'iy belgilangan va o`yin davomida o`zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o`z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop o`yinda har bir ishtirokchi alohida roli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni indivudial-gurug`li xarakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o`zining vazifasi bo`yicha qaror qabul qiladi, so`ngra guruh bilan maslahatlashadi. Ushbu shaxsiy varaqa bo`yicha maqsadga erishish butun guruh a'zolari erishgan natijalarga bog`liqdir. O`yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

“Ishbop o`yin” metodining afzalliklari:

- O`quvchilarning bilimlarini va tajribalarini o`z qarashlari va xulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi.
- O`quvchining boshlang`ich bilimlari va tajribalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi.
- O`quvchilar o`z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratiladi.

“Ishbop o`yin” metodining kamchiliklari:

- O`qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi
- Vaqt ko`p sarflanadi
- Tanlangan mavzu o`quvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi
- O`quvchining his hayajoni to`g`ri qaror qabul qilishga xalaqit berishi mumkin.

Talaba seminar mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi.

Asosiy tushuncha va iboralar:

Ishbop o`yin metodi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, kompyuter, o`qituvchi

Nazorat savollari.

1. Imitastiya qilish nima.
2. “Ishbop o`yin” metodining afzalliklarini ayting.
3. “Ishbop o`yin” metodining kamchiliklarini ayting.

14– amaliy mashg`ulot.

Mavzu:Loyihalash metodi

Ishning maqsadi: Talabalarni individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida belgilangan mavzu bo`yicha axborot yig`ish, tadqiqod o`tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishga o`rgatish.

Talaba amaliy mashg`uloti davomida quyidagilarni o`rganadi:

“Loyihalash” metodi - bu o`quvchilarni individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida belgilangan mavzu bo`yicha axborot yig`ish, tadqiqod o`tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishdir. Bu metodda o`quvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish

natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo`lishi mumkin, lekin har bir loyiha o`quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda o`quvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida Yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning echimini topishdpn iborat. O`quvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo`lishida u o`quvchilardan mavjud bilimlarni boshqa vaziyatlarda qo`llay olishini talab qiladigan topshiriq bo`lishi kerak. Loyiha o`rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, o`quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amlga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo`lishi kerak.

O`qituvchi loyihalash metodini qo`llash uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi; loyiha ishini dars rejasiga kiritishi; topshiriqni o`quvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi Bilan tanishtirish; loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlashi lozim.

Loyihalash metodini nazariy bilimlarni berishda hamda o`quv amaliyoti darslarini o`tkazishda foydalanish mumkin.

“Loyihalash” metodining avzallik tomonlari:

- O`quvchilarning mustaqil fikrlash qobilyatlarini oshishiga yordam beradi;
- Mustaqil o`rganishning eng faol yo`li;
- O`quvchilarda hamkorlikda ishlash ko`nikmasi shakllanadi;

“Loyihalash” metodining kamchiliklari:

- Ko`p vaqt talab qiladi;
- Tanlangan mavzu o`quvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi;

Talaba amaliy mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi.

Asosiy tushuncha va iboralar:

Loyixalash metodi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, kompyuter, o`qituvchi

Nazorat savollari.

1. Loyixalash metodida talabalar nimalarga amal qiladilar.
2. O`quvchilar loyixalash metodini bajarishda qanday jarayonlarda ishtiriok etishadilar?.

15– amaliy mashg`ulot.

Mavzu:Yo`naltiruvchi matn metodi

Ishning maqsadi: Talabalarni mustaqil ravishda yo`naltiruvchi savollar yordamida ma'lumot yig`ish, rejalashtirish, amalga oshirish vazifalarni bajarishga o`rgatish.

Talaba amaliy **mashg`uloti davomida quyidagilarni o`rganadi:**

“**Yo`naltiruvchi matn**” metodi loyihalash metodi bilan chambarchas bog`liqdir. **Ushbu ikki metodni bir-biridan quyidagi nuqtai-nazar bo`yicha farqlash mumkin:**

- “Yo`naltiruvchi matn” metodi o`quvchilarning mustaqil o`rganishiga qaratilgan;

- “Loyihalash” metodi esa o`quvchilarning mustaqil o`rganishidan tashqari, e'tiborni kasb o`rganishda kerak bo`ladigan shaxsiy qobilyatlar va ko`nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan.

“Yo`naltiruvchi matn” metodidan o`quv amaliyoti darslaridan foydalaniladi. Ushbu metodni o`tkazish bosqichlari loyihalash metodining bosqichlari Bilan bir hildir. Ma'lumot yig`ish, rejalashtirish, amalga oshirish va tekshirish bosqichlarida o`quvchi mustaqil ishlaydilar. Qaror qabul qilish va xulosa qilish bosqichlarida o`quvchi va o`qituvchi orasida “Qaytar aloqa” o`rnatilib, birgalikda muhokama qiladilar. O`quvchilarga boshlang`ich bosqichlarda o`qituvchi tomonidan tuzilgan yozma hujjatlar beriladi. Bunda hujjatlarga texnik chizmalar, jadvallar, yo`naltiruvchi savollar, tarqatma materiallar, topshiriqlar varaqasi, baholash varaqasi va boshqalar kiradi.

“Yo`naltiruvchi matn” metodining avzalliklari:

- o`quvchilarning ko`nikma va malakalarining shakllanishiga olib keladi;
- o`quvchilarning mustaqil o`rganish ko`nikmalarini shakllantiradi;
- o`quvchilarda muloqat qilish, o`z natijalarini o`zi tekshirish ko`nikmalarini rivojlantiradi;
- o`quvchilarda ish harakatlarni rejalashtirish, mustaqil qaror qabul qilish kabi ko`nikmalarni rivojlantiradi.

“Yo`naltiruvchi matn” metodining kamchiliklari:

- ko`p vaqt talab qiladi;

tanlangan mavzu o`quvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi;

- o`qituvchidan kata tayyorgarlik ko`rish talab etiladi.

Talaba amaliy **mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi.**

Asosiy tushuncha va iboralar:

Yo`naltiruvchi matn metodi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, kompyuter, o`qituvchi

Nazorat savollari.

1. Yo`naltiruvchi matn usulini bajarishda o`quvchilar qanday vazifalarni bajaradilar?
2. Yo`naltiruvchi matn usuli qanday maqsadlarga qaratilgan?
3. Yo`naltiruvchi matn usulining avzallik va kamchiliklarini ayting

16– amaliy mashg`ulot.

Mavzu: Muammoli vaziyat metodi

Ishning maqsadi: Talabalarni muomala vaziyatlarni tahlil qilish va ularning echimini topishga o`rgatish.

Talaba amaliy **mashg`uloti davomida quyidagilarni o`rganadi:**

Muammoli vaziyat-o`quvchilarga muammola vaziyatlarni tahlil qilish va ularning echimini topishga asoslangan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan topshiriqning murakkabligi o`quvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo`yilgan muammoning echimini topishga qodir bo`lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, o`zlariga bo`lgan ishonchlarining yo`qolishiga olib keladi.

“Muammoli vaziyat” metodining avzalliklari:

- o`quvchilarda mustaqil fikrlash qobilyatlarini shakllantiradi;
- o`quvchilar sabab, farq va ta'sirlarni topishni o`rganadilar;
- o`quvchilarning bilim va tajribalarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- o`quvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o`rganadilar.

“**Muammola vaziyat” metodining kamchiliklari;**

- o`quvchilarda yuqori motivastiya talab etiladi;
- qo`yilgan muammo o`quvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak.
- Ko`p vaqt talab etiladi.

Talaba amaliy **mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi.**

Asosiy tushuncha va iboralar:

Muammoli vaziyat metodi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, kompyuter, o`qituvchi

Nazorat savollari.

1. Muammoli vaziyat usuli nimalarga asoslangan?
2. Muammoli vaziyat usulida qanday muammolar qo`yilishi kerak?
3. Muammoli vaziyat usulining avzallik va kamchiliklari nimalardan iborat?

17– amaliy mashg`ulot.

Mavzu: Rolli o`yin metodi

Ishning maqsadi: “Rolli o`yin” metodi haqida o`qituvchilarda bilim va ko`nikmalarni shakllantirish.

Talaba amaliy **mashg`uloti davomida quyidagilarni o`rganadi:**

**Rolli o`yin-**o`quvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xal shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko`rsatib beruvchi metoddir.

Kutilayotgan natija: “Rolli o`yin” metodini dars jarayonida qo`llay oladi.

Rolli o`yinlarning ishbop o`yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir.

Rolli o`yinda ham ishbop o`yin kabi muammoni echish bo`yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo`lga qo`yilgan. Rolli o`yinlar o`quvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o`yin ” metodining tarkibiy tuzilmasi.

“Rolli o`yin ” metodining bosqichlari:

1.O`qituvchi mavzu bo`yicha o`yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda roli o`yin sstenariysini ishlab chiqadi.

2.O`yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.

3.O`yinning maqsadidan kelib chiqib rollarni taqsimlaydi.

4.O`quvchilar o`z rollarini ijro etadilar. Boshqa o`quvchilar ularni kuzatib turadilar.

5.O`yin yakunida o`quvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo`lgan o`quvchilar o`z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o`yinga xulosa qilinadi.

**“Rolli o`yin**” metodida o`qituvchi o`quvchilar haqida oldindan ma'lumotga ega bo`lishi lozim. Chunki rollarni o`ynashda har bir o`quvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular o`quvchilarning o`zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak.

“**Rolli o`yin” metodining afzallik tomonlari:**

- O`quv jarayonida o`quvchilarda motivastiya (qiziqish) ni shakllantirishga yordam beradi;
- O`quvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- Nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llay olishni o`zgatadi;
- O`quvchilarga berilgan vazifani tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Rolli o`yin” metodining kamchilik tomonlari:

- Ko`p vaqt talab etiladi;
- O`qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- O`quvchilarning o`yinga tayyorgarligi turlicha bo`lishi mumkin;
- Barcha o`quvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.

Talaba amaliy **mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi**

Asosiy tushuncha va iboralar:

Rolli o`yin metodi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, kompyuter, o`qituvchi

Nazorat savollari.

1. «Rolli o`yin» metodining tarkibiy tuzilmasi nima?
2. «Rolli o`yin» metodidan qanday natija kutiladi?
3. «Rolli o`yin» metodining qanday bosqichlarini bilasiz?
4. «Rolli o`yin» metodining qanday avzallik va kamchiliklarini bilasiz?

18– amaliy mashg`ulot.

Mavzu: Davra suhbati metodi

<u>Ishning maqsadi:</u> Talabalarni kichik guruhlarda aylana stol atrofida o`z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan “Davra suhbati”ga o`rgatish.

Talaba amaliy **mashg`uloti davomida quyidagilarni o`rganadi:**

Davra suhbati-o`quvchilar o`rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o`z fikr mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o`qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo`llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir o`quvchining bir biri bilan “ko`z aloqasi”ni o`rnatib turishga yordam beradi. Davra suhbatining og`zaki va yozma shakllari mavjud. Og`zaki davra suhbatida o`qituvchi mavzuni boshlab beradi va zquvchilardan ushbu mavzu bo`yicha o`z-fikr mulohazalarini bildirishini so`raydi va aylana bo`ylab har bir o`quvchi o`z fikr mulohazalarini og`zaki bayon etadilar.

So`zlayotgan o`quvini barcha diqqat Bilan tinglaydi, barcha fikr mulohazalar tinglanib bo`lingandan so`ng muhokama qilinadi. Bu esa o`quvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklda joylashtirilib, har bir o`quvchiga kanvert qog`ozi beriladi. Har bir o`quvchi kanvert ustiga ma'lum bir mavzu bo`yicha o`z savolini beradi va yonidagi o`quvchiga uzatadi. Kanvertni olgan o`quvchi o`z javobini qog`ozga yozib kanvert ichiga solib qo`yadi va yonidagi o`quvchiga uzatadi. Barcha kanvertlar aylana bo`ylab harakatlanadi. Yakuniy qismida barcha kanvertlar yig`ib olinib, tahlil qilinadi.

“Davra suhbati” metodining afzalliklari:

-o`tilgan materialni yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
-barcha o`quvchilar o`zaro muloqotda bo`ladilar;
-har bir o`quvchi o`zining ishtirok etish mas'uliyatini his etadi;
-o`z fikrini erkin ifoda etish imkoniyati mavjud bo`ladi.

“Davra suhbati” metodining kamchiliklari;

-ko`p vaqt talab etiladi;
-o`qituvchining o`zi ham rivojlangan fikrlash qobilyatiga ega bo`lishi talab etiladi;
-o`quvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo`lgan mavzu tanlash talab etiladi.

Talaba amaliy **mashg`uloti bo`yicha hisobot tayyorlaydi va uni o`qituvchiga taqdim etadi.**

Asosiy tushuncha va iboralar:

Davra Suhbati metodi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, kompyuter, o`qituvchi

Nazorat savollari.

1. Davra Suhbati metodining asosiy talabi nimadan iborat.
2. “Davra suhbati” metodining afzalliklari.
3. “Davra suhbati” metodining kamchiliklari.

SEMINAR MASHG`ULOTLARINING MAZMUNI

So`z boshi

Respublikamiz hukumati va Prezidenti olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishga, ayniqsa, yosh avlodni milliy tiklanish mafkurasi ruhida tarbiyalashga juda katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda ta'lim olayotgan yoshlar Respublikamizning kelajagidir. Bu sharafli vazifani bajarish o`qituvchilar zimmasiga tushadi. Shu sababli yo`qsak malakali o`qituvchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Prizdentimiz o`zining «Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati» nomli risolasida shunday deb takidlaydi: «Tarbiyachi ustoz bo`lishi uchun boshqalarning aql-idrokini o`stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib etishtirish uchun, avvalo tarbiyachilarning o`zi ana shunday talablarga javob berishi, ana shunday fazilatlarga ega bo`lishi kerak».

Bu tezis, o`z navbatida, o`qituvchi-tarbiyachilarning yo`qsak kasbiy va shaxsiy fazilatlar egasi bo`lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham, o`qituvchi oldiga qo`yilgan vazifalar o`ta murakkab, ma'suliyatli va ayni paytda sharflidir.

Rivojlangan davlatlar safidan o`rin olishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan Respublikamiz, xalq xo`jaligining barcha tarmoqlari kabi ta'lim sohasida ham ilg`or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali ta'lim mazmunini jahon andozalari darajasiga olib chiqishga harakat qilmoqda.

Hozirgi paytda oily ta'lim muassasalarida va kasb-hunar kollejlarida yangi pedagogic va axborot texnologiyalarini qo`llash va zamonaviy o`quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqish muammolariga qaratilgan bir necha diqqatga sazavor ishlar amalgam oshirilmoqda. Shuningdek, ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida xorijiy mamlakatlarning kasbiy ta'lim tajribalaridan foydalanilmoqda. Ushbu ishlarni amalgam oshirish ta;lim sohasida xalqimizning boy merosi, buyo`q mutafakkirimizning g`oyalari va davrimizning ilg`or yangiliklarini o`zida mujassamlashtirgan metodik tizimning yaratilishiga asos bo`lmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko`zda tutilgan asosiy vazifalardan biri ta'lim tizimini zamonaviy o`quv adabiyotlari va yangi pedagogik texnologiyalar bilan ta'mmlashdan iboratdir.

O`qitish jarayonining vazifasi ta'lim, tarbiya va rivojlanish birligini ta'minlashni nazarda tutadi. Biroq kasbiy ta'lim yo'nalishlari bo`yicha pedagog kadrlar tayyorlashda ta'lim oluvchilarning qobiliyati. ong va ko`nikmalarini o`stirish, ilmry-amaliy bilimlarini chuqurlashtirish muammosi bundan ham muhimroq. Bu xususiyatlar kelajakda ta'lim oluvchilar qobiliyatini nvojlantirishga, o`z kasblariga qiziqish va mas'uliyatni oshishiga yordam beradi. O`qitish jarayomda ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish muammosi murakkab va ko`p qirrali. Shuning uchun ta'lim oluvchilarning ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarini oshirishda ularning kasbga bo`lgan qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o`rinda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ayniqsa, kasb-hunar kollejlarida o`qitish jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish va ularning amaliy ko`nikma, malakalarini shakllantirish uchun ta'lim jarayoniga yuqori darajali malakaga ega bo`lgan pedagoglar hamda qobiliyatli va mohir mutaxassislarni jalb qilish, ularni ham ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyasi va ularning ishlash tamoyillari bilan tanishtirish zarur. Shunda biz ishlab chiqarishga malakali mutaxassisni etkazib bera olgan bo`lamiz.

Kasb-hunar kollejlarining yo`nalishi va ixtisoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ta'lim tizimi ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy bog`lanishi lozim. Buning uchun kasbiy ta'lim o`qituvchilari maxsus fanlarni o`qitish uslubiyatini, kasbiy-pedagogik mahorati va amaliy ko`nikmalarini oshirib borishlan talab qilinadi. Hozirgi kunda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturidan va jahon andozalariga moslashish ehtiyojidan kelib chiqqan holda kasbiy ta'lim o`qituvchi — kadrlarning asosiy qismi yangi texnika va texnologiyani chuqur bilishi hamda tahlil qila olishi, yangilik yaratish darajasiga ega bo`lishi juda muhim. Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va faol ta'lim omillaridan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tatbiq

qilish, talabalarni ko`proq mustaqil ishlashga undash, ilg`or tajribalardan saboq berishning turli yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yana bir muhim jihati, kasb-hunar kollejlarida ta'lim olayotgan talabalarning kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko`nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo`yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallashlari uchun maxsus fanlarni o`qitishni samarali tashkil qilish, ushbu jarayonni yangi darsliklar, o`quv qoilanmalari bilan ta'minlash lozim.

Seminar mashg'ulotida kasbiy ta'lim metodologik asoslari va ilmiy tadqiqot metodlari ko`rsatiladi. Kasb ta'limi tamoyillari va o`qitishning turli metodlari batafsil keltiriladi. Kasbiy ta'limjarayonini tashkil etish, o`tkazish va bilim, ko`nikma hamda malakalarni baholash, kasb-hunar kollejlarida o`quv va ishlab chiqarish amaliyotini o`tkazish bayon etiladi.

Seminar mashg'ulotimning yana bir xususiyati, kasb-hunar kolleji o`qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyatini tashkil etishi va pedagogik mahorati bo`yicha tavsiyalar beradi.

1– seminar mashg`ulot.

Mavzu: Kasb-hunar kollejlarining o‘quv-meyoriy hujjatlari bilan tanishish va ularni tahlil qilish

Ishning maqsadi: Talabalarni kasb-hunar kollejlarining o‘quv-meyoriy hujatlari bilan tanishtirish va ularni tahlil qilishni o`rgatish.

Ishning mazmuni: Davlat ta’lim standartlariga (DTS) qo‘yiladigan umumiy talablar;

Kasb-hunar ta’limi mazmuni sifatiga qo‘yiladigan talablar;

O‘quv rejalariga qo‘yiladigan talablar o‘quv rejasidagi fanlarning bloklar bo‘yicha taqsimoti, fanlar, ularning ketma-ketligi, haftalik akadem soatlar miqdori amaliyotlar uchun soatlar miqdorining kurslar bo‘yicha taqsimoti tahlili;

Kasb hunar kollejlari mutaxassislik bo‘yicha fanlari, o‘quv dasturlar mazmuni bilan tanishib chiqish;

Istiqbolli, mavzuli reja tuzish;

Kalendar mavzuli reja mazmuni va uni tuzish bilan tanishish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: «Sharq», 1997.
2. G`ulomov S. Kuch-bilim va tafakkurda «O`AJBNT Markazi ,2002.-285 b.
3. Mirsaidov K. «Maxsus fanlarni o`qitish va ishlab chiqarish ta'limi». T.: «O`qituvchi», 1996.
4. Mirsaidov K, Xidirov O`, Choriev R. «Ishlab chiqarish ta'limi». T,O`qituvchi», 2002.
5. Olimov Q.T., Uzoqova L.P., Halimov E.Z., Rustamov R.M., Ashurova S.Y. Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi. T.: «Fan», 2004, -120 b.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. A.Xoliqov Pedagogik mahorat. Toshkent, “Tafakkur bo`stoni”, 2011 y

2. Q.Olimov va boshqalar. Kasb ta`lim uslubiyati'' IQTISOD-MOLIYa''2006.-160b.
3. P.M.Po`latova Maxsus pedogogika. T.:G`afur G`ulom, 2005.-223 b.
4. O`.M.Asqarova va boshqalar. Pedogogika. T.''TALQIN'' , 2008.-287 b.
5. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: Aloqachi, 2008 y.
6. J.Hasanboyev, X.A.To`raqulov va boshqalar Pedagogika Toshkent, "Nosir", 2011 y

Internet saytlari

www. Google. uz.
www. Ilm. uz.
www. Ziyo-NET. uz.

Topshiriq. Talabalarga ma'lum bir kasbni o'rgatish misolida o'quv dasturini strukturasi va asosi masalalari mazmuni bilan tanishing. Uning xozirgi talabga muvofikligi darajasini aniqlang.

Asosiy tushuncha va iboralar:

Davlat ta'lim standartlariga (DTS), kasb-hunar ta'limi, O'quv rejalari, o'quv rejasidagi fanlarning bloklar bo'yicha taqsimoti, fanlar, akadem soatlar miqdori, o'quv dasturlar mazmuni, istiqbolli, mavzuli reja, kalendar mavzuli reja.

Nazorat uchun savollar

1. "Standart" so'zini ma'nosini tushuntiring?
2. DTS lariga qanday umumiy talablar qo'yiladi?
3. DTS larida o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi mazmuni va sifatiga qanday talablar qo'yiladi?
4. O'quv rejasida fanlar bloklari bo'yicha qanday taqsimlangan?
5. Kasb-hunar kollejlari o'quv rejalarida haftalik akadem soatlarning miqdori, amaliyotlar bo'yicha o'quv soatlari miqdori qanday taqsimlangan?
6. Kasb-hunar kollejlarining mutaxassislik fanlariga qaysi predmetlar kiradi?
7. O'quv dasturlari qanday ketma - ketlikda tuzilgan?
8. Istiqbolli, mavzu reja deb nimaga aytiladi va u qanday tuziladi?
9. Kalendar mavzuli reja qanday tuzilgan?

2– seminar mashg`ulot.

Mavzu: Kasb - hunar ta'limi metodlari.

Ishning maqsadi: Kasb — ta'limi metodlarini xilma - xilligini o'rganish va metodlarni to'g'ri tanlash. Kasb ta'limining tashkiliy shakllari tushunchasi, dars turlari haqida bilimga ega bo'lish.

Ishning mazmuni: Metod hakida tushuncha. Kasb ta'limi metodlarini klassifikatsiyasi. Kasb - hunar ta'limida yangi pedogogik texnologiyalardan foydalanish. Noan'anaviy metodlar hakida tushuncha. Kasb ta'limining tashkiliy shakllari:

a) nazariy mashg'ulotlar.

b) ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya

v) kasb-hunar ta'limini fermer xo'jaliklari, fermalar, qo'shma korxonalar bazalarida va ijara pudrati asosida tashkil qilish haqidagi bilimlariga ega bo'lish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: «Sharq», 1997.
2. G`ulomov S. Kuch-bilim va tafakkurda «O`AJBNT Markazi ,2002.-285 b.
3. Mirsaidov K. «Maxsus fanlarni o`qitish va ishlab chiqarish ta'limi». T.: «O`qituvchi», 1996.
4. Mirsaidov K, Xidirov O`, Choriev R. «Ishlab chiqarish ta'limi». T,O`qituvchi», 2002.
5. Olimov Q.T., Uzoqova L.P., Halimov E.Z., Rustamov R.M., Ashurova S.Y. Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi. T.: «Fan», 2004, -120 b.

Qo`shimcha adabiyotlar:

7. A.Xoliqov Pedagogik mahorat. Toshkent, “Tafakkur bo`stoni”, 2011 y
8. Q.Olimov va boshqalar. Kasb ta`lim uslubiyati’’ IQTISOD-MOLIYa’’2006.-160b.
9. P.M.Po`latova Maxsus pedogogika. T.:G`afur G`ulom, 2005.-223 b.
10. O`.M.Asqarova va boshqalar. Pedogogika. T.”TALQIN” , 2008.-287 b.
11. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: Aloqachi, 2008 y.
12. J.Hasanboyev, X.A.To`raqulov va boshqalar Pedagogika Toshkent, “Nosir”, 2011 y

Internet saytlari

www. Google. uz.
www. Ilm. uz.
www. Ziyo-NET. uz.

Topshiriq. Ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligi qo‘llaniladigan metodlarga, ularni birga qo‘llashga o‘rganilayotgan materialning xususiyatlariga va ta’lim oluvchilarning tarkibiga bog‘liqligini yoritish. **.**

Asosiy tushuncha va iboralar:

Metod, kasb ta’limi metodlari, klassifikatsiya, kasb-hunar ta’limi, pedogogik texnologiyalar, noan’anaviy metodlar, kasb ta’limining tashkiliy shakllari, nazariy mashg‘ulotlar, ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya, kasb-hunar ta’limini fermer xo‘jaliklari, fermalar, qo‘shma korxonalar, ijara pudrati.

Nazorat uchun savollar.

1. Metod haqida tushuncha bering.
2. Kasb ta’limida metodlar kanday klassifikatsiyalanadi?
3- Kasb - hunar ta’limining og‘zaki metodlarining mohiyatini tushuntiring.
4. Kasb - hunar ta’limida ko‘rgazmalilik metodlarini sanab bering.
.5. Kasb - hunar ta’limida muammoli ta’lim metodini tushuntirib bering.
6. Kasb - hunar ta’limida yangi pedogogik texnologiyalardan qanday foydalanish mumkin?
7. Noan’anaviy o‘qitnsh metodlari haqida gapirib bering.
8. Kasb-ta’limi darslarining qanday o‘ziga xos xususiyatlari bor?
9. Kasb-ta’limi darsiga qanday didaktik talablar qo‘yiladi?

10. Kasb-ta’limidan nazariy mashg‘ulotlar va amaliy laboratoriya darslari qanday tashkil etiladi?
11. Kasb-ta’limi qanday strukturaviy tuzilishlarga ega?
12. Kasb-ta’limi darslarining qanday tiplari bor?

3– seminar mashg`ulot.

Mavzu: Kasb ta’limi bo‘yicha amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari darslarini tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi

Ishning maqsadi: Kasb ta’limidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi bilan tanishish.

Ishning mazmuni: Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlariga tayyorgarlik. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish shakllari. Zarur jihozlar va asbob – uskunalarni hozirlash. Dars jarayoniga o‘qituvchinnng vazifasi. Havfsizlik texnikasiga e’tibor. Darsni yakunlash.

Tavsiya etiladigan adbiyotlar.

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: «Sharq», 1997.
2. G`ulomov S. Kuch-bilim va tafakkurda «O`AJBNT Markazi ,2002.-285 b.
3. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to`plami: S.S.G`ulomov tahriri ostida; Tuzuvchilar:B.X.Raximov, Sh.D.Jonboev va boshq. –T: «Sharq», 2001.-672b.
4. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to`plami: S.S.G`ulomov tahriri ostida; Tuzuvchilar:Sh.A.Ayupov, B.X.Raximov va boshq. -T: «Sharq», 2003.-752b.
5. Mirsaidov K. «Maxsus fanlarni o`qitish va ishlab chiqarish ta'limi». T.: «O`qituvchi», 1996.
6. Mirsaidov K, Xidirov O`, Choriev R. «Ishlab chiqarish ta'limi». T,O`qituvchi», 2002.
7. Olimov Q.T., Uzoqova L.P., Halimov E.Z., Rustamov R.M., Ashurova S.Y. Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi. T.: «Fan», 2004, -120 b.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. A.Xoliqov Pedagogik mahorat. Toshkent, “Tafakkur bo`stoni”, 2011 y
2. Q.Olimov va boshqalar. Kasb ta`lim uslubiyati’’ IQTISOD-MOLIYa’’2006.-160b.
3. T.Atamuratova va b. Mutaxassislik fanlarni o`qitish metodikasi. T.,Yangi asr avlodi. 2008. -180 b,
4. P.M.Po`latova Maxsus pedogogika. T.:G`afur G`ulom, 2005.-223 b.
5. O`.M.Asqarova va boshqalar. Pedogogika. T.”TALQIN” , 2008.-287 b.
6. V.Gorskiy. Texnik ijodkorlik va qishloq xo`jalik tajribachiligi bo`yicha sinfdan tashqari ishlar. T.: «O`qituvchi », 1991.
7. M.Ochilov. Oliy maktab pedagogikasi. T.: Aloqachi, 2008 y.
8. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: Aloqachi, 2008 y.

9. X.Po`latova. Tabiasthunoslikni o`qitish maxsus metodikasi, T.: O`zbekiston, 2006 y.
10. J.Hasanboyev, X.A.To`raqulov va boshqalar Pedagogika Toshkent, "Nosir", 2011 y

Internet saytlari

www. Google. uz.
www. Ilm. uz.
www. Ziyo-NET. uz.

Topshiriq: Umumiy ko‘rsatmali amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qiling va o‘tkazing.

Ko‘rsatmali ishlarning natijalaridan keyingi o‘quv jarayonida foydalaning. Umumiy ko‘rsatmali laboratoriya ishlarini o‘tkazishda ta’lim oluvchilarga baho bering.

Laboratoriya mashg‘ulotining reja bayonnomasini tuzing.

Asosiy tushuncha va iboralar:

amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, mashg‘ulotlarini o‘tkazish shakllari, jihoz va asbob – uskunalar, havfsizlik texnikasiga e’tibor.

Nazorat uchun savollar.

1. Kasb ta’limi darslarining tiplarini sanab bering.
2. Amaliy mashg‘ulotlar strukturasi haqida ma’lumot bering.
3. Amaliy mashg‘ulotlar qanday shakllarda o‘tkazildi?
4. Tadqiqot ishlari qanday tashkil qilinadi va o‘tkaziladi?
5. O‘zgaruvchan grafik bo‘yicha ko‘rsatmali ishlar qanday tashkil qilinadi va o‘tkaziladi?
6. SI tizimining asosiy birliklari. Uning O‘zbekistonda joriy etilishi haqida nimalarni bilasiz?
7. O‘quv dasturi va ishchi reja bo‘yicha laboratoriya ishlarining o‘rnini aniqlang.
8. Laboratoriya ishlaridan maqsad nima?
9. Laboratoriya mashg‘ulotining tarkibiy tuzilishi qanday?
10. Laboratoriyada amal qilinadigan havfsizlik texnikasi qoidalarini ayting.
11. Laboratoriya mashg‘ulotida qo‘llaniladigan hujjatlar.

4– seminar mashg`ulot.

Mavzu: Istiqbolli, mavzuli reja tuzish.

Mashg‘ulot rejasini tuzish va dars matnini tayyorlash

Ishning maqsadi: O‘quvchilarga aniq mutaxassislik fanlaridan istiqbolli, mavzuli reja va mashg‘ulot rejasini tuzishni o‘rgatish.

Ishning mazmuni: Ishchi o‘quv dasturlari va ulardagi mavzuli reja. Mavzuli rejadagi boblar bo‘yicha mavzular taqsimlanishi. Kalendar mavzuli reja mazmuni va uni tuzish. Mashg‘ulot rejasini tuzish va dars matnini tayyorlash. Mashg‘ulot rejasi. Dars matnini va ko‘rgazmali qurollarni tayyorlash.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: «Sharq», 1997.

2. G`ulomov S. Kuch-bilim va tafakkurda «O`AJBNT Markazi ,2002.-285 b.
3. Mirsaidov K, Xidirov O`, Choriev R. «Ishlab chiqarish ta'limi». T,O`qituvchi», 2002.
4. Olimov Q.T., Uzoqova L.P., Halimov E.Z., Rustamov R.M., Ashurova S.Y. Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi. T.: «Fan», 2004, -120 b.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. A.Xoliqov Pedagogik mahorat. Toshkent, “Tafakkur bo`stoni”, 2011 y
2. Q.Olimov va boshqalar. Kasb ta`lim uslubiyati’’ IQTISOD-MOLIYa’’2006.-.
3. T.Atamuratova va b. Mutaxassislik fanlarni o`qitish metodikasi. T.,Yangi asr avlodi. 2008. -180 b,
4. P.M.Po`latova Maxsus pedogogika. T.:G`afur G`ulom, 2005.-223 b.
5. V.Gorskiy. Texnik ijodkorlik va qishloq xo`jalik tajribachiligi bo`yicha sinfdan tashqari ishlar. T.: «O`qituvchi », 1991.
6. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: Aloqachi, 2008 y.
7. J.Hasanboyev, X.A.To`raqulov va boshqalar Pedagogika Toshkent, “Nosir”, 2011 y

Internet saytlari

www. Google. uz.
www. Ilm. uz.
www. Ziyo-NET. uz.

Topshiriq. O‘quv ishlab chiqarish ishlarini meyorlashtirish mavzusi bo‘yicha darsni reja konspektini tuzing

Asosiy tushuncha va iboralar:

Ishchi o‘quv dasturlari, mavzuli reja, mavzularni taqsimlanishi, kalendar mavzuli reja, mashg‘ulot rejasi, dars matni, mashg‘ulot rejasi, ko‘rgazmali qurollar,

Nazorat uchun savollar.

1. Kasb ta’limida qanday rejalashtiruvchi hujjatlar bo‘ladi?
2. Rejalashtiruvchi hujjatlarni tayyorlaganda nimalarga e’tibor berish kerak?
3. Yillik mavzuli reja nima uchun kerak?
4. Yillik mavzuli rejada qanday materiallar o‘z

aksini topishi kerak?

5– seminar mashg`ulot.

Mavzu: Kasb ta’limi metodikasidan kurs va bitiruv ishlarini bajarish hamda ularni yoqlash metodikasi

Ishning maqsadi: Kasb ta’limi metodikasi kursini o‘rganish jarayonida tegishli nazariy, amaliy va laboratoriya ishlarni bajarganda shakllangan bilim hamda o‘quvlarni mustahkamlash.

Ishning mazmuni: Kasb ta’limi metodikasidan kurs ishlariga qo‘yiladigan talablar, ularni rasmiylashtirish. Kurs ishining metodik qismi. Kasb ta’limi metodikasidan bitiruv ishlariga qo‘yiladigan talablar ularni rasmiylashtirish va yoqlash metodikasi. Kasb ta’limi moddiy bazasining tahlili.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: «Sharq», 1997.
2. G`ulomov S. Kuch-bilim va tafakkurda «O`AJBNT Markazi ,2002.-285 b.
3. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to`plami: S.S.G`ulomov tahriri ostida; Tuzuvchilar:B.X.Raximov, Sh.D.Jonboev va boshq. –T: «Sharq», 2001.-672b.
4. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to`plami: S.S.G`ulomov tahriri ostida; Tuzuvchilar:Sh.A.Ayupov, B.X.Raximov va boshq. -T: «Sharq», 2003.-752b.
5. Mirsaidov K. «Maxsus fanlarni o`qitish va ishlab chiqarish ta'limi». T.: «O`qituvchi», 1996.
6. Mirsaidov K, Xidirov O`, Choriev R. «Ishlab chiqarish ta'limi». T,O`qituvchi», 2002.
7. Olimov Q.T., Uzoqova L.P., Halimov E.Z., Rustamov R.M., Ashurova S.Y. Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi. T.: «Fan», 2004, -120 b.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. A.Xoliqov Pedagogik mahorat. Toshkent, “Tafakkur bo`stoni”, 2011 y
2. Q.Olimov va boshqalar. Kasb ta`lim uslubiyati’’ IQTISOD-MOLIYa’’2006.-160b.
3. T.Atamuratova va b. Mutaxassislik fanlarni o`qitish metodikasi. T.,Yangi asr avlodi. 2008. -180 b,
4. P.M.Po`latova Maxsus pedogogika. T.:G`afur G`ulom, 2005.-223 b.
5. O`.M.Asqarova va boshqalar. Pedogogika. T.”TALQIN” , 2008.-287 b.
6. V.Gorskiy. Texnik ijodkorlik va qishloq xo`jalik tajribachiligi bo`yicha sinfdan tashqari ishlar. T.: «O`qituvchi », 1991.
7. M.Ochilov. Oliy maktab pedagogikasi. T.: Aloqachi, 2008 y.
8. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: Aloqachi, 2008 y.
9. X.Po`latova. Tabiasthunoslikni o`qitish maxsus metodikasi, T.: O`zbekiston, 2006 y.
10. J.Hasanboyev, X.A.To`raqulov va boshqalar Pedagogika Toshkent, “Nosir”, 2011 y

Internet saytlari

www. Google. uz.
www. Ilm. uz.
www. Ziyo-NET. uz.

Topshiriq; "Kasb ta’limida o‘qitishning texnikaviy vositalardan foydalanish" mavzusida kurs ishi yozing.

Asosiy tushuncha va iboralar:
kasb ta’limi metodikasi,kurs ishlari, rasmiylashtirish, kurs ishining metodik qismi, bitiruv malakaviy ishlari, yoqlash metodikasi, moddiy baza.

Nazorat uchun savollar.

1. Kasb ta’limidan bitiruv va kurs ishini bajarIshning maqsadi nima?
2. Kurs ishining tuzilishiga qanday talablar qo‘yiladi? Bitiruv ishiga-chi?
3. Siz qanday mavzuda kurs ishi (bitiruv ishi) yozgan bo‘lardingiz va nima sababdan?
4. Kurs ishi (loyihasi)ni tayyorlash tartibini tushuntiring.

6- seminar mashg`ulot.

Mavzu: Kasb – hunar kollejlarida ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o‘tkazish

Ishning maqsadi: Kasb – hunar kollejlarida ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi bilan tanishish.

Ishning mazmuni: Ishlab chiqarish amaliyotini o‘tkazishga tayyorgarlik. Obyektlarni tanlash. Yuritiluvchi hujjatlar. Amaliyotni o‘tkazish. Hisobot. Amaliyotni yakunlash.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: «Sharq», 1997.
2. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to`plami: S.S.G`ulomov tahriri ostida; Tuzuvchilar:B.X.Raximov, Sh.D.Jonboev va boshq. –T: «Sharq», 2001.-672b.
3. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to`plami: S.S.G`ulomov tahriri ostida; Tuzuvchilar:Sh.A.Ayupov, B.X.Raximov va boshq. -T: «Sharq», 2003.-752b.
• kasbiy ta`lim yunalishi bitiruvchilarining metodik ishlari tizimi bo'yicha tushunchalarni hosil qilish jarayonida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va uni boshqarishni loyihalay olish bo'yicha malakalarni shakllantirishdan iborat.

Didaktika - grekcha «didaskiuen» so'zidan olingan bo'lib, o'qitaman, o'qishni o'rgataman ma`nolarini anglatadi. Didaktika o'qitish jarayonini shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maqsadlarini ishlab chiqadi.

Metod - iborasi (yunoncha-metodos-tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya ta`limot ma`nosini anglatib) voqeylikni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish usullari majmuasidir. Metod-pedagogik jarayon elementi sifatida mazmun, maqsadlarga maksimal mos kelishi kerak, ana shunda-tarbiya, ta`lim rivojlanish amalga oshadi.

Metodika - pedagogikaning o'qitish qonuniyatlari, qoidalari, tashkil etish shakllari, amalga oshirishi va natijalarini nazorat qilib, baholash metod hamda vositalari o'zida mujassamlashtiruvchi fan tarmog'idir.

O'qitish metodikasi - bu turli usullar tizimi bo'lib, o'quv-didaktik materiallaridan foydalanish orqali belgilangan maqsadga erishish uchun nazariy va amaliy mashg'ulotlar paytida qo'llaniladigan usullar majmuasidir.

Kasb - muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyati turidir. Kasb –hunar sirlarini egallashga umumiy hamda maxsus ma`lumot, amaliy ish-xarakat usullarini o'zlashtirish orqali erishiladi.

**Ta`lim**- bilim berish malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni kishini xayotga, mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta`lim jarayonida bilim o'zlashtiriladi va tarbiya amalga oshiriladi.

Kasb-hunar ta`limi - talabalarning kasb hunarga moyilligini layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradi.

Bilimlar - ganda, o'quvchilarning turmushdagi narsa va hodisalar to'g'risidagi, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlari haqidagi tasavvur hamda tushunchalari tushuniladi. Bular ma`lum maqsadga qaratilgan pedagogik jarayon, mustaqil bilim olish va hayotiy tajriba natijasida hosil bo'ladi.

Ko'nikma - o'quvchining mehnat harakatini (yoki mehnat harakatlari majmuini) ayni sharoitda ma`qul harakat usullarini tanlab va qo'llab bajarishga va buning oqibatida mehnatda ijobiy natijalarga erishishga tayyor ekanligi.

Malaka — o'quvchining harakat komponentlarini maksimal aniqlik, tezlik va maqsadga muvofilikda avtomatlashtirilgan usulda bajarishga qobilligi. Bu qobiliyat o'quvchining mashqlar o'tkazishi natijasida hosil bo'ladi.



2-mavzu: Kasb hunar ta`limining o’quv me`yoriy hujjatlari

O’quv moduli birliklari

1. O’rta maxsus kasb - hunar ta`limi mazmuni.
2. Davlat ta`lim standartlari.
3. Kasb tavsifnomasi.
4. O’quv rejasi va uning tuzilishi.
5. O’quv dasturlari va uning tuzilishi.



Davlat ta`lim standartlari (DTS) - umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb - hunar va oliy ta lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. DTSlarni bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta lim muassasalari uchun majburiydir.

Kasb -hunar ta'lim tarmoq standarti - yo'nalishlar bo'yicha kichik mutaxassislarni tayyorlashning zarur va yetarli mazmuni hamda pirovard maqsadlarni aniqlaydi, ta lim oluvchilarning o'quv yuklamalari hajmi va standart sifatlari nazoratini belgilab beradi.

Kasb tavsifnomasida tegishli kasb darajasidagi kichik mutahasis bilishi kerak bo'lgan kasbiy ko'nikma, hamda malakalar, ixtisosiga tegishli ishlarni ongli ravishda va sifatli qilib bajarishi uchun zarur bilimlar ko'rsatiladi.

Kollejlarda kasb tavsifnomalardan davlat attestatsiya hay`atlari diplom ishlari himoyasi o'tkazishda qo'llanma hujjat sifatida foydalaniladi.

3-mavzu: Kasb ta`limi tamoyillari

O'quv moduli birliklari

1. Faollik tamoyili
2. O'qitishda nazariya bilan va amaliyotni bog'liqligi.
3. Ko'rgazmalilik tamoyili
4. Ilmiylik tamoyili
5. O'qitishda tizimlilik va izchillilik
6. O'qitishda talabalarning onglilik va faolligi
7. O'qitishning tarbiyalovchi xarakteri



Faollik tamoyili - talaba o'zi harakat qilgan paytda yaxshi o'rganadi va o'zlashtiradi. Shuning uchun o'quv jarayoni shunday tashkil qilinishi kerakki, talaba ilm olishga ongli munosabatda bo'lsin.

O'qitishda nazariya bilan amaliyotining bog'liqligi. Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo'lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog'langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o'zlashtirish va amalda qo'llay bilish ham kerak.

Majburiyjihozlashga qo'yidagilarni kiritish mumkin

— asbob-uskunalar o'rnatiladigan amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisining ish joyi balandroq bo'lishi;

— ishchi stol, stul, sinf doskasi;

— barcha o'rganilayotgan mavzular va o'quv ishlab chiqarish ishlari bo'yicha didaktik vositalar va o'quv texnika hujjatlari;

— mehnat harakatlari va o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarish usullarini namoyish qilish uchun qurilmalar (namoyish stoli (verstak), dastgoh, panel, elektr to'plami o'rnatiladigan taxta (shit), o'quv xonasi, payvandlash posti va hokazo);

— asbob-uskunalar, anjomlar, materialar, huijatlar, o'qitishning texnik va didaktik vositalari saqlanadigan moslamalar (shkaflar, yashiklar, kassetalar, taxta tokcha va boshqalar);

— o'qitishning texnik va didaktik vositalarini namoyish etish uchun mo'ljallangan moslamalar (namoyish etiladigan shitlar, plakatlar g'ilofi, ekran va boshqalar).

— elektr toki, siqilgan havo, gaz va boshqalarni o'quvchilar ish joyiga uzatib beradigan hamda o'chirib-yondiradigan maxsus shit.

O'quv ustaxonasida o'quv ishlab chiqarish ta'limi samaradorligini ta'minlash uchun amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisining ish o'rni katta ahamiyatga egadir. O'quv ustaxonasining sohasidan qat'iy nazar o'qituvchining ish o'rni quyidagi umumiy talablarga javob berishi lozim:

— namunali o'quv texnika asbob-uskunalari bilan ta'minlangan, estetik rasmiylashtirilgan, dars mavzusi va mazmuni asosida jihozlangan; bu esa o'quvchilarga katta tarbiyaviy ta'sir qiladi va ular uchun ma'naviy omil hisoblanadi;

— o'quv ishlab chiqarish ishlarini bajarishda mehnat ko'nikmalari va usullari samaradorligi uchun kerakli sharoit yaratilishi, maxsus qurilmalar, ularning o'rnatilishi, manzara ko'rinishi talab darajasida bo'lishi;

— barcha o'quvchilarni mukammal ko'zdan kechirib turish uchun sharoitlar yaratishni ta'minlash;

— asbob-uskunalarni, o'quv texnika hujjatlarini va ta'limning zamonaviy texnik vositalarini qulayjoylashtirish hamda saqlash kerakki, foydalanish uchun hamma narsa qo'l ostida bo'lsin, qolaversa ularni ishlatishda qidirib vaqt ketkazmaslik zarur;

— amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisining ish joyini talab darajasida jihozlashda, o'quv texnikasi va o'quv metodik qo'llanmalarni doimiy ravishda texnika va texnologiyalarni takomillashuviga, pedagogik tajribaning ilmiy tavsiyalari va ilg'or yutuqlariga mos holda to'ldirib borish va yangilab turish lozim.

Kompleks yondashishni namoyish qilish maqsadida, chilangarlik o'quv ustaxonalarida o'qituvchilarning ish joylarini jihozlashda zarur bo'lgan didaktik va texnik vositalar majmuasini keltiramiz:

— barcha chilangarlik ishlari bo'yicha yo'riq xaritalari — 26 komplekt, har bir o'quvchi uchun — 1 komplektdan, kirish yo'rig'i o'tkazish uchun — 1 komplekt (karton asosida hajmi 80x100 sm);

— maxsus o'quv ishlab chiqarish ishlarining yo'rig'-texnologik va texnologik xaritalari — 26 komplekt, har bir o'quvchi uchun — 1 komplektdan, kirish yo'rig'i o'tkazish uchun — 1 komplekt;

— maxsus o'quv ishlab chiqarish ishlari uchun ishchi chizmalari — 30 komplekt;

— dasturning barcha mavzulari bo'yicha turli chilangarlik ishlarini bajarish uchun andoza shitlari — 1 komplekt;

— maxsus o'quv ishlab chiqarish ishlarining etalon namunasi keltirilgan shitlar — 1 komplekt;

— mavzular bo'yicha o'quvchilar ish jarayonida yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolar va ularni bartaraf qilish usullari keltirilgan jadvallar — 1 komplekt;

— mavzular bo'yicha asbob-uskuna namunalari keltirilgan shitlar — 1 komplekt;

— barcha chilangarlik va kompleks o'quv ishlab chiqarish ishlari bo'yicha «Baholash mezonlari» keltirilgan jadvallar — 1 komplekt;

— «Chilangarlik ishlari» plakatlari — 1 komplekt;

— mavzular bo'yicha uy vazifalari shakllari (to'ldirish uchun) — 30 komplekt;

— maxsus chilangarlik buyum(detal)lari tayyorlashning texnologik jarayonlarini ishlab chiqish shakllari (to'ldirish uchun) — 7—10 komplekt;

— chilangarlik ishi bo'yicha diafilmlar, videofilmlar, multemediya kompyuter dasturlari, elektron darsliklar — 1 komplekt.

5-mavzu: Kasb hunar ta`limining tashkiliy shakllari

O’quv moduli birliklari

1. Nazariy mashg’ulotlar
2. Amaliy va labaratoriya mashg’ulotlari
3. Ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya
4. Kasb xunar ta`limida masofaviy o’qitish
5. O’quv va ishlab chiqarish amaliyoti

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida chex pedagogi Ya.A.Komenskiy sinf-dars tizimini nazariy jihatdan isbotlab berdi.

Hozirgi paytda kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari quyidagi xususiyatlarga binoan turlanadi:

Tahsil oluvchilar soniga ko'ra — ommaviy, jamoa, guruhli, individual.

O'qitish joyiga ko'ra — ta'lim-tarbiya muassasalarida va ulardan tashqarida (o'quv ustaxonalarida, mashq maydonlarda, korxonalarda, uy ishlari, sayohat va shu kabilar).

O'quv vaqtining davomiyligiga ko'ra — 45 daqiqalik, juftlik (90 daqiqa), qisqartirilgan (70 daqiqalik), qo'ng'iroqsiz.

Amaliyotda sinf-dars tizimi keng ko'lamda qo'llanilganligi sababli dars ta'lim-tarbiya ishining asosiy shakli deb yuritiladi. Sinf-dars tizimining o'ziga xos jihatlari quyidagilar:

- deyarli bir xil tarkib, yosh va tayyorgarlik darajadagi tahsil oluvchilar ishtirok etadi;

- ta'lim-tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq alohida-alohida qismlar ko'rinishiga ega bo'ladi;

- har bir dars o'quv rejasiga kirgan ma'lum bir o'quv predmetiga oid bo'ladi;

- darslar muntazam ravishda almashib turadi;

- kasb ta'limi darslariga o'qituvchi, muhandis-pedagog, tajribali mutaxassis kabilar rahbarlik qiladi;

- tahsil oluvchilar turli ko'rinishdagi o'quv-bilish jarayonida ishtirok etadilar.

Ijtimoiy talablar, kasb ta'limining maqsad va vazifalari, tahsil oluvchilarning talab hamda ehtiyojlari, ta'lim-tarbiya qonuniyatlari, prinsiplari kabilarga ko'ra kasbiy-ta'lim darslariga quyidagi talablar qo'yilishi lozim:

1. Fan-texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so'nggi yutuqlari, ilg'or pedagogik tajribalardan imkon qadar foydalanish, ta'lim-tarbiya qonuniyatlariga asoslanib, dars tuzilmasini maqbullashtirish.
2. Darsda barcha didaktik prinsiplarning maqbul nisbatini ta'minlash.
3. Tahsil oluvchilarning qiziqishi, ehtiyojlari, moyilligini hisobga olgan holda mahsulli o'quv-bilish faoliyati uchun shart-sharoit yaratish.
4. O'quv materialini mukammal o'zlashtirilishi uchun fanlararo aloqadorlikka amal qilish.
5. Tahsil oluvchilar tomonidan ilgari o'zlashtirilgan bilimlar va ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda ish ko'rish.
6. Tahsil oluvchilarning barcha ijobiy jihatlarini rag'batlantirish, o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish yo'li bilan rivojlantirishga erishish.
7. Darsning barcha bosqichlarida mantiqiy va his-tuyg'ularga asoslanish.
8. Didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalanish.
9. Nazariy materialni amaliyot bilan uzviy bog'lab o'rganish.
10. Zarur bilim, ish-harakat, oqilona fikrlash va amaliy faoliyat ko'rsatish usullarini tarkib toptirish.
11. Tahsil oluvchilarda uzluksiz ravishda o'qib-o'rganish, o'z bilimi va kasbiy mahoratini oshira borish malakasini shakllantirish.
12. Darslarni mukammal rejalashtirish natijalarini oldindan bashorat etish va tashxislash.



6-mavzu: Kasb ta`limi metodlari

O’quv moduli birliklari

1. Ta`lim me`todlari haqida tushuncha.

2. Og’zaki metodlar.

3. Ko’rgazmali metodlar.

4. Amaliy metodlar.

5. Kasb xunar ta`limida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Ta'Iim metodlari deganda o'qituvchi va tahsil oluvchilarning yagona maqsadga erishish borasidagi o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarini tushunmoq kerak.

O'qitish jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, nihoyatda xilma-xil va turli xarakterdagi omillarga bog'liq. O'qituvchi o'qitish usullarining bitmas-tuganmas xazinasiga ega. O'qitish usullarini har xil tasniflarini tahlil qilmay, uiarnmg ba'zilariga to'xtalib o'tamiz.

1. O'qitishda talabaning harakatlari tavsifiga ko'ra:
a) faol usullar
b) sust usullar

2. O'quv ishining turlariga qarab:
a) bilimlarni o'zlashtirishning dastlabki usuli
b) bilimlarni takomillashtirish usuli
c) bilimlarni tekshirib ko'rish va baholash usuli

3. O'quv materiallarini uzatich va idrok etish manbalariga qarab:
a) og'zaki usullar
b ko'rgazmali usullar
c) amaliy usullar

Og'zaki usullar	Ko 'rsatmali usullar	Amaliv usullar
A) Suhbat; maqsadni tushuntirish talabalarga muammoli savot berish, talabalar-ning javoblarini muho-kania qilish. B) O 'quv adabiyoti bilan mustaqil ishlash; maqsadni tushuntirish: Topshiriqning mazmum va talabalarning ish tarti-bini amqiash, talabalar ishiga rahbarlik qilish. yakun yasash. V) Ovoz yozishdan va radio, televidiniyedan, multime dia resurslai-idanfoydala-nish: maqsadni tushuntirish kompyuter, texnika va multimedia vositalarini boshqarish; talabalarni idrok etishiga rahbarlik qilish va yakun yasash.	A) Ko'rgazmali o'quv adabiyotlari rasmlar va chizmalai-ni, videotas-virlar, Multimedialar, tajribaviy mehmat usul-larini namoyish qilish; maqsadni tushuntirish; topshiriqni aniqlashi texnika vositalarini boshqarish, tqjribalarni amalda ko 'rsatish, B) Talabalarning obyekt vajarayonning mustaqil kuzatishlari; maqsadni tushuntirish, kuzatish obyektlarini aniqlash; talabalarning kuzatishlariga rahbar-lik qilish. yakun yasash.	A) Laboratoriya va amaliy ishlar; maqsadni tushun-tirish, talabalar ishin, tartibini va mazmu-nini aniqlash ham da rahbarlik qilish; yakun yasash; B) Mashqlar: maqsadni tushunti-rish; talabalarning ishini tartibini va muzmunini tushun-tirish; yakun yasash. V) Talabalarning ijodiy ishlari; maqsadni tushunti-rish, muammo qo'yish; talabalar ishiga rahbarlik qilish va yakun yasash.

Innovatsiya (inglizcha ***innovation***) yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon xamda o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi) faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol («**Inter**» - bu o'zaro, «**act**»- harakat qilmoq) - o'zaro harakat kilmok yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, **o'qitishning interfaol** uslubiyotlari -bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta`lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman talaba (yoki o'quvchi)larning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.



Ta'lim metodlarini tanlash

Ta'lim usullarini tanlash birinchidan, darsda ko'zda tutilgan o'quv maqsadlariga bog'liq. Masalan, darsning maqsadi yangi bilimlarni o'rganishdan iborat bo'lsa, o'qituvchi bu bilimlarni o'zi bayon etadi yoki talabalarning kitob bilan mustaqil ishlashini tashkil qiladi. Birinchi holda u turli xil narsalarni ko'rsatish bilan qo'shib olib boriladigan hikoya, tushuntirish, ma'ruza yoki suhbat usulidan foydalanishi mumkin. Agar darsda talabalarda amaliy ko'nikmalar hosil qilinishi kerak bo'lsa, buning uchun mashq qilish usuli qo'llaniladi.

Ta'lim metodlarini tanlash

Ta'lim usullarini tanlash birinchidan, darsda ko'zda tutilgan o'quv maqsadlariga bog'liq. Masalan, darsning maqsadi yangi bilimlarni o'rganishdan iborat bo'lsa, o'qituvchi bu bilimlarni o'zi bayon etadi yoki talabalarning kitob bilan mustaqil ishlashini tashkil qiladi. Birinchi holda u turli xil narsalarni ko'rsatish bilan qo'shib olib boriladigan hikoya, tushuntirish, ma'ruza yoki suhbat usulidan foydalanishi mumkin. Agar darsda talabalarda amaliy ko'nikmalar hosil qilinishi kerak bo'lsa, buning uchun mashq qilish usuli qo'llaniladi.





Tarbiyaviy maqsad o’quvchilarda quyidagi muayyan shaxs sifatlari

va xarakterini tarkib toptirishdan iboratdir;

•dunyoqarashni va kasbga qiziqishini;
•o’z-o’zini tekshirish va o’zaro yordamni;
•voqeliklar orasidagi bog’lanishlarni aniqlash va tahlil qilish ko’nikmalarini;
•bir sohadan ikkinchi sohaga bilimlarni ko’chirish ko’nikmalarini;
•fanlararo bog’lanishlarni amalga oshirish ko’nikmalarini;
•nutq madaniyatini;
•vatanparvarlikni;
•mehnatga ongli munosabatni;
•ongli intizom va yaxshi xulkni;
•ta`lim olishga ijobiy munosabatni;
•estetik qarashlarni;
•ish o’rnini tashkil etish va o’z faoliyatini tekshirishni;
•e`tiqodni.
•Ta`limning mazmuni hayot va zamon bilan uzviy bog’lansa, u tarbiyalash xususiyatiga ega bo’ladi.

Rivojlantirish maqsadi — dars jarayonida o’quvchilarning psixologik sifatlarini diqqat, xotira, taffakkur va bilish qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Psixologik adabiyotlarni tahlil qilish o’quvchilarda tafakkurni, politexnik, mehnat, bilish (anglash) va aqliy ko’nikmalarni, iroda va mustaqillikni ri-vojlantirish, ularni kelgusi darslarga tayyorlash za-rurligini ko’rsatadi.

8,9-mavzu: Kasbiy fanlarni o’qitishda o’quv materiallarini bayon etish metodlari

O’quv moduli birliklari

1. O’qitish metodlarining tasnifi
2. Faol o’qitish metodlari.
3. O’quv materialini o’qituvchi tomonidan og’zaki bayon etish metodi.
4. O’qituvchi nutqiga qo’yilgan talablar.
5. Ko’rgazmali qo’llanma va o’qitish vositalaridan foydalanish metodikasi.
6. O’quv materialini muammoli bayon etish.
7. Fanlararo bog’lanishlarni amalga oshirish.

O`QITISH METODLARINING TASNIFI



MUAMMOLI VAZIYAT YARATISHNING QUYIDAGI USLUBIY YO'LLARI MAVJUD:

- mavzu bo'yicha ziddiyatli holat paydo qilinadi va talabalarga yechim yo'llarini izlash taklif etiladi;
- muammoli holatga turlicha baho berish taklif etiladi;
- nazany va amaliy topshiriqlardagi muammolar aniqlanadi;
- taqqoslash, umumlashtirish va xulosalar chiqarish;
- aniq savollar qo'yiladi.

FAOL O’QITISH METODLARINING TASNIFI



O’qituvchining o’quv materialini og’zaki bayon etish metodikasi. O’quvchilarga o’quv materialini bildirishning asosiy metodlaridan biri so’zlab berish, tushuntirish, ma`ruzani o’z ichiga oladigan og’zaki bayon etishdir. Bularning hammasida ta`lim berishning faqat bir vositasidan - o’qituvchi so’zidan foydalaniladi.

So’zlab berish o’quv materialini hikoya tarzida bayon etishni ko’zda tutadi. Bu metod o’quv materiali, asosan, tavsifiy xarakterda bo’lib, mantiqiy izchilligi bilan farq qiladigan hollarda qo’llaniladi. So’zlab berish yordamida, odatda, kirish mavzulari, mashina va mexanizmlarning umumiy tuzilishi, materiallarning xossalari va ishlatilishi, ishlab chiqarishning umumiy texnologiyasi masalalari va shu kabilar bayon etiladi.

Tushuntirish o’quv materialini og’zaki bayon etishni ko’zda tutadi. Tushuntirish jarayonida o’qituvchi solishtirish, taqqoslash, deduktsiya, induktsiya, asoslash, qonuniyatlar chiqarish, masalalar yechish va shu kabilardan foydalanadi. Tushuntirish, asosan, xususiy va konkret ma`lumotlarni bildirishda qo’llaniladi. PrKasb hunaro kollejlari o’qituvchilarining ish tajribasidan so’zlab berish va tushuntirish sof holda kamdan-kam uchraydi, ular ko’pincha so’zlab beritsh-tushuntirishdan iborat bo’lgan kompleks metod tarzida qo’llaniladi.

***Ma`ruza,*** so’zlab berish va tushuntirishdan farqli o’laroq, ancha aniq tuzilgan bo’ladi. Ma`ruzalar, odatda, o’quv dasturining yirikroq, printsipial muhim masalalari yuzasidan o’qiladi. Ma`ruzada o’quv materiali yaxlit va izchillik bilan bayon etiladi, o’zaro bog’langan tushunchalar, qonuniyatlar tizimi ochib beriladi, kursning turli mavzulari orasida ichki bog’lanishlar o’rnatiladi. Kirish ma`ruzalari, sharh ma`ruzalar, rukn ma`ruzalar va xotima ma`ruzalar bo’ladi.

O’qituvchining o’quv materialini og’zaki bayon etish metodikasi. O’quvchilarga o’quv materialini bildirishning asosiy metodlaridan biri so’zlab berish, tushuntirish, ma`ruzani o’z ichiga oladigan og’zaki bayon etishdir. Bularning hammasida ta`lim berishning faqat bir vositasidan - o’qituvchi so’zidan foydalaniladi.

So’zlab berish o’quv materialini hikoya tarzida bayon etishni ko’zda tutadi. Bu metod o’quv materiali, asosan, tavsifiy xarakterda bo’lib, mantiqiy izchilligi bilan farq qiladigan hollarda qo’llaniladi. So’zlab berish yordamida, odatda, kirish mavzulari, mashina va mexanizmlarning umumiy tuzilishi, materiallarning xossalari va ishlatilishi, ishlab chiqarishning umumiy texnologiyasi masalalari va shu kabilar bayon etiladi.

Tushuntirish o’quv materialini og’zaki bayon etishni ko’zda tutadi. Tushuntirish jarayonida o’qituvchi solishtirish, taqqoslash, deduktsiya, induktsiya, asoslash, qonuniyatlar chiqarish, masalalar yechish va shu kabilardan foydalanadi. Tushuntirish, asosan, xususiy va konkret ma`lumotlarni bildirishda qo’llaniladi. PrKasb hunaro kollejlari o’qituvchilarining ish tajribasidan so’zlab berish va tushuntirish sof holda kamdan-kam uchraydi, ular ko’pincha so’zlab beritsh-tushuntirishdan iborat bo’lgan kompleks metod tarzida qo’llaniladi.

***Ma`ruza,*** so’zlab berish va tushuntirishdan farqli o’laroq, ancha aniq tuzilgan bo’ladi. Ma`ruzalar, odatda, o’quv dasturining yirikroq, printsipial muhim masalalari yuzasidan o’qiladi. Ma`ruzada o’quv materiali yaxlit va izchillik bilan bayon etiladi, o’zaro bog’langan tushunchalar, qonuniyatlar tizimi ochib beriladi, kursning turli mavzulari orasida ichki bog’lanishlar o’rnatiladi. Kirish ma`ruzalari, sharh ma`ruzalar, rukn ma`ruzalar va xotima ma`ruzalar bo’ladi.

Miqdoriy va sifatiy tajriba-amaliy ishlari. Tajriba-amaliy ishlarni ularning xarakteri jihatidan ***miqdoriy*** (miqdorga bog’liq bo’lgan) va ***sifatiy*** (sifatga bog’liq bo’lgan) ishlarga bo’lish mumkin. Mikdoriy tajriba -amaliy ishlar aniq o’lchashlar, hisoblab chiqarishlar, hisoblar bilan bog’liq bo’ladi.

Fanlararo kompleks tajriba-amaliy ishlar. Kollejlarda umumta`lim fanlari o’rganiish munosabati bilan ***fanlararo kompleks tajriba-amaliy ishlar*** qo’llanila boshlandi. Bu ishlarni bajarish davomida o’quvchilar umumta`lim, umumtexnika yoki maxsus fanlardan olgan bilimlarini mustahkamlaydilar va bu bilimlarini amalda tatbiq etish uquvlarini egallaydilar.

Frontal va nofrontal tajriba-amaliy ishlar. Tajriba-amaliy ishlar ***frontal va nofrontal*** o’tkazilishi mumkin. Frontal tajriba-amaliy ishlarda guruhdagi barcha o’quvchilar bir tipdagi jihozlarda yakka-yakka bo’lib yoki kichikroq zvenolarga bo’linib ishlab, bir xil topshiriqni bajaradilar.



№	Tajriba-amaliy ishlarning turi	Tajriba-amaliy ishlarga jihozlar	Fan
1	Har xil texnikaviy hodisa va jarayonlarni, xom-ashyo, material hamda mahsulotlarning xossalarini kuzatish va tahlil qilish	Po'latning xossalariga issiqlik ishlovi berishning turlari va rejimlari ta`siri	Metallar texnologiyasi
		Urug'larning ekilish xossalari (unib chihish energiyasini, unuvchanligini, tozaligini, ekishga yaroqliligini aniqlash)	Agronomiya
2	Mashina, mexanizm, apparat, asbob, moslama va shu kabilarning tuzilishi hamda ishlashini kuzatish va tahlil qilish	Don yig'ish kombaynining sozlanishlarini amalga oshirish	Qishloq xo'jalik mashinalari
		Erga ishlov berish texnologiyasini tuzish	Mehanizatsioyalashgan ishlar texnologieasi
3	Texnikaviy kattaliklar, parametrlar, xarakteristikalar orasidagi miqdoriy va sifatiy bog'lanishlarni tekshirish. Bu bog'lanishlarning optimal qiymatlarini aniqlash	Traktorning tortish kuchini aniqlash	Qishloq xo'jalik mashinalari
		O'tmaslashgan lemexlarni tamirlashni o'rganish	Mashina va jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish
4	Har xil texnikaviy va texnolgik kattaliklarni aniqlash va nazorat qilish uchun nazorat qiliash asboblaridan foydalanish usullarini o'rganish	Tuproq namligini quritish pechi va tarozilar yordamida aniqlash	Tuproqshunoslik va dehqonchilik asoslari
		Moyning qovushqoqligini viskozimetr bilan aniqlash	Yonilg'i-moylash materiallari
5	Buzuqliklarni diagnostik qilish, sozlash, rostlash, moslash va h.k.	Traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalarining sistema, qism hamda agregatlarini sozlash	Traktorlar va avtomobillar

№	Tajriba-amaliy ishlarning turi	Tajriba-amaliy ishlarga jihozlar	Fan
1	Har xil texnikaviy hodisa va jarayonlarni, xom-ashyo, material hamda mahsulotlarning xossalarini kuzatish va tahlil qilish	Po'latning xossalariga issiqlik ishlovi berishning turlari va rejimlari ta`siri	Metallar texnologiyasi
		Urug'larning ekilish xossalari (unib chihish energiyasini, unuvchanligini, tozaligini, ekishga yaroqliligini aniqlash)	Agronomiya
2	Mashina, mexanizm, apparat, asbob, moslama va shu kabilarning tuzilishi hamda ishlashini kuzatish va tahlil qilish	Don yig'ish kombaynining sozlanishlarini amalga oshirish	Qishloq xo'jalik mashinalari
		Erga ishlov berish texnologiyasini tuzish	Mehanizatsioyalashgan ishlar texnologieasi
3	Texnikaviy kattaliklar, parametrlar, xarakteristikalar orasidagi miqdoriy va sifatiy bog'lanishlarni tekshirish. Bu bog'lanishlarning optimal qiymatlarini aniqlash	Traktorning tortish kuchini aniqlash	Qishloq xo'jalik mashinalari
		O'tmaslashgan lemexlarni tamirlashni o'rganish	Mashina va jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish
4	Har xil texnikaviy va texnolgik kattaliklarni aniqlash va nazorat qilish uchun nazorat qiliash asboblaridan foydalanish usullarini o'rganish	Tuproq namligini quritish pechi va tarozilar yordamida aniqlash	Tuproqshunoslik va dehqonchilik asoslari
		Moyning qovushqoqligini viskozimetr bilan aniqlash	Yonilg'i-moylash materiallari
5	Buzuqliklarni diagnostik qilish, sozlash, rostlash, moslash va h.k.	Traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalarining sistema, qism hamda agregatlarini sozlash	Traktorlar va avtomobillar



Nima uchun baholash kerak?

- o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- keyingi bosqichga o'tishdan oldin avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- natijaga erishilganligini tasdiqlash uchun;
- talabalarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- o'qituvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ta'lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- talabalarni yutuqlarga qiziqtirish uchun;
- tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma'lumot berish uchun.

Nimani baholash kerak?

– nazariy bilimlarni;
– amaliy ko'nikma va malakalarni;
– xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarni.

Qachon baholash kerak?

– ta'lim jarayoni boshida (boshlang'ich baholash);
– ta'lim jarayoni davomida (joriy baholash);
– ta'lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

Baholashning asosiy xususiyatlari:

– ta'lim maqsadiga yo'nalganlik;
– muntazam o'tkazib borish;
– pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
– umumiy qabul qilingan natija standardariga asoslanganlik.



Besh ballik baholash tizimi

Afzalligi	**Kamchiligi**
✓ ta`lim oluvchi rag’batlantiriladi; ta`lim oluvchining faoliyatini tezkor nazorat qilish imkoniyatini beradi; ✓ ta`lim beruvchini vakti tejaladi; ✓ ta`lim oluvchining yakuniy bilimi baholarning soniga qarab emas, sifatiga karab baholanadi; ✓ baholash kulay bo’ladi; ✓ rasmiylashtirish hujjatlari kam bo’ladi.	✓ baholashning nisbiyligi; ✓ yozma nutqda xatolarni ✓ to’g’rilash imkoniyatining kamayishi; ✓ baholashning sub`ektivligi.

Baholashning reyting tizimi	
Afzalligi	**Kamchiligi**
✓ hakkoniy baholanishi; ✓ yozma nutqning o’sishi; ✓ yozma nutqda xato va kamchiliklarni aniqlash; imkoniyatlarining mavjudligi; ✓ ta`lim oluvchining bilimga bo’lgan ishtiyokining sezilarli darajada oshishi; ✓ ta`lim oluvchini muntazam shug’ullanishga undashi	✓ ta`lim beruvchi ta`lim oluvchi bilan ishlanganda ko’p vakt sarf qiladi; ✓ ballarni hisoblash ko’p vaqtni talab qiluvchi murakkab jarayonligi; ✓ baxolash usullariga qarab ta`lim oluvchi og’zaki nutkining pasayishi; ✓ ajratilgan vaktning yetarli emasligi; ✓ ta`lim oluvchini baholash nazoratining murakkabligi va nokulayligi

12-Mavzu: Nazariy ta`lim tahlili

O’quv moduli birliklari

1. **Tahlil qilishning vazifasi, funktsiyasi va turlari.**
2. **O’qitish jarayonida nazariy ta`limni tahlil qilish metodikasi.**
3. **O’qituvchini o’zini-o’zi tahlil qilish.**

O’qituvch darsga kirganda;

- Qo’li (yoki o’quv xonasi) da guruh jurnali bo’lishi;
- O’quv dasturi;
- Kalendar mavzu rejasi;
- Darsning texnologik [aritasi bo’lish kerak;



Kasb-hunar kollejlarida nazariy mashg'ulotlarni tahlil etish rejasi.

1. Kasb-hunar kolleji
2.Kurs, Guruh, Ixtisosligi
3. O'quv predmeti
4. Fan o’qituvchisi, kuzatuvchi o’qituvchi, Sana
5. Kuzatuvchining F.I.Sh. va egallab turgan lavozimi
6. Mashg'ulot (dars) mavzusi va uning tartib raqami
7. Dars turi
8. Darsning tashkil etilishi.
9. Dars moddiy-texnik ta'minotming tayorligi:
10.O'qituvchining dars o'qitishga tayyorligini belgilovchi talablar:
11. Tahsil oluvchilarning darsga qatnashish uchun tayyorligini belgilovchi talablar:
12. Darsni oqilona tashkil etilganligi:
13. O'qituvchining faoliyati:
14. Tahsil oluvchiiarning o'quv faoliyati:
15. Darsning umumiy baholanishi:
16. Mashg'ulotlarni yanada takomillashtirish bo'yicha fikr-mulohazalar va tavsiyalar.

Dars o'tgan o'qituvchining imzosi,
Kuzatib tahlil etuvchi(lar)ning imzosi.

Dars moddiy-texnik ta'minotming tayorligi:

- yassi ko'rsatmali qo'llanmalar;
- hajmli ko'rsatmali qo'llanmalar;
- kino va diafilmlardan lavhalar;
- elektron ta'lim resurslari;
- ishlaydigan modellar, asboblar, maketlar. trmajor (mashq qurilma)lar;
- tarqatma materiallarnmg mavjudligi;
- axborot-ma'lumot olish manbalari, sxemalar, jadvallar va shu kabilar;
- o'qituvchi va tahsil oluvchilarning ish o'rinlarini jihozlanganligi;

Dars moddiy-texnik ta'minotming tayorligi:

- yassi ko'rsatmali qo'llanmalar;
- hajmli ko'rsatmali qo'llanmalar;
- kino va diafilmlardan lavhalar;
- elektron ta'lim resurslari;
- ishlaydigan modellar, asboblar, maketlar. trmajor (mashq qurilma)lar;
- tarqatma materiallarnmg mavjudligi;
- axborot-ma'lumot olish manbalari, sxemalar, jadvallar va shu kabilar;
- o'qituvchi va tahsil oluvchilarning ish o'rinlarini jihozlanganligi;

Kasb ta`limi o’qituvchisi bilishi lozim:

a) O’zbekiston Respublikasining “Ta`lim to’g’risida” va “Kadrlar tayyorlash millliy dasturi to’g’risida”gi qonunlari, qonun hujjatlari va o’rta maxsus, kasb-hunar ta`limi markazining ta`lim tizimini, Davlat ta`lim standartlarini takomilllashtirish bo’yicha buyruqlarini;

b) o’qitadigan o’quv fanining ilmiy–nazariy asoslarini, uning mazmuni va amalda qo’llanilishini;

v) o’smirlarning ta`limi va tarbiyasining ilg’or shakllari, didaktik tamoyillari, o’qitadigan fani bo’yicha mashg’ulotlarni tashkil etish va olib borish metodikasini;

g) zamonaviy va samarali nazorat metodlari, testlar va o’quvchilarning bilim ko’nikma va malakalarini baholash mezonlarini, o’quvchilarning o’zlashtirishi va faolligini baholovchi reyting tizimini;

d) pedagogik va kasbiy muloqot nazariyasi va amaliyotini, yosh psixologiyasi va fiziologiyasini;

e) o’quv jarayonida foydalanadigan ta`lim vositalarini amaliy qo’llashni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini;

j) kadrlarni tayyorlash sifatiga ta`sir etuvchi omillarni;

z) ma`naviy-ma`rifiy ishlarni dolzarb vazifalarini, yoshlar bilan tarbiyaviy ishlar olib borish usullarini, muloqotda, suhbatlarda, mashg’ulotlar olib borishda ahloq va muomala madaniyati masalalarini;

i) huquq asoslari va mehnatni ilmiy tashkil etishni;

k) mehnat xavfsizligi va gigienasi qoidalarini, o’quv kabinetlari, auditoriyalar va boshqa xonalarni jihozlashga qo’yilgan talablarni;

l) maxsus fan o’qituvchilari texnologik ishlab chiqarish, tegishli yo’nalishda ishlab chiqarishni boshqarish va iqtisod asoslari bo’yicha bilimlarga ham ega bo’lishlari shart.

Kasb ta`limi o’qituvchisiga qo’yiladigan malakaviy talablar

Tayyorlov yo’nalishida dars berayotgan fani bo’yicha oliy pedagogik yoki muhandis-pedagog darajasida ma`lumot.

Kasb talimi ustasiga qo’yiladigan malaka talablari:

a) ta`lim muassasining yo’nalishi bo’yicha oliy ma`lumot yoki ish staji so’ralmagan holda muhandis-pedagogik ma`lumot;

b) kasb (mutaxassislik) bo’yicha 3 yildan kam bo’lmagan amaliy ish staji va o’rta maxsus kasbiy ma`lumot.

Kasb ta`limi ustasining bilishi lozim:

a) O’zbekiston Respublikasining “Ta`lim to’g’risidagi”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi qonunlari, boshqa qonun hujjatlarni Oliy va o’rta maxsus ta`lim Vazirligining, o’rta maxsus, kasb-hunar ta`limi Markazining qo’llanma va axborot, normativ materiallarini, buyruqlarini, ta`lim buyicha statistik ma`lumotlarni, Bola huquqlari haqidagi konventsiyani;

b) o’quvchilarning pedagogikasi va psixologiyasini asoslarini, kasbiy va amaliy faoliyatga tegishli masalalar bo’yicha meyoriy va uslubiy hujjatlarni, o’quvchilar bilan ishlash bo’yicha mavjud bo’lgan dasturlar, uslubiy adabiyotlar va tegishli fan, texnika va texnologiya yutuqlari;

v) tarmoq menedjmenti va marketingining hususiyatlarini;

g) mehnat qonunchiligi, mehnat muhofazasining qoidalari va meyorlarini, texnika xavfsizligi va yong’inga qarshi muhofazani.

14-MAVZU: KASB-HUNAR TA`LIMIDA ISHLAB-CHIQARISH AMALIYOTI

O’quv moduli birliklari

1. **Ishlab chiqarish amaliyotining maqsad va vazifalari.**

2. **Ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorgarlik va o’tkazish, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish va o’tkazish.**

3. **Ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish.**

ISHLAB CHIQARISH AMALIYOTNING MAQSADI

Ishlab chiqarish amaliyotining vazifalari: o`quvchilar mutaxassislik bo`yicha kasbiy ko`nikmalarga ega bo`lishi, konkret qishloq xo`jalik korxonalarining faoliyatini o`rganish asosida kasbiy fanlami o`rganishda olgan bilimlarini mustahkamlash, kengaytirish va tizimga keltirish, amaliy tajribaga ega bo`lish, kasbiy fikr yuritishni rivojlantirish, mehnat jamoasi sharoitida nutq faoliyatini shakllantirish va «Traktorchi», «Qishloq xo`jalik texnikasini ta'mirlash bo`yicha chilangar» va «Elektrgaz payvandchi» ixtisosliklarini egallash.

AMALIYOT NATIJASIDA O`QUVCHILAR QUYIDAGI KO`NIKMA-LARGA EGA BO`LISHLARI KERAK:

— mashinalarni tanlashi va mashina-traktor agregatlarini tuzish;
— mashina-traktor agregatlarida ishlash;
— mashina-traktor agregatlarining ish sifatini nazorat qilish;
— chorvachilik mashina va jihozlarini ishga tayyorlash, sozlash va ularda ishlash;
— traktor, kombayn, qishloq xo`jalik va chorvachilik mashina hamda jihozlariga kunlik va rejali texnik xizmat ko`rsatish;
— qishloq xo`jalik texnikasini ta'mirlash bo`yicha chilangarlik ishlarini bajarish;
— elektr va gaz payvandlash ishlarini bajarish;
— ish joylarini yig`ishtirish.

AMALIYOT NATIJASIDA O`QUVCHILAR QUYIDAGI BILIMLARGA EGA BO`HSHLARI KERAK:

— traktorlarga tashxis qo`yish;
— avtomobillarga tashxis qo`yish;
— qishloq xo`jalik mashinalari va o`zi yurar shosselarga texnik xizmat ko`rsatish;
— dvigatellarni ta'mirlashga qabul qilish, qismlarga ajratish va yuvish;
— yig`ish va sozlash ishlari;
— elektr jihozlariga texnik xizmat ko`rsatish.

AMALIYOT BO'YICHA HISOBOTNI RASMIYLASHTIRISH

Ishlab chiqarish amaliyotining natijalari bo`yicha o`quvchi barcha materiallarni umumlashtiradi, tahlil va xulosa chiqaradi hamda kundalik hisobotni rasmiylashtirishini yakunlaydi. Kundalik hisobotida o`quvchi tomonidan amaliyot davrida bajarilgan ishlarning turlari va hajmi ko`rsatiladi.

15-Mavzu: Ishlab chiqarish ta`limi tizimi

O'quv moduli birliklari

1. **Ishlab chiqarish ta`limining psixologo-pedagogik va metodik asoslari.**

2. **Amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishning psixologo-pedagogik asoslari va ularning turlari.**

3. **Ishlab chiqarish ta`limining umumiy tavsifi va uni aniqlovchi omillar.**

Kasb xunar kollejlarida ishlab chiqarish ta`limi tizimini tuzilmasi (QXM yo'nalish misolida)





MALAKANING HOSIL BO'LISH BOSQICHLARI

Birinchi bosqich - boshlang'ich ko'nikma. Harakat maqsadini va uni bajarishning ilgari egallangan bilim hamda ko'nikmalarga (odatda maishiy) tayanadigan izlanish yo'llarini anglash faoliyat sinov va xatolar yo'li bilan amalga oshiriladi;

Ikkinchi bosqich - yetarli bo'lmagan ko'nikmali faoliyat. Harakatni bajarishda muayyan faoliyat uchun xos bo'lmagan ilgari egallangan ko'nikmalardan foydalanish;

Uchinchi bosqich - alohida umumiy ko'nikma. Faoliyatning turli ko'rinishlari uchun zarur bo'lgan qator o'ta rivojlangan, ammo tor malakalar (o'z faoliyatini rejalashtira olish ko'nikmasi, tashkilotchilik malakasi va xokazo.)

Turtinchi bosqich - o'ta rivojlangan ko'nikma. Muayyan faoliyatga oid bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanish; faqat maqsadni emas, balki unga erishish yo'llarini tanlash sababini ham anglash;

Beshinchi bosqich - mahorat. Turli malakalardan ishonchli ijodiy ravishda foydalanish.



16-Mavzu: Ishlab chiqarish ta`limini tashkil etish va uni o'tkazish

O'quv moduli birliklari

1. **Ishlab chiqarish ta`limini rejalashtirishning vazifasi va mazmuni.**

2. **Ishlab chiqarish ta`limining metodik ta`minoti.**

3. **Ishlab chiqarish talimida yo'l yo'riqlar tizimi.**

Darsni maqsad va mazmunini aniqlash. *Darsning maqsad va mazmunini aniqlash vaqtida usta quyidagi ishlarni qiladi:*

• Yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash va ularni tuzatish uchun oldingi mashg'ulotlarni tahlil qiladi;

• Oldingi dars vazifalari qay darajada hal etilganini, kamchiliklarning sabablarini aniqlaydi va shu asosda navbatdagi darsni olib borish paytida qanday o'zgarishlar kiritish lozimligini belgilab oladi;

• Oldingi mashg'ulotlar natijalarini tahlil qilish asosida darsning ta`lim va tarbiyaviy maqsadini hamda dars uchun o'quv dasturidan kelib chikadigan vazifalarni belgilab qo'yadi;

• Dars strukturasi va darsning har bir kismi uchun zarur bo'lgan vaqtni qanday taqsimlanishini hamda dars davomida o'quvchilar bajarishi mumkin bo'lgan o'quv ishlab–chiqarish ishlarini aniqlaydi;

O’QUV USTASINING NAVBATDAGI DARSGA TAYYORGARLIK KO’RISH SXEMASI

DARSNING MAQSAD VA MAZMUNINI ANIQLASH PAYTIDA USTA QUYIDAGILARTI BELGILAB OLADI.

- O’quvchilar darsda o’zlashtirib olishi lozim bo’lgan kasbga doir bilimlar, malaka va ko’nikmalar mazmuni
- O’quvchilar bajariladigan o’quv – ishlab chiqarish ishlari
- Maxsus texnologiya, materialshunoslik va boshqa fanlarga oid mashg’ulotlar mazmuni
- Darsda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmuni va uning tavsifi

MODDIY – TEXNIKA TAYORLILIGI QUYIDAGILARNI O’Z ICHIGA OLADI

- Zarur ashyolar, materiallar, asbob-uskuna va mehanizm, moslamalar tehnikalarni tayorlab qo’yish
- O’quv – texnika xujjatlarini tayorlash
- Ko’rsatma qurollar tayorlash

METODIK TAYORGARLIK QUYIDAGILARNI O’Z ICHIGA OLADI

- ISHNING ENG SAMARALI METODLARINI YANLASH
- DARSDA O’QUVCHILAR GURUHINI UYUSHTIRISH SHAKLINI TANLASH
- DARS MAVZUSIGA OID TEXNIK VA PEDAGOGIK ADABIYOTLARNI O’RGANISH
- DARSDA NAMOYISH QILINISHI LOZIM BO’LGAN HARAKAT MASHQLAR

DARS REJASINI VA KONSPEKTNI TUZISH

ISHLAB CHIQARISH DARSINING TARKIBIY QISMLARI





Kirish yo'l-yo'riqlari ishlab chiqarish ta`limi dasturining mavzusi, mavzuchasi yoki bulimini o'rganishdan oldin beriladi. Bularning vazifasi o'quvchilarni o'quv-ishlab chiqarish ishlarini ongli ravishda eng samarali usullar bilan bajarishga tayyorlash, (brak) yaroqsiz va xatolarning olidini olish, xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishiga erishishdir.

Yakunlovchi yo'riqnoma berish paytida ustalar ko'pincha kompleks baholar qo'yadilar. (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llana olishi; ish usullarini to'g'ri bajara olishi; ish usularini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'rnida begilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish normalansa, belgilangan normalarni bajarish uchun), bunday baholar ijobiy natijalar beradi.

ILOVA 18.1.

17-Mavzu: Kasbiy fanlardan kurs va diplom ishlari

O'quv moduli birliklari

1. Kasbiy fanlardan kurs ishlarining maqsad va vazifalari.

2. Kurs va diplom ishlarining mavzularini tanlash va tasdiqlashga qo'yiladigan talablar.

3. Diplom ishlarni bajarish va unga qo'yiladigan talablar.

4. Diplom ishlarini rasmiylashtirish, himoya qilish va unga qo'yiladigan talablar.

Diplom ishining maqsadi:

Diplom ishini bajarishdan asosiy maqsad KXK bitiruvchilarini:

- Ilmiy,tehnikaviy va ishlab chiqarish masalalarini echishda nazariy va amaliy bilimlarni bir tizimga keltirish mustahkamlash va kengaytirish;

- Diplom ishida ko’zda tutilgan masalalarni echishda mustaqil ishlash ko’nikmalarini rivojlantirish va izlash,tagriba usullarini o’rganush;

- Zamonaviy ishlab chiqarish, fan va tehnika taraqqiyoti sharoitida o’quvchilarning mustaqil mehnat qilishga toyyorgarligini aniqlashdan iborat

Diplom ishining mazmuniga qo’yiladigan talablar.

1. Diplom ishi o’quvchining materiallarini qisqa, lo’nda mantiqiy asoslangan holda uddalay olishini ko’rsatishi, uning bezatilishi esa diplom ishi talablariga javob beradigan bo’lishi kerak.

2. Diplom ishini yozishda o’quvchi foydalangan manba (adabiyot va ining muallifi) haqida ma’lumot berishi kerak.

3. Diplom ishining hajmi 30-50 bet qo’lyozma (15-20 bet mashina yozuvi) matindan oshmasligi kerak. Namoyish qilinadigan material 2-6 varaq chizmada (format Al) ifodalangan bo’lishi kerak.

4. Diplom ishini bajarish uchun tanlangan mavzular o’zining yangiligi, orginalligi va dolzarbligi, shuningdek ishlab chiqarishda iqtisodiy va ilmiy samara berishi bilan ajralib turishi kerak.

5. Diplom ishi mavzusini tanlashda quyidagilarga etibor berish kerak:
- diplom ishi mavzusining yo’nalishi va mutahassislikka mosligi;
- tarmoqdagi yangi tehnologik jarayonlarni tashkil etishga mavzuning aloqasi;

6. Diplom ishining mavzusi qisqa va aniq bo’lishi, bilan birga bajariladigan vazifaning mohiyatini ifodalashi kerak.

7. Diplom ishi mazmuni yoki yoki uning rahbarini (zaruriyat tig’ilgan taqdirda)faqat diplooldi amaliyot davrida almashtirish mumkin.Buning uchun o’quvchi kollej direktori nomiga ariza yozadi.Diplom ishining yangi mavzusi yoki yangi rahbar kollej direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Diplom ishining tuzilmasi:

Diplom ishi quyidagi tarkibiy qisimlardan iborat:

Titul varag'i.

Topshiriq

Mundarija

Kirish.

Nazariy qisim.

Tehnologik qisim.

Jihozlar(tarmoq tehnologiyasi bo'yicha).

Iqtisodiy qisim.

Mehnat muhofazasi qisim.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

Ilovalar.

Diplom ishini himoya qilish

Diplom ishi himoya qilish oldidan ta`lim muassasasida o`rganilgan bilimlarni takrorlash kerak bo`ladi. Diplom himoyasi kuni ta`lim muassasasi direktorining buyrug`i bilan belgilanadi. Diplom ishi barcha xohlovchilar ishtirok etishi mumkin.

FAN BO`YICHA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

**Bilim olish jarayoni bilan bog`liq. ta'lim sifatini belgilovchi holatlar**: darsni yuqori ilmiy-pedagogik darajada tashkil etilishi, muammoli mashg`ulotlar o`tkazish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilgor pedagogik texnologiyalardan va multimedia qullanmalardan foydalanish, tinglovchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan, o`ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo`yib, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka yo`naltirish, erkin muloqotga kirishishga, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustuvorligini ta'minlaydi. Ta'lim samaradorligini ortshrishda fanlar bo`yicha ta'lim texnologiyasini ishlab chikishning konsepsiyasi aniq belgilanish va unga amal qilishi ijobiy natija beradi. Fanni o`qitishning maqsadi va ta'lim berish texnologiyasini loyixalashtirishdagi asosiy kontseptual yondashuvlar quyidagilardan iborat:

Fanning maqsadi «Kasbiy ta'lim metodikasi» fanini o`rganIshning maqsadi talabalarni kasbiy pedagogik tayyorgarlik ta'lim sohasini 5111000- «Kasb ta'limi» yo`nalishi ta'lim sohalari bo`yicha ta'lim olayotgan bakalavrlarda kasb-hunar kollejlari o`quvchilarining ta'limi va tarbiyasi jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yecha olishida hamda ularning texnologiya va ishlab chiqarish ta'limi darslarini olib borishiga yordam beradigan metodik bilim, ko`nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Fanning vazifalari: talabalarda kasbiy ta'lim metodikasining terminalogik tushunish apparatini shakllantirish;ta'limni tashkil qilish shakllari, maqsadi va vazifalarini loyihalash bo`yicha ko`nikma va malakalarni shakllantirish;
ta'lim jarayonining tashkil etilganligini tahlil qilish va uni samarali baholay bilish;
kasbiy ta'lim yo`nalishi bakalavrlarining metodik ishlari tizimi bo`yicha tushunchalarni hosil qilish jarayonida o`quvchilar faoliyatini tashkil etish va uni boshqarishni loyihalay olish bo`yicha malakalarni shakllantirish.

**Shaxsga yo`naltirilgan ta'lim**. O`z mohiyatiga ko`ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to`laqonli rivojlanishlarini ko`zda tutadi. Bu esa ta'limni loyiqalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog`lik. O`kish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshishga e'tibor qaratishni amalga oshiradi. Har bir talabaning shaxs sifatida kasbiy takomillashuvini ta'minlaydi. Ta'limning markaziga bilim oluvchi qo`yiladi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o`zida mujassam etmog`i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo`g`inlarini o`zaro bog`langanligi, yaxlitligi bilim olish va kasb egallashning mukammal bo`lishiga hissa qo`shadi.

**Faoliyatga yo`naltirilgan yondashuv**. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini jadallashtirish va intensivlashtirish, o`quv jarayonida barcha qobiliyat va imkoniyatlarni, tashabbuskorlikni ochishga yo`naltirilgan ta'limni ifodalaydi. Egallangan bilimlarning ko`nikma va malakaga aylanishi, amaliyotda tatbiq etilishiga sharoit yaratadi.

80. Katta hajmdagi o`quv materialini nisbatn uzoq vaqt davomida monologik bayon etish qanday usul deyiladi?

A) to`rt pog`onali V) bahs-munozara S) davra suhbati D) ma'ruza.

81. O`quvchilarni ikki guruhga bo`lgan holda biror mavzu bo`yicha o`zaro bahs fikr almashinuv tarzida o`tkaziladigan o`qitish qanday usul deyiladi?

A) to`rt pog`onali V) bahs-munozara S) davra suhbati D) ma'ruza

82. O`quvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida belgilangan mavzu bo`yicha axborot yig`ish tadqiqot o`tkazish va amalga oshirish ishlari qanday usul deyiladi?

A) loyixalash V) bahs-munozara S) davra suhbati D) ma'ruza

83. O`quvchilar mustaqil ravishda yo`naltiruvchi savollar yordamida ma'lumot yig`ishi, rejalashtirishi, amalga oshirishi qanday usulda amalga oshiriladi?

A) loyixalash V) bahs-munozara S) yo`naltiruvchi matn D) ma'ruza

84. G`oyalarni ishlab chiqish, biron bir muammoni echishda o`quvchilar tomonidan bildirilgan erkin va muloxazalarni to`plab, ular orqali ma'lum bir echimga kelinadigan usul qaysi?

A) loyixalash V) bahs-munozara S) yo`naltiruvchi matn D) «aqliy hujum»

85. «Aqliy hujum» metodining tarkibiy tuzilmasi necha bosqichdan iborat?

A) 3 V) 4 S) 5 D) 6

86. O`quvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko`rsatib berish qanday metod deyiladi?

A) rolli o`yini V) pinbord S) yo`naltiruvchi matn D) «aqliy hujum»

87. «Rolli o`yin» metodi necha bosqichdan iborat?

A) 3 V) 4 S) 5 D) 6

88. Guruxda o`quvchilarning soni ko`p yoki kam bo`lishi nimaga ta'sir qiladi?

A) o`qitishning faol usullaridan foydalanishga

V) darsning zerikarli bo`lishiga

S) o`quvchilar sonining axamiyati yo`q

D) barchasi to`qri

89. Guruxlarda ishlashda kichik topshiriqlarni bajarish uchun guruxning optimal tarkibi necha kishi bo`ladi?

A) 1-3 V) 2-4 S) 3-5 D) 4-6

90. Murakkab topshiriqlar bajarish uchun guruxning optimal tarkibi necha kishi bo`ladi?

A) 4-6 V) 5-7 S) 6-8 D) 7-9

91. Ta'lim vositalari necha turga bo`linadi?

A) 3 V) 4 S) 5 D) 6

92. Ta'lim vositalari qaysi javobda berilgan?

A) matnli, tasvirli va audio V) yordamchi va modelli

S) tabiiy va namunali D) barchasi to`g`ri

93. Nazariy va amaliy darslarda eng ko`p qo`llaniladigan oddiy texnik vosita nima?

A) parta, doska V) bo`r, doska S) stol, stul D) barchasi to`g`ri

94. Dars o`tishda eng qadimgi, arzon va boshqalarga nisbatan ko`p qo`llaniladigan vosita nima?

A) siyoxdon V) qalam S) bo`r D) kush pati

95. «Pinbord» so`zining ma'nosi nima?

A) inglizcha («pin» - maxkamlash, «board» - doska) doskaga maxkamlash

V) inglizcha («pin» - maxkamlash, «board» - doska) devorga maxkamlash

S) inglizcha («pin» - maxkamlash, «board» - doska) partaga maxkamlash

D) barchasi to`g`ri

96. Ta'lim texnologiyalarini o`quv jarayoniga joriy etishning asosiy shartlari nechta?

A) 3 V) 4 S) 5 D) 6

97. Ta'lim jarayonini tashkil etuvchi elementlar qaysi javobda berilgan?

A) o`quv maqsadi, kutilayotgan natijalar, o`qituvchi, o`quvchi, ta'lim mazmuni, ta'lim metodi, ta'lim vositalari, nazorat va baholash.

V) mazmun, metod, shakl, vosita.

S) ilmiylik, izchillik, uzviylik, tushunarlilik.

D) V va S javoblar

98. Noananaviy ta'lim modeli qanday qismlardan iborat?

A) hamkorlikda o`rganish, modellashtirish, talqiqot.

V) aqliy xujum, to`rt pog`anali, baxs-munozara

S) pinbord, flipchart, kodoskop

D) V va S javoblar

99. Real hayotda va jamiyatda yuz beradigan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko`rinishini sinf xonada yaratish va ularda o`quvchilarning shaxsan qatnashishi, hamda faoliyat evaziga ta'lim olishi qanday model deyiladi?

A) tadqiqot V) texnologik S) pinbord D) modellashtirish

100. O`quvchilarning o`z-o`zini boshqarish darajalari nechta bo`ladi?

A) 3 V) 4 S) 5 D) 6

101. O’zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta`limi tizimiga qaysi yildan o’tilgan?

A) 1998 yil 24 fevral;

V) 1997 yil 10 mart;

S) 1996 yil 21 iyun;

D) 1995 yil 3 dekab.r

102. Nazariy bilimdan ko’zda tutilgan asosiy maqsad:

A) o’quvchilarni zarur hajmdagi nazariy bilimlar bilan qurollantirish;

V) o’quvchilarni o’z kasbiga sadoqatini oshirish;

S) kasbiy uquvlarni hosil qilish;

D) kasbiy malakalarni hosil qilish.

103. Kasb-hunar kollejlarini bitiruvchilarga qanday malakaviy daraja beriladi?

A) to’liqsiz ma`lumotli ishchilar;

V) o’rta ma`lumotli ishchilar;

S) o’rta-maxsus ma`lumotli kichik mutaxassislar;

D) yuqoridagilarning barchasi to’g’ri.

104. Ishlab chiqarish ta`limidan ko’zda tutilgan asosiy maqsad:

A) o’quvchilarni zarur hajmdagi nazariy bilimlar bilan qurollantirish;

V) o’quvchilarni o’z kasbiga sadoqatini oshirish;

S) kasbiy uquvlarni hosil qilish;

D) kasbiy malakalarni hosil qilish.

105. Kasb-hunar ta`limi tizimini bitirgan kichik mutaxassislarga qanday talablar qo’yiladi?

A) texnikaviy, ma`lumotli va o’z kasbini puxta egallagan;

V) har tomonlama kamolga yetgan va g’oyaviy turg’un;

S) yangi texnikani o’zlashtira va takomillashtira oladigan;

D) yuqoridagilarning barchasi to’g’ri.

106. O’quvchining mehnat komponentlarini maksimal aniqlik, tezlik va maqsadga muvofiqlikda avtomatlashtirilgan usulda bajarishga qobilligi, bu:

A) bilimlar;

V) uquv;

S) kasb;

D) malaka.

107. Hodisalar to’g’risidagi, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlari haqidagi tasavvur hamda tushunchalari, bu:

A) uquv;

V) bilimlar;

S) malaka;

D) kasb.

108. Tegishli kasb va malaka darajasidagi ishchi bilishi kerak bo’lgan kasbiy uquv va malakalar, ixtisosiga tegishli ishlarni ongli ravishda hamda sifatli qilib bajarishi uchun zarur bo’lgan bilimlar ko’rsatiladigan ma`lumot, bu:

A) kasb tavsifnomasi;

V) malakaviy daraja;

S) namunaviy o’quv reja;

D) ishchi o’quv reja.

109. O’quvchining mehnat harakatini ayni sharoitda ma`qul harakat usullarini tanlab va qo’llab bajarishga va buning oqibatida mehnatda ijobiy natijalarga erishishga tayyor ekanligi, bu:

A) malaka;

V) kasb;

S) uquv;

D) bilimlar.

110. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to’g’risida”gi qonun kachon kabul kilingan.

A) 1992 yil 2-iyul;

V) 1994 yil 5-noyabr;

S) 1997 yil 29-avgust;

D) 1999 yil 5-may

111. Kasb-hunar kollejlari o’quv rejalari qanday fan bloklaridan iborat?

A) umumta`lim, qo’shimcha va maxsus fanlar;

V) umumta`lim, umumkasbiy va xorijiy fanlar;

S) umumta`lim, umumkasbiy va qo’shimcha fanlar;

D) umumta`lim, umumkasbiy va maxsus fanlar.

112. 18 va undan katta yoshdagi o’quvchilar uchun haftalik o’quv yuklamasi necha soat bo’lishi kerak?

A) 36 soat; V) 41 soat;

S) 46 soat; D) 51 soat.

113. Kasb-hunar kollejlarida nazariy ta`limga qancha foiz ajratilgan?

A) 40 foizgacha; V) 50 foizgacha;

S) 60 foizgacha; D) 70 foizgacha.

114. O’quv rejasiga kiritilgan har qaysi fandan nimani va qanday izchillikda o’rganish kerakligi, shuningdek, o’quvchilar bilib olishi lozim bo’lgan bilim, uquv hamda malakalar hajmi belgilab beriladigan o’quv hujjat, bu:

A) o’quv dasturi; V) o’quv reja;

S) kasb tavsifnomasi; D) mavzular rejasi.

115. Kasb-hunar kollejlarida malakali ishchilar tayyorlash mazmuni qanday asosiy talablarga javob berishi kerak?

A) o’qitish mazmuni milliy istiqlol g’oyasining maqsad va vazifasiga mos bo’lishi hamda ishchi kadrlar tayyorlashning istiqbolli bo’lishi;

V) o’qitish mazmunining ko’p tarmoqli va umumta`lim maktablarida o’qitish bilan izchillikda bo’lishi;

S) tayyorgarlikning keng profilli va nazariya bilan amaliyotning o’zaro bog’langan bo’lishi;

D) yuqoridagilarning barchasi to’g’ri.

116. O’quv rejasida qanday ma`lumotlar keltirilmaydi?

A) o’quv fanlari ro’yxati va ularni o’rganish tartibi;

V) o’quv fanlarni o’rganish vaqti;

S) o’quvchilar soni;

D) o’quv yili tuzilishi va mashg’ulotlar rejimi.

117. qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari maxsus fanlar blokiga ko'rsatilgan qaysi fanlar kiradi?

A) dehqonchilik va chorvachilik, traktor va avtomobillar;
V) metallar texnologiyasi, yonilg'i moylash materiallari;
S) transportda yuk tashish; dasturlar asoslari;
D) iqtisod va tadbirkorlik, ekologiya.

118. O'quv dasturlarining mazmuni qanday talablar asosida aniqlanadi?

A) o'quv yuklama; V) kasb tavsifnomasi;
S) fanlarning soniga; D) yuqoridagilarning barchasi.

119. Kollejning vazifalari, o'quvchilar tarkibi va o'qitish muddatlari to'g'risidagi davlat direktivlari asosida tuziladigan o'quv hujjat, bu:

A) kasb tavsifnomasi; V) o'quv reja;
S) o'quv dasturi; D) o'quv yuklama.

120. O'quv rejalarini tuzishda fanlarni o'rganishni qanday usullari hisobga olinadi?

A) parallel, ketma-ket va aralash o'rganish;
V) faqat parallel;
S) faqat ketma-ket;
D) faqat aralash.

121.«Ta'lim to'g'risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qachon qabul qilingan?

A) 1997 yil 29 avgust
V) 1991 yil 31 avgust
S) 1992 yil 8 dekabr
D) 1998 yil 29 avgust

122. O'quv rejasida ko'rsatilgangan fanlarni o'rgnish

A) Ixtiyoriy
V) Majburiy
S) Talaba tanlovi bilan
D) Qisman o'rganiladi.

123. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ruyobga chiqarish 1- bosqichi qaysi yillarga mo'ljallangan?

A) 1997-2001 yil
V) 2001-2005 yil
S) 2005 yil va undan keyin
D) 1995-1997 yil

124. Uzluksiz ta'lim tizimi necha turdan iborat?

A) 5 ta V) 7 ta S) 9 ta D) 3 ta

125. Talaba o'qish davomida har bir fandan eng kamida necha % to'plash kerak?

A) 55% V) 50% S) 71% D) 86%

126. Bitiruvchilarning umumiy bilimdonligi va kasbiy tayyorgarligiga talablar.
A) Fan buyicha talablar
V) Bakalavr yoki magistrga umumiy talablar
S) Malakaviy talablar
D) Kasbiy va mutaxassislak fanlari buyicha talablar

127. Akademik litsey, KHKning asosiy-me'yoriy-huquqiy xujjatiga nimalar kiradi?
A) Davlat talablar
V) O'quv rejalari
S) Malakaviy talablar
D) Davlat ta'lim standarti

128. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ruyobga chiqarishning 3-bosqichi qaysi yillarga mo'ljallangan?
A) 1997-2001 yil
V) 2001-2005 yil
S) 2005 va undan keyin
D) 2003-2006 yil

129. Joriy baholash maksimal ballning necha % ini tashkil etadi?
A) 30% V) 45 % S)20% D) 60%

130. Laboratoriya, amaliy ish, seminar va kollekviumlar, uy vazifalari va boshqalarda ta'lim oluvchining yutuq va kamchiliklarini baholash….
A) Oraliq nazorat
V) Yakuniy nazorat
S) Joriy nazorat
D) Barchasi

131. Namunaviy dasturlar kim tomonidan tasdiqlanadi?
A) Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi
V) Oliy o'quv yurti ilmiy kengashi
S) Vazirlar maxkamasi
D) Davlat test markazi

132. Muammo yoki masalani o'qituvchining maslahati yoki ularsiz mustaqil o'rganilish negizida talabaning o'quv faoliyati
A) Mustaqil ish
V) Mustaqil ta'lim
S) Amaliy mashg'ulot
D) Seminar

133. Talabalar tomonidan bilim, malaka va ko’nikmalarni egalashga yo’naltirilgan, o’qituvchilar va talabalarni faoliyatining o’zaro bog’liqlik usuli

A) Texnologik ta’lim
V) Pedagogik texnologiya
S) Ta’lim uslubi
D) Tarbiya uslubi

134. Amaliyotga effektiv ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilish bo’yicha qisqa va aniq tuzilgan takliflar metodik nashri

A) Metodik tayyorlash
V) Metodik tavsiyalar
S) Metodika
D) Qo’llanma

135. Butun fan buyicha yutuqlarni aniqlash va baholash

A) Oraliq nazorat
V) Joriy nazorat
S) Yakuniy nazorat
D) Tashki nazorat

136. Yakuniy baholashda «Yozma ish» larning natijalari talabalarga qancha muddatda ma’lum qilinadi?

A) 1 oygacha
V) 3 kun ichida
S) Yozma ish o’tkazilgan kun
D) 2 hafta ichida

137. Ushbu ko’rsatilgangan qismlar qaysi dars turiga kiradi?

1.Tashkiliy qism. 2.Muammoni bayoni. 3.Muammoni hal qilish yo’llarini ko’rsatish va hal qilish. 4.Natijalarni muhokama qilish. 5.O’qituvchining izohlashi va umumlashtirish. 6.Uyga topshiriq berish. 7. Darsni yakunlash.

A) Yangi bilimlarni o’rganish
V) Umumiy yoki aralash dars
S) Muammoli dars
D) Sinash-tekshirish darsi

138. Ko’nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustaxkamlash uchun harakatlarni ko’p marta takrorlash

A) Mashg’ulot
V) Mashqlar
S) Dars
D) Amaliyot

139. Ma’ruza – o’qitishning qaysi metodiga kiradi?

A) Nazariy o’qitish
V) Amaliy o’qitish
S) An’anaviy o’qitish
D) Bilimlarni o’rgatish metodi

140. Bilimlarni dastlabki o’rgatish metodlari qanday guruhlarga bo’linadi?
A) Rivojlantiruvchi, muammoli izlanishli
V) Reproduktiv, ijodiy namoyish
S) Reproduktiv, muammoli izlanishli
D) Rivojlantiruvchi, ijodiy namoyish

142. O’quvchilar bilimini tekshirishdan maqsad nima?
A) Bilimni mustaxkamlash
V) O’zlashtirish darajasini aniqlash
S) Bilimlarni o’rganish
D) Ko’nikma hosil qilish

142. O’quvchilarning o’quv fani materialini o’zlashtirish borasida qiladigan sistemali va ongli mehnati
A) O’qitish
V) O’qish
S) Ta’lim berish
D) Tarbiya berish

143. Kasb-hunar kollejlarida o’qitish qanday sistemada olib boriladi?
A) Kollektiv
V) Individual
S) Sinf-dars sistemasi
D) Erkin qatnashuv

144. Nutqning individual kamchiliklarini ko’rsating
A) Dimog’da so’zlash
V) So’zning oxirini yutib yuborish
S) «R» harfini to’g’ri ishlatmaslik
D) Ko’rsatilganganlarning barchasi

145. Maxsus fanlarni o’qitishda suhbatning qaysi turlaridan foydalanish mumkin?
A) Yangi bilimlarni bayon etishdan iborat suhbat
V) Bilimlarni mustaxkamlanadigan suhbat
S) Bilimlarni takrorlanadigan suhbat
D) Ko’rsatilganganlarning barchasi

146. Ko’rganda va tayyorlaganda ma’lumotni xotirada saqlash imkoniyati qanday?

A) 30%
V) 40%
S) 70%
D) 50%

147. O’quv materialini bayon etishda illyustratsiya sifatida ob’ekt va xodisalarni harakatda va rivojlanishda namoyon qilish, shuningdek, aniq idrok etishdan abstrakt imkon berishga undovchi vosita nima?
A) Diafilьm
V) Diapozitiv
S) O’quv kinosi
D) Magnitofon

148. O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini mustaxkamlaydigan, shaxs mustaqilligini rivojlantiruvchi, topshiriklarni mustaqil bajarishga ko’maklashuvchi vosita nima?
A) Kitob
V) O’yin
S) Kinofilьm
D) O’qituvchi

149. Kurs ishi uchun ham reyting ballari ajratiladimi?
A) Maksimal ballning 20-40% ini
V) Ajratilmaydi
S) Joriy nazorat bilan qo’shib baholanadi
D) 10% ajratiladi

150. O’qituvchining o’quv guruhiga uyushgan, tayyorgarlik darajasi bir xil tarkibi o’zgarmas o’quvchilar bilan mashg’ulot o’tkazish
A) Bilim berish
V) O’rganish
S) O’rgatish
D) Dars

151. O’quv materialini o’tishda qo’llanilayotgan asosiy o’qitish metodi bilan birga ikkinchi bir o’qitish metodining ayrim elementlaridan foydalanib ish kurish
A) Vosita
V) Usul
S) O’qitish metodi
D) O’rgatish metodi

152. qishining ishni yaxshi sharoitda maxsuldor, zarur sifatlar bilan tegishli vaqtda bajara olish qobiliyati
A) ko’nikma

V) Refleks
S) Malaka
D) Intizom

153. Murabbiy oldidagi vazifalarni ko’rsating
A) O’quvchilarga ixtisosni egallashlarida yordam berish
V) Ishlab chiqarish amaliyotini nazorat qilish
C) O’quvchilarni korxonaning ijtimoiy-siyosiy mehnat xayotiga jalb qilish
D) Ko’rsatilganganlarning barchasi

154. Ishlab chiqarish ta’limini operatsion tizimining markaziy mehnat instituti tomonidan qayta ishlangan formasi-
A) Operatsion- kompleks tizim
V) Motor-mashq tizimi
S) Ishlab chiqarish ta’limi tizimi
D) Maxsulot tizimi

155. Vazifalarni bajarishda mavjud bilim hamda tajribalarni uylab turmay zudlik bilan qo’llay olish, vaziyatni fahmlash - qanday malakaga kiradi?
A) Motorli malakalar
V) Sensor malakalar
S) Aqliy malakalar
D) Senor malakalar

156. Ishlab chiqarish ta’limi metodlari
A) Og’zaki
V) Ko’rgazmali
S) Amaliy
D) Hammasi

157. Metodika –bu …
A) Usul
V) Harakat
S) Metod va usullar yigindisi bo’lib, qandaydir harakatni amalda bajarish
D) O’qitish usuli

158. Malaka tavsifnoma qanday normativ xujjat hisoblanadi?
A) Ishchining bilimi va kasbiy saviyasiga qo’yiladigan asosiy talablar mujassamlashgan normativ xujjat.
V) Ishchining mahorati
S) Ishchining bilimiga qo’yiladigan talab
D) Mehnat ko’nikmasi

159. «Ta’lim to’g’risidagi qonun» qachon qabo’l qilingan?

A) 1997 yil 29 avgust
V) 1992 yil 8 dekabr
S) 2001 yil 2 mart
D) 1989 yil 21 dekabr

160. Talabalar bilimini qanday nazorat qilinadi?
A) Reyting tizimi asosida
V) Baho sistemasida
S) Yozma ishlarga asosan
D) Og'zaki, yozma

161. O'quv qo'llanma nima?
A) Darslik
V) Darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi buyicha tuzilgan va fan asoslarini chuqur o'zlashtirishni ta'minlovchi, ayrim bob va bo'limlarni kengrok yoritish, mashq va mashg'ulotlarni yechishga mo'ljallangan nashr.
S) Masala va mashqlar to'plami
D) Darslikka qo'shimcha

162. Kasb faoliyati ko'nikma va malakalari ta'minlaydigan fanlar bloki.
A) Umumkasbiy
V) Ko'nikma
S) Maxsus fanlar
D) Tabiiy ilmiy fanlar

163. O'quv adabiyotlarining shakl va turlari qaysi xujjat bilan aniqlanadi?
A) Davlat ta'lim standarti
V) Nizom
C) O'quv fan dasturi
D) O'quv adabiyotlari

164. Akademik litsey asosan qaerlarda ochilishi mumkin?
A) Mustaqil holda ochiladi.
V) Oliy o'quv yurti qoshida
S) Kollejlar qoshida
D) KHK bilan hamkorlikda

165. Oraliq baholash maksimal ballning necha %ini tashkil etadi?
A) 40% V) 20% S) 50% D) 10%

166. O'quv jarayonlarining nazariy bilimlarini mustaxkamlash, amaliy ko'nikma va o'quv hosil kiluvchi qismi-
A) Malakaviy amaliyot
V) Nazariy bilim
S) Laboratoriya

D) Amaliy mashg’ulot

167. Qaysi nazorat turi ta’lim oluvchiga o’z fikrini bayon etishning yaxshi amaliyotini egallashga imkon beradi?
A) Yozma nazorat
V) Og’zaki nazorat
S) Test nazorati
D) Tashqi nazorat

168. Ta’limni tashkil etishning asosiy shakli
A) Dars
V) Suhbat
S) Tarbiya
D) Uyga topshirik

169. O’qitish usullarini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan yordamchi o’quv
materiallari
A) Usul
V) Vosita
S) Apparat
D) Metodika

170. Og’zaki bayon, tushuntirish, suhbat, ma’ruza, adabiyotlarni o’qish, tajribalar o’tkazish, ob’ektlarni ko’rgazmali vositalarda namoyon etish, mashq, yozma ish, grafik ish, laboratoriya ishlari kabi metodlar tizimida dars o’tish qanday o’qitish metodiga kiradi?
A) An’anaviy o’qitish
V) Amaliy o’qitish
S) Nazariy o’qitish
D) Tadkikot usuli

171. Pedagogik o’yinlar nima maqsadda o’tkaziladi?
A) Bilimlarni o’rganish
V) Bilimlarni mustaxkamlash
S) O’quvchilar izlanadi
D) Mashqlar bajarish uchun

172. Bilimlarni mustaxkamlash, malaka va ko’nikmalarni shakllantirish metodi qanday guruxlarga bo’linadi?
A) Reproduktiv, ijodiy namoyish
V) Rivojlantiruvchi, muammoli izlanishli
S) Reproduktiv, muammoli izlanishli
D) Muammoli izlanishli, ijodiy namoyish

173. qishi tomonidan o’zlashtirilgan tushunchalar tizimi, ishlab chiqarish vazifalarini ongli ravishda bajarish uchun zarur bo’lgan ilmiy-texnik ma’lumotlar yig’indisi-
A) Avtomatlashgan bilimlar
V) Kasbiy bilimlar
S) Nazariy bilimlar
D) Ilmiy bilimlar

174. O’qituvchining o’quvchilarga bilim, o’quv va malakalar sistemasi berish, ularning bilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi faoliyati bu-
A) O’qitish
V) O’qish
S) Tarbiya berish
D) O’rganish

175. O’quv materialini bildirish asosiy metodlarini tanlang.
A) So’zlab berish
V) Tushuntirish
S) Ma’ruza
D) Ko’rsatilganganlarning hammasi

176. O’qituvchi nutqining ifodali bo’lishi uchun mimika va imo-ishoralar qanday ahamiyatga ega?
A) Materialni ma’naviy buyog’ini kuchaytiradi
V) Ob’ektga o’z munosabatini bildiradi
C) O’quvchilar etiborini aktivlashtiradi
D) Barcha javoblar to’g’ri

177. O’quvchilarni o’rganilayotgan ob’ektlar, xodisalar, jarayonlar to’g’risida yaqqol tasavvur hosil qilish metodida o’qitish maqsadida ishlatiladigan vositalar
A) Didaktika
V) Ko’rgazmali kurollar
S) Diafilьm
D) Ko’rsatma qo’llanmalari

178. Ko’rsatma qo’llanmani namoyish etish bu-
A) Vosita
V) Maqsad
S) Kurol
D) qo’llanma

179. Davlat ta’lim standarti, o’quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g’oyasi singdirilgan, muayyan o’quv fani

mavzulari to’liq yoritilgan, fan asoslarini mukammal o’zlashtirishga qaratilgan nashr qanday o’quv adabiyoti?

A) Darslik
V) O’quv qo’llanma
S) Ilmiy adabiyot
D) Uslubiy adabiyot

180. O’qitishning eng samarali, aktiv va zamonaviy usuli qaysi?

A) Faol o’qitish (interaktiv)
V) Muammoli o’qitish
S) Pedagogik o’yinlar
D) Kinofilьm kursatish

181. Kasb-hunar kollejlarida amaliy va laboratoriya mashg’ulotlarining shakllarini tanlash nimalarga bog’liq?

A) Moddiy texnika bazaga
V) O’qituvchiga
S) O’quvchilarning bilimiga
D) Hammasiga

182. Har bir dars nechta talabga javob beradi?

A) 5 ta V) 2ta S) 4 ta D) 6 ta

183. Mehnat va ishlab chiqarish ta’limida hosil qilingan hamda avtomatlashgan harakterga ega bo’lgan fe’l –atvor odatlari –

A) Mehnat odatlari
V) Mehnat intizomi
S) Xavfsizlik texnikasi
D) Ko’nikmalar

184. O’quv ustaxonalarida harorat qishda va yozda necha ^{0}S bo’lishi kerak?

A) qishda 10^0S, yozda 25^0S
V) qishda 8-10^0S, yozda 20^0S
S) qishda 15^0S, yozda 30-35^0S
D) qishda 15-16^0S, yozda 20^0S

185. Ishlarning ko’lami va xilma-xilligiga ko’ra ishchi kasblari necha turga bo’linadi?

A) 2 ta
V) 5 ta
S) 3 ta
D) 4 ta

186. Kompleks ishlarning necha turi mavjud?

A) 2 ta

V) 3 ta
S) 5 ta
D) 4 ta

187. Malakalar shakllanishining qator bosqichlari to’g’ri keltirilgan qatorni ko’rsating

A) Yetarli bo’lmagan ko’nikmali faoliyat; boshlang’ich ko’nikma; umumiy ko’nikma; mahorat; o’ta rivojlangan ko’nikma.

V) Boshlang’ich ko’nikma; yetarli bo’lmagan ko’nikmali faoliyat; umumiy ko’nikma; o’ta rivojlangan ko’nikma; maxorat

S) Mahorat; o’ta rivojlangan ko’nikma; umumiy ko’nikma; yetarli bo’lmagan ko’nikmali faoliyat; boshlang’ich faoliyat.

D) Boshlang’ich ko’nikma; umumiy ko’nikma; yetarli bo’lmagan ko’nikmali faoliyat; mahorat; o’ta rivojlangan ko’nikma.

188. Ishlab chiqarishda ko’rgazmali metodning shakllarini ko’rsating

A) Ko’rgazmali qurollar namoyishi
V) Mehnat usullarini kursatish
S) O’quvchilarning mustaqil kuzatishlari
D) Barchasi

189. Malakaviy ta’lim metodikasi qaysi fan bilan uzviy bog’langan?

A) Psixologiya
V) Pedagogika
S) Maxsus fanlar
D) Barcha javoblar to’g’ri

190. KHKda o’quv rejalashtirish xujjatlariga nimalar kiradi?

A) Perspektiv mavzular rejasi
V) Kundalik dars rejasi
S) Dars konspekti
D) Barchasi

191. Yakuniy baholashda yozma ishlar necha so’zdan iborat bo’ladi?

A) 800 ta
V) 600 ta
S) 1000-1200 ta
D) 1200 ta

192. Talabaning fan buyicha o’zlashtirishni baholash turlari

A) Yozma ish
V) Og’zaki surov
S) Suhbat asosida
D) Joriy baholash, oraliq baholash, yakuniy baholash

193. O’quv fani dasturi nima?

A) Normativ xujjat

V) O’qitish mazmuni, o’zlashtirish usullari, axborot manbaalari keltirilgan xujjat.

S) Fanning xajmi keltirilgan xujjat.

D) O’quv yurtini turi, maqsadi va vazifalar keltirilgan xujjat

194. Akademik litsey, kasb-hunar ta’limi qanday ta’lim?

A) Ixtiyoriy

V) Majburiy

S) Tanlov asosidagi

D) To’lov asosidagi

195. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ruyobga chiqarishning 2-bosqichi qaysi yillarga mo’ljallangan?

A) 1997-2001 yil

V) 2001-2005 yil

S) 2005-2006 yil

D) 2003-2005 yil

196. O’qituvchilar malakasi necha yilda oshiriladi?

A) 3 yilda

V) 5 yilda

S) 4 yilda

D) 1 yilda

197. Yakuniy baholash maksimal ballning necha %ini tashkil etadi?

A) 15% V) 20% S) 50% D) 10%

198. Har xil faoliyat va ularning natijalariga taalluqli qoida yoki tavsiyalarni o’z ichiga olgan xujjat ….

A) Me’yoriy xujjat

V) O’quv xujjati

S) Davlat ta’lim standarti

D) Metodik xujjat

199. Muayyan fan buyicha ta’lim mazmunining zaruriy minimumi va o’quv materialini o’zlashtirish darajasini ochib beruvchi xujjat nima?

A) Namunaviy o’quv dasturi

V) Ishchi o’quv dasturi

S) Davlat ta’lim standarti

D) Tematik reja

200. Malaka tavsifnomasini ta’minlovchi, ta’lim fanlarini birlashtiruvchi o’quv dasturlarining qismi
A) Ta’lim fanlari bloki
V) Ishchi o’quv dasturi
S) O’quv fani dasturi
D) Dars jadvali

201. Bilimlarni mustaxkamlash va ularni amaliyotda ishlata bilishga yunaltirilgan o’qituvchining faoliyati
A) O’rgatish
V) Materialni mustaxkamlash
S) O’qitish
D) Tarbiya

202. Fanning bir yoki bir necha bo’limlari bo’yicha talabalar bilimini aniqlash va baholash
A) Oraliq nazorat
V) Joriy nazorat
S) Yakuniy nazorat
D) Tashki nazorat

203. Qaysi nazorat turi ko’prok texnologik va ob’ektiv hisoblanadi?
A) Yozma
V) Og’zaki
S) Test
D) Tashki

204. Didaktik maqsadlar buyicha darsning necha turi mavjud?
A) 2 ta
V) 3ta
S) 4 ta
D) 5 ta

205. O’quvchilar faolligini oshirish, bilim, ko’nikma va malakalarni chuqur o’zlashtirishini ta’minlash uchun ta’lim jarayonida qanday metodlar qo’llaniladi?
A) Tushuntirish
V) Eslash
S) Muammoli bayon
D) Hammasi

206. Ko’nikmalarni muvaffaqiyatli hosil qilish asosan nechta shartlarga bog’liq?
A) 2 ta V) 4ta S) 6 ta D) 10 ta

207. Muammoli darsda muammolarning qaysilaridan foydalanish mumkin?
A) Muammoli savol
V) Muammoli vaziyat
S) Muammoli topshirik
D) Hammasidan

208. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish usulini ko'rsating?
A) Yozma
V) Og'zaki
S) Amaliy
D) Mustaqil ish

209. Kimyoda massaning saklanish qonunini ……. kashf etgan:
a) Butlerov v) Lomonosov
Bu test savoli qanday turiga kiradi?
A) Farklash testlari
V) Ochik testlar
S) Uxshatish testlari
D) Yopik testlar

210. Maktab va kasb-hunar kollejlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
A) Yosh avlodni o'qitish
V) Yosh avlodni tarbiyalash
S) Yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash
D) Hunar o'rgatish

211. O'qituvchi nutqi balandligi qaysi holda normal hisoblanadi?
A) Eng oxirgi qatorda o'tirgan o'quvchilar eshitadigan
V) Birinchi qatordagi o'quvchilar eshitadigan
S) Juda baland ovoz
D) O'ta past ovoz

212. O'quv jarayonini tashkil etishning savol- javobli metodini tanlang
A) Doklad
V) Ma'ruza
S) Suhbat
D) Xikoya

213. Ko'rish orqali qabul qilishda ma'lumotni xotirada saqlash imkoniyati qanday?
A) 30 % gacha
V) 40% gacha
S) 70 % gacha
D) 50 % gacha

214. O’qitishning texnika vositalariga nimalar kiradi?
A) Ko’rgazmali kurollar
V) Didaktik vositalar
S) Kinoproektor, epidioskop, diafilьm
D) Davriy sistema

215. Muayyan fanning o’quv dasturi buyicha kurs ishlari, laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan, hamda ushbu fan buyicha talabalarda zarur amaliy ko’nikmalar hosil qilishga mo’ljallangan, ta’lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi bilan nashr etiladigan o’quv adabiyoti
A) Metodik (uslubiy) ko’rsatma
V) Metodik qo’llanma
S) O’quv adabiyoti
D) Amaliy adabiyot

216. Reyting tizimining asosiy maqsadi nimadan iborat?
A) O’quvchilarni bilim ko’rsatkichlarini doimiy baholash, ularni faollashtirish, o’qishga intilish va imkoniyatini shakllantirish
V) Baholash
S) Baholarni taqqoslash
D) Raqobatlashtirish

217.Amaliy, laboratoriya mashg’ulotlari o’tkazishning qanday shakllari bor?
A) Yakka tartibda
V) Frontal-guruxli
S) Zvenoli
D) Ko’rsatilganganlarning barchasi

218. 1.Tashkiliy qism. 2.Yangi o’quv materialini bayon qilish va mustaxkamlash. 3.Uyga topshiriq berish. 4.Darsni yakunlash. Ushbu struktura darsning qaysi turiga kiradi?
A) Yangi bilimlarni o’rganish darsi
V) Umumiy dars
S) Bilimlarni mustaxkamlash darsi
D) Sinash-tekshirish darsi

219. Ishlab chiqarish malakalarining qanday turlari bor?
A) Sensor malakalar
V) Dvigatelli (motorli) malakalar
S) Senor dvigatelli malakalar
D) Ko’rsatilganlarning barchasi

220. Kollejlardagi o’quv ishlab chiqarish mashg’ulotlarini mufassal taxlili taxminiy rejasini ko’rsating

A) Vaqti va o’quv guruhi nomeri
V) O’quv yili
S) Ustaning ismi, sharifi, otasining ismi
D) Ko’rsatilganganlarning barchasi

Baholash mezonlari

5111000-Kasb ta'limi: qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va ularni qayta ishlash texnologiyasi ta`lim yo`nalishi 4-kurs talabalari uchun «Kasb ta`limi metodikasi» fanidan reyting ishlanmasi va baholash mezonlari

(1 soat uchun ball $\frac{70}{128} = 0.546$ **ball)**

T/r	**Nazorat turlari**	**Soni**	**Ball**	**Jami ball**
I	JB. 1.1. Amaliy mashg`ulotni bajarish. 1.1. Seminar mashg`ulotni bajarish. 1.2. TMI (O`qitishda o`yin usullarini qo`llash masalalarini o`rganish)	 13 6 2*	 (36x0,546)=20 (12x0,546)=6 (12x0,546)=14	**40**
II	OB. 2.1. Yozma ish. 2.2. TMI (1.Darsda va darsdan tashqari paytda o`quvchilar bilan muloqot va munosabat yo`llari va usullarini ishlab chiqish)	2 **1***	21 (38x0,546)=21 **1**x9*=9 (17x0,546)=9	**30**
III	YaB. 3.1. Yozma (3 ta savol)	1	30 (3x10)	**30**
Jami:				**100**

Maksimal ball-100 ball
Joriy nazorat –40 ball
Orali nazorat – 30 ball
Yakuniy nazorat – 30 ball

Saralash ball -55 ball
86-100 ball - «a'lo» baho
71-85 ball - «yaxshi» baho
55-70 ball - «qoniqarli» baho
0- 54 ball - «qoniqarsiz» baho

5111000-Kasb ta'limi: qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va ularni qayta ishlash texnologiyasi ta`lim yo`nalishi 4-kurs talabalari uchun «Kasbiy ta`lim metodikasi» fanidan baholash mezoni

1.I-joriy nazoratga 10 ball ajiratilgan bo'lib, u 18 soat amaliy mashg`ulot o`tkazilgandan so`ng amalga oshiriladi. Amaliy mashg`ulotlariga tayyorgarlik ko`rib, uning topshiriqlarini to`la sifatli bajargan talabaga a'lo darajada 8,6–10 ball beriladi, agar to`la bo`lmasa bajarish darajasiga qarab yaxshi darajada 7.1 –8,5 ballgacha, savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo ayrim kamchiliklari bo`lsa o`rta darajada 5,5 –7,0 ball beriladi.Talaba 5,4-0 ball to'plasa qoniqarsiz baholanadi.

*****Izox: Talaba 1-joriy nazoratda to`plashi kerak bo`lgan maksimal **6 bali** mustaqil ishi bali hisoblanadi

2.II-joriy nazoratga 10 ball ajiratilgan bo'lib, u 18 soat amaliy mashg`ulot o`tkazilgandan so`ng amalga oshiriladi. Amaliy mashg`ulotlariga tayyorgarlik ko`rib, uning topshiriqlarini to`la sifatli bajargan talabaga a'lo darajada 8,6–10 ball beriladi, agar to`la bo`lmasa bajarish darajasiga qarab yaxshi darajada 7.1 –8,5 ballgacha, savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo ayrim kamchiliklari bo`lsa o`rta darajada 5,5 –7,0 ball beriladi.Talaba 5,4-0 ballgacha to'plasa qoniqarsiz baholanadi.

*****Izoh: Talaba 2-joriy nazoratda to`plashi kerak bo`lgan maksimal **4 bali** mustaqil ishi bali hisoblanadi.

3.III-joriy nazoratga 6 ball ajiratilgan bo'lib, u 12 soat amaliy mashg`ulot o`tkazilgandan so`ng amalga oshiriladi. Amaliy mashg`ulotlariga tayyorgarlik ko`rib, uning topshiriqlarini to`la sifatli bajargan talabaga a'lo darajada 5,16–6 ball beriladi, agar to`la bo`lmasa bajarish darajasiga qarab yaxshi darajada 4,26 –5,1 ballgacha, savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo ayrim kamchiliklari bo`lsa o`rta darajada 3,3 –4,2 ball beriladi.Talaba 3,24-0 ballgacha to'plasa qoniqarsiz baholanadi.

*****Izoh: Talaba 3-joriy nazoratda to`plashi kerak bo`lgan maksimal 4 bali mustaqil ishi bali hisoblanadi.

2.Oraliq baholash yozma tarzda o`tkaziladi, har bir oraliq nazoratda 6 tadan savolga javob berish so`raladi.

2.1. **I- Oraliq** baholash yozma tarzda 20 soat ma`ruza o`tkazilgandan so`ng amalga oshiriladi. Oraliq baholash maksimal 11 ball, 5 ta savoldan iborat, har bir savol 2,2 ball bilan baholanadi, agar savollar mohiyati to`la ochilgan bo`lsa, javoblari to`liq va aniq hamda ijodiy fikrlari bo`lsa 9,46 –11 bll savolning mohiyati umumiy ochilgan asosiy faktlar to`g`ri bayon etilgan bo`lsa 7,81 – 9,35 ballgacha, savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo ayrim kamchiliklari bo`lsa 6,05 –7,7 ball beriladi. Talaba 5,94-0 ballgacha to'plasa qoniqarsiz baholanadi.

2.1. **II- Oraliq** baholash yozma tarzda 18 soat ma`ruza o`tkazilgandan so`ng amalga oshiriladi. Oraliq baholash maksimal 10 ball, 5 ta savoldan iborat, har bir savol 2 ball bilan baholanadi, agar savollar mohiyati to`la ochilgan bo`lsa, javoblari to`liq va aniq hamda ijodiy fikrlari bo`lsa 8,6–10 ball, savolning mohiyati umumiy ochilgan asosiy

faktlar to`g`ri bayon etilgan bo`lsa 7.1 –8,5 ballgacha, savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo ayrim kamchiliklari bo`lsa 5,5 –7,0 ball beriladi. Talaba 5,4-0 ballgacha to'plasa qoniqarsiz baholanadi.

2.2 *Talabaning mustaqil ishi har bir talabaga individual referat mavzusi beriladi va berilgan mavzu bo`yicha referat tayyorlanadi, har bir referat maksimal 9 ball bilan baholanadi:

- referatda mavzu to`liq ochilgan, to`g`ri xulosa chiqarilgan va ijodiy fikrlari bo`lsa

7,7-9 ball

- mavzu mohiyati ochilgan, faqat xulosasi bor-6,39-7,65 ball
- mavzu mohiyati yoritilgan, ammo kamchiligi bo`lsa 4,45-6,3 ball beriladi

Har bir talabaga individual mavzu berilganligi sababli referat yozgan talaba alohida mezon asosida baholanadi va darsdan tashqarii vaqtda uni himoya qiladi. Referatni himoya qilish jarayonida qatnashayotgan talabalar esa alohida mezon asosida baholanadi. Talaba referat yozib himoya qilganligi, boshqa referatlarga bildirgan munosabati uchun 9 ball to`plashi mumkin.

3. Yakuniy baholash

3.1.Yakuniy baholashyozma tarzda o`tkaziladi, talabalarga berilgan 3 ta savol, har bir 10 ball bilan baholanadi,maksimal 30 ballik tizimda baholanadi.

3. 2. Yakuniy baholashda talaba 3 ta savolga yozma javob berishi lozim har bir yozma savolga 10 ball ajratiladi: (bahorgi semester uchun)

- agar savol mohiyati to`la ochilgan bo`lib, mavzu bo`yicha talabaning tanqidiy nuqtai nazariy bayon qilingan bo`lsa - 8.6-10 ball
- savol mohiyati to`la ochilgan, asosiy fikirlar to`g`ri bayon qilingan, lekin ayrim kamchilliklari bor bo`sa bo`lsa 7.1-8.5 ball
- berilgan savolda javoblar umumiy va kamchilliklar ko`p bo`lsa 5.5-7 ball

O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 26 avgustda 1981-1-son bilan ro`yxatga olingan va O`zbekiston Respublikasi Oliy va maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 25 avgustda 333-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan

«Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to`g`risida» Nizomga asosan:

*Fan bo`yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy balning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to`plagan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

(Izox: Joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ball 70 balni tashkil etadi, ushbu balning 55% 39 balni tashkil etadi.)

Joriy va oraliq nazorat turlari bo`yicha 55 va undan yuqori ballni to`plagan talaba mazkur fanni o`zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo`yicha yakuniy nazoratga kirish yoki kirmasligi talabaning ixtiyorida qoladi.

* Joriy va oraliq nazoratlarda saralash ballidan kam ball to`plagan va uzrli sabablarga ko`ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun navbatdagi shu nazorat turigacha, so`nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo`lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o`qishni boshlaganidan so`ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

* Talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo`yicha to`plangan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo`lsa yoki semestr yakunida joriy. oraliq va yakuniy nazorat turlari bo`yicha to`plangan ballari yig`indisi 55 balldan kam bo`lsa. u akademik qarzdor hisoblanadi. Akademik qarzdor, talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o`zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida fanni o`zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko`ra belgilangan tartibda rektorning buyrug`i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

5111000-Kasb ta'limi: qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va ularni qayta ishlash texnologiyasii ta`lim yo`nalishi 4-kurs talabalari uchun «Kasbiy ta`lim metodikasi» fanidan reyting baholash jadvali

Nazorat turi	Nazorat shakllari	Har bir nazorat uchun maks. Ball	Nazorat soni	Nazorat shakli bo'yicha belgilangan maks. Ball	Saralash ball	O'tkazish muddati
Joriy nazorat (JN)	1. Amaliy	10	1	10	5,5	
	2. Amaliy	10	1	10	5,5	
	3. Amaliy	6	1	6	3,3	
	4.Mustaqil ta'lim	14	1	14	7,7	
ON	1.Yozma ish	11	1	11	6,05	
	2.Yozma ish	10	1	10	5,5	
	3.Mustaqil ta'lim	9	1	9	4,95	
YAN	Yozma ish	30	1	30		
Hammasi		100	8	100		

Fanni o’ziga xosligiga qarab o’rganish bo’yicha materiallar

Fan (modul) bo`yicha yakuniy xulosalar.

Ushbu o`quv-metodik majmua (UMM)si «Kasbiy ta`lim metodikasi»fanidan 5111000-Kasb ta’limi: Qishloq xo`jaligi maxsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi yo`nalishi 3-kurs talabalari uchun tayyorlangan.

O`quv-metodik majmuada fanning maqsad va vazifalari, talaba egallashi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalar aniq yoritib berilgan. Shuningdek o`quv-metodik majmuada fan bo`yicha reyting ishlanmasi va baxolash mezonlari, mavzular texnologik xaritasi, ma'ruzalar, amaliy va mustaqil ish mashg`ulotlari mavzulariga oid rejalar, tayanch so`z va iboralar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati, Fan bo`yicha nazorat savollari (yozma, og`zaki va test), yakuniy xulosalar, fanda echimini kutayotgan ilmiy muammolar hamda informastion-metodik ta'minot: darslik va qo`llanmalar, ilmiy ishlar va dissertastiyalar ro`yxati, internetdan olish mumkin bo`lgan axborotlar saytlari va qo`shimcha ma'lumotlar keng yoritib berilgan.

O`quv –metodik majmua DTS va o`quv dasturida talabalar tomonidan egallanishi lozim bo`lgan bilim,ko`nikma va malakalarni yuzaga chiqaruvchi ma'lumotlarni saqlagan,uni amalga oshirish loyihasi- texnologik xaritasi ko`rsatilgan,o`zlashtirish jarayonini nazorat qilish imkoniyatini ta'minlaydigan hamda informastion-metodik ta'minoti ko`rsatilgan talabalar uchun dastlabki yo`naltiruvchi o`quv manbasi hisoblanadi

Fanda echimini kutayotgan ilmiy muammolar.

Fanda echimini kutayotgan ilmiy muammolar quyidagilarni tashkil etadi:

- Kasbiy ta`lim metodikasi» fani yo`nalishi bo`yicha himoya qilingan hamda ilmiy izlanishlar olib borilayotgan nomzodlik va doktorlik dissertastiyalaridan amalda foydalanishni yo`lga qo`yish.,
- Fanga doir etuk mutaxassislarning ishlanmalari (darslik,o`quv,uslubiy, risola va ilmiy maqolalari)ni dars jarayoniga pedagogik va yangi axborot- kommunikastion texnologiyalar orqali qo`llashga erishish.,
- Talabalarninng mustaqil ishlarini (kunning ikkinchi yarmida) to`liq pedagogik va yangi axborot-kommunikastion texnologiyalar orqali bajarishga erishish.,

- Dars jarayonida mavzularni o`tishda shu mavzuga doir alternativ mavzulardan internet saytlari orqali foydalanish.

Informatsion – metodik ta'minot: darslik va o`quv qo`llanmalar, qo`shimcha manbalar, ilmiy ishlar va dissertastiyalar ro`yxati, elektron ta'lim resurslari, didaktik materiallar, internetdan olish mumkin bo`lgan qo`shimcha axborot resurslari

Informatsion texnik vositalar.

O`qitish jarayonida quyidagi informatsiya-texnik vositalardan foydalaniladi: knrgazmali qurollar, maket va maniqenlar, shaxsiy ximoyalanish vositalari, motopompalar va birlamchi nt nchirish vositalari kinofilmlar, videofilmlar, diafilmlar va slaydlar, internet saytlari.

Asosiy adabiyotlar:

1.Karimov I.A. «Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: «Sharq», 1997.

2.G`ulomov S. Kuch-bilim va tafakkurda «O`AJBNT Markazi ,2002.-285 b.

3.Oliy ta'lim. Me'yoriy xujjatlar to`plami: S.S.G`ulomov tahriri ostida; Tuzuvchilar:B.X.Raximov, 4.Sh.D.Jonboev va boshq. –T: «sharq», 2001.-672b.

5.Oliy ta'lim. Me'yoriy xujjatlar to`plami: S.S.G`ulomov tahriri ostida; Tuzuvchilar: Sh.A.Ayupov, B.X.Raximov va boshq. -T: «Sharq», 2003.-752b.

6.R.Ishmuhamedov va boshqalar Ta’limga innevasion texnalogiyalar T.: Istedod,2008-180b

7.A.Mamatkazina va boshqalar yangi pedagogik texnologiya asoslari (Interfaol darslar) T:Falsafa va huquq instituti nashryoti,2007

8.O.Aabduqudusov va b. Kasb-hunar pedagogikasi T.: O’MKHTTKMO va UQT instituti nashryoti,2011

9.Mirsaidov K. «Maxsus fanlarni o`qitish va ishlab chiqarish ta'limi». T.: «O`qituvchi», 1996.

10.Mirsaidov K, Xidirov O`, Choriev R. «Ishlab chiqarish ta'limi». T,O`qituvchi», 2002.

11.Olimov Q.T., Uzoqova L.P., Halimov E.Z., Rustamov R.M., Ashurova S.Y. Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi. T.: «Fan», 2004, -120 b.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. A.Xoliqov Pedagogik mahorat. Toshkent, “Tafakkur bo`stoni”, 2011 y .
2. T.Atamuratova va b. Mutaxassislik fanlarni o`qitish metodikasi. T.,Yangi asr avlodi. 2008. -180 b,
3. P.M.Po`latova Maxsus pedogogika. T.:G`afur G`ulom, 2005 y., 223 b.
4. O`.M.Asqarova va boshqalar. Pedogogika. T.”TALQIN” , 2008., 287 b.
5. M.Ochilov. Oliy maktab pedagogikasi. T.: Aloqachi, 2008 y.
6. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: Aloqachi, 2008 y.
7. J.Hasanboyev, X.A.To`raqulov va boshqalar Pedagogika Toshkent, “Nosir”, 2011 y.

Internet saytlari:

1.	www. Google. uz.	12.	www.mail.ru
2.	www. Ilm. uz.	13.	www.referat.ru
3.	www. Ziyo-NET. uz.	14.	www.yandex.ru
4.	www. Tosh DPU. uz.	15.	www.cer.uz
5.	http://e-lib.qmii.uz/	16.	www.google.uz
6.	http://www.konserv-zavod.ru/	17.	www.students.ru
7.	http://www.orhei-vit.ru/products.htm	18.	www.ref.ru
8.	www.suhofrukti.ru	19.	www.daewoo.com
9.	www.rambler.ru	20.	www.age.uz
10.	www.lupa.ru	21.	www.bilim.uz
11.	www.pgs.ru	22.	www.reviev.uz
			www google. uz. www ziyonet

M.X. Shomirzaev, Kasbiy ta`lim metodikasi.O’quv-uslubiy majmua.– Termiz, TerDU, 2018 y.,316 b.

Taqrizchilar:

TerDU, " Umumtexnika fanlari va texnologiya " kafedrasi mudiri, dotsent S.X.Xolyarov,

TerDUDF, “Umumtexnika fanlari va texnologiya” kafedrasi dotsenti., t.f.n. U.Ch.Eshqorayev,

TerDU, " Umumiy pedagogika" kafedrasi mudiri, dotsent M. Bozarova.

Масъул муҳаррирлар: A.Omohturdiyev, filologiya fanlari doktori
B.M.Saidov , katta o’qituvchi
A. E. Xudayqulov, katta o’qituvchi

Texnik muxarrir: A. J. Qurbonov

Musahhix: J. D. Avazov

Saxifalovchilar: R. Q. Xudayqulov, R. M. Xaydarov

Terishga 20.07.2018 yilda berildi. Bosishga31.07.2017 yilda ruxsat berildi. Bichimi 60x84 /8 (210x297 mm) Ofset qog’ozi. Pragmatik TAD garniturasi Shartli bosma tabog’i 371 № 215-sonli shartnoma.
Adadi 30 nusxa.

To’plam“Xamidiy” xususiy firma bosmaxonasida chop etildi
BOSMAXONA MANZILI:
Termiz shahar At-Termiziy ko’chasi, 14/15-uy
Тел: (+998 91) 577 – 98 - 39; (0376) 224 – 13 - 64;
Факс: (0376) 224 – 08 – 32

E-mail: mingbaeva71@mail.ru